БОБУР НОМЛИ ХАЛҚАРО ЖАМОАТ ФОНДИ

ЭЗГУЛИК ЙЎЛИ

БОБУР НОМЛИ ХАЛҚАРО ЖАМОАТ ФОНДИ ВА ИЛМИЙ ЭКСПЕДИЦИЯСИНИНГ 30 ЙИЛЛИГИГА БАҒИШЛАНАДИ

Эзгулик йўли. Бобур номли халқаро жамоат фонди ва илмий экспедициясининг 30 йиллигига бағишланган "Бобур жамоат фонди: Изланиш, натижа, режалар" мавзусидаги халқаро анжуман материаллари."Andijon nashriyot-matbaa" МЧЖ. 2022 йил. 336 бет.

Масъул муҳаррир: Қамчибек КЕНЖА

Муҳаррирлар: Матлуба ЮСУПОВА
Холида ШАМСИЕВА

© Бобур номли халқаро жамоат фонди, 2022 й.
© "Andijon nashriyot-matbaa" МЧЖ, 2022 й.



Эй ел, бориб аҳбобқа номимни дегил!
Ҳар ким мени билса, бу паёмимни дегил!
Мендин демагил гар унутилғон бўлсам,
Ҳар кимки мени сўрса, саломимни дегил!

БОБУРШОҲНИНГ ВОРИСИ

Ҳамидулла Болтабоев,
Ўзбекистон Миллий университети профессори,
филология фанлари доктори

Ўзбек адабиёти жаҳонга кўплаб улуғ шоир ва мутафаккирларни етказиш баробарида улар ижодининг халққа етиб бориши учун кўмакчи фидойи олимларни ҳам етиштирди. Мирзо Улуғбек илмий мероси унинг садоқатли шогирди Али Қушчи воситасида бутун дунёга тарқалгани каби Ҳазрат Навоий ижоди Ғиёсиддин Хондамир ёки Заҳириддин Муҳаммад Бобур воситасида буюклигини муҳташам суратда етказгани барчага маълум. Худди шу каби улуғ шоҳ ва шоир, аллома ва саркарда Заҳириддин Муҳаммад Бобур илмий ва адабий меросининг бизгача етиб келиши, жаҳон адабиётидан ўрин олишида юзлаб адиб ва олимларнинг хизмати бор. Бироқ орадан беш юз йилдан мўлроқ вақт ўтгандан кейин ҳам Бобуршоҳ меросини тўлиқ ҳолда халқимизга етказиш, унинг ҳаёти, фаолияти, ижоди ҳақидаги дунёнинг ҳар тарафига сочилиб кетган манбаларни тўплаш, алломаларнинг фикрларини жамлаш осон иш эмас. Мана шу мураккаб ва заҳматли ишга бел боғлаган олим ва жамоат арбоби, профессор Зокиржон Машрабов бўлади. Бу улуғ фидойи олимнинг фаолияти ҳақида сўз юритишдан аввал қисқа таржимаи ҳолига оид маълумот бермоқчиман.

Зокиржон Машрабов 1933 йили Андижон вилояти, Андижон туманида туғилган. Асл касби геолог олим, геология-минерология фанлари номзоди (1960). 1965-1978 йилларда касбига кўра фаолият юритгандан сўнг XX аср 70-йилларининг охирларида Андижон шаҳар ижроия қўмитаси раиси вазифасига тайинланади, 1985 йилда Ўзбекистон Фанлар академиясининг илмий-ишлаб чиқариш маркази

раҳбари лавозимида ишлайди. Айни шу даврдан бошлаб, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодини жиддий тадқиқ этишга ва Андижон тумани, Боғишамол даҳасида Бобур боғини яратишга киришади. Бу эзгу ният амалга ошиши осон кечмаган, шунга қарамай, қисқа муддатда Бобур боғи барпо этилиб, Халқаро Бобур жамоат фонди биноси ҳам мана шу боққа кўчирилди. Боғ таркибида "Бобур ва жаҳон маданияти" музейи ҳам ташкил этилди. Ушбу музейга ўнлаб қўлёзма ва босма нашрлар олиб келиниб, Бобур ижодини ўрганувчи муҳташам илмий марказга айланди.

Зокиржон ака раислигида ташкил этилган Бобур номидаги халқаро жамоат фонди нодавлат нотижорат жамоат ташкилоти ҳисобланиб, 1992-йилда Андижон шаҳрида таъсис этилган. У фаолияти давомида ўз маданияти тарихида чуқур из қолдирган юзлаб аллома ва адиблар меросини ўрганиш, асарларини жамлаш, хориждаги музей ва кутубхоналардан уларни мамлакатга, хусусан, Бобур музейига қайтариш ишлари билан фаол шуғулланиб келади. Ҳозирда бу жамоат фондининг Покистон (1996), Германия (1999), Россия (1999), Қирғизистон (2000), Япония (2001), Ҳиндистон (2001), Буюк Британия (2001), Хитой (2002), Афғонистон (2003), Озарбайжон (2009), Қозоғистон (2009), Венгрия (2013), Швеция (2014), Туркия (2016) каби мамлакатларида бўлимлари фаолият юритади. Бу бўлимларнинг ҳаммаси Зокиржон ака Машрабов ўша мамлакатларда бўлиб, Бобур меросига оид асарларни ўрганиб, давлат маъмурлари билан суҳбатлашиши натижасида амалга оширилгандир. Бундай кўламли фаолият юритаётган Халқаро жамоат фонди Бобур номидаги халқаро илмий экспедиция (1992) ташкил этган бўлиб, у 40 га яқин илмий сафарлари натижасида Бобур асарларининг ноёб қўлёзмаларини келтирган, бобурийлар даврига оид юзлаб ҳужжатлар ва ашёлар орқали Заҳириддин Муҳаммад Бобурдай жаҳонгашта олим ва давлат арбобига

муносиб тарзда уни жаҳон миқёсида тадқиқ этишга киришилгани барчага маълум ҳақиқат[1].

Ўтган йиллар мобайнида 30 га яқин халқаро ва республика миқёсида илмий-амалий анжуманлар ўтказилиб келинди, уларда замонавий бобуршуносликнинг турли масалалари кун тартибига қўйилди. Табиийки, ҳеч бир анжуман йўққи, устоз Зокиржон Машрабов шафеълигида ўтказилмаган бўлсин. Ташкил қилиш баробарида ҳар бир анжуман иштирокчиси билан алоҳида суҳбат қуриб улгуради, унинг анжумандаги мавзуидан тортиб, ўз фаолиятида олиб бораётган ишларигача хабар топади. Натижада ҳар бир анжуманда бобуршуносликни бойитадиган янги-янги топилмалар, илмий янгиликлар билан анжуманлар иши тараққий этиб боради. Илм ривожланади, тадқиқотлар ўз нашрини топади, янги илмий йўналишлар сари қадам ташланади. Биргина фонд раиси томонидан шу кунга қадар дунёнинг ҳар тарафларида сочилиб ётган, айримлари мутахассисларнинг ҳам эътиборига тушмаган ўнлаб асарлар топилиши баробарида З.Мансурий (Эрон), Э.Мано (Япония), В.Стамлер (Швейцария), С.Берк, У.Текстон (АҚШ), Л.П.Шарма (Ҳиндистон), Ю.Билол, М.Текжан (Туркия), Ш.Ёрқин, Ҳ.Ёрқин (Афғонистон) каби олимларнинг ишлари аниқланди ва жаҳон бобуршунослигининг олтин фондига киритилди.

Зокиржон Машрабов илмий ва амалий фаолиятининг барча қирраларини биргина мақола доирасида кўрсатиб беришдан ожизман, бироқ бевосита иштирок этиб, кўзимиз билан кўриб, қалбан ҳайратга тушиб кечирган айрим нуқталарни тилга олмаслик мумкин эмас.

Аввало, Бобур ижодий-илмий меросини тиклаш масаласининг ҳар доим, ҳар онда у кишининг эътиборида

[1] Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Т.: Шарқ НМАК, 2017. – Б. 120-129.

туришини таъкидлаш лозим. Қаерда ва қачон Бобурнинг бирор асари сақланаётганлигидан ёки у ҳақда тадқиқот яратилганидан хабар топсалар, устоз у ерга “учиб” боради ёки ўша ташкилот ва шахс билан алоқа ўрнатади. Нима қилиб бўлса ҳам асарни топишга интилади, юртига қайтариш чораларини излайди. Бунинг учун минглаб километрлар нафақат автомобилда, балки пиёда юришдан ҳам чарчамайди. Фақат изланиш натижа бериши керак, айрим ҳолларда асар изланиши баробарида излангани эмас, балки янгиси топилиши, айнан Бобурнинггина эмас, балки бошқа буюк алломанинг иши ёки қўлёзмаси ҳам топилиши мумкинлигини уларнинг амалий фаолияти кўрсатди. Экспедициянинг дастлабки йилларида У.Эрскиннинг хатто асарлари рўйхатига кирмаган “Эрон ва Бобур” (З.Мансурий таржимасида) асари топиб келтирилди[1]. Ёки Хитойдан “Асрори мусиқий”ни излаш баробарида Исматуллоҳ Мўъжизийнинг “Таворихи мусиқиюн” асари топилди ва уларни дарҳол таржима ва табдил қилиш ишларини бошладилар[2]. Бу каби Бобур номи билан боғлиқ жаҳонда нимаики асар бўлса, улар топиб келтирилиши билан чекланилмасдан, балки ўзбек тилига таржима этилиб, нашр этилиши ишларига ҳам бош-қош бўладилар.

Бу тинимсиз изланишлар самара бераётганидан, Зокиржон ака 90 ёш арафасида ҳам ҳар бир ёш олимга намуна бўларлик даражада ғайрат билан ишланаётганидан хабардорсиз. Айни ҳолни кўриб, яна ишлагингиз, ҳаракатда бўлгингиз келиб кетади. Бу қадар ғайрат ва шижоат, ҳаракат ва меҳнат кўпчилик олимларимизда бўлса эди, нафақат Бобуршоҳнинг мероси, балки бутун ўзбекнинг борлиғи дунёга етиб борган бўлар эди.

[1] Эрскин У. Эрон ва Бобур. 17-нашр. – Теҳрон, 1992 (форс тилида).
[2] Мўъжизий И. Таворихи мусиқиюн. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2008.

Шунча билим ва маълумот соҳиби бўлиш билан бирга уларни китоб ёки мақола ҳолида ёзиб қолдиришининг ўзи бир ҳикмат. Мана шу маънода мен З.Машрабовнинг “Асрларни бўйлаган Бобур” (ҳаммуаллиф С.Шокаримов, 1997)[1], “Бори элға яхшилиғ қилғил” (2013, 2021)[2], “Андижон тарихи” (Б.Матбобоев билан ҳамкорликда, 2016)[3] китобларини ёдга олгим келади. Бу китобларда, бир жиҳатдан, фанимизни бойитадиган илмий-адабий маълумотлар бўлса, иккинчи жиҳатдан, Бобур меросини излаш баробарида амалга оширилган айрим ишлар, янги топилмаларнинг қўлга киритилиш омиллари ва саргузаштлари ҳақида гўзал лавҳаларни ҳам ўқиймиз. Ҳали мамлакатимиз якка шахс энциклопедиясини амалга ошириш тажрибасига эга бўлмаган бир пайтда “Бобур энциклопедияси”нинг икки нашри (2014, 2017) амалга оширилди. Шунчаки умумий раҳбарлик эмас, балки бу қомусдаги ҳар бир мақола ёки маълумот у кишининг назаридан четда қолмаган. Ҳар бир мақола ёки маълумотнинг илмий асосларини излаш, назарий манбаларини аниқлаш, ишда фақат фактларга таяниб иш кўриш қомуснинг ёзилиш тамойилларини белгилаган. Табиийки, кун ўтган сайин ҳар бир маълумот янгиланади, янги асарлар топилади ёки ёзилади ва улар кейинги 3-нашрдан ўрин олади. Одатда энциклопедия ва қомусий луғатларнинг таржима нашрлари кам топилади. Шунга қарамасдан, “Бобур энциклопедияси” бугунги кунда инглиз ва рус тилларига таржима этилаётганлиги бу беназир ишнинг миқёси кенг эканидан далолат беради. Булардан ташқари, З.Машрабов ҳомийлигида нафақат Бобур мероси, балки улуғ алломаларимизнинг ҳаёти

[1] Машрабов З., Шокаримов С. Асрларни бўйлаган Бобур. – Т., 1997.
[2] Машрабов З. Бори элға яхўилиқ қилғил. – Т., 2013, 2021.
[3] Машрабов З., Матбобоев Б. Андижон тарихи. – Т., 2016.

ва ижодига бағишланган юзлаб китоблар нашр этилди, улар элимизга, олимларимизга совға сифатида улашилди.

Бобур меросини жаҳон миқёсида танитишга қаратилган йирик ҳаракатлардан бири Россия Фанлар академияси билан ҳамкорликда амалга оширилган “Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурийлар” библиографияси бўлди. Заҳматкаш олим Ш.Рустамхўжаев томонидан тартиб берилган бу муҳташам библиографик кўрсаткич дунёнинг 30 га яқин тилларида эълон қилинган 7000 га яқин адабиёт ҳақида маълумот беради[1].

Айни кунларда “Бобур энциклопедияси”нинг учинчи нашри тайёрланмоқдаки, бу сермашаққат ишда ҳам Зокиржон ака Машрабов ҳар доимгидай олимларга бош-қош бўлиб турибди. Сўнгги йилларда Заҳириддин Муҳаммад Бобур “Куллиёт”ини нашрга тайёрлаш борасида жиддий ишлар амалга оширилди ва бу 6 жилддан иборат бу мўътабар нашр ҳам айни шу кунларда З.Машрабов раҳбарлигида (нашрга тайёрловчи М.Кенжабек, масъул муҳаррир В.Раҳмонов) амалга оширилди.

...Андижонда баҳор 1 март ёки Наврўзда эмас, балки 14 февралдан бошланади, деган ҳикмат бор. Мана қарийб 30 йилдан ортиқ вақт мобайнида бу ҳикмат оддий ҳақиқатга айланиб кетди. Ҳали Олой тоғининг қорлари сув бўлиб эриб тушмасидан Андижоннинг Боғишамолида бойчечак очилади, кўксомса ва кўкчучваралар Наврўзда 40 кун олдин эгаларига мунтазир бўлади, сумалак ва ҳалимлар Бобуршоҳ шаҳрининг зиёратига келганларга, унинг шарафини дунёга ёймоқчи бўлганларга барака улашади. Бу ҳолни кўрмоқчи бўсангиз, ўша санада Андижонга келинг. Фақат қўлингизда йил давомида эришган Бобур мероси билан боғлиқ бирор топилмангиз, мақола ёки китобингиз, ҳеч бўлмаса,

[1] Захириддин Мухаммад Бабур. Бабуриды / Автор-составитель Ш.Рустамхужаев. – М.: Изд. Восточной литературы, 2016.

бобуршуносларни қувонтирадиган бирор янги хабарингиз бўлсин. Ана шунда эл ҳам, Заҳириддин Муҳаммад Бобуршоҳнинг вориси Зокиржон Машрабов ҳам Сиздан рози бўлади ва бажонидил Сизнинг хизматингизга киришади.

Доимо ғайратли ва шижоатли олим – Бобуршоҳнинг вориси Зокиржон ака Машрабов бир талай илмий-ижодий режалар билан муборак 90 ёшни қаршиламоқда. Устоз Зокиржон акага ва улар раҳбарлигида улкан ишларни амалга ошираётган Халқаро Бобур фонди илмий-ижодий жамоасига Ҳазрат Навоийнинг тилаги ёр бўлишини истаймиз: “Умидим улки, умидингға еткил!”

IMPORTANT INFORMATION BY GULBADAN BEGIM ABOUT HER FATHER BABUR IN HER HUNAYUN-NAMA

Eiji Mano, Academician of Japan Scientific Academy,
Professor Emeritus at Kyoto University, Japan

Gulbadan Begim was only eight years old when her father, Babur, died. Naturally, she could not have remembered much about him. Gulbadan, in the beginning of her memoir *Humayun-nama,* admitted that it carries some wrong and inaccurate information about her father.

However, the memoir contains several important and interesting facts about Babur that cannot be gathered from other historical sources. The following 12 points will help evaluate Gulbadan’s memoir as an important source of Babur’s life and personality.

1. Babur's children accompanied their father on his expedition from Kabul to Samarqand in December 1510. According to Gulbadan, Humayun Mirza (two years and nine months old at that time), Mihr Jahan Begim, Barbul Mirza, Ma'suma Begim, and Kamran Mirza accompanied Babur, even though all of them were very young at that time. Babur seemed to love his family too much to leave them alone in Kabul.

2. Humayan, Babur and Mahim Begim's eldest son, was 12 or 13 years old when he left Kabul to take the viceroy's post in Badakhshan in 1520 (or 1521). Babur and Mahim Begim were worried about their son and therefore, followed him there. They stayed in Badakhshan for several days.

3. Gifts were distributed to the royal women in Kabul following the Empire's victory in the Battle of Panipat in 1526. A huge gold ashrafi coin was gifted to Asas, a subject of Babur. As many as 96 royal women, the family of Babur, were given gifts in Agra.

4. Mahim Begim and Gulbadan Begim arrived in Agra from Kabul in June 1529. The memoir describes their meeting with Babur and everything they did for 11 days after their arrival. Knowing that his empress and daughter were arriving, Babur did not wait for a horse to be saddled, but started on foot to meet them. He escorted them back to his palace on foot.

5. Babur made an excursion to Dholpur with Mahim Begim and Gulbadan Begim in September 1529. A report on the completion of a tank, carved out of a single mass of rock, ordered by him to be constructed at Dholpur, is available.

6. Babur made an excursion to Sikri (present-day Fatehpur Sikri). A report of everything he did there is available.

7. The memoir describes the arrival of Khanzada Begim, Babur's elder sister, in Agra from Kabul. Babur went as far as Naugram to receive her.

8. Babur once expressed his desire to retire from political life and hand over the kingdom to Humayun. However, he abandoned his desire, as his empress and children asked him to do so.

9. The memoir describes the death of Alwar Mirza, the younger brother of Gulbadan Begim. He was young when he died.

10. Babur wished to see Hindal Mirza, his fourth son, when he was dying. Babur asked, “How tall has Hindal Mirza grown?” and “What is he like?” Evidently, he loved Hindal Mirza.

11. The memoir talks about the marriages of Gulrang Begim and Gulchihra Begim, elder sisters of Gulbadan Begim, just before Babur died.

12. The memoir describes how Babur sacrificed himself for Humayun. It also sheds light on the circumstances surrounding Babur’s death in 1530.

Humayun-nama is a valuable source for reconstructing not only Humayun’s life, but also Babur’s life and personality. I hope to publish a Japanese translation of *Humayun-nama* with detailed notes in the current year.

ГУЛБАДАН БЕГИМНИНГ “ҲУМОЮННОМА” АСАРИДА БОБУРГА ОИД МУҲИМ МАЪЛУМОТЛАР

Эйжи МАНО,
Япония Фанлар академияси академиги,
Киото университети фахрий профессори, Япония

Отаси Бобур вафот этганида Гулбадан бегим атиги саккиз ёшда эди. Табиийки, у бу ҳақида кўп нарсани эслай

олмасди. Гулбадан ўзининг “Ҳумоюннома” эсдалик асарининг бошида отаси ҳақида нотўғри ва ноаниқ маълумотлар борлигини тан олган. Аммо бу эсдаликларда Бобур ҳақидаги бошқа тарихий манбалардан топиб бўлмайдиган бир қанча муҳим ва қизиқарли фактлар борки, қуйидаги 12 та жиҳат Гулбаданнинг хотиралари Бобур ҳаёти ва шахсиятининг муҳим манбаси сифатида баҳолашга ёрдам беради.

1. Бобурнинг фарзандлари унинг 1510 йил декабридаги Кобулдан Самарқандга юришида оталарига ҳамроҳ бўлган. Гулбаданнинг ёзишича, Ҳумоюн Мирзо (ўша пайтда икки ёшу тўққиз ойлик), Меҳр Жаҳон бегим, Борбўл Мирзо, Маъсума Бегим, Комрон Мирзолар унга ҳамроҳлик қилган.Ўша пайтда уларнинг ҳаммаси жуда ёш эди,шунга қарамай Бобур ўз оиласини Кобулда ёлғиз қолдиришни истамаганлиги аён бўлади.

2. Бобур ва Моҳим Бегимнинг тўнғич ўғли Ҳумоюн 1520 (ёки 1521) йилда Бадахшон ноиби лавозимини эгаллаш учун Кобулдан кетганида 12-13 ёшда эди. Бобур ва Моҳим бегим ўғлидан хавотирланиб, ўша ерда унга эргашишди. Улар бир неча кун Бадахшонда қолишди.

3. 1526 йилда Панипат жангида Бобурийлар ғалаба қозонганидан сўнг, Кобулдаги аслзода аёлларга совғалар тарқатилди. Бобурнинг қўл остидаги ҳарамга улкан олтин ашрафи танга совға қилинди. Аграда Бобур оиласи бўлган 96 нафар шоҳ оиласидаги аёлларга совғалар берилди.

4. Моҳим бегим ва Гулбадан бегим 1529 йил июн ойида Кобулдан Аграга етиб келишди. Унинг хотираномасида уларнинг Бобур билан учрашуви , Бобур келганидан кейин 11 кун давомида қилган ишлари тасвирланган. Бобур маликаси ва қизи келаётганини билиб, отнинг эгарланишини кутмай, уларни кутиб олишга пиёда йўл олди. Уларни пиёда саройига кузатиб қўйди.

5. Бобур 1529 йил сентябрида Моҳим Бегим ва Гулбадан бегим билан Дўлпурга саёҳат қилди. Дўлпурда унинг буйруғига кўра, биргина харсангтошдан ўйиб ишланган ҳовуз қуриб битказилгани ҳақида ҳисобот мавжуд.

6. Бобур Сикри (ҳозирги Фатеҳпур Сикри) бўйлаб сайр қилди. У ерда қилган барча ишлар ҳақида ҳисобот мавжуд.

7. Хотирада Бобурнинг опаси Хонзода Бегимнинг Кобулдан Аграга келиши тасвирланган.

8. Бобур бир пайтлар сиёсий ҳаётдан воз кечиб, салтанатни Ҳумоюнга топшириш истагини билдирди. Бироқ, у ўз хоҳишидан воз кечди, чунки унинг маликаси ва фарзандлари бу ниятидан воз кечишини сўрашганди.

9. Хотираларида Гулбадан бегимнинг укаси Алвар Мирзонинг вафоти тасвирланган. У вафот этганида ёш эди.

10. Бобурнинг тўртинчи ўғли Ҳиндол Мирзони вафоти арафасида кўришни орзу қилган. Бобур: “Ҳиндол Мирзонинг бўйи қанча ўсди?” деб сўради. ва "У қандай?" Бундан маълум бўладики, отаси Ҳиндол Мирзони яхши кўрарди.

11. Хотираларида Гулбадан бегимнинг опа-сингиллари Гулранг бегим ва Гулчеҳра бегимларнинг Бобур вафот этишидан олдинги никоҳлари ҳақида сўз боради.

12. Хотираларида Бобур Ҳумоюн учун ўзини тасаддуқ қилгани тасвирланган. Шунингдек, 1530 йилда Бобурнинг вафоти билан боғлиқ ҳолатларга ҳам ойдинлик киритади.

“Ҳумоюннома” нафақат Ҳумоюн ҳаётини, балки Бобурнинг ҳаёти ва шахсини қайта тиклаш учун қимматли манбадир. Жорий йилда “Ҳумоюннома”нинг япон тилига таржимасини батафсил қайдлар билан нашр этишни умид қиламан.

ТАРИХИЙ ДАВРЛАР КЎЗГУСИ

Бобур номли халқаро жамоат фонди фаолияти, жамоат арбоби Зокиржон Машрабов ташаббуслари, олти жилдлик Куллиёт нашри ва “Бобурнома” асари хусусида

Мирзо КЕНЖАБЕК,
Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистон ислом цивилизацияси маркази бўлим бошлиғи,
Республикада хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси,
Халқаро Бобур мукофоти соҳиби

Бисмиллаҳир-Роҳманир-Роҳийм. Ҳақ таолога чексиз ҳамду сано бўлсин, жаноб Расулуллоҳга сўнгсиз салоту салом бўлсин.

Бобур номли халқаро жамоат фонди ташкил этилганининг 30 йиллик анжумани фидойи бобуршунос олим, фонд раиси, жамоат арбоби Зокиржон Машрабов таваллудининг 90 йиллигига тўғри келмоқда. Маълум бўладики, муҳтарам Зокиржон оғамиз умрининг роппа-роса 30 йилини ҳазрати Заҳириддин Муҳаммад Бобур фаолиятига, шу йўлдаги тадқиқотлар, саёҳат ва изланишлар, халқаро анжуманлар ҳамда илмий-маърифий китоблар нашрига бағишлаган.

Бобур номли халқаро фондининг амалга оширган хайрли ишлари жуда кўп. Ўттиз йиллик фаолият уч юз йилларга татигуликдир. Зокиржон Машрабов фаолиятининг энг сермазмун қисмини ҳам ҳазрати Бобурга фидо қилинган бўлаги ташкил этади.

Назаримда, халқаро фонднинг энг хайрли ва шарафли ишларидан бири Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг олти жилдлик Куллиёти нашр этилишидир. “Зилол Булоқ”

нашриётида 2020 йилдан бошланган Куллиёт нашри 2022 йилда тўлиқ ниҳоясига етди.

Бобур Мирзо Куллиёти нашрини Зокиржон Машрабов менга ишониб топширган эдилар. Демак, олти жилдлик Куллиёт Бобур номли халқаро жамоат фонди ташаббуси билан биринчи марта нисбатан тўлиқ ҳолда чоп этилди. Бу фонд фаолиятининг зубдаси – хизматларининг равшан натижасидир.

Фонд раиси Зокиржон Машрабов – Бобур Мирзо фидойиси, у кишининг хизмати ва иззати шу улуғ ва ўлмас зот туфайлидир. Шу сабабдан у кишининг хизматлари Президентлар назарида, номи не-не арбоблар тилида... Бу эътироф ва эҳтиромга арзирли неъматдир.

Олти жилдлик куллиётнинг қисқа мундарижаси қуйидагича:

1-ЖИЛД: ДЕВОН, МАСНАВИЙЛАР ВА НОМАЛАР

Бобур Мирзо Куллиёти 1-жилдининг энг катта қисмини ДЕВОН ташкил этади. Девонни нашрга тайёрлашда шоирнинг Ўзбекистонда нашр этилган барча китобларидан, айниқса, фидойи олима Шафиқа Ёркин араб имлосида нашр эттирган Девон нусхасидан унумли истифода этилди. Куллиётга илк бор санъаткор шоирнинг форсийда битган ғазал, рубоъий, қитъа ва фардлари киритилди. Яна 1-жилддан Бобур Мирзонинг айрим номалари (мактублари) ҳам ўрин олди. Бу номалардан айримлари мустақил мактуб шаклида бўлса, айримлари “Бобурнома” таркибида келтирилган.

2-ЖИЛД: ФИҚҲИЙ АСАР – “МУБАЙЯН” ВА “РИСОЛАИ ВОЛИДИЙЯ ТАРЖАМАСИ”

“Мубайян” асари Темурийлар даври ижтимоий, оилавий, хусусий ҳаётидаги илмий, маърифий, диний маданиятнинг назмий ифодасидир. “Мубайян” асарига ўз даврида шайх

Зайнуддин ибн Қутбуддин ал-Ҳанафий ал-Хавофий шарҳ ёзиб, уни “Мубаййин” (баъзи манбаларда “Мубин”) деб атаган. Салкам беш асрлик тарих давомида “Мубайян”га ал-Хавофийнинг форсий “ҳошия”сидан бошқа шарҳ ёзилган эмас. “Мубайян” асари, насрий баёни ва шарҳидан иборатдир.

3-ЖИЛД: “АРУЗ РИСОЛАСИ” (“МУФАССАЛ”)

Бобур Мирзонинг “Аруз рисоласи” Алишер Навоийнинг “Мезон ул-авзон” асаридан сўнг туркий-ўзбек арузи ҳақида ёзилган иккинчи йирик рисоладир. Бобур Мирзо Шарқ мумтоз шеъриятининг асосий масалаларидан бири бўлган аруз вазни, унинг назарияси ва амалиётига оид илмий асари “Аруз рисоласи” (ёки “Аруз” ёхуд “Муфассал”) деган ном билан бизгача етиб келган, бу асар нусхаси Британия музейида ҳамда Мармара (Туркия) кутубхонасида сақланаётгани ҳақида етарли маълумот бор.

4-ЖИЛД: “БОБУРНОМА”НИНГ ФАРҒОНА ДАВРИ ВОҚЕАЛАРИ

4-жилд машҳур “БОБУРНОМА” асарининг Фарғона даври воқеаларидан таркиб топди. Бобур номини дунёга машҳур қилган шоҳ асари “Бобурнома” устидаги ижодий ишини 1518—1519 йилларда бошлаган ва умрининг охиригача ёзишда давом этган.

5-ЖИЛД: “БОБУРНОМА”НИНГ КОБУЛ ДАВРИ ВОҚЕАЛАРИ

5-жилдда “Бобурнома”нинг Кобул даври воқеалари жамланди. Бу давр воқеларида Бобур Мирзонинг Султон Ҳусайн Бойқаро, Алишер Навоий, Ғарибий (Султон Ҳусайн Мирзонинг ўғли Шоҳ Ғариб Мирзо), Осафий ва соҳибдевон бўлган шоирлар ҳақидаги маълумотлари жаҳон аҳлини ҳайратга соладиган даражадаги оламшумул маълумотлардир.

6-ЖИЛД: “БОБУРНОМА”НИНГ ҲИНДУСТОН ДАВРИ ВОҚЕАЛАРИ

6-жилд “Бобурнома” асарининг Ҳиндустон даври воқеаларини қамраб олди. Олдинги нашрларда бўлганидек, Бобур Мирзонинг айрим фармонлари, мактублари ҳамда “Бобурнома”даги узилиш ўринларидаги матнлар бу жилдга жамланди. Асар охирига изоҳ ва кўрсаткичлар илова этилди.

“БОБУРНОМА” АСАРИНИНГ ОЧИЛМАГАН ҚИРРАЛАРИ

Қарийб беш асрдан бери жаҳон аҳлини ҳайратга солиб келаётган муҳташам “Бобурнома” асарининг кўплаб хислат ва фазилатлари батафсил ўрганилган, китоб йигирмадан ортиқ тилларга таржима қилинган, жумладан, инглиз тилига ўн марта, рус тилига тўрт марта, урду ва немис тилларига уч мартадан таржима қилиниб, кўплаб марта тадқиқ этилган, неча минглаб ададларда такрор-такрор нашр этилган.

Бобур Мирзо асарлари ҳамиша алоҳида-алоҳида китоблар ҳолида чоп қилиниб турган. Лекин ҳамма даврларда ҳам сўзи ўлмас ва ўзи ўлмас атоқли аллома ва шоир асарларини тўлиқ жамланган ҳолда кўриш орзу қилинган. Бунга биринчи марта XXI асрнинг 20-йилларида, аниқроғи, 2021 йилда муваффақ бўлдик. Заҳируддин Муҳаммад Бобурнинг мавжуд асарлари янги Ўзбекистон тарихида илк марта олти жилдлик Куллиёт сифатида нашр этилмоқда.

Яратган Раббимиз бу хайрли ишни бизга насиб этганидан мамнунмиз ва шукр мақомидамиз. Биз бу машаққатли ишга ихлос ва муҳаббат билан киришар эканмиз, Бобур Мирзо сиймоси орқали Султон Соҳибқирон Амир Темур ҳазратлари ва авлодларига, ул зотларнинг пирлари ва бизнинг пирларимиз бўлмиш ҳазрати Хожа Саййид Амир Кулол, ҳазрати Хожа Шамсуддин Кулол, ҳазрати Шайх Саййид Барака, ҳазрати Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор (қаддасаллоҳу

асрораҳум) ҳазратларига хизмат қиляпмиз, деган эътиқодда бўлдик. Зотан, ҳазрати Соҳибқирон ва барча Темурийзодалар маънавият оламидан, бузруквор пирлар даргоҳидан асло айрилган эмаслар ҳамда ул азизларнинг тасарруф ва кароматларини кўплаб марта кўрганлар.

Куллиётнинг 4-жилди жаҳонга машҳур “Бобурнома” (“Воқеъоти Бобурий”) асарининг Фарғона даври воқеаларидан иборат бўлди. 5–6-жилдлари эса Кобул ва Ҳиндистон даври воқеаларидан таркиб топди.

Нашрга атоқли олимларимиз **Порсо Шамсиев** ва **Содиқ Мирзаев**нинг 1960 йилги нашри, таниқли япон олими **Эйжи Мано**нинг 2004 йилги араб ёзувидаги илмий танқидий матни ҳамда марҳум бобуршунос олим **Саидбек Ҳасан**нинг 2002 йилги нашри нусхалари асос қилиб олинди.

“Бобурнома” қадимий Мовароуннаҳр – бугунги Ўзбекистон, бутун Фарғона водийси, кўҳна Хуросон – бугунги Афғонистон ҳудудлари, жумладан, Кобул, Ҳирот, яна қадимий Ҳинд ўлкаси – бугунги Ҳиндистон ва Покистон ҳудудларини қамраган ягона кенг қамровли хотира асаридир. “Бобурнома” – жаҳонни кезувчи китоб. Дунёнинг кўплаб халқлари бу асарни ўз манфаатлари нуқтаи назаридан ўрганган, тадқиқ этган, у орқали бир неча шарқ мамлакатларини таниган, уларнинг географияси, иқлими, яшаш тарзи, сиёсий-ижтимоий тузуми ва бошқа хусусиятларидан хабардор бўлганлар.

“Бобурнома”нинг биз саноқ билан кўрсатадиган хусусиятлари шартли саноқлардир. Асарнинг хислат ва фазилатлари саноқ билан ифодаланса, бу адад анчага чўзилиши шубҳасиздир.

“Бобурнома” асарининг жаҳоншумул хислатлари ҳақида узоқ даврлар давомида кўп ва хилма-хил асарлар ёзилган, лекин асарнинг барча фазилат ва хусусиятлари ёзиб

тугатилган эмас. Умид қилинадики, бу муҳташам асар ҳақида ёзиш, сўзлаш, фикрлаш то дунё тургунча давом этади.

Сўзимиз ниҳоясида Бобур номли халқаро жамоат фонди фаолиятига равнақ ва муваффақият, фонд раиси, жамоат арбоби Зокиржон Машрабовга узоқ ва баракотли умр тилаб қоламиз!

Ҳижрий 1443 йил рабиъус-соний ойи,
милодий 2021 йил, ноябрь.

BABUR ASARLARI - AZƏRBAYCANDA

Almaz ÜLVİ (Binnətova)
AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun
"Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi əlaqələr"
şöbəsinin müdiri, Beynəlxalq Babur Fondunun Bakı
bölməsinin sədri, filologiya uzrə elmlər doktoru, professor
Z.M.Babur dina Əndican Dövlət Universitetinin
"Fəxri Professoru"

Zahirəddin Məhəmməd Babur elə bir tarixi şəxsiyyət və ədəbi simadır ki, 540 ildir dünyanın məşhur adamları sırasında həyatı, dövrü və yaradıcılığı, 332 illik səltənəti öyrənilir, sevilir və məhəbbətlə anılır. Dünyanın bir çox dillərinə tərcümə olunmuş "Baburnamə" memuarı həyatının güzgüsü olmaqla yanaşı, onu bir tarixçi, coğrafiyaçı, ensiklopedik, bir təzkirəçi, şair, ədəbiyyatşünas, əruzşünas, klassik irs tədqiqatçısı, zəngin dünyagörüşlü, dərin mütaliəli, əzəmətli hökmdar və bir çox xüsusiyyət və xarakterinin açarıdır.



XX əsr boyunca sovetlər dönəminin ideolojisinə görə, o qədər də dərindən öyrənilmədi, öyrədilmədi. Bunun əsas səbəblərindən biri türk, türk əsilli olması ilə bağlı olmuşdur. Tarixin müəyyən bir dönəmində türkcə ədəbi əsərlərin yazılmasının mümkün olmadığı iddia edilirdisə, sonralar da türk hökmdarlıqlarının, səltənətlərinin öyrənilməsi çox məhdudlaşdırıldı. Xüsusən pantürkizm ideologiyasının hökm sürdüyü bir dövlətdə Baburu geniş şəkildə öyrənmək olmazdı. Türkcə yazan bir sənətkar, uzaq bir ölkədə - Hindistanda türk dövləti qurmaq və həmin səltənət tarixdən-tarixə ötürülərək 300 ildən yuxarı bir dövr yaşamasını, böyük mədəniyyət, elm yaratmalarını dilə, qələmə, yazıya gətirmək imperialist düşüncəsinə zidd idi.

Bütün bunlara baxmayaraq, əlbəttə belə ulu şəxsiyyətlər böyük alimlərin diqqətindən, tədqiqatlarından yan ötə bilməzdi. Həmid Araslının sovetlər dövründə - 1980 illərə aid məqaləsində oxuyuruq: “Nizami yaradıcılığına böyük hörmətlə yanaşan özbək ziyalıları içərisində Nəvaidən sonra görkəmli dövlət xadimi, alim,

şair, tarixçi olan Z.M.Babur haqqında danışmaq lazım gəlir. Babur özünün məşhur "Baburnamə"sində atası Ömər Şeyx Mirzədən bəhs edərkən onun "Xəmsə" mütaliəsindən danışır ki, bu da Teymur şahzadələrinin Nizami irsinə dərin hörmət bəslədiklərini göstərir. O, eyni zamanda Hilali və s. müasirlərinin "Xəmsə"ni əzbər bildiklərini xüsusi qeyd edir. Babur özünün "Müxtəsər" adlı əruzdan bəhs edən əsərində Nizami və onun müasirlərinin adını dönə-dönə çəkir" (H.643).



Azərbaycan və Özbəkistan Respublikaları öz müstərilliklərini ötən əsrin 90-cı illərinin əvvəllərində əldə etdikdən sonra qadağan olunmuş türk səhifələri açıldı, o cümlədə Z.M.Babur yaradıcılığına da diqqət ayrıldı, xüsusi yanaşmalar baş verdi. Hətta mətbuatdan və ya əndicanlı dostlardan aldığım bilgiyə görə, sovetlərin dağılmasını gözləməyən, amma belə bir tarixi olayın baş verəcəyini uzaqgörənliklə fərqinə varan vilayət hakimi Zakirjon Məşrəbov Əndicanın mərkəzi bağında Baburun heykəlini ucaltdırmış və həmin bağı "Babur bağı" adı ilə rəsmiləşdirmişdir. Bu böyük cəsarət, hünər, vətəndaş qeyrəti və milli tarixinə sahib çıxmaq kimi bir fədakarlıq idi. Müstəqillik əldə edilən kimi isə bu gün yaranmasının 30 illiyini bayram kimi qeyd etdiyimiz "Beynəlxalq Babur Fondu" adlı ictimai əsaslara söykənən bir qurumu yaratdı

və onu rəsmiləşdirdi. Bu o, demək deyildi ki, Zakirjon Məşrəbov Babur "tema"sını tam olaraq öz səlahiyyətinə almışdı. Xeyr! Sadəcə sirli, qapalı səhifələr arasında saxlanan Z.M.Baburu öyrənmək üçün çox işlər, çox əmək qoymaq lazım idi. Bunun üçün görülən işlərin planlı şəkildə, yəni itirilən illərin yerini doldurmaq üçün belə bir Fondun yaranmasına ehtiyac var idi. 2012-cü ildən başlayaraq hər il Baburun xatirəsinə keçirilən beynəlxalq elmi konfranslara məruzə ilə mən də qatıldım. Keçirilən konfransların yüksək səviyyədə təşkili, maraqlı və dəyərli elmi məruzələr qiymətli idi, o cümlədən belə tədbirlərdə çox bilgilər, yeni informasiyalara sahib olurduq. 2016-cı ildə Əlişir Nəvainin 575 illiyi münasibətilə Kabul-Herat-Məzari Şərif şəhərlərində keçirilən beynəlxalq elmi konfransda iştirak edirdik. Baburun cahil qruplaşmalar – talibanlar tərəfindən dağıdılmış memorialının yanında Zakirjon Maşrabovu – Hacı Dədəni gördüm. Orada öyrəndim ki, bu tikilinin də bütün zəhmətini – təşkilatı və maliyyə işlərini öz öhdəsinə götürən Hacı Dədə Babur adına övlad qayğıkeşliyi ilə sahib çıxıb. Bəli, bu gün 90 illiyini qeyd etdiyimiz geologiya-minerologiya elmləri doktoru, professor, ədəbiyyat, şeir-sənət aşiqi Zakirjon Maşrabovun – Hacı Dədənin tarixi xidmətləri də elə tarixə yazılacaq. Tarix ömrü yaşayan tarixi şəxsiyyət - Zakirjon Maşrabovun – Hacı Dədənin yubiley yaşını ürəkdən təbrik edirik, ömrü uzun olsun.

2017-ci ildə Əndicana beynəlxalq elmi konfransa dəvət almışdı1. Mən də yeni məruzə ilə qatıldım. Üstəlik, "Baburnaamə"nin Bakı əlyazma nüsxəsinin elektron variantını hədiyyə etdim. Tədbirin son günü Fondun rəhbəri mənə "Beynəlxalq Babur Fondu"nun Azərbaycan üzrə rəhbəri səlahiyyətini təqdim etdi. Böyük məsuliyyət olduğunun əlbəttə fərqində idim.

Sərlövhəyə çıxardığım bu başlıq məcazi məna ilə yanaşı, tarixi mənası ilə də günümüzdə aktual və maraqlıdır. "Zahirəddin Məhəmməd Babur Azərbaycanda" mövzusunun tarixini

Azərbaycanın qüdrətli şəxsiyyəti Şah İsmayıl Xətai dövründən, yəni hər iki qüdrətli qılınc və qələm sahibi olan tarixi şəxsiyyətlərin dostluq münasibətlərindən qeyd edə bilərik. Bu iki tarixi şəxsiyyətin biri-biri ilə dostluq – qardaşlıq əlaqələri qurması iki yeni türk dövlətinin qurulması və formalaşması prosesinə də öz töhfələrini vermişdir. Tarix kitablarından belə öyrəndik, sonralar onların yaradıcılıq irslərini öyrənərkən də yazılanlara bir daha sübutu kimi dəyərləndirdik. Divan ədəbiyyatından sonra yeni bir ədəbiyyatın yaranması da məhz onların adları ilə bağlaya bilərik.

Təbiət aşiqi olan bu hökmdar-şairlərdən Şah İsmayıl Xətai "Bahariyyə"də yazır:

Qış getdi, yenə bahar gəldi,
Gül bitdi və laləzar gəldi.
Quşlar qamusu fəğanə düşdü,
Eşq odu yenə bu canə düşdü.
Yer geydi qəbayi-xizar rpuşan,
Cümlə dilə gəldi ləbxamuşan.

Zahirəddin Məhəmməd Baburun da təbiət eşqi belə idi: o, ağacları, ayrı-ayrı otları, çiçəkləri, meyvələri, quşları, bütün bitkiləri sevərək təsvir edir, təbiət gözəlliyinin aşiqi kimi.

"Zahirəddin Məhəmməd Babur Azərbaycanda" deyəndə ikinci məsələ onun Azərbaycan əlyazmalar Fondunun nadir nüsxələr fondunda saxlanan əlyazmaları, xüsusən "Baburnamə" memuarının əlyazması kontekstində onun həyatı, dövrü və ədəbi irsinin tədqiqi məsələsi nəzərdə tutulur. Z.M.Baburun "Baburnamə"si iki ayrı-ayrı azərbaycanlı alim tərəfindən tərcümə olunub. Amma Baburu orijinaldan oxumaq öyrənmək, tədqiq etmək bir ayrı məsələdir. Azərbaycan fondunda saxlanan "Baburnamə"nin əlyazmasını tədqiqata cəlb edən bu sətirlərin müəllifinin Yaponiya alimi Eiji Mano ilə yazışmasında bir çox mətləblər ortaya çıxır. Eiji Mano məktublarının birində yazmış: "Sayın Dr.Almaz Ülvi Binnatova, Nasılsınız? Umarım, siz ve aileniz iyidir. Birkaç gün sonra Bakü elyazmasını daha dikkatli bir şekilde kontrol ettim. Ancak Bakü

elyazması ile Kehr elyazması arasında çok fark var. Birçok yüzde Bakü'nün elyazması "Babur-nama"'daki hikayeleri farklı ifadelerle anlatıyor."Babur-nama"'nın diğer el yazmalarında, Heydarabad, Elfinstone ve Kehr'ın el yazmaları gibi ifadeleri bulamıyorum. Bakü elyazması "Babur-nama" elyazmaları arasında nadir bir yazma demektir" (qəzet).

"Zahirəddin Məhəmməd Babur Azərbaycanda" deyəndə üçüncü məsələ klassik sənətkarın ədəbi irsinin və şəxsiyyətinin Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığında öyrənilməsi, tədqiqi problemini əhatə edir. Belə bir məsələni geniş səpgidə öyrənilməsinin əsas imkanlarından biri də ali məktəblərdə tədris etmək, haqqında elmi simpozium və ya konfranslar keçirmək, dövrü və elmi nəşrlərdə məqalələr nəşr etdrimək və nəhayət ayrıca dissertasiya mövzusu olaraq işlənməsidir.


1. Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığında öyrənilməsi və tədqiqi məsələləri kontekstində bu sətirlərin müəllifi bir neçə tədqiqat xarakterli məqalələr yazaraq kütləvi mətbuat orqanlarında (qəzet-jurnal) və elmi dərgilərdə nəşr etdirmişdir. *"Zahirəddin Məhəmməd Babur "Baburnamə"nin Bakı əlyazması nüsxəsinin təsviri və "Baburnamə"də Əlişir Nəvai haqqında", "Baburoğullari dönəmində Hindistanda memarliq və incəsənət: Humayun türbəsi və onun memari", "Zahirəddin Məhəmməd Babur Azərbaycan ədəbi-elmi fikrində", "Zahirəddin Məhəmməd Babur və XVI əsr özbək ədəbiyyatı", "Baburnamə"də təzkirəçilik ənənələri" və sair.* Azərbaycanda nüfuzlu ədəbiyyat qəzeti olan "525-ci qəzet", "Şərq qəzeti", "Birlik" jurnalı, "Müqayisəli ədəbiyyatşünaslıq" və s. mətbu orqanlarında Z.M.Babur haqqında silsilə məqalələr dərc olunub.

1. Orta əsrlər ortaq türk ədəbiyyatı Proqramı çərçivəsində Bakı Dövlət Universitetinin və Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyasının "Əlişir Nəvai ədəbiyyatşünaslıq Mərkəzi"ndə təhsil alan bakalavr və magistr tələbələrinə tədris edilir.

2. Yuxarıda da qeyd etdiyim kimi, Fondun Azərbaycan bölməsinə rəhbərlik etdiyimdən ilk olaraq konfrans keçirmək məqsədini qarşıya qoyduq. Konfrans AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun təşkilatçılığı ilə baş tuturdu. Üstəlik, Özbəkistan, Əfqanıstan və Hindistan dövlətlərinin Azərbaycandakı səfirliklərini də cəlb etdik. Çox maraqlı məruzələr dinlənildi. Xüsusən Əfqanıstan və Hindistan səfirlərindən dinlədiklərimiz yeniliklərlə dolu oldu. Özbəkistandan elm adamlarını – professor Həmidullah Baltobayev, Obidjon Şəfiyev və başqalarını dəvət etmişdik. Sonda "*Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan*" adlı konfrans materiallarını nəşr edib payladıq. Pandemiya səbəbindən 2-3 il ara verildi, nəhayət ötən il növbəti "*Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan*" adlı ikinci konfransımız baş tutdu. 540 illik yubiley ili üçün artıq hazırlıqlara başlamışıq, bu da o deməkdir ki, "Babur günləri" ənənəvi tədbirlər sırasında yer almağa başlamışdır. Konfransda iştirak edən və dinlənilən məruzələrin adlarını bu yazımızda qeyd etməyi də uyğun bildik


3. Yeni baburşünaslar nəslini yetişdirmək. Artıq "Zahirəddin Məhəmməd Babur yaradıcılığı ümumtürk mədəniyyətinin unikal hadisəsi kimi" adlı doktoruq işi hazırdır.

4. "Zahirəddin Məhəmməd Babur və XVI əsr özbək ədəbiyyatı", "Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan-1", "Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan-2" – kitablarında kifayət qədər nüfuzlu alimlərin məqalələri yer almışdır.



1. Zahirəddin Məhəmməd Babur və XVI əsr özbək ədəbiyyatı: Əlişir Nəvai adına Dövlət Ədəbiyyatı Muzeyi ekspozisiyası əsasında qısa Məlumat kitabı ("Тошкент УзР ФА Давлат Адабиет музейи – 2008" nəşri əsasında). - Bakı, 2019, 60 səh. rəyçilər: Zakircan Maşrapov və Yaşar Qasım, elmi redaktoru A.Ülvi və S. Hasanov . - Azərbaycan dilinə uyğunlaşdıran və nəşrə təqdim edən: fil.e.d.Almaz Ülvi Binnatova.

2. *“Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan -1” Beynəlxalq elmi konfransın materialları /Bakı, 20 aprel, 2018 (redaktoru və nəşrə hazır.n fil.e.d. Almaz Ülvi). // Bakı, 2018, 210 səh. rəyçilər: Yaşar Qasım, Siracəddin Hacı.*



1. Konfrans kitabında - İsa Həbibbəyli. *Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan;* Шерзод Файзиев. *Изучению наследия Бабура в настоящее время уделяться большое внимание;* Eldar İbrahimov. *Böyük sərkərdə və şair Zahirəddin Məhəmməd Babur;* Mr.Sanjay Rana. *Speech on Babur’s life and works – Baburun həyatı və fəaliyyəti haqqında nitq;* Zakircan Məşrəbov. *Özbəkistanda Zahirəddin Məhəmməd Babur irsinin öyrənilməsi;* Almaz Ülvi (Binnətova). *Baburoğulları dönəmində Hindistanda memarlıq və incəsənət: Humayun türbəsi və onun memarı;* Azizullah Arral. *Kobulning shoh memori va shoir bog’boni Zahiruddin Muhammad Bobur (Əfganıstan);* Dilorom Salohiy. *Bobur va naqshbandiya;* Bünyad Muhammad Nabi. *Zahiruddin Məhəmmad Bobur va müasirlik (Əfganistan);* Nurboy Jabborov. *Zahiriddin Bobur kamolotining axloqiy-ma'naviy asoslari;* Хамидулла Болтабоев. *Николай Добролюбов о Бабуре и бабуридах;* Akif Azalp. *“Baburnamə” ümumtürk intibahinin milli ensiklopediyası kimi;* Yaşar Qasımbəyli. *Zahirəddin Məhəmməd Baburun lirikası,* Gulbahor Ashurova. *Bobur sevgan timsol;* Каромат Муллаходжаева. *Бобур шахсининг ўз асарларидаги талқини,* Dilnavoz Yusupova.


AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu

Özbəkistan Respublikasının Azərbaycandakı səfirliyi

İŞTİRAKÇI BƏLGƏSİ

Hörmətli .....

Türk dünyasının ensiklopedik biliyə malik alimi, özbək xalqının ölməz oğlu, görkəmli dövlət xadimi və şair Zahirəddin Məhəmməd Baburun anadan olmasının 535 illiyinə həsr olunmuş

ZAHİRƏDDİN MƏHƏMMƏD BABUR VƏ AZƏRBAYCAN ƏDƏBİYYATI

(1483 – 1530)

adlı beynəlxalq elmi konfransda iştirak etdiyiniz üçün təşəkkür edirik!

Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyasının vitse-prezidenti, Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun direktoru akademik İsa HƏBİBBƏYLİ

Özbəkistan Respublikasının Azərbaycan Respublikasındakı fövqəladə və səlahiyyətli səfiri cənab Şerzod FAYZİYEV

Bakı – 20 aprel 2018-ci il


4 Termiz universiteti

2018-yil 30-aprel

ОЗАРБАЙЖОНДА БОБУР МЕРОСИ ЎРГАНИЛМОҚДА

“Aruz risolasi”da ariz va amiq bahrlari; Dildora Hoshimova. *“Boburnoma” asaridagi personaj nutqida tasviriy vositalarning aks etishi;* İqboloy Adizova. *An’analar bag‘rida ulg‘aygan iste’-dod;* Marg’uba Abdullayeva. *«Boburnoma» va «Shajarayi turk»ning badiiy xususiyatlari haqida»* və *“Бобурнома”да тарихий шахслар талқини (2 makola);* Bobonazar Murtazayev. *Böyük ustad Z. M.Bobur,* Dilorom Adilova. *Bori elg’a yaxshilig’qilg’il;* Obid Shofiyev. *Noyob tarixiy asar;* Sənubər Səmədova. *Zəhirəddin Məhəmməd Baburun şərq mədəniyyəti tarixindəki roluna dair;* İlhamə Sultanova. *Babur dünyası və dünyanın Baburu;* Sardorbek Umarov. *Boburona haqiqatni tan olaylik;* Орзигуль Хамраева. *О лирическом издании З.М.Бабура;* Maftuna Qodirova. *Bobur she'riyatida ma'no vabadiiy san'atlar uyg'unligi;* Muzaffar Xabibullayev. *Turkiyda Navoiyg‘a yetsam, ne ajab,* Ozoda Tojiboeva. *“Mubayyin”ning ilk noshiri;* Muhammedamin To’xliev. *Âlim ve şâir padişah: Babür.*



2. Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan // *Görkəmli dövlət xadimi, ensiklopedik alim və şair Z.M.Baburun anadan olmasının 538 illiyi münasibətilə 12 fevral 2021-ci ildə təşkil etdikləri keçirilən beynəlxalq konfransın materialları // Nəşrə hazırayan və red: fil.e.d.Almaz Ülvi. – Bakı, “Optimist” MMC, 2022, 208 s. rəyçilər: professor Dilorom Salahiy, professor Ataəmi Mirzəyev.*

Konfrans kitabının içindəkilər: İsa Həbibbəyli. *Zahirəddin Məhəmməd Babur, “Baburnamə” və müasir dövr;* Baxrom B.Ashrafxanov. *Buyuk hukmdor, ijodkor, shoir va yozuvchi Zahiriddin Muhammad Bobur;* Amanulla Ceyhun. *Classic of world literature and statesman: Zahiruddin Muhammad Babur;*

Almaz Ülvi Binnətova. *“Baburnamə”nin Bakı əlyazması nüsxəsinin təsviri və “Baburnamə”də Ə.Nəvai haqqında;* Hamidulla Boltaboev. *Boburşoh va Boburiylar davrini aks ettirgan turk adiblarining tazkiralari;* Dilorom Salohiy. *Shayx N.Ganjaviy va Z.B.Mirzo ijodida adabiy -estetik tamoyillar mushtarakligi;* Mirzo Kenjabek. *Zahiruddin Muhammad Bobur – buyuk fiqh olimi (“Mubayyan” asari fazilatlari);* Jabbor Eshonqulov. *“Boburnomada” folklor ünsurlari,* Paşa Kərimov. *Baburun rübailəri,* Nurboy Jabborov. *Bobur lirikasida milliy ruh ifodasi;* Xurram Rahimov. *“Boburnoma” olmoncha tarjimalarda;* Akif Azalp. *“Baburnamə”də Əlişir Nəvai şəxsiyyəti və obrazına dair;* Yaşar Qasımbəyli. *Z.M.Babur və Azərbaycan klassikləri;* Gülbahar Aşurova. *Zamonaviy she’riyatda Bobur obrazining badiiy tasviri (S.Sayyid she’riyati misolida);* Obidaxon Fayzullayeva. *“Boburnoma”da ijodkor shaxslar talqini;* Vahob Rahmonov. *Bobur toshbitiklari;* Abdirasul Jumaqulov. *Bobur Mirzo shaxsida ibratli insoniy fazilatlar;* Bəsirə Əzizəliyeva. *Z.M.Babur əruz vəzni haqqında,* Bəxtiyar Məmmədov. *“Baburnamə”də tarixi şəxsiyyətlər;* Jaloliddin Jo‘raev. *Shihobiddin Muammoiyning Bobur va Komronga bag‘ishlangan muammo risolalari haqida;* Qodirjon Ergashev. *“Boburnoma” va memuar nasr taraqqiyoti;* Orif Hoji. “*Boburnoma”da qardoshlik va do‘stlik haqida;* Rustamjon Ummatov. *Amonlari bo‘lak – zafarlari mushtarak (Bobur va Napoleon);* Dilafro‘z Muhammadiyeva. *“Boburnoma” tarjimalarıda paremiyalarning ifodalanishi;* Shuhrat Hayitov. *Bobur asarlari dunyo nigohida.*


BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

BABUR INTERNATIONAL PUBLIC FOUNDATION

MEMORANDUM

ON SETTING UP OF INTERNATIONAL BABUR PUBLIC FOUNDATION BRANCH-OFFICE IN BAKU (AZERBAIJAN)

Mr. Zokirjon Mashrabov, Chairman of International Babur Public foundation and Mrs. Almas Binnetova hereby agree to establish International Babur Public fund's Branch-office in Baku (Azerbaijan).

Mrs. Almas Binnetova will be the chairman of Babur fund's branch-office in Baku and would help promote aims and objectives of International Babur fund in Azerbaijan.

Two sides will also identify areas for cooperation and mutual consultations.

Chairman Babur International Public foundation: Zokirjon Mashrabov

Chairman Babur fund's branch-office in Baku (Azerbaijan): Almas Binnetova

October 28, 2017. Andijan.

Ümid edirəmki, Zahirəddin Məhəmməd Babur irsi yeni nəslin formalaşmasında, yenilikçi və ədəb-əxlaq, elm-mərifət yolunda

böyük və müdrik məktəb rolu oynayacaqdır. Bütün bunları qeyd edərək beləbir ümumiləşdirmə ilə Nəticə olaraq qeyd edirəm:

1.“Beynəlxalq Babur Fondu”nun 30 illiyini təbrik edir və bu məktəbə böyük uğurlar arzulayıram. Inanıram ki, bu fond artıq Universitet statusu haqqını qazanmışdır.

2.Ulu ustazımız professor Zakirjon Maşrabova – Hacı Dədənin 90 yaşını təbrik edir, ona sağlıqlı uzun ömür, yaradıcılıq yolunda yeni fikir və düşüncələrini gözləyirik.

3.“Zahirəddin Məhəmməd Babur Universiteti” yaradılmasını arzu və tövsiyə edərdim.

ПОКИСТОНДА БОБУР МЕРОСИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ

Абдумажид МАДРАҲИМОВ,
тарих фанлари доктори, профессор, ЎзР ФА
Темурийлар тарихи давлат музейи бўлим мудири

2022 йил 27 февралдан 4 мартгача Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси делегацияси Покистонда, Исломобод шаҳрида бўлиб, илмий-амалий конференцияда иштирок этдилар. 2022 йил 1 мартда “Ўзбекистон ва Покистон дўстлиги рамзи - буюк саркарда, мутафаккир ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва ижоди” мавзусида Ўзбекистоннинг Покистон Ислом Республикасидаги элчихонаси, Покистон Ислом Республикасининг Ахборот ва уни тарқатиш вазирлиги томонидан уюштирилган халқаро илмий амалий конференция бўлиб ўтди. Шу конференция бошланишидан аввал иштирокчиларга “The Chronicle. Newsletter”,

Покистоннинг йирик тарихий шаҳри Лоҳурдаги Панжоб университетининг “Тарих ва Покистон тадқиқотлари” нашрининг 2021 йил январь –июнь ойларида чоп этилган иккинчи жилд 1- сонини қатнашчиларга совға тариқасида тарқатишди. Ушбу нашрнинг 3-4 саҳифаларида “Заҳириддин Муҳаммад Бобур меросини ўрганишга бағишланган халқаро илмий конференция” тўғрисида маълумот берилган эди. Қуйида шу материал мазмуни баён қилинди:

Заҳириддин Муҳаммад Бобур бўйича халқаро конференция

Заҳириддин Муҳаммад Бобур Жанубий Осиёдаги Буюк Бобурийлар сулоласи асосчиси, ёрқин, ноёб истеъдодли шахс бўлиб, бугунги кундаги жаҳон тарихида алоҳида ўрин тутади. У фақат Ҳинд-Покистон ярим ороли ҳудуди тарихидагина эмас, Марказий Осиё тарихида ҳам ўз ўрнига эга. Мана шунинг учун Бобур шу икки жуғрофий ҳудуд ўртасидаги алоқа рамзи - кўприк бўлиши мумкин.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур туғилган кунини нишонлаш мақсадида 2021 йил 11февралда “Заҳириддин Муҳаммад Бобур мероси ва унинг Покистон ва Ўзбекистоннинг икки тарафлама замонавий муносабатларини мустаҳкамлашдаги ўрни” мавзусида халқаро конференция Лоҳур шаҳридаги Панжоб Университетининг Ҳудудий интеграция маркази (ҲИМ) билан Ўзбекистон Республикасининг Покистон Ислом Республикасидаги элчихонаси ва Исломободдаги Глобал ва стратегик тадқиқотлар маркази ҳамкорликда ташкил этдилар. Конференция Ал Раази Ҳолл деган жойда бўлиб ўтди.

Конференцияда Ўзбекистоннинг Покистондаги элчиси Ойбек Усмонов, Университет проректори, профессор, доктор Салим Мазҳар, Санъат ва ижтимоий фанлар факультети декани профессор, доктор Амра Раза, Глобал ва

стратегик тадқиқотлар марказининг мутахассислари бошқаруви вакили доктор Маҳмаудул-Ҳасан, Ижрочи директор Халид Таймур, Панжоб Университетитнинг (ПУ) Тарих ва Покистон тадқиқотлари бўлим мудири, проф. Маҳбуб Ҳусайн, ПУнинг ўзаро муносабатлар тадқиқи институти проф. Доктор Ношина Салим, ПУнинг санъат ва дизайн коллежи хос профессори, доктор Сумера Жавад, ПУнинг ҳудудий мувофиқлаштириш маркази директори доктор Фавзия Ҳади Али, Пешовар Университети ҳудудни тадқиқоти маркази профессори, доктор Шабир Аҳмад Хон, ПУдан доктор Фараз Анжум, доктор Рухшона Ифтихор, бошқа факультет вакиллари ва кўплаб талабалар конференцияда иштирок этдилар. Конференция қатнашчиларига мурожаат этиб, Ўзбекистон элчиси Ойбек Усмонов, ушбу тадбирда иштирок этаётган талабаларнинг Ўзбекистон маданиятини креатив усулда ўз бадиий асарларида тасвирлагани катта таассурот қолдирганини таъкидлади. Унинг фикрича, Заҳириддин Бобур ҳаёти ва мероси мамлакатларининг икки томонлама алоқаларини мустаҳкамлашга хизмат қилади. Ва бу маданий алоқаларни мустаҳкамлаш учун имкониятлар мавжуд. Элчи шуни таъкидладики, Лоҳур шаҳри ўзининг Бобурийлар билан боғлиқ тарихий маданий мероси билан ҳар бир Ўзбекистон фуқароси учун қадрлидир.

О.Усмонов Ўзбекистон Покистон билан ижтимоий-иқтисодий алоқаларни ривожлантиришни рағбатлантиришни хоҳлайди, деди. Унинг фикрича, Тошкентдан Пешавор шаҳригача қуриладиган темирйўлга асос солиниши халқларимиз ўртасидаги бўладиган ўзаро муносабатларнинг ривожланишини рағбатлантиришга ёрдам беради. Элчи Ҳудудий интеграция маркази ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур меросини ўрганиш марказларини ташкил этгани учун Панжоб университети ректори, профессор Ниёз Аҳмадга

миннатдорчилик билдирди. ПУ ректори, профессор Ниёз Аҳмад Панжоб университети Ўзбекистон университетилари билан ўзаро манфаатли алоқаларни кучайтиришни қўллаб-қувватлайди. Унинг фикрича, ПУ дўст мамлакатлар билан ҳудудий ҳамкорликнинг кучайишига алоҳида эътибор беради ва ҳудудий интеграция маркази мана шу мақсадни амалга ошириш учун тузилган.

Университет проректори, профессор, доктор Муҳаммад Салим Манзар ўз маърузасида шуни қайд этдики, ПУ факультети ўзаро талаба алмашувларни ташкил этади. Ўзаро икки томонлама ҳамкорлик, мамлакатлар ўртасида яқин муносабатларни қўллаш давр талаби ва ПУ бу соҳада етакчи ташкилот сифатида фаолият кўрсатади. Ўз мурожаатида профессор, доктор Маҳбуб Ҳусайн шуни айтдики, Заҳириддин Бобур сулола асосчиси бўлиб, ўз автобиографиясини ёзиб қолдирди. Унинг фикрича, Бобур янги алифбо “Хати Бобурий”ни ихтиро қилди ва у ажойиб сўфий шоир эди. У: “Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва мероси Ўзбекистон билан стратегик алоқаларни рағбатлантириш учун жуда яхши манбадир”, - деди. Унинг фикрича, бу режа доирасида Панжоб ва Ўзбекистон университетлари орасида илмий алмашинув назарда тутилади. Асосий мақсад ўтмишнинг муштарак тарихини топиш ва ундан ибрат сифатида фойдаланишдан иборат.

Доктор Меҳмудул-Ҳасан Хоннинг таъкидлашича, Бобур Шарқ халқлари тарихидаги энг жозибадор шахслардан биридир. У: “Бобур Шарқ халқлари тарихидаги энг қудратли салтанатга асос солган ва биринчи бўлиб Покистон руҳиятига таъсир қилди”, - деди.

Доктор Фараз Анжум Бобур шахсиятидаги юксак инсоний хусусиятларни таърифлаб, улар келгуси авлодлари учун юксак намуна бўлиб хизмат қилганини кўрсатди.

Унинг шахсияти колониал даврдан аввал ҳам кейинги подшоҳлар учун ўрнак бўлиб хизмат қилган эди, деди.

Доктор Рухшона Ифтихор шуни қайд этдики, Бобурнинг ҳаёти ушбу ҳудуддаги колониал тузумдан аввалги ҳукмдорлардан фарқли ўлароқ тўлиқ тавсифга олинган эди.

Профессор, доктор Шабир Аҳмад Хон айтдики, Бобур ғайри табиий хусусиятларга эга шахс бўлган. У раҳбар – етакчи саркарда, ҳарбий жангчи, бунёдкор ва маъмуриятчи бўлган. Нотиқ, Заҳириддин Бобур табиат ошиғи бўлган ва ўз ворислари ичида энг яхши ўзгартирувчи ва ободонлаштирувчи эди, деди.

Ҳудудий интергарция маркази директори, доктор Фавзия Ҳоди Али айтдики, марказ ҳудудий ҳамкорликни кучайтиришга интилади. Конференция икки мамлакат ўртасидаги умумий ижтимоий-маданий ва тарихий меросни ва қадриятларни ёритади. Ўзбекистон ва Покистон ўртасидаги алоқалар ва ҳамкорлик келажагини очиб беради. Шу муносабат билан “Ўзбекистон-Покистон: умумий маданий ва исломий тарих” мавзусида Панжоб университетининг Алоқалар тадқиқоти институти талабалари кўргазмаси уюштирилган. Ўзбекистон элчиси ва бошқалар ПУ санъат ва дизайн коллежи кўргазмасига ташриф буюрдилар. Энг яхши асар ва тақдимотлар учун талаба ва факультет вакилларига сертификат ва фахрий ёрлиқлар талаба ва факультет вакилларига берилди.

Аввалроқ, Ўзбекистоннинг Покистондаги элчиси Ойбек Ориф Усмонов Панжоб университети ректори, профессор Ниёз Аҳмад қабулида бўлиб, икки мамлакат таълим масканлари ўртасида умумий ҳамкорлик масалаларини муҳокама қилдилар. Панжоб университети ва Ўзбекистон миллий университети ўқитувчи, талабалари ва ҳамкорлигида тадқиқотларни амалга ошириш бўйича меморандум имзоланди.

Шу муносабат билан Панжоб университети ректори, профессор Ниёз Аҳмад Ўзбекистонлик талабалар учун стипендиялар ажратилишини эълон қилди ва уларни ушбу таълим масканида илм олишга чақирди.

International conference on Zaheer-ud-din Muhammad Babur

Zaheer-ud-din Muhammad Babur, the founder of Mughal dynasty in South Asia, was an iconic figure who occupies a unique place in today's world as he is venerated not only in Indi-Pakistan Subcontinent but also in Central Asia and thus can be a bridge between these two geographical regions. To commemorate Zaheer-ud-din Muhammad Babur Day, the Department in colledoration with Punjab University Regional Intergration Centre (RIC)/ the Embassy of the Republic of Uzbekistan to Pakistan and Strategic Studies (CGSS) , Islamabad, arranged a conference titled "Legacy of Zaheer-ud-din Muhammad Babur and Its Relevance in Contemporary Bilaterial Relations between Pakistan and Uzbekistan". It was organized on Thursday February 11, 2021 at Al Raazi Hall.

In the Conference, Uzbekistan's Ambassador to Pakistan MrOybekArifUsmanov, Pro Vice Chanceller prof DrSaleemMazhar, Deen Faculty of Arts and Humanities Prof DrAmra Raza, Centre for Global and Strategic Studies (CGSS) member board of experts Dr Mahmood ul Hasan, Executive Director Col (r) Khalid Taimur, Chairman PU Departmen of History and Pakistan StudiesProfDrMahboob Hussain, PU Institute of communicftion Studies Derector Prof DrNoshinaSaleem, PU Colloge of Art and Design Principal Prof DrSumera Jawad, PU Regional Integration Centre Director Prof. Dr. Shabir Ahmad Khan, PU's DrFarazAnjum, DrRukhsanaIftikhar, other faculty members and large number of students participated in the conference. Addressing the

conference, Uzbek Ambassador MrUsmanov said thet he was immensely impressed by the artwork of PU students in which they truly reflected the culture of Uzbekistan in a creative manner. He said that the life of Zaheer-ud-din Babur could be a guideline to promote bilateral relations between the two countries and there were many cultural similarities. He said thet Lahore was very dear to every Uzbek citizen.

He said that Uzbekistan wanted to promote socio-economic relations with Pakistan. He said thet the establishment of a rail track from Tashkent to Peshavar would play an important role in the promotion of trade and people to people contact. He lauded PU VC Prof Niaz Ahmad for establishment of the RIC and promotion of the legacy of Zaheer-ud-din Babur in such a remarkable way. In his statement, PU VC Prof Niaz Ahmad said that PU would extend full cooperation to promote mutual relations with Uzbekistan's universities. He said that PU would play its role for strengthening regional cooperation amjng friendly countries and RIC had been established keeping in view this purpose.

Pro Vice Chancellor Prof Dr. Muhammad SaleemMazhar in his remarks stated that PU would organize exchange programs for students and faculty. He said that promotion of bilateral relations between the two countrieswas a need of the hour and PU would play a lead role in this regard. In his address, Prof DrNahboob Husain said that Zaheer-ud-din Baburwas the first king who wrote an autobiography. He said that Babur invented Khat-e-Baburi and he was also an excellent Sufi poet. He said that the life of Zaheer-ud-din Babur was a good sours to promote strategic relations with Uzbekistan. He stated that a framework would be devised for academic axchange between PU and Universities in Uzbekistan to find out the relevance in the shared history for the study of the contemporery world. DrMehmoodul Hassan Xan stated thet Babur was the most captivating

personality in the oriental history. He said thet Babur created one of the most powerful empiresin the history of the East and was the first one to establish a connection with the soil of Pakistan.

Dr. FarazAnjumhighlited the legacy which Babur bequeathed to his descendants and which served as an example for them to follow. He stated thet Babur's personalitybecame an example for the later ruler to follow.

Dr. RukhsanaIftihar stated that Babur's life was documentd more than any ather figure before coliniel rule in the subcontinentinent. Prof. Dr. Shabir Ahmad Khan stated thet Babur was a man of extraordinary qualities. He was a leder, soldier, an architect and an administrator. He said that Zaheer-ud-Din Babur was a lover of nature and he was the dest in generating loyalty and devotion amongst his followers. RIC Director Dr. FauzaHadi Ali said said that the the would organize actives to enhance regional cooperation. The cjnferense highlighted the socio-cultural and historic legasy and common heritage of two countries and avenues of cooperation and collaboration between Uzbekistan and Pakistan. A Documentary was also screened at the occasion on "Uzbekistan-Pakistan: Shared Cultural and Islamic History" which was produced by the students of the PU Institute of Communication Studies. The Uzbek ambassador and others visited the art exhibition organized by PU College of Art and Design. Shields and certificates were distributed among faculty members and students for the outstanding performance.

Earlier on, Uzbek Ambassador to Pakistan OybekArifUsmanov called on PU Vice Chancellor Prof Niaz Ahmed at his office to discuss enhancement of mutual cooperation among the universities of both the contries. A MoU was also signed between Panjab University and Uzbekistan's Tashkent State University for exchange of teachers, students and launching of joint research projects. On the occasion, PU VC

Prof Niaz Ahmed announced to give scholarships to Uzbek students and invited them to study in Panjab University.



SEVGI-VAFO TIMSOLI CHUCHUK BEGIM

Shafiqa YORQIN,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

Sevgi timsoli- Chuchuk Begim.Tarixiy manbalardagi ma'lumotga ko'ra ,Temuriylar va ular davomchisi Boburiylar xonadoni va sulolasida sevish qobiliyati juda kuchli bo'lgan.Ular urushda qanchalik yuragi qattiq va shafqatsiz bo'lgan bo'lsalar, sevgida shunchalik ko'ngli yumshoq va mayin tuyg'uli insonlar bo'lganlari kishini hayratga solmay qo'ymaydi. Boburning malika Mohimbegimga bo'lgan hurmat va sevgisi Mo'guli A'zam yoki Jaloliddin Akbar, Jahongir, ayniqsa, Shohjahonning o'z xotiniga ko'rsatgan sevgisi va dunyoda yagona ishq binosini qurgani, hamisha sevgisi timsoli bo'lib kelgan.

Biz bu maqolada hind ko'ragoniylari yoki Boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur shohning ikkinchi farzandi Komron Mirzo va xotini Mohchuchukbegim oralarida bo'lgan sevgi, vafo va sadoqat haqida so'z yuritmoqchimiz.Bu sevgi ham tarixda o'rnak bo'lib qoladigan hikoyalardan biri bo'la oladi.

Komron Mirzo otasi Bobur podshohning o'limidan keyin akasi Humoyun mirzoga ko'p qarshiliklar ko'rsatib, oqibat yengilib qo'lga tushdi va Humoyun Mirzo buyrug'i bilan milodiy 1581 - yilda ko'ziga nishtar urildi.[1]

[1] Maqolotush shuaro, 664-bet

Ushbu voqeadan so’ng Humoyun Mirzo Sind qirg’og’iga yetganida, Komron Mirzo undan Hijozga safar qilish va Haj farizasini ado qilishga ruxsat berishni so’radi. Humoyun Mirzo ruxsat berish kechasi bir necha yaqin kishilari bilan birga Komron Mirzoning hirgohiga hayrlashgani kirib bordi.

Komron Mirzo farzandlarini Humoyunga topshirib ulardan xabardor bo’lishini so’radi.Humoyun bu istakni qabul qilib, Hijoz safariga Komron Mirzo bilan hamroh bo’lishini istagan odamlarga ham ruxsat berdi, lekin fursat talab va kaltabin kishilar orasida hamrohlik qiladiganlar topilmadi.Faqat Chalma Ko’ka avvallarida Komron Mirzo xizmatida edi va hozirda Humoyun Mirzo sufrachi yo bovarchisi hamda uning inoyat va lutfini qozongan kishi edi, bunday be’navolik qaro kunlari va tanholik kechalarida Komron Mirzo xizmatida bo’lish niyatini bildirdi. Komron Mirzo Sind daryosi bo’yida Tata(mayda tirnoqchalar) va u yerdan Hijoz maqsadida yo’lga tushdi.

“Humoyunnoma” Komron Mirzoning ko’r qilinishi voqeasi bilan tugaydi, “Akbarnoma” va “Taskirat-ul Voqe’ot”da Komron Mirzoning Hijozga jo’nagani va o’sha yerda uch marotaba Haj marosimini bajo keltirib,to’rtinchi bor Haj marosimini ado etayotgan vaqtda, vafot etib , o’sha yerda dafn etilgani, juda qisqa qilib yozilgan, lekin “Tarixi Sind”ning yozishicha, Komron Mirzo, Humoyun podshohdan ruxsat olgach Hijozga qarab harakat qilmagan, balki Sindda qaynotasi Shohhasan Arg’un qoshida bir muddat istiqomat qilib, keyinroq Hijoz tomonga yo’lga tushgan. Quyida “Tarixi Sind”da yozilgan ma’lumotni Komron Mirzoning forsiy devoni muqaddimasidan foydalangan holda tarjima qilib keltiramiz:

Mirzo Komron yana 1578-yilda keldi[1]. Mirzo Shohhasan bir necha muddat uni daryo o’rtasida Shoxpila tog’ida joylashtirdi va Batulani Mirzoning matbaxi va xarajati uchun

[1] Komron Mirzo hijriy 960 (1581)-yili ko’r qilinib, o’sha yil haj qilish maqsadida yo’lga chiqdi. Demak, qayin otasi Shoh Hasan Arg’un qoshiga uning ikkinchi marotaba borishi 957 (1578)- yil emas, hijri 960 (1581)- yildir.

tayin, hamda Fathbohni uning nuzuli uchun muqarrar qildi.Mirzo Komron u yerdan Haj qasdini qildi. Shunda Komron Mirzoning xotini Chuchukbegim:

-Meni ham ruxsat qilsinlar , Mirzo bilan ketay-dedi.Mirzo Shohhasan ruxsat bermay ko'p mubolag'a qildi.Oxiri Chuchukbegim otasidan ruxsatsiz kemaga kirib , Mirzo Komron qoshiga yolg'iz o'zi bormoqchi bo'ldi.Sulton Mahmud muhrdor va bir guruh mahramlar kelib , uni qaytardilar. Mirzo Shohhasanning o'zi qizining kemasiga kelib, ko'pdan-ko'p uzrlar so'radi. Oxiri Chuchukbegim otasiga:

-Hozir, haloyiq Mirzoning qizi erining itoatini qilmadi deb, meni badnom qilmaydilarmi?-dedi.

Mirzo Shohhasanga bu so'zlar ma'qul bo'ldi.Nochor uni yaxshi asbob -anjomlar bilan ruxsat berdi[1]. Bu voqea nimani isbotlab beradi?

Mening nazarimda, ikki haqiqatni oshkor qiladi:

1.Komron Mirzo shunchalik malikasi Chuchukbegimni sevib, hurmat qilib, vafo ko'rsatib, e'zozlab yurgan ekanki, malikasi ham, otaning uyidagi rohat-u farog'at, tinch-totuv hayotni tark etib, otasining buyrug'i va iltimoslariga bo'ysunmay, ko'zi ojiz va shohlikdan tushgan eriga ergashib, so'nggi damgacha uning hamdami bo'ldi. Bu, Komron Mirzoning vafo, sadoqat va sevgisining kuch-qudratining nishonasidir.

2.Chuchukbegim eri Komron Mirzodan shunchalik mehr-sadoqat, vafo-u qudrat ayniqsa sevgini ko'rgan ekanki, erining sevgisini ota-onaning mehridan ustun qo'yib , yo'l azobi va bundan keyingi oddiy faqirona hayotni, shohona yashashdan afzal bildi, va umrining so'ngigacha Komron Mirzoning yonida qoldi.Hamda Komron Mirzo vafotidan so'ng firoqiga chiday

[1] Bukriy, Muhammad Ma'sum, Tarixi Sind, qo'lyozma nusxa, asiyatik susayti, Bangola, 181- bet., Komron Mirzoning forsiy devonining muqaddamasi, 37- bet.

olmay vafot etdi.Bu esa, Chuchukbegimning oliy tarbiyasi va hurmatlarga arzigulik siymosining nishonasidir.

Komron Mirzo Haj ziyoratiga musharraf bo'ldi, lekin ushbu muborak joyni tark etmadi va umrining so'nggi lahzalarigacha o'sha yerda qolmoqchi bo'ldi. Uning umri nihoyalab qolgan ekanmi yoki Kobulda tug'ulib, yashagan, Kobulning so'lim va salqin havosiga o'rganib qolgan Komron Mirzoga Arabistonning juda issiq havosi yomon ta'sir qilgan ekanmi uch yil Haj marosimini bajo keltirib, to'rtinchi yili Haj paytida , Arofat marosimini ado etgandan so'ng , quyosh mag'ribga botayotganda, uning umr quyoshi ham shu on so'ndi.

Komron Mirzoning vafoti va dafn marosiming o'tgani haqida "Tarixi Sind" quyidagicha ma'lumot beradi:

Mirzo Komron va Begim(Chuchuk begim) Haj farizasini ado qilgandan so'ng, ikki-uch yil Makka-i Muazzamada istiqomat qildilar. Mirzo Komron Haj kuni Arofat marosimini ado etib , oftob botmay turib vafot etdi.Chuchuk begim ham, yetti oydan so'ng , mangu jahonga safar qildi. Bu voqelar 1585-yilda sodir bo'ldi[1].

Muzakkiri Ahbob Komron Mirzoning vafotidan so'zlab uning marqadi haqida bunday deydi:

Va marqadi oliysi Go'riston mualloda Xadichayi Kubro Razillohhu anhoning yaqinidadur[2].

Chuchukbegim Sind hukmdori Shohhasan Arg'unning qizi 1574-yilda Kjmron Mirzoga turmushga chiqqan edi. Shohhasan Arg'un boy, hashamat va qudratga ega amirlardan biri edi.Chuchukbegim podshohlikdan tushgan, ko'zdan ayrilgan va kishilar yordamiga muhtoj bo'lib qolgan Komron Mirzo bilan hamrohlik qilmay,otasining qoshida noz-ne'matda yashay olardi,ammo u sevgi va vafoni tanlab safar mashaqqati va o'zga yurtlarda ovoralikni faqatgina eri uchun tanladi.Bu vafoli,

[1] Tarixi Sind, 181- bet.
[2] Muzakkiri ahbob, (forscha matni), 60- bet.

muhabbatli ayol Komron Mirzoning so’nggi damlarigacha u bilan hamroh va hamsuhbat edi,ko’rlikda uning ko’zi va xorlikda uning g’amxo’ri bo’ldi va hattoki Komron Mirzodan faqatgina yetti oy keyinroq vafot etib, u dunyoda ham Komron Mirzoni yolg’iz qoldirmadi.

Bunday vafoli, sadoqatli va mehribon begimlarga olqishlar bo’lsin!

АНДИЖОН – ИЛК ШАҲАРСОЗЛИК МАДАНИЯТИ ТИЗИМИДА

Зокиржон Машрабов,
Бобур жамоат фонди раиси, профессор
Боқижон Матбобоев,
Ўз РФА Самарқанд археология институти
бош илмий ходими, профессор

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг она шаҳри Андижон тарихини халқаро фонд томонидан археологик ўрганиш ишлари давом этмоқда. Қуйида энг сўнгги топилмалар хақида сўз боради.

Андижон Марказий Осиёнинг илк деҳқончилик пайдо бўлган ва шаҳарсозлик маданиятининг дастлабки кўринишлари шаклланган ўчоқларидан бирида, Фарғона водийсининг шарқий қисмида жойлашган. Бу ҳудудни қадимдан деҳқончилик ривожланган ҳудудлардан бири эканини энг сўнгги археологик топилмалар ҳам тасдиқламоқда. Мазкур тарихий жараёнларини ўрганиш қадимги тош даври (палеолит, мезолит, неолит) ва илк металлар даври (энеолит, бронза, илк темир)

ёдгорликларида кам бўлса-да, амалга оширилган. Шу вақтгача водий худудида қадимги тош даври қатламлари қайд қилинган эди. Бироқ мил авв. III-II минг йил илгариги яъни энеолит ва илк бронза даври маданий қатламлари ва топилмалари водийда аниқланган эмас эди. Водийнинг икки-уч минг йиллик тарихи номаълум бўлиб қолар эди. Оқибатда бу борада турли-туман тахмин ва фаразлар бор эди. Қадимги энеолит ва бронза даврига оид айрим топилмалар келиб чиқиши Яқин Шарқ ва Олд Осиё билан боғланар ёки уларнинг водийдан келиб чиқишига шубҳа билан қаралар эди. Ҳатто мазкур маданият вакиллари Жанубий Туркманистондан Бақтрия ва Сўғд орқали Фарғона водийсига кўчиб келганлар деган ажабтовур фикрлар ҳам бор эди, ҳар бир қарашда қандайдир хақиқат уруғлари бордай туюларди.

Таниқли фарғонашунослар Ю.А.Заднепровский ва Н.Г. Горбуновалар ҳам бу муаммонинг ечими мушкуллигини таъкид қилардилар, бир умр шу масалага эътибор қаратдилар. Масала ечимига ўтган вақтда ҳам, ҳозир ҳам икки хил асос бор: бири азалий асос, яъни келиб чиқиши маҳаллий, иккинчиси четдан кириб келган деган фикр. Биринчи фикр жўяли ва хақиқатга яқинлашади. Сабаби тарихий ривожланиш босқичлари энг қадимги даврлардан то неолит сўнгги палласигача келиб узилиш бўлади. Археологлар ана шу узилиш нуқтасини яқин 100 йилдан бери топа олганлари йўқ эди. Бироқ XIX-XX асрлар ва XXI аср бошларида водий худудидан оламшумул топилмалар қўлга киритилди. Булар Сўх тоштумори, Афлотун ва Хок (Хак, 6 та предмет) метал буюмлари хазиналари, тош гиралар (6 та), ибтидоий тош ҳайкалча (Далварзин) ва Шагим қабристони материалларидир. Булар ичида “қадоқ тошлар”(гиралар) ва қора рангли тошдан (стеатит ?) ясалган предмет алоҳида аҳамият касб этади. “Қадоқ тошлар”

(гиралар) водийни бир неча нуқтасида (асосан шимоли шарқ томонда) топилди. Тадқиқотчи З.Раҳмоновнинг маълумотига кўра “қадоқ тошлар” Ўшда (2та), Пахтаободда 1 та, Қорасувда 1 та, Наманган музейида 1 та, Андижондаги Бобур жамоат фонди музейида 1 та, жами республикамизда мазкур топилмалар сони 10 га яқин. Улар жанубий Ўзбекистон (Сополли маданияти, Бақтрия Марғиёна археологик комплекси - БМАК), Тожикистон (Саразм), Қозоғистон (Еттисув), Эрон ҳудудларидан ҳам аниқланган [12, 211]. Мазкур топилмалар ҳаммаси милоддан авв III – II минг йилликлар билан саналанади [6]. Сўх тоштумори ва ушбу “қадоқ тошлар”нинг бажарган вазифаси икки хил бўлиши мумкин (бу алоҳида мавзу), сўзсиз бу ноёб топилмаларга фарғонашуносликда катта кашфиёт деб қараш мумкин. Келтирилган топилмалар Фарғона водийси тарихидаги оралиқ бўшлиқни қисман бўлса-да, тўлдиради ва унинг узлуксиз давом этганини кўрсатади. Муаллифлар Н.Г.Горбунова Ю.А. Заднепровский фикрларига таянган ҳолда Чуст қадимги деҳқончилик маданияти келиб чиқиши маҳаллий асосга эгалигини келтириб ўтадилар. Яъни Чуст типидаги маданиятлар деҳқончилик узоқ давом этган ҳудудлар билан боғлиқ ва уларнинг оралиқ маконлари шарқий Фарғона ҳудудида бўлиши керак, деган хулосага келадилар. Тош (неолит) даври бўйича Санкт-Петербурглик йирик мутахассис В.Тимофеев Б.Х.Матбобоев билан суҳбатда хронологик жиҳатдан сўнгги неолит материаллари Марказий Фарғонанинг Сарижўга атрофига тўғри келишини ва айнан шу ҳудуддан энеолит-бронза материаллари чиқиши мумкинлигини таъкид этади. Улар қалин ётқизиқлар остида қолиб кетган бўлиши керак.

Сирдарёнинг энг катта ирмоғи Қорадарёнинг юқори ва ўрта оқимларида вужудга келган қулай географик шароит туфайли мил. авв. II минг йиллик ўрталарида (мил. авв.

XIV-XII асрлар) кўплаб суғорма деҳқончилик маконлари вужудга келади. Археологлар маълумотларига кўра Фарғона водийсидаги илк деҳқончилик ёдгорликларининг 70 фоиздан ортиғи шу ҳудудга жойлашган [4]. Бу ҳудудда илк шаҳар Далварзин [14] (мил. авв. IX-VII асрлар), қадимги шаҳар Эйлатон (мил. авв. VI-III асрлар), Шўрабашот (мил. авв. IV-I асрлар) ва бошқа кўплаб кўҳна шаҳар харобалари археологик жиҳатдан қайд этилган.

Андижоннни дастлабки археологик ўрганиш ўтган асрнинг 50-йилларидан бошланган [11, 145-194]. Айниқса, мустақиллик йилларида бу ишга катта эътибор қаратилди ва олиб борилган археологик қазишма ишлари яхши натижалар берди. Текширишларга кўра, шаҳар шу номли сой яқинида, ўрта асрлар Андижон шаҳрининг тарихий ўрнида пайдо бўлган. Буни тасдиқловчи археологик материаллар (бўёқ билан гул солинган сопол идишлар, тош буюмлар ва ҳ.к.) ҳозирги Сужоат ва Тутзор кўчалари туташган жойда – Сарвонтепада аниқланди. Аниқланган маданий қатламлар ва ундаги топилмалар мил. авв. VI-III асрлар билан саналади [7]. Бундай археологик комплекслар қайд этилган маданий қатламлар Фарғона водийсидаги бирорта тарихий шаҳарда ҳозирча қайд этилмаган. Асоссиз ва сунъий равишда қадимийлаштирилган Ўш (3000 йил) ва Хўжанд (2500 йил) шаҳарларида ҳам бу қатламлар топилмаган. Ушбу кўҳна ёдгорлик нафақат Андижон шаҳри, балки водий қадим тарихи учун ҳам катта илмий аҳамиятга эга. Бу ёдгорликнинг аксарият қисми аҳоли ҳовли-жойлари остида 4 метр чуқурликда сақланиб қолган. Сарвонтепа майдонининг (15-20 гектар) катталиги ва ундаги маданий қатламлар қалинлиги (1 метрдан зиёд), бу ёдгорликнинг Андижоннинг илк даври тарихида муҳим роль ўйнаганлигидан далолат беради. Яъни, Сарвонтепа ҳозирги шаҳар ҳудудида топилган катта ва энг қадимий

аҳоли яшаш маконидир [13]. Демак, илк шаҳар ўзаги милоддан аввалги VI-III асрларда Сарвонтепада катта манзилгоҳ сифатида шаклланган ва интенсив ривожлаган. Кейинги даврларда урбанизация жараёни Сарвонтепага яқин атрофдаги ҳудудларни ҳам қамраб олган. Бу археологик материаллар Уграёр (Ганчтепа), Чордона, Яккатепа, Қўштепа, Култепа каби шаҳар ҳудудидаги ёдгорликларда аниқлаган. Хитой ёзма манбалари Фарғона водийсида мил. авв. II-I асрларда 70 дан ортиқ катта-кичик шаҳарлар бўлган деб хабар беради. Улардан пойтахт Эрши (Марҳамат шаҳридаги Мингтепа), Ючень (Ўзган яқинидаги Шўрабашот), кейинроқ Хуминь (Қува) ва бошқаларнинг Андижон яқинида жойлашганини тадқиқотчилар эътироф этадилар. Хитой йилномаларида тилга олинган шаҳарлардан бири Андижон бўлгани муқаррар, бу ҳақда таниқли хитойшунос А.Хўжаев янги фикрни олға суриб Гуйшанни Андижон ўрнида бўлган, дейди.

Ўрта асрлар арки (10 га), шаҳристони (100 га) ўрни ва чегаралари археологик жиҳатдан ҳозирги Арк ичи маҳалласи ва унинг атрофидаги ҳудудда аниқланиб, айрим бўлакларида қазилмалар ўтказилган. Работ майдони тахминий ҳисоб-китобларга кўра 400 гектардан ортиқ бўлган дейилади.

Демак, буларнинг барчаси 100 гектардан ортиқ майдонда Андижон тарихий қисмининг шаклланганини исбот этади. Бу ҳудуднинг аксарият қисми ҳозирги “Эски шаҳар”нинг қалин жойлашган маҳаллалари, гузарлари остида қолиб кетган.

Андижон ўрта асрларда ҳам Осиёнинг тарихий шаҳарлари силсиласида ўзига хос ва мос ўринга эга йирик маданият, савдо-иқтисодий марказларидан бири бўлиб қолган. Ёзма манбаларда, хусусан ал-Истаҳрийда бу шаҳар

X асрда илк бор “Андукон” номи билан тилга олинади[1]. Андижоннинг илк танга пуллари ҳам X асрга тўғри келади, улар 968-970 йиллари зарб этилган. Мўғуллар Ўрта Осиёга бостириб кирганларидан сўнг ҳам Андижон Мовароуннаҳрдаги йирик шаҳарлардан бири бўлиб қолаверади. XI-XII асрларга оид шаҳарнинг катта ишлаб чиқариш даҳаси ўша давр танга пуллари билан Тиббиёт институти академик лицейи ҳовлисидан 2008 йилги археологик қазишмалар пайтида аниқланди. Тангалар Самарқанд, Ўзган ва Хоразмшоҳлар томонидан зарб этилган ва Андижоннинг савдо алоқалари кўламини кўрсатади. Муин ад-Дин Натанзийнинг “Искандар анонимиъ асарида келтирилишича, мўғуллар “кўпгина катта шаҳарлар, жумладан, “қуббот-ул-Исломи Андижон” ни ҳар томонлама ривожлантирди [1] ва у Фарғона пойтахти бўлди[1,534]. Андижон, Марғинон, Ўш, Хўжанд сингари шаҳарларда XIV аср 2-ярмида кумушдан танга пуллари зарб этилган. Бу гуруҳ тангалар “чиғатойлар пули” деб юритилади[3,64-70]. “Чиғатой пули” намуналари Т. Келдиев кўчасидаги Чордона ёдгорлигининг юқори қатламларидаги ўрта асрга оид қабрларнинг бирида топилди.

1377 йили мўғуллар ҳукмронлиги барҳам топгач, Андижон тарихида янги босқич – темурийлар салтанати даври бошланади. Амир Темур Андижон ва Ўзганни ўн икки тумани билан ўғли Умаршайхга беради, бу вақтда шаҳар ҳокими қароргоҳи эди [1, 326]. Умаршайх ҳукмронлиги йилларида шаҳар атрофидан мудофаа деворлари тортилади. Ёзма манбаларда бу мудофаа иншоотлари хақида баъзи маълумотлар учрайди. Абд ар-Раззоқ Самарқандийнинг ёзишича, 799 ҳижрий ёки 1377-1378 милодий йили амирзода Умаршайх Андугонда

[1] “Андукон” термини Ёкут ал-Ҳамавийда ҳам учрайди [2].

мудофаа деворини бунёд этади [15,153]. Археологлар хулосасига кўра ушбу девор Қорахонийлар даври маданий қатламлари устига бунёд этилган. Тилга олинган шаҳар деворидан то XVII-XVIII асрларгача фойдаланилгани ҳақида тарихий маълумотлар бор. “Тарихи Рашидий”нинг муаллифи Мирза Ҳайдар: “**Фарғона давлатининг ҳукмдорлари Абу Саид, унинг ўғли Умар Шайх Мирзо ва набиралари Бобуршоҳ ва Жаҳонгир Мирзолар ўлтирадиган пойтахт шаҳар Андижондур [9, 190; 10]**” деб ёзади. Демак, Андижон – темурийлар салтанатининг шарқий сарҳадларидаги муҳим стратегик, иқтисодий ва маданий марказлардан бири бўлиб қолади. Заҳириддин Муҳаммад Бобур давридаги Андижон шаҳри ҳақида тўлиқ маълумот берувчи “Бобурнома” асаридек манба бўлмаса керак. Хусусан, Бобур ёзади: “**Фарғона вилоятининг пойтахтидур... Мовароуннаҳрда Самарқанд ва Кеш қўрғонидан сўнгра мундан улуғроқ қўрғон йўқдур. Уч дарвозаси бор. Арки жануб тарафда воқе бўлубтур**” [5, 5-6]. Шу даврда Андижоннинг ўз пул зарбхонаси ҳам фаолият кўрсатган. Андижонда зарб қилинган 4 хилдаги танга-пуллар нафақат Ўрта Осиёда, балки Яқин Шарқда ҳам муомалада бўлган. Ҳозирда шаҳар ҳудудида Хўжа Ахрор Валий шогирдлари Мулла Асомиддин номи билан Мирпўстин, Жомеъ масжиди, шаҳар яқинидаги Қутайба ибн Муслим, Бобур уй-музейи каби ёдгорликлар мавжуд.

Андижонда аниқланган бу топилмаларнинг аҳамияти мамлакатимиз ва хориждаги олимлар томонидан ҳам тан олинган. Бу ҳақда илмий мақолалар эълон этилган ва ЮНЕСКО халқаро конференцияларида (2002, 2005 йиллари) маъруза қилинган ҳамда бу материаллар ахборот сифатида кўрсатилган. Андижондаги археологик материаллар ва улар санаси мамлакатимиздаги академиклар А.А. Асқаров, Ю.Ф. Буряков, А.Р. Муҳаммаджонов,

профессорлар Т.Ш. Ширинов, А.С. Сагдуллаев ва хорижлик Н.Н. Негматов, Г. А. Брикина каби танилган урбанологлар томонидан қўллаб- қувватланган. Юқорида келтирилган маълумотларга кўра, Андижон шаҳри мил. авв. I минг йиллик ўрталарида шакллана бошлайди. Аввал “Эски шаҳар” қисмидаги Сарвонтепа ва унинг атрофларидаги ҳудудларда, маълум вақт ўтиб, ўрта асрлардан шарқ томонга кенгайиб, ҳозиргача сақланиб қолган арк, шаҳристон фаолият кўрсата бошлайди. Шундай қилиб, Андижоннинг тарихий қисмидаги археологик ёдгорликлар ва ёзма манбалар асосида унинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари ишлаб чиқилди [8, 35-48]. Андижон ўзининг геополитик жойлашувига кўра Бақтрия, Суғд, Уструшона, Чоч каби тарихий ўлкаларнинг Хитой (Шарқий Туркистон) билан савдо-иқтисодий ва маданий алоқаларида ўзига хос кўприк вазифасини бажарган ва у қадимдан Ўрта Осиёнинг йирик тарихий-маданий марказларидан бири ҳисобланган.

Юқоридаги фикрларнинг барчаси Андижон шаҳрининг узлуксиз даврий ривожланиш босқичларига ва 2500 йиллик тарихга эга эканлигини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бартольд В.В. Работы по исторической географии. III том. Москва. 1965.

2. Бўриев О, Ваҳобова Б. Ёзма манбалар ал-Фарғоний ҳақида. Тошкент. 1998.

3. Давидович Е.А. Денежное хозяйство Средней Азии после монгольского завоевания и реформа Масуд-бека (XIII в.). Москва. 1972.

4. Заднепровский Ю.А. К истории оазисного расселения в первобытной Средней Азии // КСИА. Вып. 167. Москва. 1981.

5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент. 1989.

6. Матбобоев Б.Х., Машрабов З.З. Андижон тарихи (қадимги даврлардан XX аср бошларигача). Тошкент. 2014.

7. Матбабаев Б.Х. К открытию древнего поселения Эйлатанской культуры на территории Андижана // Цивилизация Центральной Азии: земледельцы и скотоводы. Мат. Межд. Конф. МИЦАИ при ЮНЕСКО. Самарканд. 2002.

8. Матбабаев Б, Машрабов З. Андижан: городская культура и этапы ее развития (историко-археологическое исследование) // O´zbekiston tarihi. 2007. №4. С. 35-48.

9. Мирза Муҳаммад Ҳайдар. Тарихи Рашиди. Ташкент. 1996.

10. Машрабов З, Раҳмонов В. Андижонлик ғариб... Шоҳ Бобур // Андижоннома. 13 феврал, 2008 йил.

11. Писарчик А.К. Некоторые данные по исторической топографии городов Ферганы // Сборник статей. Тр. ИИАЭ АН Тадж. ССР, том XLII. Сталинабад. 1956. С. 145-194.

12. Франкфор А.П. Существовал ли Великий Шелковый путь во II-I тыс до н.э. // Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций. Алма Ата. 1989. С. 203-217.

13. Matbabaev B. Kh. New archaeological complex of the Eylatan culture of Fergana (chronology and origin) // Civilizations of Nomadic and Sedentary Peoples of Central Asia. Samarkand-Bishkek. 2005.

14. Zadneprovsky Y. A. Early urban developments in Central Asia // Iran. XXXIII. London. 1995.

15. Материалы по истории киргизов и Киргизии. Вып. 1. Москва. 1973.

ДОНИШМАНДНИНГ ТЎҚСОНИНЧИ ДОВОНИ

(Бобур номли халқаро жамоат фонди раиси, геология-минералогия фанлари номзоди, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими Зокиржон МАШРАБОВ таваллудининг 90 йиллигига)

Янгибой ҚЎЧҚОРОВ,
Бобур номидаги Халқаро жамоат фонди
Қорақалпоғистон бўлими раҳбари,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими,
Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган журналист

Ақлли одамлар фозил ва донишманд инсонларга эргашиб яшайди. Менинг оддийгина бир ижодкор сифатидаги беқиёс бахтим шундаки, турли йилларда Ибройим Юсупов, Тўлапберген Қаипбергенов, Чингиз Айтматов, Расул Ҳамзатов, Эркин Воҳидов, Абдулла Ориповдек жаҳонга маълум адиблар, Собир Камолов, Матёқуб Қўшчонов, Азизхон Қаюмов, Озод Шарафиддинов, Иброҳим Ғафуров, Убайдулла Уватовдек атоқли алломалар, Қаллибек Камолов, Мадиёр Худойберганов, Олимбой Ражабов, Олимбой Примов, Тўли Маткаримов, Аминбой Тожиев, Аминбой Вафоев, Зокиржон Машрабовдек таниқли давлат ва жамоат арбобларидан дуолар олдим. Айниқса, таваллудининг тўқсонинчи довони устида турган донишманд оқсоқол Зокиржон ҳожи Машрабов билан кейинги йилларда биргаликда бажараётган камтарона ишларимиздан кўнгил тўқ эканини яширмайман. Хўш, ўша ишлардан лоақал биттасини тилга олиб ўтгин, десалар

бемалол айта оламан: Қорақалпоғистонда фонд бўлими ҳомийлигида “Бобур билимдонлари” танлови ўтказганимизда шоҳ ва шоир рубоийларининг барчасини ёддан биладиган бир неча ўқувчи борлиги маълум бўлди. Кейинги йили бир ўқувчи Бобур ҳазратларининг олтмишинчи ғазалини ёддан айтаётганида тўхтатиб, раҳмат айтиб, диплом ва совғаларни бердик. Бу икки ҳодиса ҳам шунчаки, яъни ҳар куни учрайдиган феноменлар эмас.

Ёрқин хотиралар ҳамиша фикрлашга, хулоса чиқаришга ундайди. Бундан 40 йил муқаддам Нукуснинг осуда оқшомида атоқли қалмиқ шоири Довуд Қўғултинов (қаймоқли шеърлари учун у киши ва бизларнинг Шукрулло домла китоблари чиқмасдан Ёзувчилар уюшмаси аъзоси бўлишган)нинг қадриабад дўстлари Ибройим Юсупов, Чингиз Айтматов, Мустай Карим иштирок этган гурунгга мен чой кўтариб кирганимда шундай деган эди: *“Мен ҳам азиз дўстим Ибройимга ўхшаб халқимнинг феъли ҳамда орзулари каби кенг саҳрода яшайман. Бизларни Пушкин “друг степей” яъни “саҳро дўсти” деб атаган. Саҳрода ўтган ҳар бир йилимни бир довон деб ҳисоблайман. Ҳар довонга кўтарилганимда ортимга бир ўгирилиб қарайман. Ва Аллоҳга шукрона айтаман. Зеро Барнаул ва Норильск турмаларининг бир тутам қуёш нури йўқ камераларида ётганимда ўз саҳромни роса соғинганман-да. Энди биз тинчлик замони ва донишмандлик довонидамиз. Сен, Расул, Чингиз Тўрақуловичга Байрутдан туриб ёзган шеърингда юз карра ҳақсан: бу заминда нафақат фаластинлик ва исроиллик биродарларимиз, балки барча халқлар бир-бирига қўл бериб юксаклик довонига чиқиши шарт. Шу довонда туриб халқларимизга холис хизмат қилишимиз керак!”*

Узоқ йиллардан буён халқимизга холис хизмат қилиб келаётган донишманд инсон, миллатимизнинг фидоий фарзанди, жаҳонгашта олим, толмас ўлкашунос, атоқли

бобуршунос, Бобур номли халқаро жамоат фонди раиси, геология-минералогия фанлари номзоди, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, “Фидокорона хизматлари учун” ордени соҳиби Зокиржон ҳожи МАШРАБОВ ўзининг тўқсонинчи баҳорини энг эзгу мақсадлар қуршовида қарши олмоқда.

Тўқсонинчи довон! Зокиржон ота ана шу юксак довондан туриб ўтган йилларига назар солса, киндик қони томган Ҳакан даҳасида ўтган оппоқ орзуларга бой ва уруш машаққатларига қоришган болалиги, қўлтиғига китоб қистириб гоҳ пиёда, гоҳ отда, гоҳ велосипедда Жалақудуқнинг Кўтармасига қатнаган ўсмирлиги кўз олдига келади. Уруш тугаганидан бир неча йил кейин тандирни тўлдириб нон ёпган онаси Нубувватхоннинг юзидаги мамнунликни эслайди. Ўзи директорлик қилган мактаб ҳовлисида наврўзнинг бош таомини ўзи ўт ёқиб қайнатган Машрабжон ака Қаландаровнинг терисига сиғмай қувонгани, айнан шу байрам яъни Абу Райҳон Беруний ва Умар Хайёмдек мутафаккирлар улуғлаган тантанани нишонлагани учун лавозимидан ва фирқа чиптасидан айрилганида ич-ичидан эзилгани, охири андижонлик шоҳ ва шоир Бобур ёшида бу ёруғ оламни тарк этгани юрагини сизловукдек сизлатади.

Қирқ йил қирғинбарот бўлса ҳам Азроил фақат пешонасига ажал муҳри босилган банданинг жонини олади. Ўтган аср бошидаги Андижон зилзиласи чоғида 4602 одам ҳалок бўлди, маҳаллий аҳолининг 11 минг кулбаси, чор маъмурларининг 161 биноси вайронага айланди. Оврупо меъморчилиги намуналаридан атиги уч бино – черков, турма ва банк бешикаст қолди. Омади бор экан, хаканлик Қаландар оқсоқолнинг моли ҳам, жони ҳам омон қолди. Моли деганимизнинг боиси зилзила юз берган сана, яъни туманли 3 октябр тонгида оқсоқолнинг совлиғи икки қўзи туғди.

Кейинчалик ўғли Машрабжон туғилганида икки қўчқордан бирини сўйиб, маҳалла-кўйга ош берди. Нашвати ва узум ғарқ пишган кунлар эди. Келганлар “Бобурнома”да мақталган мевалардан тотдилар. Қаландар оқсоқол Андижоннинг обрўли одамларидан бири эди. Тараққийпарвар жамоат арбоби Обиджон Маҳмудов Андижонга келиб “Бизга илм ҳам, еримиз остида қайнаб ётган қимматбаҳо қорамой ҳам керак. Аммо бу илмни эгаллаши, бу конларни очиши керак бўлган ёшларни далил тарбиялайлик!” деганида шаҳар думаси раиси ўринбосари бўлган бу хушсурат одамнинг рўбарўсида турган эди. Водий жадидлари ҳомийси бўлган бу кишининг сўзлари Қаландар оқсоқолнинг оромини ўғирлади. Бутун кучини ўғли Машрабжонни маърифатпарвар қилишга сарфлади. “Илм ол ва илмлилар билан бирга бўл!” деди Қаландар ота Машрабжон акага. Йиллар ўтиб шўро муаллими бўлган Машрабжон ака бу олтин сўзларни ёш Зокиржонга айтди. Ўғил отанинг бу сўзини васият деб қабул қилди.

Тўғри, аввал Романовлар империяси, кейин қизил салтанатга Туркистоннинг ерусти бойликлари, яъни пахта, пилла, қоракўлга кўз тиккан эди. Айни чоғда беҳисоб ерости бойликларимиз ҳам уларнинг оч назаридан четда эмас эди. Ўрта Осиё давлат университети ташкил топганида унинг биринчи ректори Глеб Черданцев олий ўқув юртида геология ва геодезия таълимини жорий этиш ташаббуси билан чиққан...

Зокиржон Машрабов 1950 йили ана шу улуғ олимлар ташкил этган геология факультетига ўқишга кирди. Университет ташкил этилганида буюк жадид Мунаввар қори Абдурашидхонов биринчи ректор бўлган эди. Зокиржон таҳсил олган йилларда дорилфунунни атоқли олимлардан Теша Зоҳидов ва Тошмуҳаммад Саримсоқовлар бошқарди. Ёш толиб геология, геофизика, литология асосларини қунт

билан ўрганди. Талабалик давридаёқ улкан олимлар, шу жумладан, атоқли олим Олег Александрович Рижковнинг назарига тушди. Дунёнинг ишлари қизиқ: олис Смоленск губерниясининг Дубровка деган қишлоғида туғилиб, қисмат қуюни билан Туркистонга келган Олег Рижковга айнан буюк Ғалаба мақсадлари учун "қора олтин" сув билан ҳаводек зарур бўлганида Андижон заминидан "Жанубий Оламушук", "Полвонтош" нефть конларини кашф қилади. 1949 йили у Ўзбекистон ФА Геология институтида номзодлик, 1959 йили докторлик диссертацияларини ёқлайди. Олег Александрович Зокиржонга "Мен сени бинойидек геолог олим қиламан!" деди ва сўзининг устидан чиқди. У нафақат З.Машрабов, балки Р.Ибрагимов, В.Шейн, А.Умаров, К.Эргашев, Ш.Йўлдошевларни шу соҳанинг етакчи олимларига айлантирди.

- Мен миллатимизнинг буюк фарзанди, жаҳон геология фанининг чинорларидан бири, замонамизнинг забардаст алломаси бўлган Ҳабиб Абдуллаевдан рўшнолик кўрган одамман. – дейди Зокиржон ака Машрабов. – *Аспирант чоғимда илмий даргоҳ етакчиси, улкан олим Иброҳим Ҳамробоев Ҳабиб Муҳаммедовичнинг ҳузурига юборган. Ҳабиб ака бошпанам йўқлигини эшитиб, дарҳол академик Обид Акрамхўжаевга қўнғироқ қилиб, "Шота Руставели кўчасида сизлар учун битган уйдан бир квартирасини Зокиржон Машрабовга беринг. Ёш олим. Келгусида эл юкининг бир учини бақувват елкасига олса ажаб эмас!" деди. Собиқ иттифоқ геологиясининг отахонларидан бирининг шоирона айтган бу гаплари ҳамон эсимдан чиқмайди. Ҳабиб Муҳаммедовичнинг ҳузуридан темир қанот боғлаб чиққан ўша дақиқадан бошлаб шу кунгача имконим етгунча эл юкининг бир учини, балки у бир заррадир, елкамга беминнат олиб келяпман. Баҳоли қудрат юртга хизмат қиляпман. Озод, обод, тинч юртимизга кўз тегмасин.*

Осмонимиз доимо мусаффо бўлсин. Иккинчи жаҳон уруши машаққатларини ўсмир бўлиб ўз кўзим билан кўрдим. Биз бир майизни қирқ бўлиб ейдиган халқмиз. Майиз деганда озгина муболаға бор, албатта. Уруш ўрталарида тушлик пайти онам олдимга қўйган бир бурда ноннинг ярмини еб, ярмини бўз иштонимнинг киссасига яширган эдим. Гузарга бориб, урушдан бир оёғи, бир қўлидан ажралиб келган майиб "фронтовик"ка бердим. Отам орқамдан кузатиб келган экан. "Раҳмат сенга, болам. Одам бўлишингга аниқ ишондим. Фақат илм олишдан тўхтама, китобни қўлингдан қўйма. Аллоҳ сенга мададкор бўлсин!" деди. Ҳозир мана, тўқсон ёшимда ҳам китоб ўқийман, китоб ёзаман, нодир китобларни излайман, бор имкониятимни яхши китоблар чиқаришга қаратаман. Китобга муҳаббат менга ажойиб инсон Обид Акрамхўжаевдан юққан!

Зокиржон ака ҳақ: академик Обид Акрамхўжаев ажойиб инсон эди. Ўзи болалар уйида тарбиялангани учун инсон қадрини барча нарсадан юксак қўяр эди. Водийлик аспирантга меҳр беришида ҳам жиддий сабаб бор эди. Обидхўжа ака Фанлар академиясининг Геология ва геофизика институтида Фарғона водийси бўр қатламларидаги нефть ва газ заҳиралари бўйича докторлик диссертациясини ёқлаган эди. Зокиржонни уйига ҳам чорлаб турарди. Академикнинг рафиқаси, малакали врач Мамлакат Файзуллаева *"Зокиржоннинг кўзларидан тоза юраги кўриниб туради. Кейин китобга ўч экан. Бу яхши фазилат"* депти. Буни ҳамкасбларидан эшитган Зокиржон ака жуда хурсанд бўлган эди.

Китобга ўчлик! Зокиржон ака 1972 йили Чорсудаги китоб дўконига кирган эди. Беш-олти харидор кичкина бир китоб учун пул тўлаётганини кўрди. Китобчанинг муқовасига "Абдулла Орипов. Руҳим" деб ёзилган эди. Дарҳол сотиб олди. Китобча 1963 йили ёзилган "Одамлар"

деган шеър билан бошланар экан. Кейинги шеър “Ўзбекистон” қасидаси. Қуйидаги сатрларни ўқиганида киприклари намланди:

Балки устоз Ойбекдай тўлиб,
Ёзажаксан янги бир достон.
Балки Ҳабиб Абдулла бўлиб,
Саҳроларда очажаксан кон.

“Бу қандай дунё бўлди? – ўйларди ичидан Зокиржон ака Кўкалдош мадрасасининг пештоқига тикилиб. – *Шоҳ ва шоир Бобур Мирзо Андижонга сиғмай 47 ёшида Ҳиндистонда вафот этса. Отам туҳмату бўҳтонларга дош беролмай 48 ёшида, дунё бўйича бармоқ билан санарлик академиклардан бири Ҳабиб Абдуллаев 49 ёшида бу ёруғ оламга сиғмаса-я. Лекин Абдуллажонга минг раҳмат. Юртга яхши таъриф берибди!”*

Зокиржон ака орадан роппа-роса 30 йил ўтгач “Руҳим” китобининг муаллифи Абдулла Орипов билан Маккаи мукаррама ва Мадинаи мунавварада учрашганида ўша воқеани эслади. Бу 1992 йилнинг июли эди. Ҳали Халқ шоири, давлат мадҳиясининг муаллифи эмас эди. Ўшанда Зокиржон ака раҳбарлигида Халқаро Бобур экспедициясининг аъзолари илк сафар давомида бир давлатдан бир давлатга ўтиб 55 кун азият чеккан, минг бир машаққат чиғириғидан ўтган эдилар. Аммо Аллоҳнинг мукофоти тариқасида улар, сабрли-тоқатли бир неча нафари, шу жумладан, Зокиржон Машрабов она юртга ҳожи мақомида қайтган эдилар.

Хўш, Зокиржон Машрабовни ўнлаб улуғ алломаларимизнинг нурли изларини, китобу қўлёзмаларини ахтариб, сўнгги манзилларини тавоф айлаб, обод қилиб Ер сайёрасининг тенг ярмини айланиб чиқишга даъват қилган нима? Бу юртга бўлган меҳру муҳаббат, унинг буюклигига бўлган эътиқоддир. Қолаверса, отаси бир марта “Ўзга юртда

подшоҳ бўлгунча ўз юртингда гадо бўлган яхши экан. Бобурдай шоир қаерда бор? Ҳукмдор бўлгани, яъни темурийлар сулоласини яна уч аср давом қилдиргани унинг айбими? Чўлпонни отсалар, Бобурни таъқиқласалар қандай замон бўлди бу?!" дея надомат чеккан эди. Қолаверса, академик Иброҳим Мўминов Андижонга келганида "Ўн улуғ алломамиз бўлса тўққизининг хоки юртдан олисда ётибди. Қаерга қарасанг Калинин билан Куйбишевнинг ҳайкали. Наҳотки Бобур Мирзонинг киндик қони томган тупроқда унга бир ҳайкал ўрната олмасак!" деган эди. Шу-шу Зокиржон Машрабов Андижонда Бобур ҳайкалини ўрнатиш иштиёқи билан ёнди. Вилоят пахта тайёрлаш трести бошқарувчиси бўлганида бунга молиявий манбалар ҳам бор эди. Аммо онаси "Болам! Шу ишинг менга ёқмаяпти. Отанг оқ пахтадан йироқ бўлиш керак, дер эди. Кўнглим тинч эмас!" дейишдан тўхтамади. Охири Андижон шаҳар ижроия қўмитаси раиси лавозимига чорлашганида рози бўлди. Онанинг кўнгли бир нарсани сезган экан: тез орада "Пахта иши" очилиб, қорақалпоғистонлик дўсти Отаулло Худойберганов, хоразмлик ҳамкасби Комилжон Авезов ҳибсга олинди. Ўзбекистон Пахта тозалаш саноати вазири, асли андижонлик Ваҳобжон Усмонов отилди. Зокиржон ака Отаулло ва Комил Авазнинг изидан Москвага борди, далда берди. Аммо улар анча азоб кўрдилар. Бу ҳақда Комил Аваз "Қўналға" романида батафсил ёзди. Зокиржон ака ўша йиллари Бобур Мирзонинг маҳобатли ҳайкалини СССР Бадиий академияси академиги, Меҳнат Қаҳрамони, Ленин мукофоти лауреати Лев Ефимович Кербелга ишлаттириб, Митишчи шаҳридаги заводда бронзадан қуйдириб келди. Бу ўзига хос жасорат эди.

Академик Иброҳим Мўминов ҳақ эди: жаҳон алгебра фанининг асосчиси Муҳаммад Хоразмий, жаҳон астрономия илмининг пойдеворига олтин ғиштлар қўйган Аҳмад

Фарғоний, жаҳон геологияси ва геодезиясининг беқиёс назариётчиси Абу Райҳон Беруний, жаҳон тиб илмининг буюк вакили Абу Али Ибн Сино, жаҳон осмон илми сардорларидан бири Мирзо Улуғбекнинг табаррук тупроғимизда таваллуд топгани, уларнинг интеллектуал мероси жаҳонда кенг кўламда ўрганилаётгани кундуздек равшандир.

Шу муборак рўйхатда турадиган буюк шоир, адолатли шоҳ, қомусий аллома, истеъдодли саркарда, улкан тарихчи, атоқли адабиётшунос, иқтидорли тилшунос, қобилиятли географ, таниқли таржимон, йирик фикҳ олими Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг беқиёс ғазаллари, бетакрор рубоийлари, энциклопедик мақомга эга “Бобурнома”, фикҳшуносликда нуфузли мавқега эга “Мубаййин”, ғазалиёт назариясига оид “Аруз” асарлари, Хожа Аҳрорнинг “Рисолаи волидийа” асари таржимаси ва бошқа қатор ноёб битиклари наинки ўзбек мумтоз адабиёти, академик фани, балки жаҳон бадииятининг юксак намуналари сифатида тан олинмоқда.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур адолатли шоҳ, Ҳиндистон тарихида муқим ўринга эга Бобурийлар сулоласининг асосчиси, бетакрор меъморий обидалар бунёдкори сифатида Соҳибқирон Амир Темур – Мироншоҳ Мирзо - Султон Муҳаммад Мирзо - Султон Абусаъид Мирзо - Султон Умаршайх Мирзо орқали дунё тамаддуни тарихидаги буюк сулолалардан бири сифатида темурийларга, онаси Қутлуғ Нигорхоним ва волидаси томондан бобоси Юнусхон орқали чингизийларга мансубдир. Аммо у давлатчилик тизгинини юксак сиёсий ирода билан қўлга олиши, ҳарб санъатидаги юқори салоҳияти, халқ фаровонлигини таъминлашдаги эзгу амаллари, адабиёт, фан, санъат ва меъморчилик тараққиётига қўшган улкан улуши, давлатлараро муносабатлардаги оқилона дипломатияси билан буюк

бобокалони Соҳибқирон Амир Темур ҳазратларидан ибрату андозалар олган эди.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур лирикаси, “Бобурнома”, бошқа асарларини ўрганишда йигирманчи аср ўзбек адабиётшунослиги муҳим қадамлар қўйди. Бу ўринда буюк шоир, улуғ адиб, атоқли олимнинг толмас тадқиқотчиларидан П.Шамсиев, В.Абдуллаев, В.Зоҳидов, Ойбек, Ғ.Ғулом, М.Шайхзода, А.Қаюмов, С.Азимжонова, С.Ғаниева, С.Ҳасанов, С.Жалилов, Ҳ.Болтабоев, Ҳ.Қудратуллаев, З.Машрабов, Р.Шамсутдинов, С.Шокаримов, Ш.Рустамхўжаев, А.Мадраимов, С. Олим, Э.Очилов, Қ.Эргашев, О.Жўрабоев, В.Раҳмон, К.Муллахўжаева, Б.Ражабова ва бошқалар баракали ишларни уддаладилар. Хорижлик олимлардан япониялик Эйжи Мано, ҳиндистонлик Қамар Райис, туркиялик Билол Южел, озарбайжонлик Алмаз Улви, афғонистонлик Абдулла Руйин, россиялик Анна Дибо, америкалик Уилер Текстон ва бошқалар ҳам бобуршуносликда янги қўриқларни очмоқдалар.

Ўн тўққизинчи ва йигирманчи асрда Ўзбекистонни эгаллаган тоталитар тузумлар, шу жумладан, қўлига мафкуравий кишанларни тутган шўролар салтанати бир қатор буюк шоир ва олимларимиз мероси билан бирга Заҳириддин Муҳаммад Бобур меросини кенг ўрганишга изн бермаган, бу улуғ зот ҳақида ёзилган энг сара асарларни таъқиқлаб қўйган эди. 1991 йилнинг 31 августида эълон қилинган Ўзбекистоннинг давлат мустақиллиги буюк Бобур меросини ўрганиш учун дарвозаларни янада кенг очди. Хусусан Андижонда очеркимиз қаҳрамони Зокиржон Машрабов раҳнамолигида таъсис этилган ва тўлақонли фаолият олиб бораётган Бобур номидаги халқаро жамоат фонди бу кенг қамровли ҳаракатнинг чинакам

карвонбошисига айланди. Фонд фаолияти давлатимиз раҳбари томонидан изчил қўллаб-қувватланмоқда.

З.Машрабов раҳнамолигидаги халқаро илмий экспедиция ўтган давр ичида жаҳоннинг 50 га яқин мамлакатларига 40 га яқин сафарлар уюштириб, шоҳ ва шоир ҳаёти, ижоди, адабий мероси билан боғлиқ мислсиз ишларни уддалади. 400 минг километрдан ортиқ йўл босилди. Сафарлар чоғида нафақат Бобур Мирзо, балки она заминимизнинг фахру ифтихорига айланган Хоразмий, Фарғоний, Форобий, Беруний, Ибн Сино, Деҳлавий, Лутфий, Жомий, Навоий, Беҳзод, Али Қушчи, Хондамир, Машраб, Мирзо Ҳайдар ва бошқа буюк зотларнинг илмий, адабий мероси изланди, сўнгги манзиллари зиёрат қилинди, имкони борлари таъмирланди.

Илмий экспедиция ўз сафарларидан юзлаб ноёб қўлёзмалар, нодир китоблар, бетакрор осори атиқалар билан қайтиб келмоқда. Халқаро фонд Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва бобурийларга оид кенг кўламли нашрлик ишларини бажармоқда. “Бобур энциклопедияси” чоп этилиб, унинг тўлдирилган иккинчи нашри қайта босилди. Россия Фанлар академияси академиги А.Дибо ва атоқли олим Ш.Рустамхўжаев саъй-ҳаракатлари билан “Бобур ва бобурийлар” библиографияси нашрдан чиқди. Фонд раҳбарияти Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома”, “Мубаййин”, Мирзо Ҳайдарнинг “Тарихи Рашидий”, ўз адибларимиз ва хорижлик муаллифларнинг ўттиздан ортиқ янги асарлари, романлари, монографияларининг чоп этилишига ҳомийлик қилди. “Бобур ва дунё” журнали таъсис этилди. Унинг муштарийлари сони ой сайин ошиб бормоқда. Электрон нашрларда ҳам Бобур ва бобурийлар ҳақида ўнлаб асарлар, юзлаб мақолалар берилмоқда. Жаҳон донишмандларидан бири деб ҳисобланган буюк шоир ва беқиёс олим меросини янада кўпроқ одамлар ўқимоқда.

Зокиржон Машрабов Абу Райҳон Беруний илмий меросининг ҳам толмас тарғиботчисидир. Берунийнинг у пайтлари географияда унча маълум бўлмаган шимолий ўлкалар, Болтиқ ва Оқ денгиз, Сибирь, Хитой ва Тибетга туташ ўлкаларни тўла ва аниқ тасвирлагани, Птолемейга қарама-қарши Атлантика ва Ҳинд океанларининг жанубий томони бир-бирига туташганлигини исботлаб берганига қойил қолмасликнинг иложи йўқ. У “Ҳиндистон” асарида ер юзасининг тузилиши, денгиз ва қуруқлик тўғрисида гапириб, “...Ернинг чораги маъмурадир. Маъмурани ғарб ва шарқ томондан Муҳит океани (Атлантика ва Тинч океан) ўраб турибди. Бу Муҳит океани, ернинг обод қисмини денгизларнинг нариги томонида бўлиши мумкин бўлган қуруқлик ёки одам яшайдиган ороллардан иккала ёқдан (ғарбдан ва шаркдан) ажратиб туради...” деб ёзди. Шундай фикрни «Ал-Қонун ал-Масъудий» асарида ҳам илгари сурди. Демак, ғарбий ярим шарда яхлит бир қуруқликнинг, кейинчалик Америка деб номланган қитъанинг мавжудлигини Беруний европалик олимлардан 450 йилча олдин асослаб берди. Алломанинг ақл машъали жаҳон академик фанининг қатор соҳаларини ёритиб, илмнинг элликдан ортиқ жабҳаларига бебаҳо кашфиётлари ила катта ҳисса бўлиб қўшилди. Айниқса Ер шарининг ўлчамлари ҳақидаги маълумотлари юнон, ҳинд олимлари ва ўзига замондош бўлган Яқин ва Ўрта Шарқ олимлари хулосаларига нисбатан анча аниқ. У Ер айланаси узунлигини ўлчашда янги усул яъни катта масофалар учун қийин ва мураккаб ўлчовларга эҳтиёж бўлмай, математик ҳисобларга асосланиладиган метод топди. Туркистон минтақаси, шу жумладан, Амударё воҳасининг геологик ривожланишини биринчилардан бўлиб жиддий ўрганди. Орол денгизининг пайдо бўлиши ҳақидаги хулосаларини илгари сурди. Зокиржон Машрабовнинг устози, академик Ҳ. Абдуллаев

Берунийни геология соҳасидаги энг буюк назариётчилардан бири деб ҳисоблаган эди. Олимнинг минералогия фанидаги муҳим кашфиёт ва хулосалари тўғрисида ўнлаб монографиялар ёзиш мумкин. Унинг «Минералогия» асари конларни ўрганиш, шу жумладан Ўрта Осиё ерости бойликларини аниқлаш учун қимматбаҳо манба ҳисобланади. Беруний Марказий Осиё ва умуман Яқин Шаркда биринчи илмий глобус ясади.

Истиқлол Берунийнинг бой илмий меросини Ўзбекистон ва ундан ташқарида чуқур ўрганишга кенг йўл очиб берди. Унинг асарлари лотин, француз, итальян, немис, инглиз, форс турк ва бошқа тилларга таржима қилинмоқда. Ҳаёти ва ижоди тўғрисида бадиий асарлар, фильмлар яратилмоқда. Буюк аллома оламдан ўтганидан 949 йил кейин, яъни 1997 йилнинг 17 декабрида истиқлол шарофати билан Ғазнадаги қабридан алломанинг рамзий хоки Бобур номидаги халқаро жамоат фонди ва Зокиржон Машрабовнинг жасоратли заҳматлари орқали хориждан шаҳри Кот тупроғига келтирилди. Жамоатчилик фикри ҳисобга олиниб, туманда “Беруний авлодлари” жамғармаси тузилди. Абу Райҳон Беруний илмий меросини тарғиб этиш, алломанинг номини улуғлаш борасидаги ибратли хизматлари эвазига академик Азиз Қаюмов ва таниқли қадимшунос, Ўзбекистон Қаҳрамони Ғайратдин Хўжаниёзов билан бирга Зокиржон Машрабов жамғарманинг олтин медали билан мукофотланди. Эндиликда Абу Райҳон Берунийнинг киндик қони томган жойдаги музей-мажмуасини замонавий лойиҳа асосида барпо этиш ишлари бошланмоқда. Шу билан бирга у ерда халқаро Абу Райҳон Беруний илмий маркази тузилса, “Абу Райҳон Беруний” энциклопедияси чоп этилса, аллома асарлари кўп минглик ададда, янги имлода чоп этилиб, барча олий ва ўрта махсус ўқув юртлари, мактабларга, кенг китобхонлар оммасига тарқатилса нур устига аъло нур бўлур

эди. Бу ишларда 357 гектарлик чин мўъжиза - Боғи Бобурни бунёд этган, ўнлаб ажойиб ишларга бош-қош бўлаётган Зокиржон ака Машрабов яқиндан қўлқанот бўлишига ишонамиз. Яқинда у “Келинг, тез кунлар ичида Қорақалпоғистонда “Беруний ва Бобур” илмий анжуманини ўтказайлик!” деди. Фидоий инсон доимо янги ғоялар билан яшайди. Фонд ташкил этилганига 30 йил, атоқли жамоат арбоби таваллудига 90 йил тўлмоқда. Бу ҳақда ўйлар эканман, россиялик оддий бир китобхон, адабиёт ва тарих фанлари мухлиси Татьяна Нинельевна Петрованинг 2020 йилнинг 28 феврали куни кечқурун Москвадан туриб менга қўнғироқ қилиб айтган ушбу сўзлари ёдимга тушди:

- Тарихчи дугонам мени эрталаб Никитский хиёбонига, давлат Шарқ музейига бошлаб борди. М.В.Ломоносов номидаги Москва давлат университетининг Осиё ва Африка мамлакатлари тарихи институти ташкил этган илмий анжуман шоҳ ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобур илмий меросига бағишланган экан. Олимлардан ташқари Ўзбекистон ва Афғонистон Республикаларининг Россия Федерациясидаги Фавқулодда ва Мухтор элчилари ҳам бор экан. Бир қанча олимларнинг маърузаларини тингладим. Улар орасида сизлардаги Бобур фондининг раҳбари З.Машрабов деган кишининг сўзларини тингладим. Фикрларини қисқа, лўнда ифодалар экан. У кишининг маърузаси пайти дугонам ўз илмий мақоласидаги “Буюк Мўғуллар империяси” деган сўзни кўз ўнггимда “Буюк Бобурийлар империяси” деб ўзгартирди. “Нега бундай қилдинг?” десам, “Аллақачон бу ишни қилишимиз керак эди. Ўзбекистонликлар бизларнинг алломаларимизга чуқур ҳурмат билан қарайди!” деб менга бир матн узатди. Матн ўзбекистонлик бобуршунос, филология фанлари доктори, профессор Ҳ.Болтабоевники бўлиб, улуғ олимимиз Н.Добролюбовнинг Бобур ва бобурийлар ҳақидаги

асарларини таҳлил қилган экан. Жаноб З.Машрабовнинг маърузаси менда катта таассурот қолдирди. Ул зотни кўрсангиз, айтинг, бундай одамлар юз йилда бир марта туғилади ва улар албатта, юз йил умр кўришлари керак!”

Зокиржон аканинг Москвадаги бобуршунослик анжуманида ёркин нутқ сўзлагани рост. Менинг ўзим ўша нутқ билан танишдим. Танишимизнинг Ҳамидулла Болтабоев мақоласи ҳақидаги сўзида ҳам зарра ёлғон йўқ. Осиё ва Африка мамлакатлари институти директори И.Абулғозиев бу анжуманни бебаҳо ва бетакрор деб атабди. Энди бизга замонамизнинг забардаст инсони Зокиржон Машрабовга Аллоҳдан янада узоқроқ умр, 30 йиллиги нишонланаётган фондимиз ишига ривож тилаш қолди, холос!

2022 йил, май

“ФАРИШТА ТАРИХИ” ТЎҒРИСИДА

«تاريخ فرشته»


(ТАФАККУР ва ФАҲМ)





ИСЛОМ ЖЕМЕНЕЙ,
Ал-Форобий номидаги Қозоқ миллий университети, “Турон-Эрон” илмий-тадқиқот маркази директори, филология фанлари доктори, профессор


Китоб номи: Фаришта тарихи. Бу китоб муаллифи “Фаришта” тахаллуси билан машҳур бўлган, шунинг учун китобнинг номи муаллиф тахаллуси билан “Фаришта тарихи” деб аталади.

Муаллиф: Муҳаммад Қосим Ҳиндушоҳ Астрободий. Унинг тахаллуси "Фаришта" эди.









Техроннинг матншунослик нашри: Тўрт жилддан иборат. Китоб матни, шарҳи ва сўз боши доктор Муҳаммад Ризо Носирий томонидан ёзилган. Биринчи жилд: 2009 йил, иккинчи жилд: 2010 йил, учинчи жилд: 2014 йил, тўртинчи жилд: 2016 йил Техронда Маданий ёдгорликлар ва маданий ифтихор жамияти томонидан нашр этилган. Бу тўрт жилд қайси қўлёзмаларга кўра тайёрланганлигини билиш учун, аввало, “Фаришта тарихи” асарининг сақланган ва

тадқиқотчилар томонидан кўриб чиқилган қўлёзмаларини билиб олиш керак.

Ёзилган йили: Ушбу китобни ёзиш жараёни 1586 йилда бошланган ва 1606 йилда тугатилган.

Қўлёзмаларнинг сақланган жойлари: 1.Ҳиндистоннинг шарқий қисмидаги иккинчи йирик, 2011 йилги расмий аҳоли рўйхатига кўра 104 миллион аҳолига эга Биҳар штатининг пойтахти Патна шаҳри фуқароси Худобахш кутубхонасида тўртта қўлёзма мавжуд. Улар: А) Биринчи қўлёзма варианти: № Ҳ.Л 2947. 1709 йилда ёзилган. Уни кўчирган шахснинг исми номаълум. Тўлиқ эмас. Фақат иккинчи жилдини ўз ичига олади. 500 саҳифа. Б) Иккинчи қўлда ёзилган нусха: № Ҳ.Л 2778.. 1782 йилда ёзилган. Уни кўчирган шахснинг исми номаълум. Ушбу версия тўлиқ. 639 саҳифа. С) Учинчи қўлёзма нусха: № Ҳ.Л 4381. Бошланғич ва якуний бўлимлар йўқолган. 469 саҳифа. Д) Тўртинчи қўлёзма нусхаси: Икки жилддан иборат. Биринчи жилд: № Ҳ.Л. 90. 427 бет. Иккинчи жилд: № Ҳ.Л. 91. 410 бет.

2. Британия музейидаги қўлёзма нусхаси: икки жилд сақланган. Биринчи жилд: № 39/1. 247 саҳифа, ҳар бир саҳифада 27 қатор бор. Иккинчи жилд: № 39/2. 281 саҳифа, ҳар бир саҳифа 27 қатордан иборат. 1797 йилда ёзилган. Ушбу қўлёзманинг микрофилми Ҳиндистон шимолидаги Уттар-Прадеш штати Алигарҳ шаҳридаги Ислом университети қўлёзмалар фондида сақланмоқда.

3. Эроннинг Шероз шаҳри қўлёзма фондидаги нусхаси: икки жилди сақланган. Биринчи ва иккинчи жилдларининг умумий рўйхатга олиниш рақами: № 65-674. Ҳаммаси бўлиб 954 саҳифа, ҳар бир саҳифа 29 қатордан иборат. Нусха муаллифининг исми номаълум. Биринчи жилд 1141 (1728й), иккинчи жилд 1217 (1802й) да кўчирилган.

4. Эрон-Теҳрон, давлат мажлиси биноси, кутубхонасининг қўлёзма фонди: икки жилди сақланган.

Биринчи жилд: № 86723. 1212 (1797) да кўчирилган ва ёзилган. 480 саҳифа, ҳар бир саҳифа 17 қатордан иборат. Иккинчи жилд: № 87072. 263 бет, ҳар бир варақ 25 қатордан иборат.

5. Ҳиндистоннинг Ҳайдаробод шаҳридаги Шабали Ганжабахш Низомия жамияти қўлёзма фондидаги нусха: Қўлёзмани кўчирувчи: Пиршоҳ Али. 1230 (1815й) да кўчирган. Фақат иккинчи жилди бор, у қуртлаган ва фойдаланиб бўлмайди.

6. Қўлёзманинг Салар жанг кутубхонаси фондидаги нусхаси: қўлёзмага Мунир-ал-Маликнинг 1206 (1791) йил муҳри босилган. У 254 саҳифадан иборат бўлиб, ҳар бир саҳифада 23 қатор мавжуд. Тўлиқ эмас.

7. Ҳиндистоннинг Рампур шаҳри кутубхонаси қўлёзма фондидаги нусхалар: Бу кутубхонада “Фаришта тарихи” китобининг учта қўлёзма нусхаси мавжуд. А) № 2030. Тугалланмаган, фақат иккинчи жилди билан. У 434 саҳифадан иборат. Б) № 2031. Нусха муаллифи: Муҳаммад Ашраф. XIX асрда кўчирилган бўлса керак деган тахмин бор. У 542 саҳифадан иборат. С) 2032-сон. 1204 (1791й) Абдуаҳад кўчириб ёзган.

Теҳронда нашр этилган тўрт жилддаги матний нусхалар: Матншунос Муҳаммад Ризо Носирийнинг фикрича: У нашр учун матнни ишлаб чиқишда қуйидаги манбалар тўпламларидаги қўлёзма нусхалардан фойдаланган. Улар: 1. Биҳар штати пойтахти Петна шаҳрида яшовчи Худобахш кутубхонаси нусхалари. 2. Эрон-Теҳрон, давлат мажлиси биноси кутубхонаси қўлёзма нусхаси: № 86723. 3. Эроннинг Шероз шаҳри қўлёзма фондидаги нусхаси: № 65-674.

“Фаришта тарихи” китобининг ёзилиши, тугалланиши ва номланиши ҳақида:

Муҳаммад Қосим Фаришта Ҳиндистон тарихини ўн етти йил ичида ёзиб, 1050 (1606—7) йилда тугатди. У биринчи

нусхасини уни қўллаб-қувватлаган ва ҳимоя қилган Иброҳим II Одилшоҳ шарафига “Гулшен Иброҳимий” деб номлаган. Кейинчалик 1018 (1609—10йй) йилда биринчи жилди тўлдирилди. Кейин уни "Янги туғилган китоб" деб номлади. Аммо охир-оқибат тарихчилар унинг тахаллуси билан китобга “Фариштанинг тарихи” деб ном беришди. Шундай қилиб, бу китоб бугунги кунгача шу ном билан тарихчилар орасида машҳур бўлди.

“Фаришта тарихи” китобини ёзишга буйруқ берган подшоҳ; Иброҳим Одилшоҳ II (1570-1627) эди. У отаси вафотидан кейин 1580 йилда Одилшоҳ асос солган шоҳ тахтига ўтирди ва 1626 йилгача ҳукмронлик қилди (Ҳукмронлик йиллари: 988-1035 "1580-1626"). У Ҳиндистоннинг Декан вилояти амири сифатида пойтахти Бижапурда тож кийиб ҳукмронлик қилган, вафот этгач, шу шаҳарда дафн этилган. Ниҳоят, Одилшоҳлар сулоласининг олтинчи авлоди, 1556-1605 йилларда шоҳ тахтига ўтирган Темур авлоди, Бобурнинг набираси, Ҳумоюннинг ўғли Акбаршоҳдан (1542-1605) Иброҳим Одилшоҳ II мағлубиятга учради ва Бобурийлар ҳокимиятига бўйсунди. Шундан сўнг у ҳукмронлик қилган ҳудуд Акбаршоҳ тасарруфига ўтади. Муҳаммад Қосим Фаришта Иброҳим Одилшоҳ II амри билан “Фаришта тарихи” китобини ёзган.

“**Фаришта тарихи” китоби муаллифининг таржимаи ҳоли (биографияси):**

Муҳаммад Қосим Эрон шимолидаги Астробод шаҳрида туғилган. Шунинг учун уни “Астрободий” деб ҳам аташган. Унинг туғилган йили турли манбаларда турлича қайд этилган. Лекин “Ислом энциклопедияси” (Туркий 133/13) маълумотларига кўра, Муҳаммад Қосим Фаришта 960 (1553й) йили туғилган. Яна бир В.Ўрди ислом энциклопедиясида унинг туғилган йилини 980 (1572й) деб ёзган. Муҳаммад Қосим Фаришта она шаҳридаги бошланғич

мактабда ўқиган. Ўн икки ёшида отаси Мавлоно Ғуломали Ҳиндистонга жўнаб кетади. Қосим Фариштa Ҳиндистоннинг Аҳмаднагар шаҳридаги Шайх Муҳаммад Мисрий, Аҳмад ибн Носирулла Сендий каби муаллимлар мактабида таҳсил олиб, билимини ошира бошлайди.

Қосим Фариштанинг отаси Мавлоно Ғуломали жуда зиёли инсон бўлгани учун Муртазо Низомшоҳнинг (1562-1578 йй) эътиборига тушади. Кейин унинг саройига кириб, қўриқчиси бўлди. У ўша саройда Муртазо Низомшоҳнинг ўғли Мирон Ҳусайнга ҳам муаллимлик қилади ва унга форс тилини ўргата бошлайди. Отаси саройда обрў-эътибор қозонгач, у учун саройга йўли очилади. Саройда Мирон Ҳусайн билан танишиб, унинг синфдоши бўлди. Орадан бир қанча вақт ўтгач, отаси Мавлоно Ғуломали вафот этди. Ўшанда Мирон Ҳусайн эндигина ўн олти-ўн етти ёшларда эди. Ёш бўлишига қарамай, 986 (1578й) йили отаси Муртазо Низомшоҳга қарши исён кўтарди. Бу қаршилик кўрсатгани учун отаси уни ҳибсга олиб, Давлатобод қалъасига қамаб қўйди. Ўша ғала-ғовурда Муҳаммад Қосим Фариштa илми ва ақл-заковати билан Муртазо Низомшоҳнинг назарига тушади. Шунинг учун Низомшоҳ саройда унга қарши чиққан ва ўғли Мирон Ҳусайн тарафдорлари бўлган Мирзохон ва Диловархоннинг махфий ишлари ҳақида маълумот олиб боришни тайинлайди. Лекин охир-оқибат, 1587 йилда Диловархон Мирзохоннинг ёрдами билан Мирон Ҳусайнни Давлатобод қалъасидаги қамоқхонадан қутқариб қолади. Уни Аҳмаднагар шаҳрига олиб кетиб, подшоҳлик тахтига ўтирғизди. Мирон Ҳусайн тахтга ўтиргандан кейин Мирзохоннинг алдови билан отаси Муртазо Низомшоҳни ўлимга ҳукм қилади. Шундай қилиб, унинг отаси 1587 йилда қатл қилинди. Муҳаммад Қосим Фариштa Муртазо Низомшоҳ вафотидан кейин Мирон Ҳусайн билан дўстлиги

туфайли тирик қолди. Аммо сарой аъёнлари унга илиқ кўз билан қарашмади.

Муҳаммад Қосим Фаришта Аҳмаднагар саройида руҳий босим остида қолганини ҳис қилиб, 1589 йилда саройни тарк этиб, Бижапур шаҳридаги Иброҳим Одилшоҳ II ҳузурига боради. Тарихнинг шундай қизғин даврида яшаган Муҳаммад Қосим Иброҳим Одилшоҳ II кўмаги ва буйруғи билан ниҳоят ўз номи билан аталган “ Фаришта тарихи”ни ёзиб, васият қилди. Китобидаги воқеалар йилномасида ёзилишича, муаллиф 1026 (1617й) йилгача тирик бўлган. Муаллифнинг кейинги даврдаги ҳаёти ҳақида маълумот йўқ. Шундай қилиб, шеърият ва тиббиёт соҳаларида истеъдод эгаси бўлган Муҳаммад Қосим Фаришта тахминан 1570-йилларда Эроннинг Астробод шаҳрида таваллуд топган.12 ёшида Ҳиндистонга келган ва ниҳоят, 1617-йилдан сўнг Бижапур шаҳрида номаълум тақдирга дуч келади.

“Фаришта тарихи” асарида фойдаланилган адабиётлар:

1. Ҳижрий 936 йилдаги “Бобурнома” воқеалари. (1529 м.).

2. Тарих-и-Рашидий, Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Дуғлат Кашмирий, 953 ҳижрий (милодий 1546).

3. “Тарих-и-Ширшоҳий”, Аббосхон Сарвоний томонидан ҳижрий 994 йилда ёзилган. (1585-6 м.).

4. “Тарихи Ҳумоюний”, ёзган: Иброҳим ибн Жарир, ҳижрий 985 йил. (1577м.).

5. “Тарих-и- Акбарий”, ёзган: Муҳаммад Ориф Қандаҳорий, 987 ҳижрий. (1579 м.).

6. “Ҳумоюннома”, ёзган: Гулбадан бегим, ҳижрий 995 (милодий 1886-87).

7. “Тарих-и-Алфи”, ёзган: Молда Аҳмет Татавий ва бошқалар, ҳижрий 1000 (милодий 1591).

8. “Табақат-и-акбарий”, ёзган: Низомиддин Аҳмад Хоравий, 1002 ҳижрий. (1593 м.).

9. “Мунтаҳаб-ат-тавориҳ”, муаллифи: Абдуқодир Бадавоний, ҳижрий 1004 йил. (1595 м.).

10. “Тарихи-ҳақи”, ёзган: Абду-ҳақ Муқаддас Деҳлавий, 1005 ҳижрий (1596м).

11. “Акбарнома”, ёзган: Абул-фазл Алламий, 1010 ҳижрий (1601 м).

12. Тарих-и-Акбар шоҳи, ёзган: Шайх Алладад Файзи Сарҳандий, 1010 ҳижрий (1601 м).

13. Зубдат-ат-Тавориҳ, ёзган: Нур-ал-ҳақ Деҳлавий, ҳижрий 1014 (1605) ва бошқа ўнлаб адабиётлардан фойдаланган.

Фаришта тарихининг хусусиятлари:

1. Бу китоб Ҳиндистонда ҳукмронлик қилган мусулмон султонлари ва подшоҳлари тарихидир.

2. Шунингдек, таълим, санъат ва адабиётга ҳисса қўшган шахслар ҳақида маълумот берилади.

3. Ҳиндистон халқининг урф-одатлари, маросимлари ва эътиқодларига кенг ўрин берилган. Масалан: “Ҳинду эътиқодида Раи (подшоҳ) мусулмонлар қўшинидан икки марта енгилса ёки асирга тушса, у салтанатга лойиқ эмас. Бу гуноҳдан қутулишнинг ягона йўли ўзини куйдириб, ўзини оқлашдир”-дейилган.

4. Ҳиндистон давлатини бошқариш ҳақида жуда кўп атамалар мавжуд. Шунинг учун Ҳиндистон давлати тизимини ва сарой ишларини ўрганиш учун кенг имкониятлар мавжуд.

5. Фаришта бу асарида фақат ёзма маълумотлардан фойдаланиш билан чекланиб қолмай, оғзаки адабиётларга ҳам эътибор берган.

6. “Фаришта тарихи” китобининг яна бир хусусияти шундаки, у эски форсча сўзларни керакли жойларда ишлатган.

Биз “Фаришта тарихи” нинг тўрт жилдига индивидуал маълумотлар бермаймиз.

Аммо иккинчи жилд Бобур тарихи билан боғлиқ бўлгани учун унинг мазмуни ва биринчи саҳифасини форс тилидан таржима қилиб, ўқувчи эътиборига ҳавола қиламиз.

Биринчи жилднинг мазмуни:

У яратилиш бошланишидан Бобур давригача бўлган даврни қамраб олган.

Иккинчи жилднинг мазмуни:

Бобур давридан Одилшоҳ ҳукмронлигигача бўлган даврни қамраб олган.

Мазмуни:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобуршоҳ воқеалари 1-61

2. Носириддин Муҳаммад Ҳумоюннинг Ҳиндистонда тахтга чиқиши ҳамда Шерхон Афғоннинг ғалабасидан сўнг Эрон шоҳи ҳузурига кетиши 61-82.

3. Асан Сур ўғли Шершоҳ ҳукмронлиги ҳақида, 82—106

4. Шершоҳ ўғли Салимшоҳнинг аҳволи ҳақида, 106-119

5. Муҳаммадшоҳ Сурнинг ҳукмронлиги ҳақида 119-125

6. Искандаршоҳ Сур ҳукмронлиги ва афғон ҳукуматининг емирилиши ҳамда Муҳаммад Ҳумоюннинг Ироқдан Кобулга қайтиши ва ўша ҳудудни босиб олиши ҳақида 125-127

7. Ҳиндистон иккинчи марта Ҳумоюн ҳукмронлиги остида 127-149

8. Абумузаффар Жалолиддин Муҳаммад Акбар Шоҳ Ғозий воқеалари ҳақида 149-227.

9. Баҳмания султонларининг дастлабки ишлари ҳақида 227-228.

10. Баҳмания султонлари ҳақида 228-252

11. Султон Муҳаммадшоҳнинг тож ва тахтга интилиши ҳақида 282-252.

12. Шоҳ Баҳманий шоҳнинг аҳволи ва ёшлигида Бижангерга қайтаётганда вафот этгани ҳақида 290 – 303

13. Султон Аловуддин Асан Ҳанкуи Баҳманий ўғли Довудшоҳнинг ваъдасини бузиши 305-314

14. Аловуддин Асан Баҳманийнинг ўғли Султон Маҳмудшоҳ Баҳманий ҳукмронлиги ҳақида 314-316

15. Султон Маҳмуд Баҳманий ўғли Султон Ғиёсиддин ҳукмронлиги ҳақида 316-322

16. Султон Маҳмудшоҳ Баҳманийнинг ўғли Султон Шамсиддин ҳукмронлиги ҳақида, 316-322

17. Султон Довутшоҳ Баҳманий Даханийнинг ўғли Султон Ферузшоҳ ҳукмронлиги ҳақида 322-358

18. Султон Аҳмадшоҳ Баҳманий ҳақида 358-385

19. Султон Аҳмадшоҳ Баҳманийнинг ўғли Султон Аловуддин ҳукмронлиги ҳақида, 385-409

20. Султон Алоиддин Баҳманийнинг ўғли, золим деб аталган Ҳумоюншоҳ ҳукмронлиги ҳақида 409-421

21. Золим Ҳумоюншоҳ Баҳманийнинг ўғли Низомшоҳ ҳукмронлиги ҳақида, 421-431

22. Муҳаммад шоҳ ҳукмронлиги ҳақида 431-469

23. Султон Маҳмудшоҳ Баҳманийнинг тахтга ўтириши ва кўплаб инқирозларли воқеалар ҳақида 469-504

24. Султон Аҳмадшоҳ Баҳманийнинг ўғли Султон Аловуддиннинг тахтга ўтириши ҳақида 505-507

25. Султон Маҳмудшоҳ Баҳманий ўғли Шоҳ Валиуллоҳнинг ҳукмронлиги ҳақида 507-508

26. Маҳмудшоҳ Баҳманийнинг ўғли Шоҳ Калимолла Баҳманий ҳукмронлиги ва Баҳманийлар салтанатининг якуни. 508 бетлар.

Кириш:

Ҳиндистон давлатларида Чиғатой ҳокимияти (Подшоҳ Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳикоялари):

“Ўшанда Султон Абу Саид Мирзо Ироқда шаҳид бўлган эди. Унинг омад юлдузли ўн битта ўғли бор эди. Улар: Султон Аҳмад мирзо, Султон Маҳмуд мирзо, Султон Муҳаммад мирзо, Шоҳрух мирзо, Улуғбек мирзо, Умар Шайх мирзо, Абабакир мирзо, Султон Мурот мирзо, Султон Халил мирзо, Султон Валад мирзо, Султон Умар мирзо. Улардан тўрт нафари подшоҳлик мақомига эришди. Уларнинг тўрт нафари эса отаси тириклигида баъзи ерларни бошқарган. Кобулда Улуғбек мирзо, Самарқандда Султон Аҳмад мирзо, Ҳисор, Қундуз ва Бадахшонда Султон Маҳмуд мирзо, Андижон ва Фарғонада Умар Шайх мирзо ҳукмронлик қилдилар. Ўша пайтда Мўғулистон ҳукмдори Юнусхон эди. Юнусхон ўша тўрт ака-укага Улуғбекдан бошқа, уч қиз берди. Бу даврда подшоҳ Умар Шайх мирзонинг оқилона ва адолатли йўли билан Фарғона давлати ужмак боғига ҳавас қилиб гуллаб-яшнаган эди. Умар Шайх мирзога ҳижрий 888 (милодий 1483) йили юқорида тилга олинган Юнусхоннинг қизи Қутлуқ Нигор хонимдан ўғил туғилди. Уни Муҳаммад Бобур деб аташган. Ҳисами Қоракўли унинг туғилган кунини “Муҳаррамнинг олтинчи ойи” деб байт билан куйлаган.

Амир Темирнинг авлоди Султон Абусаид мирзонинг аждоди қуйидагича эди: Амир Темур Кўрагоний, Мироншоҳ мирзо, Султон Муҳаммад мирзо, Султон Абусаид мирзо. Муҳаммад Бобур мирзо эса ўн икки ёшида отаси томондан Андижон вилоятига эгалик қилган. Умар Шайх мирзо ҳижрий 899 (1494) йили рамазон ойининг тўртинчи душанба куни ангар баландлигидан учиб, ҳалок бўлгач, амирларнинг бир овоздан розилиги билан Бобур подшоҳ бўлиб, Заҳириддин Муҳаммад тахаллусини олди... (1-2-бетлар).

Учинчи жилднинг мазмуни:

Одилшоҳ давридан то Барид подшолигигача бўлган даврни қамраб олган.

Тўртинчи жилднинг мазмуни:

Гужарот султонларидан Тамлибаргача бўлган давр ҳамда Ҳиндистон шайхлари ҳақида сўз юритилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Муҳаммад Қосим Ҳиндишоҳ Астрободий (Фаришта), “Фаришта тарихи” Ибтидодан Бобургача. Матнини тузган, сўзбоши ва шарҳловчиси, Доктор Муҳаммад Ризо Носирий, биринчи жилд: 802+ қўлёзма намуналари, форс тилида, “Маданий ёдгорликлар ва маданий ифтихор жамияти” томонидан нашр этилган. 1387 (2009й)

2. Муҳаммад Қосим Ҳиндишоҳ Астарободий (Фаришта), “Фаришта тарихи” ибтидодан Бобургача. Доктор Муҳаммад Ризо Носирий матни, сўзбоши ва шарҳи, иккинчи жилд: 672 бет, форс тилида, “Маданий ёдгорликлар ва маданий ифтихор жамияти” томонидан нашр этилган. 1387 (2010й)

3. Муҳаммад Қосим Ҳиндишоҳ Астарободий (Фаришта), “Фаришта тарихи” ибтидодан Бобургача. Матнини тузган, сўзбоши ва шарҳловчиси: Доктор Муҳаммад Ризо Носирий, учинчи жилд: 685 бет, форс тилида, “Маданий ёдгорликлар ва маданий ифтихор жамияти” нашриётида нашр этилган. 1387 (2014)

4. Муҳаммад Қосим Ҳиндишоҳ Астарободий (Фаришта), “Фаришта тарихи” Азалдан Бобургача. Матнини тузган, сўзбоши ва шарҳловчиси: Доктор Муҳаммад Ризо Носирий, биринчи жилд: 1189 бет + инглиз тилидаги шарҳ 38 бет + қўлёзма намуналари ва расмлари, форс тилида, “Маданий ёдгорликлар ва маданий ифтихор жамияти” томонидан нашр этилган. 1387 (2016)

5. Википедия, Донишнома озод. Форс тилида.

ЗАҲИРИДДИН БОБУРНИНГ БУГУНГИ ИЗДОШИ

Омонулло БЎРИЕВ,
ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги
Шарқшунослик институти
етакчи илмий ходими,
тарих фанлари доктори

Заҳириддин Муҳаммад Бобур давлат арбоби ва буюк саркарда ҳамда мумтоз адабиётнинг йирик вакили, шоир, тарихчи, географ сифатида танилган буюк шахс бўлиб, унинг ҳаёти ва ижоди илм-фаннинг турли соҳа вакиллари томонидан ўрганиб келинмоқда. Ҳозирда табаррук тўқсон ёшга қадам қўйган фидойи бобуршунос олим Зокиржон Машрабовни буюк аждодимиз Заҳириддин Бобур фаолиятини кенг кўламда ёритиб келаётган издоши дейиш мумкин. Сабаби, Бобур бутун умрини доимий сафарларда ўтказган, табиатни кузатган ва "Бобурнома"да бу борада қимматли маълумотлар ёзиб қолдирган. Зокиржон Машрабов бошқариб турган Бобур номидаги халқаро жамоат фонди томонидан ҳам Бобур ва Марказий Осиёдаги бошқа таниқли тарихий шахслар фаолиятини ёритиш бўйича халқаро илмий экспедициялар ташкил этилгани маълум ва улардаги ҳисоботларда ўлкамизда илм-фан ва маданият ривожи тарихига оид кўплаб қимматли материаллар эълон қилингани алоҳида таҳсинга сазовор. Зокиржон Машрабовнинг мазкур соҳадаги фаолиятига баҳо бериб, у кишини Заҳириддин Бобурнинг саёҳатларини давом эттираётган жаҳонгашта дейиш мумкин. Мен мисол тариқасида Заҳириддин Бобурнинг Ҳиротга сафари ҳақида бир оз тўхталмоқчиман.

Заҳириддин Бобурнинг Ҳиротга сафари тавсифи Темурийлар ва Шайбонийлар давлатлари ўртасида сиёсий-

ҳарбий кескинлашув билан боғлиқ кечинмалар баёнини ўз ичига олади. Шайбонийхон Темурийлар давлати ва унинг пойтахти Ҳиротни эгаллаш мақсадида Хуросонга юриш қилиши аниқ бўлгач, Ҳусайн Бойқаро барча кучларни бир жойга йиғишга киришади ва Кобулга Бобур ҳузурига ҳам элчи жўнатади. Бу ҳақда "Бобурнома"да шундай ёзилган:

"Ушбу маҳалларда Султон Ҳусайн мирзо Муҳаммад Шайбонийхоннинг дафъиға азм-жазм қилиб, тамом ўғлонларини тилатти, мени дағи Саййид Султон Али хоббиннинг ўғли Саййид Афзални йибориб тилаб эди. Хуросон жонибини азимат қилмоқ бизга неча жиҳаттин лозим бўлди. Бир буким, Султон Ҳусайн мирзодек Темурбек ўруниқа ўлтурғон улуғ подшоҳ йиғноқ қилиб, атроф ва жавонибдин ўғлонларини ва бекларини тилатиб, Шайбонийхондек ғанимнинг устиға озим бўлғонда, эл оёқ била борғонда, биз бош била борғойбиз, эл таёқ била борғонда – биз тош била борғойбиз" [1.127 бет]. Маълум бўладики, Бобур дастлаб Султон Ҳусайн мирзонинг ёзма чақириғига кўра, Темурий кучлар Шайбонийларга қарши бирлашиб курашмоқчи бўлгани учун Хуросонга сафар қилган. Бироқ, у Коҳмард ўлангига етиб борганида, Султон Ҳусайн мирзонинг вафот қилгани ҳақида хабар келади ва Бобур таъзия билдириш учун Хуросон сафарини давом эттириб, Ҳиротгача боради.

"Бобурнома"да мазкур сафар тафсилотлари 912 (1506-1507) йил воқеалари баёнида келтирилган ва сафарга чиқиш вақти ҳамда йўналиши аниқ кўрсатилган: "Муҳаррам ойи (912 йил, муҳаррам /1506. 24.05 – 22.06) Хуросон азимати қилилди. Ғурбанд ва Шибарту йўли била мутаважжиҳ бўлдук... Уштур шаҳридин, уруқдин айрилиб, ... ул кун Заҳҳок қалъасиға келдук. Андин Гунбазак кўтали била ошиб, Сойқонни бостуруб, Дандоншикан кўталидин ўтуб, Коҳмард ўлангига тушулди" [1.141 бет], - деб ёзилган. Кобулдан жўнаганини

маълум қилиш учун Султон Ҳусайн мирзога мактуб йўллайди. Мактубга жавоб ўрнига Султон Ҳусайн мирзо вафот қилгани ҳақида хабар хати келади.

Таъзия билдириш мақсадида, Бобур Хуросонга сафарини давом эттиради. Темурий кучлар Бодғис яйловида тўпланишга аҳд қиладилар, лекин ҳамма келмайди, Султон Ҳусайн мирзо ўлимидан сўнг тарқоқлик юз беради, вилоятларни бошқариб турган шаҳзодалар ўзларини мустақил ҳукмдор деб биладилар.

Бобур ҳам ўша томонга юриб, Ажар дараси ичи, Тўп, Мандағон, Балхоб орқали ўтиб, Кўҳи Соф яйловига етиб боради. У ерда бир неча кун Дарайи Бой манзилида тўхтайди; атроф аймоқлар эл бўлгач, аразлаб кетган Жаҳонгир Мирзо ҳам келиб қўшилади. Бобур отланиб Гурзивон, Алмор, Қайсор, Чечакту, Фахриддин Ўлуми орқали йўл босиб, Бодғисга қарашли Дарайи Бом деган жойга етиб тўхтайди [1.142 бет].

Шаҳзодалар ва маслаҳат соҳиблари Мурғоб соҳилига йиғилган эдилар. Уларнинг таклифи бўйича Бобур ҳам мазкур йиғинга боради. “Душанба куни жумодиулохир ойининг секкизида (1506.26.10) мирзолар била мулоқот бўлди” [1.142 бет], - деб ёзади Бобур, ушбу мажлиснинг аниқ вақтини қайд этиб. Бу йиғинда улар бир қарорга кела олмайдилар ва қиш яқинлашиб қолгани сабабли, маслаҳатни қишдан кейинга қолдирадилар. Шаҳзодалар Бобурни қаттиқ туриб Ҳиротга таклиф қиладилар ва уларнинг раъйига қарши чиқа олмай, рози бўлади. Шунингдек: “Ҳирініким рубъи маскунда андоқ шаҳр йўқтур ва Султон Ҳусайн мирзонинг замонида мирзонинг тасарруфидин ва такаллуфидин Ҳирининг зеб ва зийнати бирга ўн , балки йигирма тараққий қилиб эди, кўрмак орзуси хейли бор эди. Бу жиҳатлардин турмоқни қабул қилдук” [1.143 бет], - деб ёзган Бобур, ушбу ташрифнинг яна бир муҳим томони хусусида.

Шайбонийхон бу пайтда Мовароуннаҳрни тўла ўз ҳукмига киритган ва узоқ қамалдан сўнг Хоразмни ҳам эгаллаган эди. Заҳириддин Бобур тирик гувоҳлар воситасида унга етиб келган Хоразмнинг олиниши воқеаси хабарини афсуслик билан қаламга олган:

“Ушбу йил (911/1505-1506 йил) Шайбонийхон Чин сўфини Хоразмда ўн ой муҳосара қилиб олди, бу муҳосарада қалин урушлар бўлди. Хоразм йигитлари бисёр мардоналиқлар қилдилар, ҳеч тақсир қилмадилар, андоқ тийрандозлиқ қилдиларким, борлар қалқондин, жибадин, баъзи маҳалда икки жибадин ўткара-ўткара отибтурлар. Ўн ой қабалдорлиқ торттилар, ҳеч ердин умидворлиқ бўлмади” [1.127 бет].

Юқорида келтирилган тарихий воқеалар баёнига назар ташласак, зарур пайтда бошқаларга ёрдамга келмаган Султон Ҳусайн Мирзо ўзининг бошига ташвиш тушиб, Шайбонийхонга қарши туриш зарур бўлганида, ҳар томондан, жумладан, Заҳириддин Бобурдан ҳам ёрдам сўрайди. Унинг батафсил ёзиб юборган нишон хатида ёзилишича, ўзи Мурғоб ёқасини эгаллаб, Бадиуззамон мирзо Балх, Шибирғон, Анхуд, Гурзивон ва Дарайи Зангни қўриқлаши керак эди. “Менинг бу навоҳиға келган хабарим бориб эди. Манга ҳам битиб эдиким, сен Коҳмард ва Ажарда ул кўҳпояни беркитиб, Хисравшоҳ Ҳисор ва Қундуз қўрғонларида эътимодий кишиларини қўюб, ўзи ва иниси Вали Бадахшон ва Хатлон тоғларини беркитсунлар” [1.103 бет], -мазмунида мактуб йўллаган.

Заҳириддин Бобур бу ҳолатда Султон Ҳусайн мирзонинг Шайбонийхонга қарши ҳимоя услубини танлаганига ҳақиқий сиёсатчи сифатида баҳо беради ва қоралайди: “ Султон Ҳусайн мирзодек Темурбек ўруниға ўлтурғон улуғ подшоҳ ғанимнинг устига юрумакни демай, ер беркитмакни деса, эл ва улусқа не умидворлиқ қолғай? [1.103 бет],-деб афсусланиб қайд этган.

Мурғоб соҳилидаги машварат муваффақиятсиз якун топгач, ваъдага мувофиқ, Бобур Бодғисдаги Дарайи Бомдан отланиб, Чилдухтарон ва Тошработ йўли билан юриб Ҳиротга етиб боради.

Ҳиротда дастлаб Султон Ҳусайн мирзонинг мадрасасига бориб тушади ва у ердаги мақбарага ўтиб, марҳумнинг руҳига қорилар қуръон ўқиб дуою фотиҳа қилгач, аммаси Поянда Султонбегимнинг уйига бориб ётади. Эртасига унга юрт этиб тайинланган Боғи Навга келиб тушади. У ерда бир кеча қолади, сўнгра Алишер Навоийнинг уйидан жой белгилайдилар ва Бобур Ҳиротдаги сафари охиригача ўша ерда қолади "Ҳиридин чиққунча Алишербекнинг уйларида эдим" [1.144 бет], - деб ёзган у "Бобурнома"да. Бу ташриф Заҳириддин Бобур томонидан Алишер Навоий хотирасига кўрсатилган буюк эҳтиром эди.

Заҳириддин Бобур Ҳиротда Алишер Навоий номи билан боғлиқ жойларга алоҳида эътибор қаратган ва уларнинг номларини қуйидагича изоҳлайди: "Алишербекнинг ўлтурур уйлариким, "Унсия" дерлар, мақбара ва масжиди жомеиниким, "Қудсия"дерлар, мадрасаси ва хонақоҳиниким, "Халосия" ва "Ихлосия"дерлар, ҳаммом ва дорушшифосиниким "Сафоия" ва "Шифоия"дерлар, борини андак фурсатта сайр қилдим"[1] [1.145-146 бетлар].

Ҳиротдаги истеҳком қалъа – Ихтиёриддин ҳақида: "Ҳирининг қалъайи Ихтиёриддиниғаким, ҳоло Олақўрғонға машҳурдур" [1.149 бет], - деб ёзади Бобур. "Бобурнома"да яна Ҳирот шаҳридаги кўшк – Оқсарой ("Султон Абусаид Дарвозаи Ироқнинг тошида солғон") [1.145 бет], боғлар (Боғи Жаҳоноро – подшоҳ Бадиуззамоннинг қароргоҳи, Боғи Зоғон, Боғи Зубайда, Боғи Нав, Боғи Сафид, Боғи Хиёбон, Боғи Шаҳр), мадраса ва масжидлар (Шоҳрух мирзо мадрасаси,

[1]Бобурнома, Б.145 - 146.

Султон Мирзо Ҳусайн мадрасаси,Бадиуззамон мирзо мадрасаси Инжил ариғи бўйида, Масжиди жоме), шаҳар дарвозалари (Дарвозаи Ироқ, Дарвозаи Малик, Дарвозаи Фирузобод, Дарвозаи Хуш, Дарвозаи Қипчоқ), бозорлар (Бозори Малик, Чорсу), сувлар (Жўйи Инжил, Ҳавзи моҳиён), хиёбон (Гозургоҳ хиёбони) кабилар ҳам эслатиб ўтилган [1.145-146 бетлар]. Таъкидлаш жоизки, Ҳирот шаҳридаги диққатга сазовор жойларнинг ихчам ва энг тўла рўйхати фақат "Бобурнома"да берилган. "Йигирма кунким, Ҳирида эрдим, ҳар кунда кўрмаган ерларни отланиб сайр қилур эдим" [1.145 бет], - деб ёзган Бобур Ҳиротда бўлгани ҳақида.

Қиш мавсуми кириши билан Бобур Ҳиротда иқтисодий танглик юзага келганини англаб етади ва мезбонлар қолишни сўраганларига қарамай, қишни ўша атрофдаги жойларда ўтказиш баҳонаси билан 912 йил 7-шаъбонда / 1506.23.12) Ҳиротдан чиқиб Кобул томон йўл олади. Турли томонга иш қидириб кетган навкарларидан бир қисми сафар давомида келиб қўшилади.

"Бодғис навоҳисида ҳар юртта бирар кун, иккирар кун тавақкуф қила-қила кўч қилур эдик, то вилоятларға таҳсил ва иш-куч учун борғонлар келиб қўшулғайлар. Ул миқдор макс ва даранг бўлдиким, Лангари Мир Ғиёсдин икки-уч кўч ўтганда рамазон ойи кўрулди (912 йил 2-рамазон / 1507 йил 16 январь). Вилоятларға иш куч учун борғон йигит-ялангдин баъзиси келиб қотилди, баъзиси йигирма кун, бир ойдин сўнг Кобулда келдилар, баъзиси қолиб мирзоларга навкар бўлдилар" [1.146 бет], -деб ёзади Бобур Кобулга қайтиш сафари бошланиши ҳақида.

Улар Лангари Мир Ғиёсга етганда Кобулга бориш учун қайси йўл билан юрмоқни маслаҳат қиладилар. Бобур Қандаҳор йўли бир оз йироқроқ бўлса-да, лекин анча текис ва бемалол эканлигини айтади, бироқ Қосимбек Ҳиндукуш тизмаси оша яқин йўлни танлайди. Шундан сўнг, улар

Лангари Мир Ғиёсдан сафар қилиб, Ғаржистоннинг тоғ этаклари, Чахчарон, Инжукон, Ҳиндукуш тизмаси, Шибарту довони, Бомиён орқали юриб, 1507 йил март ойи бошларида Кобулга етиб келадилар [1.152 бет].

Заҳириддин Бобурнинг Кобул –Ҳирот – Кобул йўналишидаги сафари икки ой кам бир йил вақт давом этган ва "Бобурнома" да бу ҳақда ёзилган эсдаликлар муҳим географик маълумотлар саналади; айниқса Ҳиротнинг XV аср охири - XVI аср бошларидаги диққатга сазовор жойлари батафсил рўйхати тарихда биринчи марта "Бобурнома"да келтирилган.

Фойдаланилган манба

Заҳириддин Муҳаммад Бобур. *Бобурнома.* Порсо Шамсиев, Содиқ Мирзаев ва Эйжи Мано (Япония) нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи : Саидбек Ҳасанов. Тошкент "Шарқ", 2002.

"НАФОИС УЛ-МАОСИР" ТАЗКИРАСИ

Жалолиддин ЖЎРАЕВ,
ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги
Шарқшунослик институти етакчи илмий ходими,
филология фанлари доктори

"Нафоис ул-маосир" тазкираси XVI–XVII асрларда Мовароуннаҳр, Хуросон, Эрон ва Ҳиндистонда яшаб ижод қилган қалам аҳли, адабий жараён, маданий ҳаёт, бобурийлар давлати тарихи ҳақида маълумот берувчи қимматли манбадир. Асар муаллифи Алоиддавла Комий Қазвиний мавзкур даврда олдин Эрон, сўнгра Ҳиндистонда

фаолият олиб борган. Алоиддавла Қазвинийнинг исми Муҳаммад бўлиб, Қазвин саййидларидан “Лубби таворих” асарининг муаллифи Мир Яҳё Маъсумнинг ўғлидир. Сунний мазҳабга бўлган эътиқоди туфайли Муҳаммад Қазвиний оиласи Шоҳ Таҳмоспнинг таъқибига учрайди. Олдин Ҳумоюн Эронга келган вақтида унинг эътиборига тушган акаси Абдуллатиф Ҳиндистонга йўл олади. Абдулатиф Ҳумоюннинг бевақт ўлимидан кейин Акбаршоҳ саройига яқинлашади. Алоиддавла Қазвиний ҳам кейинчалик акасининг изидан Ҳиндистонга боради[13: 203].

Асар Акбаршоҳга бағишлаб (1589-1590 йилларда) ёзилган бўлиб, икки қисмдан ташкил топган. Биринчи қисмда алоҳида фикра бағишланган 494 нафар шоирдан ташқари, таржимон, мусиқа ва санъат соҳасига алоқадор шахсларнинг номи тилга олинган. Шоирлар ҳақидаги маълумотлар алифбо тартибига кўра жойлаштирилиб, ҳар бир ҳарфга оид қисм “байт” деб номланган бўлимга ажратган. Бу қисм асарнинг ёзилиш сабаби ва шеър турлари ҳақида сўз юритувчи дебоча, 28 “байт”га бўлинган шоирлар ҳақидаги маълумотлардан таркиб топган.

Иккинчи қисм “Мақтаъ” деб номланиб,учта “матлаб”ни ўз ичига олган. Биринчи “матлаб”да Заҳириддин Муҳаммад Бобурдан то Ҳумоюнгача, иккинчисида Ҳумоюндан Акбаргача, учинчисида Акбар салтанати тарихининг 984/1576 йилгача бўлган воқеалари қаламга олинган.

“Нафоис ул-маосир” илк бор Сайид Шафиъиюн томонидан 1395/2017 йилда Теҳронда (Кетобхона, музе ва маркази асноди мажлиси шўрои исломий ҳамда Созмони чоп ва энтешороти донешгоҳи озоди исломий муассаси ҳамкорлигида) нашр қилинган. Сайид Шафиъиюн дунё фондларида асарнинг ўнта нусхаси борлигини маълум қилади. Нашр учун матннинг тўлиқлиги ва қадимийлигига қараб Мюнхен кутубхонаси, Теҳрон университети

кутубхонаси, Алигарх, Рампур ва Британия музейи кутубхонаси нусхалари жалб қилинган[12: 22-26].

Ношир мазкур қўлёзмалар муаллифнинг сўнгги таҳририга яқин асар матнини тиклашдаги аҳамиятини кўрсатган. Булар билан бирга “Нафоис ул-маосир”нинг Эрон нашрига жалб қилинмаган, айни пайтда ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти асосий фондида асарнинг 800, 1858, 6919 рақамли қўлёзмалари форсча, 848 рақамли тазкира қўлёзмаси ўзбек тилига таржимаси, 1043/I қўлёзма эса, тазкирадан саралаб олинган матндан иборат.

Комий Қазвиний алоҳида фикра доирасида Афсарий (Кармина, 19аб), Байрамхон (Мовароуннаҳр, 27а-30а), Мавлоно Бақоий (Бухоро, 33б), Мавлоно Бадиий (Андижон, 33б-34б), Мир Саййид Али бин Мир Мансур (Жудоий, термизлик, 47б-48а), Жоний Тамиён (Тамиён, Бухоро, 48б-49а), Мавлоно Мир Хурд (Миёнкол, Самарқанд, 58аб), Мавлоно Хулқий (Мовароуннаҳр, 58б-59а), Мавлоно Саҳмий (Бухоро, 73аб), Сипоҳий (Хожа Калоннинг фарзанди, Андижон, 74а), Шоҳбекхон (Шайбонийхон, 75б-78б), Шариф (Бухоро, 88а), Шуъурий (Бухорий 90б), Сабучи (Мовароуннаҳр, 93аб), Зиёий (Мавлоно Қосим, 96аб), Торамий (Мир Дўст, Қарши, 100б), Табъий (Дарвиш Муҳаммад, Самарқанд, 101а), Ошиқ (Мавлоно Абулхайр, Миёнкол, Самарқанд, 102б-103б), Аскарий (Қандаҳор, 104аб), Убайдуллахон бин Султон маҳмуд (Убайдий, Бухоро, 104б-105б), Абдулазизхон бин Абдуллахон (Азизий, Бухоро, 105б-106а), Ғурбатий (Ҳисор, 117б), Фаҳмий Самарқандий (Самарқанд, 121а), Шоҳ Фаноий (Чиғатой) Мовароуннаҳр, 122аб), Фирибий (Бухоро, 123б), Фақирий (Бухоро, 124б), Мавлоно Фазл Андижоний (Андижон, 124б), Фуруғий Самарқандий (Самарқанд, 124б-125а), Қудсий (Мовароуннаҳр, 129б), Қудсий (Фарғона, 129б), Касирий

(Бухоро, 135а), Кавкабий (Бухоро, 135аб), Хожа Калон (Андижон, 135б-136а), Гул Боқи Моҳий (Миёнкол, Самарқанд, 137а), Мулло Мушфиқий (Марв, Бухоро 155а), Маҳжурий (Бухоро, 155аб), Меҳнатий (Ҳисор, 156б), Мароҳий (Тошканд, 156б), Нисорий (Бухоро, 167аб), Мирзо Муҳаммад Ҳиндол (173б-174а), Ҳилолий (Астробод, 174а), Хожа Ҳошим (Бухоро, 180б), Бобур (184б), Ҳумоюн (191а), Комрон (191а), Ҳиндол (191а) каби мовароуннаҳрлик, темурий ва шайбонийлар сулоласидан чиққан элликка яқин ижодкорлар ҳақида сўз юритилган[1].

Тазкира XVI–XVII асрларда Мовароуннаҳр, Хуросон, Эрон ва Ҳиндистонда фаолият олиб борган шоирлар ҳақида маълумот берувчи ёндош манбалардаги маълумотларга аниқлик киритиши ва тўлдира олиши билан аҳамият касб этади. Бунинг учун Бадиий Андижонийга оид маълумотларни қиёслаймиз. Алишер Навоий “Мажолис ун–нафоис” тазкирасида:“Мавлоно Юсуф – “Бадиий” тахаллус қилур эрди. Ул ҳам Андижондиндур. Мавлоно Сафоий била бўлур эрди. Фақир таҳсил учун Самарқандға борғонда, ул Андижондин келди ва анда фақир била бўлур эрди. Сиғари син жиҳатидин шеърида хомлик бўлса, фақир ислоҳ қилур эрдим. Бот бузургманиш ва мутасаввиф йигит бўлди ва Хуросонға келиб кўп салоҳиятлар ҳам касб қилди. Фақирдин ўзга киши анинг шеърида сўз айта олмас эрди. Ушби жиҳатидин шўхлар ани Юсуф Сафоий дерлар эрди. Ул тағайюр жиҳатидин беҳол бўлур эрди. Аммо яхши суҳбати бор эрди ва кўпрак синф шеърни яхши айтур эрди ва аруз билур эрди. Бу матлаъ анингдурким”,–деб асарларидан намуна ҳавола қилади ва Сарахсда вафот этганини қайд этади.

[1]Шоирлар ҳақидаги маълумотларнинг саҳифаси 848-рақамли қўлёзма асосида кўрсатилди.

Хондамир “Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар” асарининг “Салтанат ва давлат шарафи Ҳазрат Султон Ҳусайн Мирзога замондош бўлган саййид, нақиб, машойих, уламо ва фузало зикрида” бўлимида: “Мавлоно Юсуф Бадиий – Андижон вилоятидан. Кичик ёшлигида у ердан Самарқандга бориб илм-фан ўрганган. Мансур хоқоннинг адолатли замонида Мовароуннаҳр ўлкасидан Ҳиротга ташриф буюриб, Амир Алишернинг меҳрибонлиги сояси остида ором топди. Аруз илми, саноеъ ва бадоеъ, муаммо фанидан соҳиби вуқуф эди. Муаммо қоидалари баёнида бир фойдали рисола ёзди. Бу матлаъ унинг ўша манзумоти жумласидан. Байт:

Шундай обу ҳаволи кўчанг бўлса манзилгоҳ,

На Хизр суви керак, на нафаси Руҳуллоҳ.

Хондамир “Мавлоно Юсуф Бадиий 897 йилда Сарахсда вафот қилгани ва Шайх Луқмоннинг файзли мозорида дафн этилгани” ни ёзган [10: 77-78].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур “Бобурнома”нинг 911/1505-06 йиллар баёнида Султон Ҳусайн Мирзо хусусида сўз юритиб, “Шуародин” зикрида “... Яна Юсуф Бадиий эди, Фарғона вилоятидиндур, қасидани ёмон айтмас экандур”, дея қисқа хабар берган [6: 139].

Мавлоно Муҳаммад Абдулғанихон Муфаррахободийнинг “Тазкират уш-шуаро”сида Юсуф Андижоний тўғрисида: “Мулло Муҳаммад Юсуф – Амир Алишер “Мажолис ун-нафоис”да унинг аҳволини зикр қилган. Муаммода рисола битган” деб, Султон Ҳусайн мирзо замонида яшагани ва 897/1491-92 йилда Сарахсда вафот этганини қайд қилган [7: 26].

Шоир ижоди юзасидан Б.В.Норик ҳам изланишлар олиб борган. Жумладан, Алишер Навоий ва Хондамир асаридаги Бадиийнинг муаммо жанрига оид рисола ёзгани, девон тартиб берганига оид маълумотлар тафсилотини баён

қилади. Булар билан бирга Қатъий Ҳиравийнинг “Мажмаъ уш-шуарои Жаҳонгирий” тазкирасида келтирилган ғазалнинг мавжудлигини айтиб, тўлиқ матнини берган [8: 137-138]. Ҳиравий тазкирасидаги ғазал “Нафоис ул-маосир”даги биринчи ғазал бўлиб, икки тазкирадаги матн бир-биридан баъзи фарқли жиҳатларга эга.

Шоирлар ҳаёти ва ижодига оид маълумотлар матнида ёндош манбалардаги фарқдан ташқари “Нафоис ул-маосир”нинг мавжуд нусхалари матнида ҳам баъзи фарқлар учрайди. Буни яна Бадиий Андижонийга оид маълумотлар мисолида кўришимиз мумкин. Жумладан, тазкирада Бадиийнинг қуйидаги матласидан кейин:

بیوفایی بوفای تو که از من دور است
من سگ کوی توام سگ بوفا مشهور است

Мазмуни:

Бевафосан, бевафолигинг мендан йироқ бўлгандан,
Мен кўчангнинг итиман, ит вафода машҳурдир.

Кейин ушбу икки ғазални берган. Уларнинг матни қиёсланганда баъзи фарқлар кўринади. Бундай фарқлар матн остида берилган:

شبی در خواب او را با رقیبان هم سخن دیدم
نبیند هیچ کس در خواب یا رب آنچه من دیدم[1]

بفکر آفتاب طلعت او ماه رویان را
نهاده دست چون آیینه در زیر ذقن دیدم

نه تنها من بحال[2] خویش دارم گریه در کویش
همه کس را چو خود گریان بحال خویشتن دیدم[3]

[1]848. 33б. мисра тушиб қолган.
[2]848: 33б. بچاک
[3]848: 33б; 1858: 43а; 800: 37б. мисра тушиб қолган.

بآه آتشین هر گه گذر سوی چمن کردم
ز غیرت سوختم هر گل که بی او در چمن دیدم

بدیعی دور از ان یوسف چو یعقوب بلا دیده
چه[1]محنتها که من در گوشه بیت الحزن دیدم

Мазмуни:
Бир кеча тушимда уни рақиблар билан ҳамсуҳбат кўрдим,
Мен тушимда кўрганимни, эй Худо, ҳеч ким кўрмасин.

Унинг офтоб талъати фикри билан ой юзлиларни
қўйиб, қўлни гўё ойинадек ияги остида кўрдим.

Унинг кўйида нафақат мен йиғлайман,
Ҳаммани ўзимдек ўз ҳолига гирён кўрдим.

Қачон гулзор томонга ўтли оҳ билан юрсам,
Ғайратдан унингсиз ҳар гулни кўриб куйдим.

Бадиий, у Юсуфдан гўё балони кўрган Яъқуб,
Мен байт ул-ҳазин бурчагида қанча меҳнат кўрдим.

* * *

ترا ای گل چو خندان صبحدم در بوستان دیدم
چو شبنم ز آبش آب حسرت[2] در دهان دیدم[3]

دلم در صورت جان جلوه گر می خواست جانانرا
بآنصورت که دل میخواست او را آنچنان دیدم

[1]6919: 42a; 1043/I: 4a. نه
[2]1858: 43a. آنحسرت
[3]Ушбу мисра 1043/I: چو شبنم غنچه را بس آب حسرت در دهان دیدم

نشان می جستم[1] از جسم[2] ضعیف خویش در کویش
نزدیک سگش افتاده مشتی استخوان دیدم

سمند[3] شوق او بی اختیارم می برد هر سو
شد از دستم عنان روزیکه آن دست عنان دیدم
پی نظاره در وصف رخش از داغ[4] نعل[5] آخر
همه تن ای بدیعی خویش را چشم و[6] زبان دیدم

Мазмуни:
Сени, эй гул, тонг чоғи бўстонда хандон кўрганда,
Сувидан шабнамдек ҳасрат сувини оғзида кўрдим.

Дилим жононни жон суратидек жилва қилишини истади,
Дил қандай истаган бўлса, уни ўшандай кўрдим.

Унинг кўйида заъиф танимдан бир нишон истадим,
Итининг ёнига бориб бир парча суякни кўрдим.

Унинг иштиёқи тулпори мени ихтиёрсиз ҳар ёнга тортар,
Сабаб қўлни кўрган куним жиловим қўлдан кетди.

Кўриш умидида юзининг васфида нағали тамғасидан,
Бутун тани, эй Бадиий, ўзни кўзу забон кўрдим.

Қайд қилинганидек, тазкира айрим маълумотлари билан бошқа манбаларда ижодкорлар ҳақида берилган ўринларни тўлдира олиши билан аҳамият касб этади. Бунга Бадиийга доир келтирилганлар - Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис”, Бобурнинг “Бобурнома”, Хондамир “Ҳабибус-сийар фи ахбори афроди башар”, Қатъий Ҳиравийнинг “Мажмаъ уш-шуарои Жаҳонгирий” ва Мавлоно Муҳаммад Абдулғанихон Муфаррахободийнинг “Тазкират уш-шуаро”

[1] 1043/I: 4a; 6919: 42a. جوستم
[2] 1858: 43б. چشم
[3] 1858: 43б. سمندر
[4] 800 ва 6919: 42a: داغ و نعل
[5] 1858: 43б. لعل
[6] 1858: 43б; 6919: 42a; 848: 34a. و тушиб қолган.

каби асарларидаги шахсияти ва ижодига алоқадор маълумотларнинг қиёси далил бўла олади.

Хулоса қилиб айтганда, “Нафоис ул-маосир” тазкираси XVI–XVII аср бобурийлар давлати адабий, маданий ва сиёсий жараёнлари, Мовароуннаҳр, Хуросон, Эрон ва Ҳиндистон алоқалари юзасидан маълумот берувчи муҳим мунба сифатида аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Алишер Навоий. Мажолисун-нафоис. МАТ. 13-жилд. – Тошкент: Фан, 1997.

2.Алоуддавла Ҳусайн Қазвиний. Нафоис ул маосир. ЎзРФА ШИ қўлёзмаси, инв. № 800.

3.Алоиддавла Ҳусайн Қазвиний. Нафоис ул-маосир. ЎзРФА ШИ қўлёзмаси, инв. № 848.

4.Алоиддавла Ҳусайн Қазвиний. Нафоис ул-маосир. ЎзРФА ШИ қўлёзмаси, инв. № 1043/I.

5.Алоиддавла Ҳусайн Қазвиний. Нафоис ул-маосир. ЎзРФА ШИ қўлёзмаси, инв. № 1858.

6.Алоиддавла Ҳусайн Қазвиний. Нафоис ул-маосир. ЎзРФА ШИ қўлёзмаси, инв. № 6919.

7.Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент: Шарқ НМАК, 2002.

8.Мавлоно Муҳаммад Абдулғанихан Муфаррахободий. Тазкират уш-шуаро. –Алигарҳ: Алигарҳ институти нашриёти босмахонаси, 1916.

9.Норик Б.В. Био-библиографический словарь средниазиатской поэзии. –Москва: Издательский дом Марджани, 2011.

10. СВР. I том. –Ташкент: Фан, 1952.

11. Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабибус-сийар фи ахбори афроди башар. –Тошкент: Ўзбекистон, 2013.

12. علاءالدوله کامی قزوینی. تذکره نفایس الماثر. کتابخانه، موزه و مرکز اسناد مجلس شورای اسلامی با همکاری سازمان چاپ و انتشارات دانشگاه آزاد اسلامی. تهران ۱۳۹۵.
13. نامه فرهاگستان، ویزه نامه شبه قاره. 203 ص

ЭЗГУЛИККА ЙЎҒРИЛГАН УМР

Бегижон АҲМЕДОВ,
Бобур номли халқаро жамоат фондининг Қирғизистон бўлими раҳбари. Қирғизистон ва Ўзбекистон Республикаси Ёзувчилар уюшмаларининг аъзоси. Бобур номидаги Андижон давлат университетининг фахрий профессори.

Ўзбек халқининг фидоий фарзанди, ватан тарихи ва маънавий бойликлари – буюк алломаларимиз бизларга мерос қилиб қолдириб кетган қўлёзмаларни дунёнинг турли давлатларидан излаб, топиб, Ўзбекистонга олиб келиш, нодир асарларни ўрганиш, изланиш ва нашр этиш бўйича мислсиз хизматлар қилиб келаётган олим, профессор Зокиржон ака Машрабовнинг кенг қамровли фаолияти нафақат Ўзбекистон Республикасида, балки, хорижий давлатларда ҳам, жумладан, Қирғизистонда ҳам юқори эътирофга ва эҳтиромга сазовор бўлган.

Зокиржон ака Машрабовнинг ташаббуси билан ташкил этилган ва бошқариб келинаётган Бобур номидаги халқаро фонд ва илмий экспедиция гарчи Бобур номи билан аталгани билан, унинг мақсади ва асосий вазифаси нафақат Заҳириддин Бобур Мирзо, балки қадимий Турон заминида, ҳозирги Ўзбекистонда етишиб чиққан, лекин бошқа

юртларда яшаган барча буюк бобокалонларимиз ҳаёти ва ижодини ўрганиш, улар қолдириб кетган бой маданий-маърифий меросни қайта тиклашдай умуммиллий вазифани амалга ошириб келмоқда. Бу катта ва қийин кечадиган жараёнга ҳорижий олимларни, тадқиқотчиларни ҳам жалб этиб, йирик тарихий-маданий ҳаракатни юзага келтирдилар.

Экспедициялар жуғрофияси ўз ичига Қирғизистон, Қозоғистон, Туркманистон, Эрон, Сурия, Иордания, Саудия Арабистони, Бирлашган Араб амирликлари, Покистон, Ҳиндистон, Афғонистон каби кўплаб давлатларни қамраб олди. Автомашиналарда минглаб километр масофалар жазирама иссиқ, радикал табиий иқлим ва ҳаёт учун хавфли шароитларда йўл босилиб, нодир асарлар, йўқолиш арафасига келиб қолган буюкларимиз қабрлари, янги тарихий фактлар, янгиликлар, илмий кашфиётлар амалга оширилди. Экспедициялар чоғида Закиржон ака раҳбарлигида тадқиқотчилар энг муҳим ва энг асосий вазифани бажариш билан бир қаторда Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг қабри тупроғидан олиб, Мирзо Бобурнинг киндик қони тўкилган Андижонга олиб келишга муваффақ бўлдилар ва Мирзо Бобурнинг Қобулдаги қабри билан бир хил рамзий мақбара бунёд этилди. Унинг ёнида масжид ва мозийгоҳ қурилди. Ўта қисқа муддатда қир-адирлар ўзлаштирилиб, улкан ва сўлим боғ - “Боғи Бобур” барпо этилиб, буюк саркарда ва шоирнинг ҳайкали ўрнатилди

Машрабов Зокиржон ҳожи ака раҳбарлигида амалга оширилган савобли, тарихий ишлардан яна бири - Ҳирот шаҳри яқинидаги “Деҳи Канор” деб аталувчи қишлоқ қабристонида Мир Алишер Навоий бобомизнинг устози Мавлоно Лутфийнинг қабрини топганлари бўлди: ярим метрли тупроқ остида қолиб кетган қабр тошини излаб топилгани тарихий кашфиёт бўлди. Унда Мавлоно

Лутфийнинг айни шу жойга дафн қилинганлиги ҳақидаги сўзлар битилган эди! Мавлоно Лутфий қабри Зокиржон Машрабовнинг ҳаракатлари билан тикланди ва ҳозирда зиёратгоҳга айланди. Қабрнинг чор атрофи ободонлаштирилиб, ўзбек миллий анъаналари асосида ишланган нақшин кўшк бунёд этилди. Айнан шундай қабр тошлари ва нақшин айвон улуғ мусаввир Камолиддин Беҳзод қабри устида ҳам барпо этилди. Ҳирот шаҳрида мангу қўним топган ҳазрат Алишер Навоий қабри янгиланиб, сағана тоши ўрнатилди, атрофи боғ қилинди.

Зокиржон ака Машрабовнинг оламшумул аҳамиятга молик фаолиятлари натижасида пайдо бўлган жараёнда турли давлатларда Мирзо Бобур асарларида тилга олинган жой ва айрим шахсларнинг номлари, атама ҳамда географик терминларни тўлақонли англашга бўлган жуда катта эҳтиёжни юзага келтирди. Айни шу эҳтиёж асосида “Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси” дунёга келди.

Алалхусус, Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ўзбекистон мустақилликка эришгандан сўнг ўз юртида катта қадр-қиммат топди. Бобур номли халқаро фонд фаолияти ҳақиқатдан халқаро миқёсга чиқди. Ҳорижий давлатларда бўлимлар очилиб, Ҳазрат Мир Алишер Навоий, Бобур Мирзо ва бошқа буюк аждодларимиз меросини излаш ва ўрганиш, ҳозирги авлод орасида тарғибот қилиш борасида катта ишлар изчил амалга оширилди ва оширилмоқда. Жумладан, қардош Қирғизистонда ҳам Бобур номли халқаро фондининг бўлими очилди ва тантанали равишда расмий Келишувлар имзоланди. Тадбир ва иш-чоралар режалари тузиб, уларни ҳамкорликда амалга ошириб келмоқдамиз. Қирғизистонда ҳар йили Алишер Навоий, Бобур Мирзоларга аталган жумҳурий ва халқаро конференциялар, анжуманлар ўтказилмоқда, китоблар нашр этилмоқда. Каминанинг ҳазрат

Алишер Навоийнинг ҳаётига бағишланган изланишлари ва китоби Бобур номли халқаро фонди томонидан тақдирланиши, бизнинг илмий таҳминлар асосида Ҳиротга экспедициялар уюштирилиб, янги илмий назария ва таҳминларнинг илгари сурилгани ва тасдиқ топаётгани қалбимизга шукуҳ ва ҳаракатимизга қувват бағишламоқда.

Зокиржон ака Машрабов улуғ ёшда бўлишларига қарамай, катта режа ва қувват ила қўшни давлатлар билан илмий-маданий алоқаларни мустаҳкамлашга ҳам катта ҳисса қўшиб келмоқдалар. Инсонпарвар ва дўстпарвар жамоат арбоби сифатида Зокиржон ҳожи ака Андижон вилоятига қўшни Ўш шаҳрида уюштирилган кўплаб тадбирлар, маданий иш-чораларда, университетларда ўтказилган анжуманларда қатнашиб, ҳатто таъзия маросимларига шахсан келиб, ўзбек ва қирғиз халқларининг дўстлигини барқарорлаштириш ва тараққий эттиришга ҳам камарбаста бўлмоқдалар.

Бундай эзгу ҳаракатларини ҳисобга олган ҳолда Қирғиз Республикаси ҳузуридаги маҳаллий бошқарув ва миллатлараро муносабатлар бўйича давлат агентлиги томонидан профессор Зокиржон Машрабов 2021 йилнинг феврал ойида Фахрий ёрлиқ билан тақдирландилар.

Жалолиддин Румий ҳазратларининг “бизлар бирлаштириш учун келганмиз, биз ажратиш учун келмаганмиз”, деган сўзлари ажойиб инсон, олим, ватанпарвар Зокиржон ака Машрабовга ҳам, муболағасиз, тегишлидир. Зеро, хожи бобо тарих билан ҳозирни, ҳозир билан келажакни, дин билан илмни, фидоийлик билан инсонпарварликни бирлаштириб, фаол ҳаракат ва ибратли умргузаронлик қилмоқдалар. Тарихий ишлари билан ўзлари ҳам замондошларининг миннатдор қалбларида ва янги тарихимиз зарварақларида ўз ўринларини топдилар.

“БОБУРНОМА” КОНЛАР ВА ЕР ОСТИ МАЪДАНЛИ СУВЛАРИ -ЧАШМАЛАР ҲАҚИДА МАЪЛУМОТ БЕРУВЧИ МАНБАДИР

Сайёра ТЎРАЕВА,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси профессори

Аннотация: Мақолада Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асрининг XVI аср Ўрта Осиё тоғ кончилик тарихини ўрганишдаги аҳамияти ва ундаги маълумотларни бошқа тарихий манба ва адабиётлар маълумотлари асосида қиёсий таҳлил қилинган. “Бобурнома” асри Ўрта Осиёнинг қадимий шаҳарлари, Эрон, Афғонистон, Покистон, Ҳиндистоннинг XVI асрдаги тоғ-кон соҳаси, ер ости табиий бойликлари, маъданли сувлари, тоғ-кон соҳаси хомашёси билан боғлиқ ҳунармандчилик турлари ва уларнинг савдоси тарихига оид қизиқарли маълумотларни берувчи қимматли манба эканлиги ўрганилган. Мақолада Қўқон хонлигининг тарихий ҳудудлари Фарғона, Хўжанд, шунингдек, Ўш ва Кобул вилояти ва унинг тоғларидаги конлар ҳамда ҳудудда жойлашган чашмалар ҳақида маълумот берилади.

Калит сўзлар: “Бобурнома”, тоғ-кон иши, конлар, фируза кони, темир, кумуш, маъданли сув, чашма, ер ости табиий бойликлари, қимматбаҳо тошлар.

Аннотация: В статье на основе других исторических источников и литературы проводится сравнительный анализ значения «Бобурномы» Захириддина Мухаммада Бабура в

изучении истории горного дела Средней Азии в XVI веке и содержащейся в ней информации. Бобурнома - ценный источник интересной информации о древних городах Средней Азии, горнодобывающей промышленности Ирана, Афганистана, Пакистана, Индии в XVI веке, природных ресурсах, минеральных водах, видах ремесел, связанных с добычей сырья и истории горного дела.

В статье представлена информация об исторических регионах Кокандского ханства - Ферганской, Ходжандской, Ошской территория и Кабульской область а также месторождениях в ее горах и источниках, расположенных в этом районе.

Ключевые слова: «Бобурнома», горное дело, месторождения, месторождение бирюзы, железо, серебро, минеральная вода, источник, подземные природные ресурсы, драгоценные камни.

ABSTRACT: Based on other historical sources and literature, the article provides a comparative analysis of the significance of Zakhiriddin Muhammad Babur's "Boburnoma" in the study of the history of mining in Central Asia in the 16th century and the information it contains. Boburnoma is a valuable source of interesting information about the ancient cities of Central Asia, the mining industry of Iran, Afghanistan, Pakistan, India in the 16th century, natural resources, mineral waters, types of crafts related to the extraction of raw materials and history of mining.

The article provides information on the historical regions of the Kokand Khanate - Fergana, Khojand, Osh territories and Kabul regions, as well as deposits in its mountains and sources located in this area.

Key words: "Boburnoma", mining, deposits, turquoise deposit, iron, silver, mineral water, source, underground natural resources, precious stones.

Буюк бобоколонимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483-1530) ўзбек халқининг довруғини дунёга таратган улуғ аждодларимиздан биридир. У асос солган Бобурийлар салтанати Ҳиндистонда 332 йил ҳукмронлик қилди. Ушбу буюк саркарда жаҳон тарихида истеъдодли шоҳ ва шоир сифатида, беназир адабий мерос, бунёдкор ишлар соҳиби, кучли давлат арбоби сифатида юксак ўрин эгаллайди.У яратган тарихий меъмуар асар “Бобурнома” ўзида ҳозирги Ўрта Осиёнинг қадимий шаҳарлари, Эрон, Афғонистон, Покистон, Ҳиндистон тарихига оид қимматли сиёсий-тарихий, географик, этнографик маълумотларни сақлаши билан ноёб манба ҳисобланади. Бугунги кунда биз Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асари Ўрта Осиё тоғ-кончилик соҳасини ўрганишда ҳам муҳим манба эканлигига шоҳид бўлмоқдамиз. Хусусан, мазкур асарда нафақат Ўрта Осиё балки Кобул, Ҳиндистон ҳудудидаги маъданли конлар, чашма- минерал сувли ҳудудлар ҳақида ҳам маълумотлар келтирилган.

Эътиборимиз марказидаги кончилик иши бу – инсониятнинг асосан ер ости фойдали қазилмаларидан фойдаланиш билан боғлиқ фаолиятидир. Ўз ичига фойдали маъданларни истефода қилишни мақсад қилган ҳолда ер қатламидаги маъданларни ўзлаштиришнинг барча турини қамраб олиб, уларни дастлабки билан боғлиқ илмий тадқиқотлар олиб бориш киради [1]. Ушбу соҳа бугунги кунда қуйидаги кенг қамровли тадқиқотларни ҳам қамраб олган. Кончилик ишига – фойдали қазилмалар конларини қидириш, уларни ер остидан қазиб олиш, дастлабки қайта ишлаш, бойитиш, бўйича ишлаб чиқариш тармоқлари мажмуи ҳисобланади. Кон саноатига: **ёқилғи** - нефть, табиий газ, кўмир, сланец, торф қазиб олиш; **руда** - темир рудаси, марганец рудаси, рангли металлар, асил ва ноёб металлар рудалари, радиактив элементлар қазиб олиш;

н**ометалл қазилма ва маҳаллий қурилиш материаллари саноати** - мармар, гранит, асбет, бўр, долмит кварцит, каолин, гипс, мергель, дала шпати, оҳактош ва бошқаларни қазиб олиш; к**он- кимё** - апатит, калий тузлари, нефелин, селитра, олтингугурт колчедани, бор рудалари, фосфат хом ашёси қазиб олиш; г**идроминерал сувлар** - минерал ер ости сувлари, сув таъминоти ва бошқа мақсадлар учун сув олиш каби фаолиятлар киради[2].

Ўрта Осиёнинг XVI асрлардаги кончилик тарихини ўрганишда Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг "Бобурнома" асари муҳим манба ҳисобланади.

"Бобурнома"нинг Ўш ҳақидаги маълумотларида, "... Барокўҳ тоғида қизил била оқ мавжлиқ тош ушбу тоғда пайдо бўлади: пичоқ дастаси ва такбанд ва баъзи нималар қилурлар, хейли яхши тошдур [3]. " - деб хабар берилади. Муаллиф ўз навбатида кон ҳақида маълумот бериб, ушбу кон маҳсулоти билан боғлиқ ҳунар турларини, кон хом ашёсининг маиший турмушда фойдаланишини ҳам эслатиб ўтади.

Хўжанд ҳақида ёзар экан, "Қўрғон била дарёнинг шимол тарафида бир тоғ тушубдир. Мунуғил отлиқ, дерларким, бу тоғда ***фируза кони ва баъзи конлар*** топилур. Бу тоғда бисёр йилон бор".[4]

Ўрта Осиё фируза тоши ташқи савдода жуда қадрланган қимматбаҳо тошлардан саналади. Бу тош кўпгина заргарлик буюмларини безаш билан бир қаторда, зодагонлар саройларига безак сифатида қадалгани ҳам маълум.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур "Бобурнома"да "Фарғона вилоятининг гирдо-гирди тоғларида яхши яйлоқлари бор. Бир гиёҳ эшитилдиким, Еттикентнинг тоғларида бўлур, ул эл "айиқ ўти" дерлар, меҳргиёҳ хосиятлиқ, ғолибо меҳргиёҳдур, ул эл бу била айтурлар. Бу тоғларда фируза кони ва темур кони бор"[5] - деб маълумот беради.

Фарғона ҳақидаги XVII-XIX асрларга оид бир қатор манбалар ҳам водийнинг феруза кони ва темир кони ҳақидаги маълумотларни тасдиқлайди. Яъни, Қўқонда фахрланишга арзугулик, Бадахшон ферузаси каби сифатли феруза ҳам қазиб олинган. Яхши феруза соф ҳаво рангда бўлиб, ҳеч қандай доғларсиз бўлган. ***Исфара*** шаҳри яқинидан ва дарёнинг юқори оқимининг Қўқонга ўтадиган қисмидан шундай сифатли феруза олинган. Тоғли тожик аҳолиси ферузани қазиб олиш ишлари билан шуғулланган. Маҳсулотни Қўқон ва Марғилонга олиб келиб сотганлар. Ферузанинг улгуржи савдоси ўтказилиб, олиб сотувчилар ферузанинг катта бўлак гранитини кичик қисмларга бўлиб сотиб ҳам фойда кўрганлар. Ферузанинг паст навлиси сал яшил тусли бўлган. Исфара атрофларидаги тоғдан, Қора-қирғизлар яшовчи жойларда фирузадан ташқари, зумрад, ёқут, қизил ёқут ҳам қазиб олганлар ва уларнинг савдоси билан шуғулланганлар. Уларнинг энг яхши кони ***Лал- кон*** деган жойда бўлган. Бошқа жойларда лапись-лазурит кўп учраган. Қўқон ёқут тоши жуда қадрланган ва қимматбаҳо саналган[6].

Кумушга бой конлар Сирдарёнинг шимолий томонида, ***Алатау тоғида*** кўплаб жойлашган эди. Намангандан икки кунлик масофадаги ердан кумуш олинган. Аҳоли ёзнинг уч ойида кумушни қазиб олган. Бошқа пайт бу ерда совуқ ҳукмрон бўлган, қалин қор ёғган. Бу тоғнинг энг баланд жойи рудага бой бўлган. Намангандан 4 кунлик масофада, ***Кетмонтепа*** йўлида яна бир кумуш кони бўлган. 1839 йил хон у ерга кончиларни жўнатган. Улар 1000 чорик руда қазиб олиб келган. Ундан 100 чорик қўрғошин чиққан. Унга ишлов берилганда эса, 1 чорик тоза кумуш олинган. Кумуш олиш жараёни жуда мураккаб ва қийин бўлган. Бунга сабаб сув танқислиги ва Алатаунинг бу жойида жуда кучли совуқ

изғиринли шамол ҳалақит берган.Деярли барча кончи ишчилар касал бўлиб қайтган[7].

Қўқонда ҳар йили бир оз миқдорда мис олинган. Қўқонликлар айтишича, бир тоғли довон бўлиб, мис рудасига жуда бой бўлган. У ернинг ҳавоси тоза эмаслигидан кончи ишчилар у ерда узоқ қололмаган. Темир рудаси ***Хўжанд*** яқинидаги тоғлардан олинган[8]. “Бобурнома” да келтирилганидек, Фарғона ҳудудидан темир ва бошқа металлар Наманганнинг шарқий томонида жойлашган **Кетмонтепа конидан** олинганлигини тасдиқловчи маълумотлар мавжуд.

Мирзо Ҳайдар “Тарихи Рашидий”да 1499-1500 йил воқеалари баёнида Мирзо Абобакр (1514 йил вафоти) Дуғло Амир Буложи авлоди, Амир Сайид Алининг Сонсиз Мирзо ўғлининг вориси Шарқий Туркистонда (1465й) Ёрканд хонлигига асос солган ва Ёрканднди пойтахт қилиб, 48 йил ҳукмронлик қилган. 1477 йил Хўтанни Холназар ва Қулназар мирзолардан тортиб олган, 1480-81 йили Мирзо Ҳайдардан Қошқар ва Янги Ҳисорни тортиб олган эди. Ушбу жойларнинг бошқарувида Мирзо Абобакр қаттиқўллик қилиб, гуноҳи бўлган шахсларни занжирбанд қилиб, Қошқар, Ёркенд, Хўтан қалъаларида маълум жойларни қаздириб, тупроғидан олтин, кумуш ювдириб, кўп бойлик тўплаганлиги, ҳатто Хўтаннинг қадимги бир қалъасини 27 жойидан кавлатиб, мисдан хумлар, унинг ичида тиллодан ясалган офтобаларда тоши нуқро (кумуш) дан сирланган кўп хазинага эга бўлганлиги ҳақида ёзилади. Ушбу хумларда туркийда хат битилганлиги «мулк Хумор хотуннинг ўғли нима киши эрдиким ва қойда эрдиким, бул ажабки бовужуди ушбу ишларни мушоҳада қилмоқ бирла ҳирс ва хаёлотини носирадин тўхтамас эрди» деб ёзилган экан[9].

“Бобурнома” асарида Ўрта Осиё ҳудудидаги шифобахш булоқ сувлари, маъданли чашмалар ҳақида ҳам маълумотлар берилади.

“..... Қубонинг ботқоқлик қора суйи бор, кўприкдин ўзга ердин кечиб бўлмас, қалин черик келиб кўприкуда тиқилиб, қалин от ва тева бу қора сувга йиқилиб зоеь бўлди. Уч- тўрт йил мундин бурунроқ Чир (Чирчиқ дарёси) суйининг гузарида улуғ шикаст топиб эдилар, бу воқеа андин ёд бериб, Черик элига воҳима ғолиб бўлди”[10] Ботқоқлик қора сувнинг нефт аралашмали оқар сув бўлиш эҳтимоли мавжуд. Чунки оддий сувга кўприкдан йиқилганда кўп аскарлар тўдаси ва от, ҳамда туя чиқиб кетиш эҳтимоли юқори. Аммо бу ерда аксарияти бу ботқоқликдан чиқа олмай ғарқ бўлганлигига ишора қилинмоқда.

Қубонинг жойлашган ўрни ҳақида “Андижоннинг тўрт йиғочида Қубоға (ҳозирги Қува)”[11] дейилади. Демак, Андижон яқинидаги манзил ҳақида айтилмоқда. Аммо Бобур лойқали оқар сувни ҳам назарда тутган бўлиши мумкин.

“.... Неча кундин сўнг ёниб Даҳкатга келдим. ... Дахкат туз ер учун Оббурдан дабони била Масчо (Маисхой) кўҳитонига оштуқ. Масчоннинг қуйидағи кенти Оббурдандур. **Оббурдандин қуйироқ бир чашма тушубтур**, бу чашма бошида мазоредур. Ушбу чашмадин юқори Масчо дохилидур. Қуйи Палғарга тааллуқдур. Ушбу чашма бошида, чашма ёқасидағи тошда қазиб, бу уч байтни сабт эттим: Бу чашма яқинида бир тошга сўз ёзилган. Эшиттимки, қутлуқ табиатли Жамшид бир булоғ бошида тош устига шундай деб ёзган экан: бу булоғ тепасида биздан илгари кўп кишилар келиб ўлтурдилар, кетдилар ва йўқ бўлдилар. Оламни мардлик ва зўрлик билан олдик, лекин ўзимиз билан гўрга элитмадик ”- деб ёзилган экан.

“Бобурнома”да Кобул ҳақида ёзар экан, у ердаги табиий бойликлар, ер ости чашмалари ҳақида ҳам маълумот беради.

Яъни “... Шоҳи Кобул тоғидин Кобул сари боқа уч кичикрак чашма чиқар, икки Гулкина навоҳисидадур, бир чашма бошида Хожа Шамсу (Хожа Шамсиддин Жонбоз) отлиқ мазордур: яна бирида Хожа Хизирнинг қадамгоҳидур. Бу икки ер Кобул элининг гаштгоҳидур. Яна бир чашма Хожа Абдусамад тўғрисидадур. Хожа Рўшнойи дерлар.[12]” Кобулнинг “... яна бир (Ғурбанд туманидур. .....дерларким Ғурбанд тоғларида кумуш кони ва ложувард кони бўлур”[13].

XVII аср муаррихи Маҳмуд ибн Вали хам “Хирот шарқий томонида Ғур вилояти жойлашган бўлиб, унинг тоғларида қўрғошин, темир ва сурма конлари” жойлашганлигини тасдиқлайди[14].

Кобул ерларида Памғон “.....тоғнинг туида чашма вақе бўлибдур. Хожа Сеёрон дерлар. Бу чашмада ва бу ашманинг атрофида уч навь дарахтлардур. Чашманинг ўртасида қалин чинор дарахтларидур, латиф сояси бордур” манбада. Мазкур жойда Кобулнинг ғарбий томонларида бўлмайдиган бошқа балут дарахтлари ҳақида ёзилган[15].

Кобулнинг “яна бир Зурмат туманидир. .....бу туманнинг жанубида тоғдур. Баркистон тоғи дерлар. Бу тоғнинг домонасида муртафеь ерда чашма чиқибдур. Шайх Муҳаммад Мусулмоннинг қабри бу ердадур[16]” Кобул йўлида “**Бодом чашма** Жигдалик йўли ора олти қўниб Одинапур келилди…….. Қўшгунбаздин кўчуб **Гарм чашмаға** тушганда**……**”[17].

“Бобурнома”да мазкур воқеалар юз бергунча бўлган чашмалар ҳақида ҳам маълумот мавжуд. Яъни “ китобларда битубтурларким, **Ғазнида[18]** бир чашма бордурким, агар нажосат ва қозуротни бу чашмаға солсалар, ўшул замон тўлғоқ ва тўфон ва ёғин ва чопғун бўлур. Яна бир тарихда кўрулубтурким. Ройи ҳинд обуктигинни Ғазнида муҳосара қилғонда Собуктигин буюрурким, бу чашмаға нажосат била

қозурот солурлар. Тўлғоқ ва тўфон ва ёғин ва чопқун бўлур. Бу ҳийла била ул ғанимни дафь қилур. Мен Ғазнида ҳар неча тажассус қилдим, бу чашмадин ҳеч ким нишон бермади ”[19] - деб келтирилади. Бобур бу чашмага қандайдир бошқа ёт нарса солинса, тўфон кўтарилиши, ёмғир ёғиши каби об-ҳаво ўзгаришлари ҳақида маълумот бермоқда. Бизга тарихий манбалардан маълумки, бундай ҳодисалар “яда тоши билан содир этилган об-ҳавога таъсир ўтказишга уринган ҳолатлар мавжуд. Эътибор қаратилса, ядачи ёмғир чақириш учун тошни сувга солиб дуолар ўқилиши айтилади. Ўрта Осиё халқларининг этнологиясига оид тадқиқотларда “яда” тоши ҳақида қизиқарли маълумотлар кўплаб учрайди.

Ҳофиз Таниш Бухорийнинг “Абдулланома” асарида ёзишилича, “Тарих аҳли Мовароуннаҳр ажибларидан қуйидагиларни (ҳам) ёзганлар: у ерда бир тоғда ғор бор; ғордан бир булоқ қайнаб оқиб туради. (Булоқ суви) қишда шу қадар иссиқ бўладики, унга тушган киши ҳароратига бардош беролмайди, ёзда шу қадар совуқ бўладики, (ҳатто) музлаб қолади. Туркистон билан Мовароуннаҳр ўртасидаги тоғда бир хил қора тош бор. У кўмирга ўхшаб ёнади. Уни эшакларга ортиб шаҳарларга келтирадилар. Халқ уни сотиб олади. Агар ёндирилганда, кули оқ бўлади. Уни кийим ва саллани оқартиришда ишқор ўрнида ишлатадилар. У (тоғда) яна бир хил тош (ҳам борки, уни сувга ташланганда шамол, булут, чақмоқ ва ёғин (ёғингарчилик) пайдо бўлади. Ҳикмат аҳли (буни) у тошнинг хоссаларидан, деб биладилар. (Лекин) Тангри нарсаларнинг ҳақиқатини билгувчидир”[20]. **Яда тоши** – ёғингарчилик чақирадиган тош сифатида машҳур. Унинг тоғдан олинишига ишора берилмоқда.

Мовароуннаҳр ҳудудида бўлган воқеалар баёнида қуйидаги матн диққатга сазовордир. “Булар (келиб тушган жой)да яқин бир ўрмон бўлиб, дарахтларнинг узун шохлари ва қалин барглари туфайли офтоб(нинг) тиғи ер танасига

таъсир қилолмас эди. Ундан ташқари бир баланд тоғ қўрғон бўлиб, ўрмоннинг атрофини қуршаб олган эдики, ўрмонга ўтиш учун бир гузаргоҳдан бошқа йўл йўқ эди.” Манзил шундай тасвирланади. Фикрни давомида, “....кенгаш ва мунозаралардан сўнг, ўзларининг нажотларини шунда кўрдиларки, ўша **тоғда темир кони бор эди** ва ҳамма вақт ўша ерда темир тоблар эдилар. Ўрмондан ўтин ва кўмирни эшакда ташиб, ҳўкиз ва от терисидан етмиш дамлик темир эритадиган кўра ясаб, бу темир маъдани бўлган камаргоҳни ўша 70 та катта дам билан, токи у камар зар каби ҳиммат олови билан ўчоқда эриб кенг йўл очилгунча дамланадилар[21]. Жой тасвиридан Фарғона водийси ҳудудларини тахмин қилиш мумкин.

Хуллас, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асари Ўрта Осиёнинг қадимий шаҳарлари, Эрон, Афғонистон, Покистон, Ҳиндистоннинг XVI асрдаги тоғ-кон соҳаси, ер ости табиий бойликлари, маъданли сувлари, тоғ-кон соҳаси хомашёси билан боғлиқ ҳунармандчилик турлари ва уларнинг савдоси тарихига оид қизиқарли маълумотлар берадиган тарихий манбадир.

Адабиётлар рўйхати:

1. Горное дело (статья) // Горная энциклопедия. Тома 1-5. – М. : 1984-1991.

2. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – 2002. 4 том. – Б. 689.

3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. / Nashrga tayyorlovchi va lug ‘at – izohlar mualliflari : S. Hasanov, O. Jo‘rayev. “Fan” – Toshkent – 2019. – B. 6.

4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. / Nashrga tayyorlovchi va lug ‘at – izohlar mualliflari : S. Hasanov, O. Jo‘rayev. “Fan” – Toshkent – 2019. – B. 7.

5. Zahiriddin Muhmmad Bobur. Boburnoma. / Nashrga tayyorlovchi va lug ‘at – izohlar mualliflari : S. Hasanov, O. Jo‘rayev. “Fan” – Toshkent – 2019. – B.9

6. Обозрение Коканского ханства в нынешнем его состоянии. // ЗРГО кн. III. – СПб. 1849. – С.183-184.

7. Обозрение Коканского ханства в нынешнем его состоянии. // ЗРГО кн. III. – СПб. 1849. – С.184.

8. Вильяминов В.В, Зернов. Сведения о Кокандском ханстве. – «Вестник РГО», СПб., 1856. – С. 18.

9. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сўз боши, тадбил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Ҳ.Жалилов – Т. «O’ZBEKISTON». 2011. – Б. 346-347.

10. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. / Nashrga tayyorlovchi va lug ‘at – izohlar mualliflari : S. Hasanov, O. Jo‘rayev. “Fan” – Toshkent – 2019. – B. –20.

11. Zahiriddin Muhmmad Bobur. Boburnoma. / Nashrga tayyorlovchi va lug ‘at – izohlar mualliflari : S. Hasanov, O. Jo‘rayev. “Fan” – Toshkent – 2019. – B. Заҳириддин Муҳаммад Бобур . “Бобурнома” – Т. 1989. – Б.18

12. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. / Nashrga tayyorlovchi va lug ‘at – izohlar mualliflari : S. Hasanov, O. Jo‘rayev. “Fan” – Toshkent – 2019. – B. –135.

13. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. / Nashrga tayyorlovchi va lug ‘at – izohlar mualliflari : S. Hasanov, O. Jo‘rayev. “Fan” – Toshkent – 2019. – B. –143.

14. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (География)/ Введение, перевод, примечания. Указатели Б.А.Ахмедова. –Т, 1977. – С 84.

15. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. / Nashrga tayyorlovchi va lug ‘at – izohlar mualliflari : S. Hasanov, O. Jo‘rayev. “Fan” – Toshkent – 2019. – B. 144.

16. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. / Nashrga tayyorlovchi va lug ‘at – izohlar mualliflari : S. Hasanov, O. Jo‘rayev. “Fan” – Toshkent – 2019. – B.147.

17. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. / Nashrga tayyorlovchi va lug ‘at – izohlar mualliflari : S. Hasanov, O. Jo‘rayev. “Fan” – Toshkent – 2019. – B. 154.

18. Ғазни – Ғазна шаҳри.

19. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. / Nashrga tayyorlovchi va lug ‘at – izohlar mualliflari : S. Hasanov, O. Jo‘rayev. “Fan” – Toshkent – 2019. – B. 147.

20. Ҳофиз Таниш Ал- Бухорий. “Абдулланома” (“Шарафномайи шоҳий”) – Т., “Шарқ”, 1 – к. – Т. 1999. – Б. 152

21. Ҳофиз Таниш Ал- Бухорий. “Абдулланома” (“Шарафномайи шоҳий”) – Т., “Шарқ”, 1- к. – Т. 1999. – Б. 43.

ЗАХИРИДДИН МУХАММАД БАБУР В КРЫМСКОТАТАРСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ И ПЕЧАТИ

Зера БЕКИРОВА,
Член Союза писателей Евраазии, Украины,
гл. редактор журнала NENKECAN.
Крым, Симферополь,

Ключевые слова: *Бабур, крымскотатарская литература, депортация, крымско татарская печать*

Kalit so‘zlar: *Bobur, Qrim-tatar adabiyoti, deportatsiya, Qrim-tatar matbuoti*

Keywords: *Babur, Crimean Tatar literature, deportation, Crimean Tatar press*

Через год всё прогрессивное человечество будет отмечать 540-летие со дня рождения великого государственного деятеля, полководца, завоевателя Индии и Афганистана, основателя Великого тюркского государства в Индии, талантливого писателя, поэта, философа, автора знаменитого произведения «Бабурнаме» Захираддина Мухаммеда Бабура (1483–1530). Мировая востоковедческая наука высоко оценила заслуги Бабура прежде всего как историка, поэта, писателя, географа и этнографа. Наследие Бабура вот уже на протяжении нескольких столетий изучается учеными востоковедами всего мира. Интерес к творчеству Бабура не иссякает, напротив усиливается с каждым годом, подтверждением тому являются всё новые и новые переводы «Бабурнаме» на английский, французский языки, всего более 25 языков мира. В 1980- и 1985 гг. «Бабурнаме» был издан на французском языке под эгидой ЮНЕСКО

А носители тюркского языка понимают «Бабурнаме», написанного на чагатайском диалекте без перевода. Равно как и во всём тюркском мире от Магриба до Китая свободно и без переводчика читали газету великого крымскотатарского просветителя Исмаила Гаспринского «Терджиман», издаваемого на крымскотатарском языке. Может этим и объясняется отсутствие перевода «Бабурнаме» на крымскотатарском языке. А крымские татары, оказавшиеся в Узбекистане по злой воле палача Сталина, родившиеся в Средней Азии, довольно быстро освоили родственный узбекский язык и читали произведения Алишера Навои, Захираддина Бабура и других великих поэтов в оригинале.

Если великий мыслитель, поэт, правитель Алишер Навои в переписке с которым состоял Захираддин Мухаммед Бабур, занимал и занимает в крымскотатарской литературе особое место, о необходимости широко отметить юбилей которого на Первом тюркологическом съезде еще в 1926 году высказался ученый-тюрколог Бекир Чобан-заде, то наследие Бабура крымскотатарскими писателями изучено совершенно недостаточно.

Как известно, начавшаяся в Крыму на заре советской власти и достигшая своего пика в 1937-39 гг. волна репрессий уничтожила всю крымскотатарскую интеллигенцию. Были расстреляны видные ученые, поэты, писатели, блестящие переводчики. А насильственная депортация 18 мая 1944 года разбросала крымских татар по пяти республикам бывшего СССР. Крымскотатарская литература была обречена на гибель. С 1944 года по 1957 год тринадцать лет литература и язык народа были под строжайшим запретом. 1 мая 1957 года в Ташкенте стала издаваться газета «Ленин байрагъы» [1] на крымскотатарском языке, на страницах которой даже и после Указа 1956 года, снявшего огульное обвинение с крымских татар, было запрещено употреблять термины «крымскотатарский язык», «крымскотатарская литература», «крымскотатарский народ», «депортация», историческая Родина Крым». И единственная газета «Ленин байрагъы», и единственный литературный журнал «Йылдыз», и произведения крымскотатарских поэтов и писателей подвергались жесточайшей цензуре. Категорически запрещалось любое упоминание произведений, имен авторов будь то крымскотатарских или тюркских, репрессированных в 30-40-е годы, творивших за рубежом, считавшихся чуждыми коммунистической идеологии. Поэтому публикация статьи «Захириддин Мухаммад Бабур» доктора

филологических наук Азиза Каюмова» на крымскотатарском языке в журнале «Йылдыз», в которой цитируются следующие строки:

«Талиймнинъ ёкълыгъы джаныма беля олды,
Насыл бир иш япсам да эльбет, хаталы олды
Озь еримни ташладым, Индстангъа юзьлендим,
Раббим, мен не япайым, юзюм къаралы олды.

- можно считать для крымскотатарской прессы смелым событием. Ведь каждое слово великого Бабура словно говорит о крымских татарах. Правда, они «не покинули родные места», а были насильственно лишены их. Анализируя поэзию Бабура, Азиз Каюмов пишет, что «основной темой его поэтических произведений является родина, любовь к возлюбленной, измученное разлукой сердце. «Поэт скучает по Родине, постоянно ее вспоминает. Свою жизнь вдали от Родины, на чужбине он изображает так:

Хатырламай экен адамны гъурбетте адам,
Шад этмей эмиш гонълюни эмекте адам.
Гонъюлим бу гъарипликте шад олмады, ах,
Гъурбетте севинмей экен, эльбетте, адам» [2, с.119-121]

Свою статью Азиз Каюмолв заканчивает мыслью о необходимости более глубокого, всестороннего изучения наследия Бабура, чтобы превратить его в общенациональное достояние.

В том же 1983 году – в год празднования 500-летия со дня рождения Бабура на страницах «Ленин байрагъы» появилась еще одна короткая публикация о Бабуре «Бабурнынъ иджады ве фельсефеси» (Творчество и философия Бабура), авторами которой были поэт, журналист Шакир Селим и филолог-исследователь Кемал Усеинов. Авторы знакомят читателей крымскотатарской газеты с

биографией Захириддина Бабура и дают краткий анализ поэтических произведений.

В 2014 году городская газета «Сувдагъ сеси» [3] на крымскотатарском языке («Голос Судака») опубликовала рубаи Захириддина Бабура в переводе Гулизар Дерменджи.

К сожалению, других публикаций о Захириддине Бабуре, его творчестве или же переводов его произведений на крымскотатарский язык обнаружить не удалось. Попытаемся объяснить причины недостаточного освещения в крымскотатарской печати личности Бабура, крайне маленькое количество переведенных произведений.

Во-первых, в 30-40-е годы плеяда крымскотатарских литераторов, ученых, способствовавших популяризации творческого наследия Бабура среди крымскотатарских читателей была уничтожена, а в мае 1944-го года литература, печать были насильственно выселены вместе со своим народом и долгих тринадцать лет лишены голоса.

В 60-е годы в литературу пришли молодые литераторы, лишенные детства, нормального образования на родном языке, вынужденные творить под постоянным прессом цензуры. А поколение, родившееся в местах депортации, и вовсе не владело родным литературным языком.

В начале 1990-х де годов крымские татары стали массово возвращаться на родину в Крым, обустраиваться на родной земле с нуля.

Из всего следует вывод, что бесценное творческое наследие уроженца Андижана, государственного деятеля, полководца, завоевателя Индии и Афганистана, основателя Великое турецкое государство в Индии, талантливого писателя, поэта, философа, историка Захириддина Мухаммада Бабура ждёт своих крымскотатарских исследователей.

А «Бабурнаме» - ждёт переводчика на крымскотатарский язык.

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ИСТОЧНИКИ:

1. Шакир Селим. Кемал Усеинов «Бабурнынъ иджады ве фельсефеси». «Ленин байрагъы», 10 ноябрь, 1983

2. Азиз Каюмов. «Захириддин Мухаммад Бабур» / «Йылдыз», 1983 №3 с.119-121

3. Захириддин Бабур. Рубаи (в переводе Гулизар Дерменджи) // «Сувдагь сеси», 6 сентябрь, 2014.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR RUBOIYLARIDA SO‘FIYONA TALQIN

Muazzam DEDAXANOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola Mirzo Boburning komillikka da’vat qilib, tasavvufona ruhda yaratilgan ruboiylari tahliliga bag’ishlanadi. Badiiy so‘zning leksik tuzilishidagi mazmun-mohiyat va botiniy ma’noda semantik tuzilish bilan shakliy tuzilish o‘rtasidagi nomutanosiblik mavjudligi ruboiy sharhi tadqiqi misolida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: yor, avom ishqi, majoziy ishq, ilohiy ishq, tasavvuf, boda, zohid.

Bu ko‘hna zaminimiz tarixida Husayn Boyqaro (Husayniy), Abulg‘ozi Bahodirxon, Amir Said Muhammad Umarxon (Amiriy), Muhammad Rahimxon Soniy (Feruz) kabi bir qator mahoratda tengsiz ham shoh, ham ijodkor shaxslar o‘chmas iz qoldirishgan. Ular orasida hech kim serqirra ijod bobida Bobur

bilan bellasha olmaydi, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Zero, Hasanxo‘ja Nisoriy ta’kidlaganidek, u “chig‘atoy sultonlarining eng sarasi va zo‘r shijoatlisi edi”.

Zahiriddin Muhammad Bobur dunyoni hayratga solgan yirik davlat va madaniyat arbobi, mohir sarkarda, donishmand tarixchi, zakovatli olim, tarjimon, faqih, tilshunos, san’atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni bo‘lib, ko‘p qirrali ijod sohibi sifatida nom qoldirdi.

Bu mavzuda Bobur nomli xalqaro jamoat fondi tashabbusi va homiyligida hamda ilmiy ekspeditsiya izlanishlari natijasida 30 yil ichida ulkan yutuqlarga erishilgani hech kimga sir emas. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining yangi qirralarini kashf etish bilan birga nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo olimlari e’tiborini jalb qilish, keng miqyosdagi kashfiyotlarni doimiy xalqaro aloqalar asosida rivojlantirish, tarjima sohasida ham ilmiy yangiliklarni ommaga tanitish orqali ilm-fan rivojiga munosib hissa qo‘shib kelinayotgani bejiz emas, albatta. Shoir sifatida Bobur hamisha tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lgan. Chunki buyuk iste’dodning yorqin namunasi bo‘lmish serqirra lirikasi o‘zining sodda va ravon tildagi chuqur mohiyati bilan she’riyat talabiga to‘liq javob beradi. Ta’kidlash joizki, Bobur lirikasida ishq mavzusi yetakchilik qiladi. Uning nazdidagi yor timsolini uch xil anglash mumkin: sevimli ayol, Vatan va Alloh. Ayol hamda Vatanga bo‘lgan majoziy ishq talqini ko‘p bor tadqiq etilgan. Bu o‘rinda ilohiy ishq mavzusidagi shoir ruboiylari so‘fiyona talqinda tahlilga tortildi.

Ma’lumki, tasavvuf adabiyotida bir insonning boshqa insonga bo‘lgan muhabbati Allohga bo‘lgan muhabbat uchun ko‘prik vazifasini o‘taydi. Bu masalani tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov mutasavvuf Abu Homid al-G‘azzoliy qarashlari misolida atroflicha tushuntirib beradi: “…ilohiy muhabbat bilan insoniy muhabbat orasida ziddiyat yo‘q. Aksincha, ilohiy muhabbat – insoniy muhabbatning rivojlanib

kamol topgan ko‘rinishi. Hamma gap qanday insonlarni sevishda… Masalan, Shamsiddinga muhabbat Rumiy uchun Ilohga muhabbatning inson qiyofasidagi ifodasi edi” [3, B. 51-53]. Shuning uchun ulug‘ allomalarimizning asarlarida insoniy muhabbat timsolida ilohiy muhabbat ko‘p madh etilgan. “Yor ↔ Vatan” timsolida esa ta’kidlash joizki, ruboiylarining aksariyat ko‘pchiligida Vatan sog'inchi, ona diyorni qo'msash keng o'rin egallagan. Shoir uchun Vatan - sevimli yor, vasl Vatanga yetishmoq, hajr – Vatandan uzoqda bo'lmoq ifodasi ekanligi hech birimizga sir emas. Umuman olganda, bu majoziy timsollarni ham beixtiyor tasavvufga bog‘lash mumkin. Chunki “qul borliqni sevsa, unga bu borliqni bergan Ollohni ham sevadi. Unga ikrom etuvchini sevsa, ne’matlarni ehson etgan Ollohni ham sevadi. Go‘zallikni sevsa, butun go‘zallikning manbai yoki haqiqatda eng go‘zal bo‘lgan Zot – Ollohni sevadi” [1, B. 294]. Qolaversa, “Vatanni sevmoq iymondandir” hikmati ham bejiz aytilmagan.

Xullas, majoziy ishqdagi yor – payg'ambar Muhammad alayhissalom yoki tariqat peshvosi piri komil yoki ota-ona, farzand, ayniqsa, sevimli inson, hattoki Vatan timsoli misolida ifodalanishi mumkin. Ammo Bobur ijodida haqiqiy ishq ramziy ifoda etilgan she’rlar ham talaygina uchraydi. Buni quyidagi ruboiysida ko‘rishimiz mumkin:

Ko‘zung bori sog‘larni mast etgusidur,
G‘amzang bori mastlarni past etgusidur.
Ko‘p zohid-u porsoni Bobur yanglig‘
La’ling havasi bodaparast etgusidur [2].

Portret asosida boshidan oxiriga qadar ko‘chma ma’no zamiriga qurilgan mazkur ruboiyni sharhlashdan avval ramziy timsollar mohiyatiga oydinlik kiritib olishimiz lozim. “Tasavvuf lug‘atlarida ko‘z — komil inson timsoli, deb sharhlanadi, chunki u faqat o‘zgalarni ko‘radi, o‘zini esa ko‘rmaydi. Agar yuz ilohiy zuhurot ramzi bo‘lsa, ko‘z shu zuhurot jamlangan manba — mazhari komillikning ramzi. Ko‘zni sevish orqali ilohiy jamolni

sevish ifodalanadi” [3, B. 346]. Mastlar – oshiqlar, “g‘amza – ishva, noz-u karashma; qosh-ko‘zni uchirib nozlanish” [4, B. 264]. Past etmoq – kamtarlikka ishora. Ahmad Yassaviy bu borada “Tuproq bo‘lgil olam seni bosib o‘tsin...” – deydi. Zohid – zuhd yo‘liga kirgan, tarkidunyo qilgan kishi. Zohidlik davri so‘fiylari taqvo va parhezkorlikni bosh maqsad deb bilgan bo‘lsalar, keyingi – oriflik davri so‘fiylari tafakkuriy-shuuriyni rivojlanish, ya’ni dunyoni va Ilohni bilish, tanishni asosiy maqsad, deb hisoblaganlar. Oriflar nazdida zohidlar ilohiy ishqdan bebahra holda jannat umidida zuhd-u ibodat bilan mashg‘ul bo‘ladilar. “Porso – yomon ishlardan saqlanuvchi, o‘zini tiyuvchi, taqvodor, xudojo‘y” [5]. La’l — qimmatbaho qiziltosh, bu yerda lab ma'nosida ishlatilgan. Lab — (haqiqiy yoki majoziy) yorning kalomi, ko'rsatmalari, purma'no so'zlari. Bodaparast – bodani yaxshi ko‘ruvchi, mayxo‘r [5]. Tasavvuf she'riyatida may va mastlik mohiyatida ilohiy ishq ko'zda tutiladi.

Demak, komillikni his qilgan odam ilohiy ishqdan mast bo‘ladi, bu yo‘ldagi sinovlar esa oshiqni kamtar, xokisor bo‘lishga chaqiradi. Chunki Yorning kalomi nafaqat Boburni, balki ko‘p zohid-u porsolarni ham ilohiy ishqqa oshno qiladigan darajada qudratli. Bu fikrlarimiz isbotini quyidagi ruboiyda yanada ochiqroq ko‘rishimiz mumkin:

Yo qahr-u g'azab birla meni tufroq qil!
Yo bahri inoyatingda mustag‘roq qil!
Yo Rab, sengadur yuzum qaro gar oq qil,
Har nav' sening rizong erur andoq qil! [2]

Ma’lumki, taqdirga rozi bo‘lish ham iymon shartlaridan biridir. Mazkur ruboiyda shu mavzu ifoda etilgan bo‘lib, lirik qahramon sinovli dunyoda Yaratganning qahr-u g'azabidek og‘ir imtihonlarga ham tayyor ekani va buning natijasida yanada kamtarin, tufroqdek xokisor, ojiz holga tushsa-da, shakkoklik qilmaslikka rozilik bildirmoqda. Inoyat bahri(dengizi)ga mustag‘roq, ya’ni g'arq bo‘lish ne’mati ham Allohdan ekaniga

ishora qilib, bilib-bilmay qilgan gunohlar tufayli qora bo‘lgan yuzini oq qilinishi (afv etilishi) umidida Yaratgan rizosiga erishishni maqsad qiladi. Albatta, sinovlarga dosh berib, bunga erishish oson emas:

Ey yor, sening vaslingga yetmak mushkil,
Farxunda hadisingni eshitmak mushkil.
Ishqingni dog'i bir taraf etmak mushkil,
Boshni olibon bir sari ketmak mushkil [2].

Hayot yo‘lining asosiy qismi jang-u jadallar bilan o‘tgan Bobur hamisha halollik, adolat tamoyiliga amal qilib yashadi. Puxta o‘rgangan islomiy bilimlariga amal qilish barobarida pir-u murshidlarni-yu har qanday din vakillari hurmatini joyiga qo‘ydi, aybdorni ayagan holda jazoladi. Kechirimli bo‘lish pand bersa ham, jahl otiga minmay, adolat mezoniga, din me’yoriga amal qildi. Shu sababdan olim-u ulamolar, din peshvolari o‘rtasida katta obro‘ qozondi. Vatan uchun yoki din, mazhab yo‘lida, o‘z e’tiqodi yo‘lida muqaddas urushda qatnashib, jangda o‘lish – shahid bo‘lish ehtimoli kuchli bo‘lsa-da, xolis niyati tufayli g‘oziy, ya’ni yomonni o‘ldiruvchi bo‘ldi [Qarang: 5]:

Islom uchun ovorai yozi bo‘ldum,
Kuffor-u hunud harb sozi bo‘ldum.
Jazm aylab edim o‘zni shahid bo‘lmoqqa,
Alminnatulillohki, g‘ozi bo‘ldum [2].

Xulosa qilib aytganda, Boburning achchiq hayot yo‘li, ijodiy merosi, boshqaruvchilik mahorati, jang-u jadallardagi uslubi, pand-nasihatlari – hamma-hammasi kelajak avlod uchun hamisha ibrat maktabi bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Homid G‘azzoliy. Ihyo al-ulum ad-din. 4 jild. – B. 294.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur haqida gazallari va ruboiylari – O‘zbekiston

(http://axbor.sorbon.ru/la/ZahiriddinMuhammadBoburhakidagazallarivaruboijlari_la/).

3. Komilov N. Tasavvuf. – T.: “Movarounnahr” – “O‘zbekiston”, 2009. – B. 448.

4. Lapasov J. Mumtoz adabiy asarlar o‘quv lug‘ati (O‘rta maktablar uchun). — T.: “O‘qituvchi”, 1994.— B. 272.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildlik. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR: MEROSI VA TARIXSHUNOSLIGI

Bahromjon ABDULLAEV,
Andijon davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi katta o’qituvchisi

***Annotatsiya*:** *Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning lirik devonlari, “Boburnoma”, “Mufassal”, “Xatti Boburiy”, “Harb ishi”, “Musiqiy ilmi”, islom dini asoslarining bayoni bo’lgan “Mubayyin”, “Volidiya” tarjimasi va boshqa asarlari haqida .fikr bildirilgan.*

Kalit so’zlar: *Bobur, Boburiylar, “Boburnoma”, “Humoyunnoma”, Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, “Buyuk mo'g'ullar”.*

Barchamizga ma’lumki, xalqimiz o’tmishda o’tgan ko’plab buyuk daholari bilan haqli ravishda faxrlansa arziydi. Ularning ko’plari nafaqat, o’z diyorida, balki dunyoning ko’plab mamlakatlarida ma’lum va mashhurdirlar. Ana shunday mo’tabar zotlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur yirik madaniyat arbobi sifatida ma’lum. U yoshligidan ilm bilan shug’ullangani, fors, arab tillarini o’rganishi, adabiyot, tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa va boshqa sohalar bilan shug’ullangani bois ham ma’rifatni anglaydigan, madaniyatli kishi bo’lib yetishdi. U fanning turli sohalariga doir ko’plab asarlar yozdi. Boburning lirik devonlari, “Boburnoma”, “Mufassal”, “Xatti Boburiy”, “Harb ishi”, “Musiqiy ilmi”, islom dini asoslarining bayoni bo’lgan “Mubayyin”, “Volidiya” tarjimasi va boshqa asarlari uning shuhratini yanada oshirdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati bilan bog’liq ba’zi jihatlar Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”sida keltiriladi. U shunday yozadi: “Firdavs makonning katta o’g’illari Humoyun podshoh... Qobul arkida /1508 yil 7 mart/ tug’ildilar. O’sha yili Firdavs makon amrlari va boshqalari: “Endi meni Bobur podshoh deb atanglar”, deb buyurdilar. Humoyun podshoh tug’ilmaslaridan burun Mirzo Bobur deb atash rasm edi. Chunki bugun podshohzodalarni Mirzo deb, o’zlarini esa Humoyun podshoh tug’ilgan yillaridan “Bobur podshoh”, deb atashga buyurdilar” [5. 33].

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi ko’p qirralidir. Ammo uning she’riyat sohasidagi shuhrati yana ham yuksakroqdir. Boburning bizgacha rang-barang janrlardan iborat lirik devoni yetib kelgan. Bobur devonlarining qo’lyozma nusxalari unchalik ko’p emas. Devonlarining qo’lyozma nusxalari Parijda, Hindistonda, Turkiyada, Eronda va boshqa joylarda saqlanadi. Bu devonlar bir necha marta nashr etilgan. 1910 yilda Hindistonda, 1915 yilda Istambulda, 1917 yilda Petrogradda nashr etilgan. Bobur devonlari ingliz, fransuz va boshqa tillarda ham tarjima qilingan. 1943-1957 yillar orasida rus tilida nashr etilgan. Bobur devonida g’azallar, ruboiylar, tuyuqlar, fard, masnaviy kabi janrlar uchraydi. G’azal, ruboiy, tuyuqlarning turli xillarini ko’ramiz, Bobur she’riyatining asosiy janrlari g’azal,

ruboiy va tuyuqdir. Shoir devoni asosan o’zbek tilidagi she’rlarni o’z ichiga oladi. Shu bilan birga bir necha fors-tojik tilidagi she’rlar ham mavjud. Bu esa Boburning fors-tojik tilini mukammal bilishini ko’rsatadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1500 yilda shoir sifatida tanilgan. Hozircha uning 120 g’azal, 210ga yaqin ruboiysi, 10dan ortiq tuyuq, qit’a, fard, 150 dan ortiq muammosi yetib kelgan. Shuni ta’kidlash kerakki, Bobur she’riyatining asosiy mavzusi ishq-muhabbatdir. Uning rangin kechinmalari, visol orzulari, hijron iztiroblari, yor go’zalliklari, oshiqning rang-barang holatlari bayon etiladi. Bobur yurt haqida, Vatan sog’inchi, yor va diyorni madh etish, odob-axloq, ma’rifatni kuylash, davr ozorlaridan shikoyat kabilar haqida ham yozadi. Bobur she’riyatida ishq-muhabbat, hayot zavq-shavqlari kuylangan g’azallar anchagina.

O’zbek adabiyotida o’ziga xos bobur shunoslik yuzaga keladi. Uning shaxsi va ijodi adabiyotshunos, tarixchi, tilshunos, jo’g’rofiya va boshqa soha kishilarining e’tiborini tortib keldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo'lib, “Mubayyin” (“Bayon etilgan”), “Xatti Boburiy”, “Harb ishi” risolalari islom qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Zahiriddin Muhammad Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo'lgan shoh asari “Boburnoma”dir. Ma'lumki, unda Bobur yashagan davr oralig'ida Movarounnahr, Xuroson, Eron va

Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Asar asosan uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi - XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro'y bergan voqealarni; ikkinchi qismi - XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya'ni Afg'onistonda ro'y bergan voqealarni; uchinchi qismi - XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag'ishlangan. “Boburnoma”da o'sha davrning siyosiy voqealari mukammal bayon qilinar ekan, o'z yurti Farg'ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, O'sh, Urganch, O'ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida nihoyatda nodir ma'lumotlar keltirilgan. Unda Qobul ulusining yirik shaharlari Qobul, G'azna va ular ixtiyoridagi ko'pdan-ko'p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy Hindiston haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin. “Boburnoma”ni varaqlar ekanmiz, ko'z oldimizdan Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlariga xos bo'lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olamini kengligi va murakkabligi bilan birga, o'sha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to'liq manzarasi namoyon bo'ladi. “Boburnoma”da keltirilgan bu tarzdagi ma'lumotlar Bobur davrida yozilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxond, Hondamir, Muhammad Solih, Binoiy, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allomiy va boshqa tarixchilarning asarlarida bu darajada aniq va mukammal yoritilgan emas [2. 11].

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Mirzo Ulug'bek va boshqa allomalar haqida o'zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi. “Boburnoma” - Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri - XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o'zida aks ettirgan bo'lsa ham, shu bilan birga juda ko'p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o'zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari,

jug'rofiy mavqei, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, tog'lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari va ularning yashash sharoitlari, urf-odatlari, muhim tarixiy inshootlari - hindular va musulmonlarning ibodatxonalari, to'y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma'lumotlarni o'zida qamrab olgan shoh asardir. Shu bois “Boburnoma” tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hayratda qoldirib kelmoqda. Uzoq yillar davomida G'arb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari “Boburnoma” mazmunini jahon jamoatchiligiga yetkazish borasida katta faoliyat ko'rsatdilar. Masalan, gollandiyalik olim Nitsen, angliyalik olimlar J.Leyden, V.Erskin, R.Koldekot, A.Beverej, T.Albot, germaniyalik Yu.Klaynrat va A.Keyzer, frantsiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar, turkiyalik R. R. Art va N.I.Bayur va bizning davrimizdagi frantsiyalik olim Bakke Gromon, afg'onistonlik olim Abulhay Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, Nadvi va Shoh Olam Mavniyot shular jumlasidandir. “Boburnoma”ni o'rganish sohasida jahonning mashhur sharqshunoslari qatoridan yaponiyalik olimlar ham joy olmoqdalar.

Ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o'rganish va ommalashtirishda O'zbekiston, Tojikiston, Rossiya olimlarining faoliyatlari ham diqqatga sazovordir. XIX-XX asrlar davomida Georg Ker, N.Ilminskiy, O.Senkovskiy, M.Sale, Porso Shamsiev, Sodiq Mirzaev, V.Zohidov, Ya.G'ulomov, R.Nabiev, S.Azimjonova, A.Qayumov kabi olimlarning sa'y-harakatlari bilan “Boburnoma” bir necha bor rus va uzbek tillarida chop etildi, ularga so'zboshi yozildi va keng kitobxonlar ommasining ma'naviy mulkiga aylantirildi, uning she'rlari ham bir necha bor nashr etildi. Bobur o'zbek adabiyotida o'zining nozik lirik asarlari bilan ham mashhurdir. Uning hayoti va adabiy faoliyati Movarounnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan feodal guruhlarning boshboshdoqlik

harakatlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatining inqirozi davom etayotgan bir davrga to'g'ri kelgan edi.

Zahiriddin Muhammad Bobur lirik she'rlari va tarixiy “Boburnoma”sidan tashqari, islom qonunshunosligi va boshqa sohalarda ham asarlar yaratgan. 1522 yilda o'g'li Humoyunga atab yozgan “Mubayyin” nomli asarida o'sha zamon soliq tizimini, soliq yig'ishning qonun-qoidalarini, shariat bo'yicha kimdan qancha soliq olinishi va boshqa masalalarni nazmda izohlab bergan. “Xatti Boburiy” deb atalgan risolasida arab alifbosini turkiy tillar, xususan, o'zbek tili nuqtai nazaridan birmuncha soddalashtirib berishga harakat qilgan. U tajriba sifatida “Xatti Boburiy” alifbosida Qur'oni Karimni ko'chirgan. Boburning aruz vazni va qofiya masalalariga bag'ishlangan “Mufassal” nomli asari ham bo'lganligi ma'lum, biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan. Bobur o'zining ma'lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o'z hissasini qo'shgan olim sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida munosib o'rin egallaydi [1. 33].

Zahiriddin Muhammad Boburning eng mashhur asari “Boburnoma”dir. U dastlab “Vaqoye” (“Voqealar”) deb atalgan. So'ngroq “Voqeoti Boburiy”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Boburiy” nomlarini oldi. Oxirida “Boburnoma” bo'lib shuhrat topdi.

“Boburnoma” tarixiy va badiiy asar sifatida. O'zbek nasri Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy"sidan Xojaning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlarigacha bo'lgan katta yo'lni bosib o'tdi. Navoiy uni tarixiy, ilmiy, memuar nasri bilan yangi bosqichga ko'tardi. “Boburnoma” adabiyotimizning mana shu tajribalarini umumlashtirib, uni jahoniy miqyoslarga olib chiqqan asardir. “Boburnoma”, avvalo, tarixiy asardir. Unda 1494-yildan, ya'ni Bobur taxtga chiqqanidan 1530- yilgacha umrining so'ngigacha yuz bergan voqealar o'z ifodasini topgan [3. 19].

“Boburnoma”da keltirilgan barcha ma’lumotlar, xususan Farg’ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag’oniyon va Shimoliy Afg’onistonning XV-asrning 80-90-yillari va XVI-asrning 1-choragidagi siyosiy ahvoliga doir xabarlar o’zining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi [3. 40].

“Boburnoma” XVI asrdan boshlab hozirgacha dunyoning ko’p tillari - ingliz, golland, fransuz, fors, nemis, italyan, rus, hind, urdu va boshqa tillariga bir necha martalab tarjima qilindi, sharh-izohlar bilan nashr etildi. Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg’oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o’nlab mamlakat olimlarining ilmiy tadqiqotlarida “Boburnoma”ning insoniyat yaratgan o’lmas obidalar qatorida alohida o’rinda turishi ta’kidlanadi. “Boburnoma”ning jahonga mashhur bo’lishida, asosan ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo’ldi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to’liq nashrini (ingliz tilida) 1826 yilda J.Leyden va V.Erskin[4] amalga oshirdi. F.Talbot esa mazkur nashr asosida 2 marta (1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921 yilda ingliz sharqshunosi A. Beverij “Boburnoma”ni mustaqil suratda asl nusxadan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyaning o’zida “Boburnoma” tarjimalari 9 marta nashr etildi.

“Boburnoma”ning professor V.Tekston tomonidan AQSHda (Kembrij shahri Garvard universiteti, 1993) hamda ikki jild hajmda, mukammal so’zlik, ko’rsatkich va sharh-izohlar bilan Yaponiyada (Kioto, 1995-1996) ilmiy-tanqidiy matni nashr etildi. Shunigdek R.Sharma ham salmoqli ishlar qildi [6].

Umuman olganda, Zahiriddin Muhammad Bobur sarkarda, tadbirkor podshoh, mohir davlat arbobi, ayni paytda iste’dodli shoir, adib, donishmand, tarixchi, zukko olim va tarjimon bo’lib, keng dunyoqarashi, mukammal aql-zakovati, bilimi bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soldi. Bu sulola Hindistonda 332 yil hukmdorlik qildi. Bobur avlodidan olti shaxs

Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon, Avrangzeblar uzoq davr podshohlik qildilar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimjonova S., Valiyev D. Manaviyat yulduzlari. T.: 1999.
2. Azimjonova S. Zahiriddin Muhammad Bobur (maqolalar to`plami). T.: 1995.
3. Boburnoma. T.: 2001.
4. Erskin U. Hindistonda Bobur davlati (G'.Sotimov tarjimasi). T.: 1997.
5. Gulbadanbegim. Humoyunnoma. T.: 1959.
6. Sharma R. Boburiylar saltanati. (G'.Sotimov tarjimasi). T.: 1999.

"ХОМХАЁЛ..."НИНГ РЎЁБИ

Қамчибек КЕНЖА,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, ёзувчи, Бобур халқаро илмий экспедицияси аъзоси

Фонд раҳбари зиммасида яна бир қатор жиддий вазифалар, жумладан, "Бобур энциклопедияси"ни ниҳоясига етказиш масъулияти турарди. Зокиржон Машрабов кўпчилик билан битадиган бир масаланинг бошини тутса, у то ҳал этилиб, хотиржам тортмагунча ўзи ҳам тинчимайди, бошқаларга ҳам тинчлик бермайди. Онгида Бобур қомусини яратиш фикри дастлаб туғилганида у бу юмушнинг нечоғлик мураккаб ва серзаҳматлигини ўйламаган бўлиши ҳам мумкин. 2013 йили Тошкентда ўтган "Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг жаҳон маданияти тарихида тутган

ўрни” мавзуидаги халқаро анжуманга “Шарқ” НМАК Бош таҳририяти намуна сифатида энциклопедиядан бир неча дона чоп этиб берганида Зокиржон ака, “ҳайрият, бу ниятимизга ҳам етдик”, деб суюнган эди. Намуналар Бобур халқаро жамоат фонди қошида ташкил этилган махсус илмий марказда диққат билан ўқилиб, ҳар томонлама жиддий ва чуқур муҳокамалардан ўтказилгач, қомусни қиёмига етказиш учун ҳали жуда кўп иш қилиш лозимлиги аён бўлиб қолди. Шундагина Зокиржон ака “бошини зўр ишга бериб қўйганини” ***(Абдулҳамид Чўлпон)*** англади. Лекин у ҳеч қачон бирон муҳим ишни қийинлиги, машаққатлилиги учун чала ташлаб кетган эмас. Тўғри, аввалига Фонд қошидаги илмий марказ раҳбари, асли ихтисослиги математик (шу соҳада фан доктори, профессор), аммо адабиётни, бадииятни манаман деган соҳа олимидан кам билмайдиган, “Муножот”, “Аруз”, “Бобур. Девон. Назм маҳорати” сингари теран илмий тадқиқотлар, бир қатор адабий асарлар муаллифи Абдулла Аъзамнинг ўта талабчанлигидан бир оз ранжигиси ҳам келди. Бироқ унинг ишга муносабати, меҳнаткашлиги, таҳрир услубини, ҳар қандай машғулотга бутун вужуди билан астойдил киришишини, ўзини асло аямаслигини кўриб (домла Аъзамов баъзида тажанглашиб ҳам қоларди), қомуснинг тобора бойиб, пухталашиб, мукамаллашиб бораётганига ишонч ҳосил қилгач, бу машаққатли вазифани адо этиш учун малакали мутасадди танлашда янглишмаганига имони комил бўлди.

Зокиржон ака дастлаб қомус 2013 йил охиригача тайёр бўлади, деб ишонган эди. Лекин илмий марказдаги фаолият жараёнининг нақадар кенг кўламли ва мураккаб экани, янги-янги материаллар оқими тўхтамаётгани – Бобур дунёсининг уммон каби бепоён ва бениҳоя серирмоқлигидан марказ заҳматкашлари Азиз Қаюмов, Саидбек Ҳасан, Абдулла

Аъзам, Ваҳоб Раҳмонов, Ботирали Йўлдошев ва бошқалар билан бирга ҳайрат ва ҳаяжонга тушарди.

Иш ҳажмининг улканлиги туфайли китобни чоп этишнинг энг охирги муҳлати деб белгиланган навбатдаги бобурхонлик кунлари (2014 йил, 14 февраль)гача ҳам улгуриш қийинга ўхшаб қолди. Бу ўринда шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, муайян тарихий шахс ҳаёти ва фаолияти ҳақида илмий қомус яратиш Ўзбекистон тарихида биринчи марта амалга оширилмоқда эди. Мақолалар, маълумотлар ниҳоятда кўп ва бир қараганда, уларнинг ҳаммаси бир-биридан зарурга ўхшар, баъзи муаллифлар қомус талабларини яхши билишмагани туфайли қулоч-қулоч мақолалар ёзиб келишар, Абдулла Аъзам уларга қомус асосан ихчам, мухтасар маълумотлардан иборат бўлиши кераклигини тушунтиролмай қийналарди.

Боз устига, жуда кўп ишларни жамоатчилик асосида, азбаройи Бобур Мирзога бўлган ҳурмат ва ихлос юзасидан адо этишга тўғри келарди. Бу борада ҳеч қайси муаллиф, ҳеч қайси муҳаррир моддий манфаат таъмасида бу ишга бош қўшмаганини ҳам айтиб ўтишни жоиз деб биламиз.

Ўша кунлари Ўзбекистон халқ шоири Тўлан Низом иккимиз Дўрмондаги Ёзувчилар боғида ижод билан жиддий машғул эдик: Тўлан ака мук тушиб, “Тарихи Рашидий” асарининг муаллифи Муҳаммад Ҳайдар Мирзо ҳақидаги шеърий романининг сўнгги бобларини таҳрир қилиш билан банд, камина эса “Бобурийлардан бири”нинг кейинги давр воқеа-ҳодисалари билан тўлдирилган нусхаси устида ишлар, иккаламизнинг ҳам фикри-ёдимиз ёзаётган асарларимизда эди. Зокиржон ака эса кун-кунора телефонда ҳозир “Бобур энциклопедияси”дан муҳимроқ ва заруррроқ иш йўқлигини таъкидлаб, биздан қомусга оид материаллар тайёрлашга ёрдам беришни талаб мақомида илтимос қиларди.

Аслида-ку, Зокиржон ака шу кунларда нафақат Ўзбекистон, балки жаҳон бобуршуносларини ҳам оёққа турғазиб улгурган эди.

Хуллас, унинг бир оёғи яна Андижонда, иккинчиси Тошкентда бўлиб қолди. Январнинг охири, февралнинг бошларида, сурункали катта қор ёғиб, йўлларда юриш мушкуллиги, Қамчиқ довони беркилганига қарамай, эрта демай, кеч демай, Андижондан Тошкентга, Тошкентдан Андижонга ҳеч иккиланмай жўнаб юборарди. Ҳайдовчи Аҳмаджон бошлиғининг улуғ ёшда ҳам ҳеч бир ҳадик-хатарни писанд қилмаслигига тан берар ва баъзан хавотир ҳам оларди. Фақат Аҳмаджонгина эмас, Зокиржон аканинг бундоқ довюраклиги, шижоатидан хабардор ҳар бир яқини, жумладан, баъзида Тошкент сафарида унга ҳамроҳ бўлиб қоладиган Тўлан Низом ва камина ҳам қойил қолар ва... ундан ташвишланардик. Бизнинг меҳрибончилигимизга эса Зокиржон ака Бобур Мирзонинг шаҳди-шиддатини мисол келтирарди, бошида қанча режалару ташкилий муаммолар уюлиб ётганини, ўзини аяшга фурсати йўқлигини айтар ва табиатим шунақа бўлса, нима қилай, деган маънода кифт қоқиб қўярди. Ҳақиқатан ҳам агар Зокиржон Машрабов шундай дангалчи ва Бобур Мирзодай қайтмас, таваккалчи бўлмаганида Бобур Халқаро жамоат фонди дунёнинг энг йирик бобуршунослари эътиборини қозонармиди, уларнинг боши бир жойда - Бобур ватанида қовушармиди, Бобур халқаро илмий экспедицияси қирққа яқин сафари мобайнида кўплаб хорижий мамлакатларни кезиб, шунча кўп китоблар, қўлёзмалар, бошқа маълумотларни топиб, олиб келармиди, ўзга тилларда битилган Бобур ва бобурийлар, темурийлар тўғрисидаги ўнлаб китоблар таржима бўлиб, халқимиз маънавий хазинасига қўшилармиди?.. Агар Зокиржон ака ҳар қандай машаққатни енгиб ўтишига ишонмаса, Кобул ва Аградан Бобур Мирзо, Ғазнидан Абу Райҳон Беруний,

Мисрдан Аҳмад Фарғоний қабри хокларидан олиб келинармиди... Ёки, Мавлоно Лутфий, Алишер Навоий, Камолиддин Беҳзод қабрлари узра муносиб сағана - мақбара ўрнатилармиди?..

Қилаётган ишининг жамиятга, халққа манфаати тегишини, умри самарасиз ўтмаётганини ҳис этиб яшаш бу инсонга мудом куч-қувват, баланд руҳ ато этарди. Яратилажак қомуснинг ҳам Бобур Мирзо ихлосмандларига, бобуршуносларга, илм аҳлига, умуман, зиёлиларга, халқимизга сув ва ҳаводай зарурлигига, бинобарин, жон чекишга арзишига имони комил эди. Зеро, “Бобур энциклопедияси” шунчаки Бобур ва бобурийлар тўғрисидаги маълумотлар тўпламигина эмас, балки у тарихни, мумтоз адабиёт, илму санъатни, табиату набототга доир, ўнлаб, юзлаб соҳага оид сир- асрорларни ўзида мужассам этган маънавий хазина бўлиб, ундан неча-неча авлодлар баҳра олажаклар. Шу маънода, ушбу қомус ижодкорларини хазина тўпловчилар, деб атасак, ўйлайманки, ҳеч қандай муболаға бўлмайди.

“Бобур энциклопедияси” ҳақидаги фикр-мулоҳазаларимизни якунлар эканмиз, ушбу илмий лойиҳа республикамизнинг атоқли тарихчи ва шарқшунос олимлари, адиблар, ноширлар, матбаа соҳаси намояндалари иштирокида муҳокама қилинган йиғилишлардан бирини эсламасдан ўтолмаймиз.

Ўша нуфузли машваратда Бобур бобомиз ҳақида мукаммал илмий қомус яратиш ғояси ҳақида сўз юритганида, очиқ айтиш керак, мажлис қатнашчиларининг аксарияти Зокиржон акага қандайдир ҳайрат ва таажжуб билан қарадилар. Кўзга кўринган, номдор олимларнинг баъзилари бу ишни амалга ошириш учун алоҳида илмий-тадқиқот институти тузиш лозимлигини, бу масала бўйича ҳукуматнинг махсус қарори қабул қилиниб, катта миқдорда

маблағ ажратиш кераклигини, умуман, мазкур лойиҳани рўёбга чиқариш учун камида 8-10 йил вақт талаб этилишини баён қилдилар. Айрим нотиқлар Ўзбекистонда бундай қомус ҳозирга қадар на Амир Темур, на Алишер Навоий, на Абу Райҳон Беруний, ва на ибн Сино ҳақида яратилмаганини рўкач қилиб, аввало ишни ана шу улуғ зотлар фаолияти ҳақида бошлаш ўринли бўлишини писанда қилар эдилар.

Айниқса, “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”нинг мутасаддиларидан бири томонидан билдирилган шубҳа-гумонлар ҳаммасидан ҳам ошиб тушди. Қарийб ўттиз йилдан бери шу соҳа билан шуғулланиб келаётган бу одам Бобур Фондининг ушбу интилишини “ширин, аммо хомхаёл” деб баҳолади, тарихий шахсларга бағишланган энциклопедияларни тайёрлаш ва нашр этишнинг нақадар оғир ва машаққатли бир юмуш эканини собиқ совет мамлакатларида чоп қилинган А. Пушкин, Л. Толстой, Ф. Достоевский ҳақидаги илмий қомусларнинг неча ўн йиллар давомида тайёрлангани, бунинг учун қандай катта илмий ва ижодий кучлар, молиявий имкониятлар сафарбар қилингани мисолида тушунтирмоқчи бўлди. Сўзининг ниҳоясида у бундай жиддий лойиҳаларни ҳаваскорлик йўли билан амалга ошириб бўлмаслигини, агар Бобур Фонди зарур маблағни топиб, ўзи бошқараётган нашриёт ҳисобига ўтказиб берса, у бошлиқ “профессонал қомусчи”лар бу вазифани бажариб беришлари мумкинлигини, лекин бунинг учун камида 5-6 йил вақт керак бўлишини қистириб ўтди.

Бундай кескин гапларни эшитиб, қутлуғ ишга ҳозирлик кўра бошлаганларнинг руҳи тушиб кетгандек бўлди. Орага оғир жимлик чўкди. Зокиржон ака ҳам тараддудланиб қолди. Шунда Бобур фондининг раёсат аъзоси бўлган таниқли бобуршунос ёзувчи Хайриддин Султон сўз олиб, жумладан, шундай деди:

- Албатта, Бобур энциклопедиясини яратиш, йўқдан бор қилиш қанчалик қийин ва мураккаб иш эканини барчамиз яхши тасаввур қиламиз. Бу ерда ҳурматли қомусчи домламиз ҳаваскорлар ва профессионаллар ҳақида гапириб ўтдилар. Ҳақиқатан ҳам, бу жуда ўринли талаб. Яъни бу борада бир эски латифа ҳам борки, ҳозир уни эслаб ўтсак, фойдадан холи бўлмас. Маълумки, жаҳонга машҳур “Титаник” кемасини профессионал кемасозлар илм-фаннинг энг сўнгги, илғор ютуқлари асосида барпо этган эдилар. Афсуски, бу кема биринчи марта сувга туширилганидаёқ ҳалокатга учраб, океанга ғарқ бўлди. Ўз замонида Нуҳ пайғамбар эса кема ясаб тўфондан омон қолди. Ҳолбуки, Нуҳ алайҳиссалом кемасоз уста эмас, таъбир жоиз бўлса, бу борада ҳаваскор эди. Кўриб турганимиздек, ҳаётда баъзан бир қараганда ғайритабиий бўлиб туюладиган мана шундай сирли ҳолатлар ҳам юз беради. Машҳур Панипат жанггида Бобур Мирзонинг ўн икки минг қўшин билан Иброҳим Лўдийнинг юз минг кишилик лашкари устидан ғалаба қозонгани ҳам айни шундай воқеалар сирасига киради.

Менинг фикримча, биз бугун Бобур Мирзонинг дилбар шахсиятига чексиз ҳурмат ва иштиёқ билан ёндошиб, мана шундай улуғ ва эзгу ташаббус билан чиқаётган соф ниятли кишиларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлашимиз керак. Уларнинг шашти, эзгу шижоатини ҳар турли важлар билан сўндирмасдан, аксинча, қўлимиздан келган ёрдам ва кўмакни беришимиз лозим.

Шундан сўнг мажлисда бошқа бир қатор олим ва адиблар ҳам сўзга чиқиб, Бобур фондининг ташаббусини қўллаб-қувватлашга тайёр эканликларини изҳор этдилар. Хусусан, “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни Бош муҳаррири Аҳрор Аҳмедовнинг қомусни чоп этиш билан боғлиқ ишларда амалий ёрдам кўрсатиш ҳақидаги таклифлари

Зокиржон ака ва унинг маслакдошларини руҳлантириб, қувонтириб юборди.

Орадан икки йил (ҳаракат бошланганига 6 йил) ўтиб, оғир ва машаққатли илмий изланиш ишлари ниҳоясига етди. Йирик ҳажмдаги “Бобур энциклопедияси”нинг чоп этилиши соҳа мутахассисларининг кўпларини ҳайратга солди, бобуршунослар, Бобур ихлосмандлари қалбини қувончга тўлдирди.



“БОБУРНОМА” - МУҲИМ ТАРИХИЙ МАНБА

Авазбек МИРЗАЕВ,
Андижон давлат университети,
«Жаҳон тарихи» кафедраси катта ўқитувчиси

Буюк саркарда, йирик давлат арбоби, шоир, адиб, таржимон ва етук олим ҳамда шоҳ Заҳириддин Муҳаммад Бобур яратган асарларнинг орасида “Бобурнома” муҳим ўрин эгаллайди. Улуғ ватандошимиз ҳақли равишда буюк бўлган Бобурийлар империясига Ҳиндистонда асос солди ва мамлакатда одилона сиёсат юргизиб диний бағрикенгликни таъминлашга ҳаракат қилиб мамлакатлар ўртасида дўстона муносабатларни ўрнатди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг таъбири билан айтганда, “...Бу зот ўн икки ёшидан бошлаб Темурийлар давлатини сақлаб қолиш учун ўзини ўтга ҳам, чўққа ҳам урди, ҳеч қандай душмандан ҳам, синовдан ҳам қўрқмади. Қирқ олти йиллик умри давомида бир зум ҳам ҳаловат билмасдан ўтди. Ўз авлодларига

Ватанга бўлган буюк муҳаббатни, эзгу фазилатларни мерос қилиб қолдирди”[1.6].

Бобурнинг ўлмас асари саналмиш “Бобурнома” Фарғона водийси, бутун Марказий Осиё, Афғонистон ва Ҳиндистон тарихи учун қимматли тарихий манба ҳисобланади. Асарда жуда кўп тарихий воқеалар, шахслар, одатлар, табиий шароит, мамлакатларнинг ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳақида ўз қимматини абадий сақлайдиган ҳужжатли маълумотлар тўпланган. Ушбу асарда келтирилган маълумотлар тўғрилиги ва мукаммаллиги жиҳатидан беназирдир[2.21].

“Бобурнома”да келтирилган маълумотлар орасида Ҳиндистон ва Афғонистон халқларининг ижтимоий ҳаёти ҳақидаги маълумотлар фавқулотда муҳим ва фанда ҳамон ўз қимматини йўқотмаган. Тарихдан маълумки, XVI асрда Афғонистон мустақил давлат эмас эди, унинг бир қисми Эрон тасарруфида бўлиб, асосан кўчманчи қабилалар яшаган. “Бобурнома”нинг қиммати яна шундаки, муаллиф ўша кўчманчи қабилалардан 30 дан ортиғининг номларини санаб ўтади. Бобур даврида ҳозирги Афғонистон 14 та туман(вилоят)га бўлингани ҳақида муаллиф баён қилиб, уларнинг номларини бирма-бир келтириб ўтади. Бундан ташқари, Афғонистоннинг ҳар бир вилоятига хос бўлган ҳаёти, иқтисодий ва ижтимоий муҳитни фарқлаб тасвирлайди.

Шунингдек, асарнинг Афғонистон ва Ҳиндистонга оид бобларида ушбу минтақалардаги солиқ турлари ва солиқ тўплаш усуллари тўғрисида маълумотлар ҳам кўплаб учрайди. Бундай маълумотлар Ҳиндистон ва Афғонистон ҳамда ўз навбатида Марказий Осиё халқларининг ўша замондаги иқтисодий ва ижтимоий ҳаётини ўрганиш учун фавқулотда қимматли манба бўлиб хизмат қилади.

“Бобурнома”да Марказий Осиё билан қўшни Шарқ мамлакатлари ўртасидаги иқтисодий ва савдо муносабатларига доир маълумотлар ҳам жуда муҳимдир. Масалан, Фарғона билан Хитой ўртасидаги савдо алоқалари ҳақида бошқа манбалардан маълумот топиш мушкул бўлса, “Бобурнома”да эса Умаршайх даврида Хитой билан савдо алоқаси ҳамда Фарғона-Хитой карвон йўли мавжуд бўлганлиги ҳақида қимматли маълумот бор. “Бобурнома” синчковлик билан таҳлил қилинса, унинг муаллифи ёшлигиданоқ Қуръони каримни ҳам ёд олгани аён бўлади[3.127].

“Бобурнома”нинг асосий тасвир мавзуи тарихий воқеалардир[4.5]. Бобур ўз асарида тарихий воқеаларни баён қилар экан, фақат ўзи кўрган ва билган ёки ўз қулоғи билан эшитган воқеий-мисоллар асосида ва масалага танқидий ёндашган ҳолда баён этади. Бобурда умуман ўзи кечирган айрим воқеалар моҳиятан тарихий қиммат касб этажагини, ичдан ҳис қилиш қобилиятини сезамиз. 1507 йилда Шайбонийхон қўшинлари Бобурни таъқиб қилиб, Қандахор томонларга бостириб келаётгани ҳақида хабар топди, у ерда укасини ҳоким қилиб тайинлади-да, ўзи Ҳиндистон сафарига отланди. У томонга баланд тоғлардан ошиб ўтиш керак эди. Фасл эса қиш эди. Бобур одамлари ва аскарлари қор бўрони кунлари “Банди-Пиг” довонидан ниҳоятда азоб, қийинчилик билан ошиб ўтган. Бу воқеанинг тарихийлигини ҳис этган Бобур уни абадийлаштириш учун нақкош Шоҳ Муҳаммадга буюриб шу ердаги тошлардан бирига бу тарихни ўйиб ёздирган.

Кейинчалик Ҳайбар довони деб аталиб кетган бу йўл ўшандан буён машҳурдир. Бобур Туркистон тизма тоғларининг ғарбий этакларида ночор аҳволда қолиб кетган кунлари ҳақида ҳам тошларга ўйдириб ёздириб қўйган.

Кечаётган воқеалар моҳиятининг тарихийлигини ҳис қилиш, умуман олганда кам учрайдиган қобилиятдир. ”Бобурнома”ни ўқир эканмиз, унинг муаллифида ҳар қандай шароитда ҳам мана шу истеъдод доимо намоён бўлиб турганини сезамиз.

“Бобурнома”ни тарихий манба сифатида синчиклаб ўқир эканмиз, воқеалар баёнида муаллифнинг давлат бошлиғи сифатида қабул қилган қарори ёки берган буйруғининг тўғри, ёки нотўғрилигини таҳлил қилган саҳифалари учрайди. Бобур ўзининг бир буйруғини чуқур ўйламай бериб сўнг афсусланганига эътиборни тортади. Воқеа бундай бўлган эди.

1498-1499 йиллари рўй берган ҳарбий тўполонлардан бирида Ахсини эгаллаган Узун Ҳасанга қарши Бобур юриш қилиб уни асир олади. Бироқ тузилган битимга кўра, унинг бойлиги қайтарилиб берилиб ҳаёти сақлаб қолинади ва у Ҳисор томон жўнаб кетади, барча навкарлари эса “Бобурга содиқлик билдириб” Узун Ҳасандан ажраладилар. Лекин, улар илгари Бобур хонадон-ю, Андижонни талаб кўп жабр-ситам ўтказган эдилар. “Нима қилиш керак”, - деб ўйланади Бобур. Узун Ҳасан билан шунча талончилик қилган навкарлар энди гўё унга қарши курашиш учун Бобурга қўшилишларида самимийлик бормикан ёки уларни қатл қилиш керакми?

Бобур раҳмдиллик кўрсатиб, улар илгари Андижонни талаб тўплаган молларини топширишга, ўзларини эса қўйиб юборишга буйруқ беради. У ўзининг мана шу буйруғи нотўғри бўлганидан афсусланади. Чунки, озод бўлган ғаним навкарлари омон қолгач яна ғанимлик қилишади ва Бобур бошига кўп ташвишлар солади. Бундан у шундай хулоса чиқаради: Давлатни идора қилишда ва муҳим ҳарбий ҳаракатлар вақтида айрим қарор ва буйруқлар зоҳиран тўғридек туюлса-да, аммо давлат бошлиғи унинг моҳияти-

ю, оқибатини жуда кўп мулоҳазадан ўтказмоғи лозимдир. «Ушбу бир бемулоҳаза ҳукм қилғонимиздин не миқдор шўр ва фитналар қўпти»- деб ёзади Бобур. Бу ерда подшоҳ Бобурнинг мардлиги, яъни ўзининг нотўғри берилган буйруғини ўзи танқид қилиши ва бундан чиқарган таълимий хулосаси диққатни ўзига жалб қилади.

Бобур тарихий воқеаларни ўзи кўрган, ўзи билган ёки ўзи эшитган жуда ишончли мисоллар асосида баён қилади. Бу ҳақда ўзи бундай деб ёзган: «Чун бу тарихда андоқ илтизом қилиб турким, ҳар сўзининг ростини битилгай ва ҳар ишнинг баёни воқеъини таҳрир этилгай. Ложарам ота-оғадин ҳар яхшилиқ ва ёмонликким шойиъ эди, таҳрир қилдим ва қариндош ва бегонадан ҳар айб ва ҳунарким баёни воқеиъ эди, таҳрир айладим. Ўқиғувчи маъзур тутсин, эшитгувчи таарруз мақомидин ўтсун»[5.264].

“Бобурнома”ни алоҳида синчковлик билан ўқиганда, биз шу давргача билган ва ўрганган тарихий воқеалар, ажойиб ҳодисалар ва инсонлар ҳақидаги хабар-маълумотлардан ташқари, унинг муаллифи – Бобурнинг ҳамон биз эътибор бермаган фазилатлари, инсоний феъллари, шахсий эътиқоди ва бошқа янги-янги муҳим маълумотлар олиш мумкин. Ўшандек маълумотлардан бири спортнинг бир тури бўлган курашга эътибори ва унга қизиққанидир. “Бобурнома”да кураш “қуштигир” деб тилга олинади[6.92].

Хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, «Бобурнома» илм аҳли учун Марказий Осиё ва Ҳиндистон минтақаларини тарихий, ижтимоий-маданий тараққиёти даражасини тадқиқ этиш учун ҳам муҳим аҳамиятга эга асардир. “Бобурнома”ни ўша асрларда яшаб ижод этган ва шу давр тарихини ёритган бошқа тарихчилар асарлари билан қиёсланса, Бобурнинг улардан воқеаларни чуқур билиши ва ростгўй баён қилиши билан алоҳида ажралиб туришини кўрамиз. Муҳими, Бобур воқеа ва ҳодисаларни муболағасиз ва ҳеч бир ўзгаришсиз

баён қилади. Бобур эсдаликларининг илмий аҳамиятининг беқиёслиги ҳам шундадир. “Бобурнома” жаҳон маданияти тарихида ўлмас тарихий ва адабий қимматга эга асар сифатида муносиб ўрин эгаллайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017.

2. “Бобурнома”– шарқ халқлари маданий меросининг ноёб дурдонаси. – Андижон, 1990.

3. Машрабов З. Бори элга яхшилиғ қилғил. – Т.; Ғофур Ғулом номидаги НМИУ, 2013.

4.”Бобур ва Бобурийларнинг Жаҳон маданияти тарихида тутган ўрни” мавзуидаги халқаро илмий анжуман материаллари. – Т.; “Шарқ”,2008.

5. “Бобурнома”. – Тошкент, “Юлдузча” нашриёти,1989.

6. Жалилов С. Бобур ҳақида ўйлар.– Тошкент, ”Шарқ” нашриёти, 2006.

БОБУР МИРЗО ИЖОДИДА ВАТАН МАВЗУСИ

Дилсора Комил ФОЗИЛОВА,
жамиятшунослик фанлари номзоди,
Британ Колумбиа университети, Канада

Нозиктаъб шоир, истеъдодли мемуарнавис, буюк ҳукмдорлик сифатларини ўзида мужассамлаштирган сиймо – Заҳириддан Муҳаммад Бобур нафақат ўзбек, балки жаҳон тамаддунига салмоқли ҳисса қўшганлиги билан ҳар доим

диққат-эътибор марказида туради. Мураккабликларга тўла ўзига хос ҳаёт йўли ва шеъриятидаги Ватанга изҳори муҳаббат мавзуси уни ватанпарварликнинг тимсоли ўлароқ гавдалантиради.

Бобур шахсиятидаги диққатга молик жиҳатлардан бири шундаки, унинг фитратидаги кучли ватанпарварлик ҳисси она заминдан йироқлик негизидагина пайдо бўлиб қолмаган, у ўз она заминидаги шоҳлик даврида ҳам халқпарвар бўлгани, мамлакатининг ободлиги ва яхлитлиги учун жон куйдирганини кўриш мумкин. Унинг биографияси билан танишар экансиз, салтанат ва маишат илинжида тахтга интилган баъзи темурий шаҳзодалардан фарқли ўлароқ, Мовароуннаҳр заминини бобокалони Амир Темур ва қондоши Мирзо Улуғбек давридаги каби бир қўл остида бирлаштириш, ички зиддиятларга барҳам бериш орқали ташқи душманга қарши туриш, халқнинг ҳаётини фаровон қилиш иштиёқи билан ёнган.

Бобур шахсиятидаги чизгиларни ўрганишнинг долзарблиги шундаки, унинг тақдир йўли – ватанни тарк этиб, бошқа юртда муқим яшаш ўз даври – XVI аср учун нодир ҳолат саналган бўлса, орадан беш юз йил вақт ўтиб, бу одатий тусга кирмоқда. Яъни сўнгги вақтларда бутун дунёда бир умумий тенденция – миграция (шахснинг бир жойдан бошқа жойга кўчиши) оқимининг кучаётганлиги кузатилмоқда. Бу XXI асрда глобаллашувнинг муҳим омилларидан бири ҳисобланади. Энг охирги маълумотларга кўра, ўзи туғилган макондан бошқа жойда муқим яшовчилар сони бутун дунё бўйича 281 млн. нафар (сайёра аҳолисининг қарийб 4 фоизи)ни ташкил этади.

Бобур тарки ватан қилган бўлса-да, ўз она юртига ҳам, ҳинд элига ҳам, қўйингки, жами инсониятга манфаатли бўлган ишларга қўл урганига тарих гувоҳ. Жумладан, у Мовароуннаҳр ва Ҳиндистон ўртасида савдо алоқаларини

йўлга қўйди, Андижон заминида ўсадиган узумнинг тансиқ навларини ҳинд заминига олиб кирди, темурийларнинг меъморчилик анъаналарини оммалаштирди, жаҳонгашталиги ортидан бошқа маконларга оид жуғрофий, тарихий, маданий маълумотларни тўплаб, “Бобурнома”га киритиш орқали бебаҳо тарихий манбани яратди ва энг муҳими, ҳиндларнинг сати одати (вафот этган эркакнинг жасадига қўшиб унинг рафиқасини ҳам тириклайин ёқиб юбориш)ни бекор қилдирди.

Бобурга хос бу тантилик ҳисси унинг бугунги ватандошлари тимсолида давом этаётганини қуйидаги бир неча мисолларда кўриш мумкин: 2020 йил май ойида Ўзбекистонда йирик фожиа – “Сардоба” сув омборининг ўпирилиши кузатилиб, минглаб одамларга жабр етказганда хориждаги ўзбекистонликлар бефарқ қолишмади. Хусусан, Германиядаги ўзбеклар жабрланганларга ёрдам бериш мақсадида 6 май кунидан бошлаб, кўмак акциясини эълон қилишди. Мазкур акцияга Мюнхенда ўзбеклар диаспорасини ташкил қилган жаноб Герхард Биркл (Gerhard Birkl) бошчилик қилди.

Бундан ташқари, Россиялик бизнесмен ва меценат, асли ўзбек Алишер Усмоновнинг «Санъат, фан ва спорт» хайрия жамғармаси Ўзбекистон маданий меросини қўллаб-қувватлаш ва шу жумладан, Тошкентда модернизм меъморчилигини қайта тиклаш бўйича лойиҳаларни қўллаб-қувватлаётгани эътиборга молик.

Шунингдек, Ўзбекистонда ислоҳотларни самарали ўтказишга ёрдам бериш, хорижнинг илғор тажрибаларини имплементация қилишга кўмаклашиш мақсадида республикадан ташқаридаги турли ташкилотлар ва халқаро компанияларда ишловчи, экспертлар кенгаши 30дан ортиқ мамлакатда истиқомат қилувчи 200дан ортиқ мутахассисни жамлаган “Буюк келажак” нодавлат-нотижорат

ташкилотининг бир муддат фаолият юритгани ҳам хориждаги ўзбекларнинг ўз юрти тақдирига бефарқ эмаслигига амалий исботдир.

Яна буюк шоир ва давлат арбоби Бобур Мирзо ҳақида сўзимизни давом эттирсак.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўз ижоди орқали янги бир жанрга асос солди бу– муҳожирдаги муҳаббат соҳиби. Унинг сатрларида ишқ, ҳижрон, фироқ, афсус, икки дунё ичра ўртаниш, тунлари юлдузларга термулиб ўз Андижони осмони излаш, Ватанидан айрилгани сабаб ҳар бир қадамида қуйилган хатоларни қайта-қайта таҳлил қилишни кўриш мумкин. Унинг ҳар бир ҳаракатида, муваффақиятида Ватан соғинчи асосий ҳаракатлантирувчи куч сифатида хизмат қилганини, Ватан муҳаббати ҳам ижод, ҳам жанг майдонида тумор ўлароқ ҳамроҳ бўлгани кузатилади.

Толеъ йўқи жонимға балолиғ бўлди,
Ҳар ишники айладим, хатолиғ бўлди.
Ўз ерни қўйиб, Ҳинд сори юзландим,
Ё Раб, нетайин, не юз қаролиғ бўлди.
Ёки:
Эл билмаса ҳолатим, билур ёр,
Ҳолимдин эрур Худой огоҳ.
Кобул сори гар азимат этсанг,
Қурбон қилай ўзни санга, эй шоҳ!
Бобур яна ўтлуқ оҳ чектинг,
Куйдурмасун элни оҳ ногоҳ!

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда хулоса сифатида айтиш мумкинки, муҳожирлик йўлини тутганлар учун ватан муҳаббати ҳаракатга, инсоният цивилизациясига манфаат келтиришга ундовчи асосий мотив бўлиб хизмат қилади.

Бугун дунё тараққиёти билан ҳамнафас бўлиш, Бобур ҳаёти ва ижодини бугунги авлодга таништириш ҳар доимгидан муҳимроқ. Бобур номидаги халқаро жамоат

фонди, бу жабҳада буюк ишларни амалга оширишда давом этаётган ва фаолияти нафақат Ўзбекистон учун балки муҳожирликда ўз тақдирини саволга тутиб яшаётганлар учун ҳам жуда муҳимдир.



БОБУР АДАБИЙ МЕРОСИ МИЛЛИЙ ҒУРУР ВА ИФТИХОР НАМУНАСИ СИФАТИДА

Шуҳрат ХОТАМОВ,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети доценти

Аннотация: Мазкур мақолада, йирик давлат арбоби ва саркарда, шоир, адиб, таржимон ва етук олим ҳамда шоҳ Заҳириддин Муҳаммад Бобур яратган асарлари ва адабий мероси ёшларимизни ҳарбий ватанпарварлик ва миллий ғурур руҳида тарбиялашда ҳамда уларнинг дунёқарашини, маънавиятини юксалтиришда асосий дастуруламал бўлиши кенг ва атрофлича ёритилган.

Таянч сўзлар: Мовароуннаҳр, Хуросон, авлиё, даҳо, мутафаккир, миллий ғурур, ифтихор, мазҳабпарастлик, мутаассиблик, оммавий маданият, миллий ўзлик, солнома, ватанпарварлик.

Аннотация: В этой статье широко и подробно описаны работы великого мыслителя, поэта и государственного деятеля Бабура, а также его литературное наследие в воспитании нашей молодежи в духе военного патриотизма и национальной гордости, а также описывает важную роль в повышении их мировоззрения и духовности.

Ключевые слова: Моваруннахр, Хорасан, святой, гений, мыслитель, национальная гордость, высокомерие, фанатизм, массовая культура, национальная идентичность, летопись, патриотизм.

Annotation: This article describes the works of the great thinker, poet and statesman Babur, as well as his literary heritage in educating our young people in the spirit of military patriotism, as well as it contains information about its important role in enhancing their worldview and spirituality.

Key words: Movarunnahr, Horasan, saint, genius, thinker, national pride, arrogance, fanatism, mass culture, national identity, annals, patriotism.

“Бобур - дилбар шахс, уйғониш даврининг типик ҳукмдори, мард ва тадбиркор одам бўлган. У санъатни, адабиётни севарди, ҳаётдан ҳузур қилишни яхши кўрарди.”[1]

Узоқ тарихий жараён давомида халқимиз дунёга кўплаб ажойиб илм-фан, санъат ва адабиёт намояндаларини етказиб берган. Буюк аждодларимиз яратган илмий, бадиий, қомусий асарлар неча минг йиллардан буён турли халқлар томонидан мутолаа қилинмоқда, авайлаб, эъзозланиб, асрлардан асрларга ўтиб келмоқда, ўнлаб тилларга таржима этилиб, истеъдодли котиблар томонидан кўчирилиб, моҳир мусаввирлар, наққошларнинг мўйқалами билан зийнатланиб, инсоният тафаккурини бойитмоқда, одамларга маънавий завқ-шавқ бағишламоқда.

Азиз-авлиёлари, донғи дунёга достон алломаларининг хоки пойи, хотираси эъзозланган юртда яшаймиз. Минг шукурки, осмонимиз мусаффо, мамлакатимиз тинч. Дастурхонимиз, рўзғоримизда қут-барака, одамлар орасида меҳр-оқибат, саховат ва кўмак ҳукмрон. Бундай юрт кишларининг маънавияти ҳам юксак бўлади. Илму одобда

[1] Неру Джавахарлал. Открытие Индии. С. 272-273.

етук эл ҳар кимнинг ноғорасига ўйнаб, дуч келганнинг макрига учмайди. Бутун маънавий меросни асраб-авайлашга қаратилаётган эзгу ислоҳотлар ёшлар қалбида ватанга муҳаббат, эл-юртга садоқат, ғурур ва ифтихор туйғусини кучайтиришга қаратилгани билан аҳамиятлидир. Зеро, бир пайтлар хорижликлар у ёқда турсин, ўзимиз ҳам номларини тузукроқ билмайдиган улуғ бобокалонларимиз ёди буюк мустақилликнинг қутлуғ нафаси туфайли қадр топди. Бугун биз ҳар қанча фахру ифтихор ила, беҳад шукроналар айтиб яшашга ҳақлимиз.

Эзгу ташаббус билан ободонликка юз тутган қадамжоларнинг аввалги ҳолати билан бугунгиси таққосланганда таниб бўлмас даражадаги ўзгаришларни кўрамиз. Шунинг учун бўлса керак, мамлакатимизга ташриф буюраётган минглаб хорижий сайёҳлар, меҳмонлар бундай улуғвор ўзгаришларни – мўъжизани кўриб, ҳайратланмоқдалар.

Тарих зарварақларини кўздан кечирар эканмиз, бир асрда инсоният солномасида алоҳида из қолдирган, кейинги авлодларга ўзининг жамиятдаги мавқеи, яратган илмий, бадиий мероси ҳамда саркардалик қобилияти билан ибрат намунаси бўла оладиган аждодларимиз яшаб ўтганлиги билан фахрланамиз. XV асрнинг иккинчи ярими ва XVI асрнинг ўрталарида башарият тарихининг ижтимоий-сиёсий, илмий-маданий соҳаларида салмоқли ўрин тутган сиймолардан бири буюк ватандошимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобурни бемалол ана шундай шахслар сирасига киритиш мумкин.

Бобур Ганг дарёсидан Амударёгача бўлган ҳудудни бирлаштирган улкан салтанатга асос солган давлат арбоби ва саркарда. Буюк салтанат соҳиби қисқа вақт ичида катта ижобий ишларни амалга оширишга улгурган. У Агра ва Деҳли шаҳарлари атрофини ободонлаштириш, Жамна

дарёси бўйларида саройлар, қасрлар, ҳаммомлар қуриш, боғлар барпо этиш ишларига бош-қош бўлади. Қобул ва Ғазна шаҳарларини сув билан таъминлаш иншоотларини қайта тиклайди ва савдо йўлининг бехатарлигини таъминлаш мақсадида карвонсаройлар, работлар қурдиради[1]. Шунингдек, у ўз атрофига олим ва шоирларни тўплаб, уларнинг ижодий ишларига ҳомийлик қилади. Саройига Ўрта Осиё ва Хуросондан машҳур тарихчи Хондамир, файласуфлардан Абулбақо, шоирлардан Мавлоно Шиҳоб Муаммоий, Мулла Бақоий, Видоий, Абдулвоҳид Фориғий, Шайх Зайн ва бошқалар келиб, ўзбек ва форс-тожик тилларида ижод қилганлар[2]. Бобур асос солган салтанат, мамлакатни маълум даражада сиёсий жиҳатдан бирлаштириш, ободонлаштириш ва маданий жиҳатдан юксалтириш нуқтаи назаридан Ҳиндистон учун фойдали бўлган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўз даврининг йирик давлат арбоби ва саркардаси бўлиш билан бирга, шоир, адиб, таржимон ва етук олим ҳам бўлган. У ўзидан башариятга бой адабий ва илмий мерос қолдирган. Бизгача етиб келган асарларининг ўзи ҳам Бобур ижодининг кўп қиррали, жанр жиҳатидан хилма-хил ва ранг-баранглигини кўрсатади. Унинг асарларида инсон ва табиат гўзаллигининг муҳиби, энг яхши ахлоқий фазилатларни қадрловчи, рўй берган тарихий воқеаларни аниқ акс эттирувчи, зулм ва риёкорликни қораловчи, тарихий шахслар фаолиятини холис мушоҳада қилиб, олимлар, шоирлар ва санъаткорлар ижодига замоннинг илғор анъаналари нуқтаи назаридан баҳо бера оладиган аллома ва донишманд сиймоси китобхон кўз ўнгида намоён бўлади. Бобур ўзининг ана шундай илғор қарашлари, илм-фан ривожи йўлидаги хизматлари билан

[1] “Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси”. 2014 й. 734-735 б.
[2] Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”. 2002 й. 7-б.

башарият тарихида ўчмас из қолдирган буюк зот ҳисобланади.

Бобур яшаб ўтган умрининг ўзи авлодларга ватанпарварлик, миллий ғурур ва ифтихор туйғулари намунасидир. Инсон дунёга бир марта келади ва умр йўли давомида ўзидан яхши ном қолдиришга интилади. Айрим кишилар дунёдан ўтганларидан сўнг ҳам асрлар оша инсонларнинг қалбида, хотирасида мангу яшайдилар. Буюк бобомиз, улуғ саркарда, мутафаккир, шоир ва давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг табаррук номи ва улкан адабий мероси ҳам ана шундай умрбоқийликка дахлдор бўлиб, мана беш асрдан зиёд вақт ўтибдики, мангу қуёш сингари сўнмасдир. Бобур асарларини ўқиган, унинг бой адабий меросидан баҳраманд бўлган инсон борки, унинг янгидан-янги сирларини очаверади. Шу боис шоир ва саркарда ижодини улкан уммонга қиёсласак, унинг бағрида беҳисоб дуру жавоҳирлар хазинаси мужассам топган, деймиз.

Бобур ўз ижоди билан ўзбек адабиётининг ривожини белгилабгина қолмай, Ўрта Осиё, Хуросон, Афғонистон ва Ҳиндистоннинг бутун маънавий-маданияти тараққиётига жуда катта таъсир кўрсатди. Неру ўзининг “Жаҳон тарихига бир назар” асарида Бобур ҳақида шундай таъкидлайди: “Бобур шу пайтгача ўтган маданиятли ва жозибадор инсонлар орасида энг етукларидан бири эди. У мазҳабпарастлик каби чекланишдан ва мутассибликдан йироқ эди... Бобур санъат ва адабиётни айниқса севар эди”[1] деган фикрлари албатта, бизга ғурур бағишлайди. Унинг асарлари, шеърияти ва ғазаллари қайта-қайта кўчирилиб, халқ орасида кенг тарқалиб, шоирлар учун мактаб

[1] Жавоҳарлаъл Неру. “Жаҳон тарихига бир назар”. II-жилд. 115 б.1975 й.

вазифасини ўтади, мадрасаларда ва олийгоҳларда кенг ўрганилади.

Бобур ижодини ўрганиш, унинг илмий таҳлили бўйича сўнгги йилларда қатор таниқли тадқиқотчилар иш олиб бордилар ва бугунги кунда ҳам Бобурнинг мероси кўпгина олимларимизни илҳомлантириб келади. Жумладан, К.З.Ашрафян, Х.Назарова, Н.Отажонов, Х.С.Қудратуллаев, А.П.Ибрагимов, З.Т.Холманова, С.А.Алиев, С.А.Азимджанова, Г.Ф.Благова, С.Жамолов, С.Р.Ҳасанов, Н.С.Қориева, С.И.Шукуруллаева, Т.Х.Саидалиев, А.П.Ибрагимов, Д.М.Ҳошимова, Ф.Салимова, О.Ҳусанбоев, М.Д.Абдуллаева, Д.Т.Ражабова[1] ва бошқаларни айтиб ўтиш мумкин.

Шунингдек, заҳматкаш олимлар Порсо Шамсиев ва Содиқ Мирзаевлар томонидан 1949 йилда “Бобурнома”нинг икки жилдлиги кирилл ёзувига табдил қилиниб, чоп этилган. 1959 йилда Азиз Қаюмов ва Сабоҳат Азимжоновалар томонидан “Бобур лирикаси” деб номланган рисола нашр этилган. Таниқли тарихчи ва адабиётшуносларимиз М.Нуриддинов “Бобурийлар сулоласи” (1994), Т.Файзиев “Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари: (Бобурийлар сулоласининг қисқача тарихи)” (1996), Бўрибой Аҳмедов ҳамда Ўзбекистонннинг атоқли тарихшунос олимлари томонидан (библиографик маълумотнома) (2003), Ҳасанбек Саидбек. “Заҳириддин Муҳаммад Бобур” (2011), Қудратиллаев Ҳасан “Бобурнинг давлатчилик сиёсати ва дипломатияси” (2011). Шунингдек Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” романи шулар жумласидандир[2].

Албатта, бу илмий ишлар, оммабоп мақола ва рисолаларда Бобур ижоди, унинг бадиий ва санъаткорлик маҳорати, дунёқарашининг барча қирралари рўй-рост ва

[1] Ҳайриддин Султон. “Бобурийнома”, 2002. 386-387 б.
[2] Ўша манба

ҳаққоний талқин этиб берилмаган. Бизга маълумки, XX асрнинг 70-йиллари, хусусан, 80-йилларга келиб Бобур шахсиятига нисбатан бир томонлама муносабат, уни “босқинчи”, “золим”, “феодал синф вакили” деб ноҳақ қоралашлар кучайган. Ҳатто унинг таваллудининг 500 йиллиги собиқ марказдан берилган кўрсатмалар туфайли нишонланмаган. Ўтмишимизга салбий муносабат ҳаётимизнинг барча соҳаларини қамраб олган, жумладан, дарсликларимиз ҳам бу таъсирдан холи бўлмаган. Масалан, ўша даврда педагогика институтлари тайёрлов бўлимлари учун чиқарилган “Ўзбек адабиёти” дарслигида қуйидаги салбий сатрларни кўриш мумкин:

“Бобур-Афғонистон ва Ҳиндистонни босиб олган феодал ҳукмдор. У бу ерларни қўлга киритишда қаршилик кўрсатган минглаб кишиларни ўлдирган, талаган, ўз синфининг манфаатини кўзда тутган темурийларнинг сўнги вакили...”[1].

Узоқ ўтмишда яшаб ижод этган, илм-фан, адабиёт, санъат ривожига улкан ҳисса қўшган буюк аждодларимизга нисбатан бундай нотўғри ва ноҳақ қарашлар 80-йилларнинг охирларига келиб аста-секин ижобий томонга ўзгара бошлаган.

Дарҳақиқат, шоирнинг ушбу ўгитлари ёшларимизни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаб, миллий ғурурини юксалиши учун самарали таъсир кўрсатиб, уларнинг дунёқарашини кенгайтиради.

Бобур халқимизнинг онги ва тафаккури, бадиий маданияти тарихида бутун бир даврни ташкил этадиган буюк шахс, миллий адабиётимизнинг тенгсиз намояндаси, миллатимизнинг ғурури, шаъну шарафини дунёга тараннум қилишда катта ҳисса қўшган. Шунингдек, инсон қалбининг

[1] “Ўзбек адабиёти” дарслиги. Москва, 1970-йил.

қувончу қайғусини, ватан туйғусини, эзгулик ва ҳаёт мазмунини Бобурдек теран ифода этган шоир жаҳон адабиёти тарихида камдан-кам топилади. Она юртга муҳаббат, унинг беқиёс бойлиги ва буюклигини англаш туйғуси ҳам бизнинг онгу шууримиз, юрагимизга аввало Бобур асарлари билан кириб келади. Биз бу бебаҳо меросдан халқимизни, айниқса, ёшларимизни қанчалик кўп баҳраманд этсак, миллий ифтихор ва миллий ғуруримизни юксалтиришда, жамиятимизда эзгу инсоний фазилатларни камол топтиришда шунчалик қудратли маърифий қуролга эга бўламиз.

Маълумки, бирон-бир халқ маънавиятига хос қадриятларнинг бошқа халқлар томонидан тан олиниши, табиийки, ана шу халқ тарихига нисбатан чуқур ҳурмат ифодасидир. Бундай эътироф халқнинг миллий ғурурини ва ифтихорини, миллий ўзлигини янада юксалтиришга хизмат қилади. Шу маънода, кейинги пайтда буюк аждодларимизнинг сўнмас даҳосига ҳурмат-эҳтиром, уларнинг бой илмий меросини ўрганишга бўлган қизиқиш хорижий элларда ҳам ортиб бораётгани барчамизни қувонтиради. Бунинг тасдиғини дунёнинг турли мамлакатларида ва юртимиз вилоятларида уларнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида эълон қилинаётган илмий ва бадиий асарлар, улуғ аждодларимиз хотирасига барпо этилаётган ёдгорликлар мисолида ҳам кўриш мумкин. Шулар қаторида Ҳиндистонда, Тошкент, Андижон, Самарқанд шаҳарларида Бобур бобомизнинг хотирасига муҳташам ҳайкаллар ўрнатилган. Дарҳақиқат, халқимиздан етишиб чиққан буюк алломалар олам узра ном қозонган, уларнинг меҳру муҳаббатига сазовор бўлган. Таассуф шундаки, айримлар ана шундай етук бобокалонларимиз меросига қайта – қайта мурожаат қилинаётган кунларда енгил-елпи ҳою ҳавасга кўр-кўрона эргашмоқда. Кейинги пайтларда “Оммавий

маданият” ниқоби остида халқимиз табиатига зид, бўлмағур ғояларни ўзига сингдирган айрим “тантана”ларни тиқиштиришга уринишаяпти. Бу эса айрим ёшларимизни чалғитиб қўйиши мумкин. Аслида, шарқона тарбияда меҳр-муҳаббатни улуғлаш, ака-укага, оилага вафо ва ватанга садоқат ила муносабатда бўлишга юксак урғу берилади. Бобур асарларида ҳам ана шу хислатлар беқиёс тарзда ифодаланган. Ватанпарвар, халқпарвар, тенгсиз шоир, оламшумул файласуф бобокалонимиз келажакка-авлодларига улкан умид боғлаган зот эди. Биринчи Президентимиз Ислом Каримов таъкидлаганидек, “Бобомиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур номи билан ҳар қанча фахрлансак арзийди. Ўзбек халқининг довруғини дунёга таратган улуғ аждодларимиздан бири ўлароқ, ул зот бизни тарихимизни қадрлашга, келажакка буюк ишонч билан қарашга ўргатади”[1].

Албатта, буюк ватандошимиз Бобурнинг ҳаёти ва ибратли ишлари ўз даврида ва кейинчалик шогирдлари, издошлари томонидан атрофлича ўрганилди ва бугунги кунда ҳам унинг маънавий меросига бўлган қизиқиш, изланишлар давом этмоқда. Буюк алломанинг ёркин ҳаёти ва кўп қиррали фаолиятини ҳар томонлама чуқур ўрганиш мустақил Ўзбекистонимиз келажаги бўлган маънавий баркамол, ватанпарвар инсонларни тарбиялашдек муҳим ва олийжаноб вазифаларга хизмат қилиши шубҳасиздир.

Бугунги кунда бобуршунослик шарқшуносликнинг жадал суръатлар билан ривожланаётган соҳасига айланган, “Бобурнома” ҳозиргача йигирмага яқин тилга таржима қилинган, уни яна бошқа тилларга ўгириш давом этмоқда, деярли ҳар йили Бобур асарлари нашр этилмоқда, янги манбалар излаб топилмоқда ва илмий истефодага

[1] И. Каримов. “Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир” Т ошкент-2002 й.

киритилмоқда, ўнлаб рисола, сон-саноқсиз илмий, илмий-оммабоп ва публицистик мақолалар чоп этилмоқда. Бобурнинг тарихий меросини ўрганиш ва тарғиб қилишда Бобур халқаро жамоат фонди ва Халқаро Бобур илмий экспедицияси фаоллик кўрсатиб келаётганини алоҳида таъкидлаш лозим.

Хулоса қилиб айтганда, маънавиятимизнинг бебаҳо қирраларини кенгроқ тарғиб этиш, шу орқали тарбиямизга, онгу шууримизга ёт жиҳатларга ўрин бермаслик ҳар биримизнинг ҳар кунлик юмушларимиз қаторидан жой эгалласа, айни муддао бўлар эди. Бу борада, кўплаб мутафаккирлар қатори Бобур адабий меросига мурожаат қилмоқ ўринлидир. Зеро, мустақиллик туфайли Бобур меросининг баралла намойиш қилиниши учун беқиёс имкониятлар яратилди. Биз ана шундай улуғлари бор юрт ворисларимиз. Беназир алломаларининг бетакрор меросини беқиёс тарзда эъзозлаб, улардан муносиб фойдалансак ва Бобурнинг асарларини ёшларимиз қалби ҳамда онгига сингдирсак, албатта ёшларимизда миллий ғурур, ифтихор туйғулари юксалади ва келгусида ватан ва халқ олдидаги масъулият, фидойилик сингари фазилатларни шакллантиришга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Неру Джавахарлал. Открытие Индии. С. 272-273.

2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. 2014 й. 734-735 б.

3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”. 2002 й. 7-б.

4. Жавоҳарлаъл Неру. “Жаҳон тарихига бир назар”. II-жилд. 115 б.1975 й.

5. Хайриддин Султон. “Бобурийнома”, 2002. 386-387 б.

6. “Бобур асарларида Ватан туйғуси” тўпловчи. О. Бахронова. 2016 й.

7. И. Каримов. “Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир” Тошкент-2002 й.

ZAHİRƏDDİN MƏHƏMMƏD BABUR YARADICILIĞI ÜMUMTÜRK MƏDƏNİYYƏTİNİN NADİR HADİSƏSİ KİMİ

Bəxtiyar MƏMMƏDOV
filologiya üzrə fəlsəfə doktoru, dosent AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun “Azərbaycan - Türkmənistan - Özbəkistan ədəbi əlaqələr” şöbəsinin böyük elmi işçisi, doktorant

Açar sözlər: *Zahirəddin Məhəmməd Babur, “Baburnamə”, ümumtürk ədəbi abidəsi, klassik özbək ədəbiyyatı, Almaz Ülvi*

Keywords: *Zahireddin Muhammad Babur, "Baburnama", all-Turkic literary monument, classic Uzbek literature, Almaz Ulvi*

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, umumturkiy adabiy yodgorlik, mumtoz o‘zbek adabiyoti, Almaz Ulvi.*

Ключевые слова*: Захиреддин Мухаммад Бабур, «Бабурнама», памятник общетюркской литературы классическая узбекская литература, Алмаз Ульви.*

Türk xalqlarının ədəbiyyatları tarixində Zahirəddin Məhəmməd Babur (1483-1530) qədər mənsub olduğu xalqın və dövrün mədəni inkişafında silinməz izlər qoyan nadir tarixi şəxsiyyətlərə və bənzərsiz söz sənətkarlarına az-az rast gəlmək olar. Doğrudan da, bir tərəfdən, özbək-türk dövlətçiliyinin qorunub saxlanılması yolunda böyük səylər göstərən və həmin

dövlətçiliyin təməl prinsipləri əsasında Hindistanda yeni səltənətin bünövrəsini qoyan, digər tərəfdən, dahi Əlişir Nəvaidən sonra bir çox sahələrdə onun ənənələrini ləyaqətlə davam etdirərək, çoxsaylı bədii dürdanələr və qiymətli elmi əsərlər yaradan Baburun fəaliyyəti və yaradıcılığı nəinki özbək tarixi və özbək ədəbiyyatının, bütövlükdə ümumtürk tarixi və ümumtürk mədəniyyətinin bənzərsiz hadisələrindən biridir. Odur ki, biz bu yığcam araşdırmamızda sözügedən ictimai-tarixi və bədii-estetik hadisənin ən əlamətdar tərəfləri və cəhətləri üzərində daha ətraflı və daha ardıcıl mülahizə yürütmək istəyirik.

1. Zahirəddin Məhəmməd Baburun hakimiyyətə gəlişi və müəyyən fasilələrə baxmayaraq, ömrünün axırına qədər hakimiyyətdə olması ümumtürk mədəniyyəti tarixinin hökmdar şairlər siyahısını və ənənəsini zənginləşdirmişdir. Beləki, Qazi Bürhanəddin Sivasi, Cahanşah Həqiqi, Şah İsmayıl Xətayi, Məhəmməd Şeybani, Hüseyn Bayqara, Sultan Səlim Yavuz, Sultan Süleyman Qanuni kimi Zəhiriddin Məhəmməd Baburun da öz böyük şairlik istedadı ilə bərabər, həm də ixtiyar və tac-taxt sahibi olması onun yaşadığı dövrdə və mənsub olduğu mühitdə şeirə-sənətə marağın güclənməsinə və böyüməsinə güclü təkan vermişdir. Əgər Əlişir Nəvainin öz əsərlərində dəfələrlə türkdilli şairlərin yaranması və çoxalmasını Teymurilər dövrü və hakimiyyəti ilə əlaqələndirməsini nəzərə alsaq, bu amil, eyni zamanda, türk dilində yaranan ədəbiyyata qayğı və rəğbət baxımından Teymurilər ənənəsinin uğurlu davamı idi. Təsadüfi deyildir ki, öz əsərlərində Babur özünə qədər özbək türkcəsində böyük söz xəzinəsi yaratmış olan dahi Əlişir Nəvainin adını və xidmətlərini dönə-dönə iftixarla dilə gətirirdi. O cümlədən, "Baburnamə" də yazırdı:

"...Əlişir bəy əvəzsiz adam idi. Türk dili ilə şeir söylənəndən bəri heç kim onun qədər çox və yaxşı söyləməyib. Məsnəvi şəklində altı kitab nəzmə çəkib, beşi "Xəmsə"yə cavabən, daha biri isə "Məntiqüt-teyr" vəznində "Lisanüt-teyr" adlı. Dörd

qəzəllər divanı tərtib edib: “Qərayibüs-siğər”, “Nəvadirüş-şəbab”, “Bədayiül-vəsət”, “Fəvayidül-kibər” adlı. Yaxşı rübailəri də var...”.

Digər tərəfdən, əgər Babur bir hökmdar kimi öz ana dilindəki ədəbiyyata qayğı və dəstək mənasında Teymurilərin yolunu davam etdirirdisə, bir şair və mütəfəkkir kimi öz yaradıcılığında özündən əvvəlki türkdilli şair və nasirlərin, tarixçi və mütəsəvviflərin, xüsusən, dahi Əlişir Nəvainin bu sahədəki yaşarı ənənələrini zənginləşdirirdi.

2. Öz vətənində mənsub olduğu Teymurilər dövlətini qoruyub saxlamaq yolundakı bütün ciddi səylərinə (paytaxt Səmərqəndi bir neçə dəfə fəth etməsi, başqa teymuri sultanlarla gücləri birləşdirməyə cəhd etməsi və s.) baxmayaraq, Teymurilər dövləti Mavəraunnəhrdə və Xorasanda tənəzzülə üz tutduqdan sonra onu əsas saldığı Baburilər adı altında öz vətənindən uzaqlarda yenidən dirçəldərək, böyük səltənətə çevirən Babur, eyni zamanda, Hindistan xalqlarının ictimai-iqtisadi və mədəni tərəqqisinə güclü təsir göstərmişdir. Böyük hind mütəfəkkiri Cəvahirləl Nehrunun məşhur təbiri ilə desək, “İntibah dövrünün tipik hökmdarı” olan Zahirəddin Məhəmməd Baburun Hindistan mədəniyyəti tarixindəki mütərəqqi rolu hal-hazırda bütün türk dünyasının qürur mənbəyinə çevrilmişdir. Görkəmli Azərbaycan ədəbiyyatşünası, akademik İsa Həbibbəyli yazır: “... Tac Mahal məbədinə baxarkən Baburlar sülaləsinin mədəniyyət siyasətinin hansı böyük zirvəyə çatdığının canlı şahidi oldum. Çox haqlı olaraq deyirlər ki, Tac Mahal dünyanın yeddi möcüzəsindən biridir. Bu möcüzəni türk əsilli bir hökmdar və onun ağlı, düşüncəsi, baxışları, eləcə də türk memarları yaratmışlar. Abidənin yaradılmasında Azərbaycan memarlarının da adları vardır. Tac Mahal Baburlar hakimiyyəti dövründəki Azərbaycan-özbək-hind memarları və ustalarının birgə böyük əsəridir. Bununla özbəklər fəxr etdiyi kimi, azərbaycanlılar da iftixar duyğuları keçirir”.

3. Yeri gəlmişkən, Zahirəddin Məhəmməd Baburun böyük şəxsiyyəti və mütərəqqi fəaliyyəti öz vaxtında indiki Azərbaycan və Özbəkistan ortasındakı çoxcəhətli tarixi əlaqələrin inkişafına da öz müsbət təsirini göstərmişdir.Yenə də akademik İsa Həbibbəylinin sözləri ilə desək, "Babur səltənəti ilə Səfəvilər hakimiyyəti arasında olan əlaqələr hər iki hakimiyyətin inkişafında özünəməxsus rol oynamışdır. Eyni zamanda, həmin münasibətlər Azərbaycan və Özbəkistan siyasi-ictimai əlaqələrinin qurulmasına da öz töhfələrini vermişdir. Səfəvilər və Baburlar azərbaycanlılarla özbəklərin milli-tarixi köklərinin təkcə ədəbiyyatda, mədəniyyətdə deyil, siyasətdə də, hakimiyyətdə də həmrəyliyinin mühüm bir nümunəsidir. Hazırda Özbəkistanla yanaşı, Hindistanda, Pakistanda, İranda da Baburlar dövrünün əsərləri yaşamaqdadır. Həmin memarlıq və incəsənət əsərləri Özbəkistanın, qədim köklərə malik olan özbək xalqının böyük mədəniyyətinin, həm də ortaq bir mədəniyyətinin abidələri kimi dostluğun, həmrəyliyin, əməkdaşlığın bütün dövrlərdə nə qədər əhəmiyyətli olduğunu, vacib olduğunu göstərir".

4. Yunis Əmrə, Qazi Bürhanəddin, İmaddədin Nəsimi, Mövlana Lütfi, Əlişir Nəvai, Məhəmməd Füzuli kimi özündən əvvəlki və özündən sonrakı azman türkdilli şair və mütəfəkkirlərin sırasında Zahirəddin Məhəmməd Babur öz ana dilindəki çoxsahəli və çoxjanrlı bədii yaradıcılığı ilə ümumtürk mədəniyyətinin və ədəbi dilinin zənginləşməsində və inkişafında misilsiz rol oynamışdır.

5. Zəhiriddin Məhəmməd Baburun klassik Şərq poeziyasının, demək olar ki, bütün janrlarını (qəzəl, məsnəvi, rübai, tuyuq, qitə, müəmma, fərd və s.) əhatə edən lirikası türkdilli divan ədəbiyyatı xəzinəsini bir çox cəhətdən, xüsusən, yüksək poetik məharət baxımından zənginləşdirməklə bərabər, onun sonrakı tərəqqisinə səmərəli təsir göstərmişdir.

6. Zəhiriddin Məhəmməd Babura dünya şöhrəti gətirən məşhur "Baburnamə" təkcə özbək ədəbiyyatı və mədəniyyətinin

deyil, eyni zamanda, bütün türk mədəniyyətinin, ümumtürk nəsrinin və bütövlükdə Şərq tarixşünaslığının bənzərsiz abidəsi kimi bu gün də qürur-iftixar mənbəyi olaraq qalmaqdadır. Bu nəhəng ensiklopedik mənbənin bir neçə əsrdən bəri bütün dünya şərqşünasları və tarixçilərinin diqqətini yaxından cəlb etməsi, bir tərəfdən, onun dünya memuar ədəbiyyatının gözəl nümunəsi olması ilə bağlıdırsa, digər tərəfdən, orta əsrlərdə bir sıra Şərq ölkə və bölgələrinin (Mərkəzi Asiya, Əfqanıstan, İran, Pakistan, Hindistan və s.) tarixi və coğrafiyası, ədəbiyyatı və mədəniyyəti, folkloru və etnoqrafiyası, florası və faunası haqqında zəngin bilgiləri əks etdirməsi ilə əlaqədardır. Tanınmış ədəbiyyatşünas Almaz Ülvinin dediyi kimi, "Dünya ədəbiyyatının qiymətli nümunələrindən hesab olunan " Baburnamə" Hindistan torpağında böyük bir imperatorluq yaratmış Zahirəddin Məhəmməd Baburun sadə, təbii, səmimi ifadə ilə yazdığı, lirik ovqat aşılayan gözəl səyahət və xatirat kitabıdır. Əsərdə dövrün bütün hadisələrini – şahidi, müşahidəçisi, iştirakçısı olduğu hadisələri, məşhur və tarixdə yaşamaq haqqı qazanmış şəxsiyəətlərin həyatından maraqlı izləri də müşahidə etmək mümkündür".

7. Zahirəddin Məhəmməd Babur klassik Şərq poetikasının sahələrindən biri olan əruz elminə ("elmi-əruz") dair müxtəlif adlar ("Risaleyi-əruz", yaxud "Müxtəsər") altında məşhurlaşmış "Əruz risaləsi" ilə türkdilli əruzun nəzəriyyəsini yaradanlardan biridir. Nəvai və Babura qədər Nəsirəddin Tusinin məşhur "Meyarül-əşar"ı da daxil olmaqla, ərəb-fars əruzunun qayda-qanunlarına dair əsərlər kifayət qədər idi. Amma türkdilli poeziyanın zəngin təcrübəsi əsasında yazılan və türkcənin özünəməxsus tərəfləri əsasında türk əruzunun nəzəri qayda-qanunlarını aşkara çıxaran elmi-nəzəri mənbələr yox idi. Məlumdur ki, ilk dəfə bu ehtiyaca böyük uğurla cavab verən Əlişir Nəvainin məşhur "Mezanül-övzan" (1492) əsəri oldu. Qısaca desək, əgər Nəvai öz əsəri ilə türk əruzunun özünəməxsus

cəhətlərini ilk dəfə böyük bacarıqla ümumiləşdirmişdirsə, Babur "Əruz risaləsi" ilə öz böyük sələfinin yolunu uğurla davam etdirmiş və zənginləşdirmişdir.

8. Zahirəddin Məhəmməd Babur irsindən dövrümüzə qədər gəlib çatan nümunələr arasında onun "Mübəyyin" ("Bəyanlar") əsərinin xüsusi yeri və mövqeyi vardır. Sevimli övladları Humayun Mirzə ilə Kamran Mirzəyə "şəriət dərsi" kimi nəsihət üslubunda şeirlə yazılmış və islam hüquqşünaslığına dair mötəbər mənbələrdəki əsas qaydaların və məlumatların təsirli bədii ifadəsi sayılan bu əsər, bir tərəfdən, öz müəllifinin fiqh elmi və şəriət hüququ sahəsində dərin biliyə malik olduğunu nümayiş etdirirsə, başqa tərəfdən, müxtəlif dövrlərdə mədəni mühitlərin və cəmiyyətlərin tərəqqisində dini-əxlaqi dəyərlərin danılmaz rolunu ortaya qoyur.

9. Babur qələminə mənsub örnəklərdən təsəvvüfə dair "Validiyyə" risaləsinin poetik tərcüməsi də eynən "Mübəyyin" kimi ikitərəfli əhəmiyyət daşıyır. Bir tərəfdən, böyük şair və mütəfəkkirin təsəvvüf fəlsəfəsinə dərindən bələd olduğunu göstərirsə, digər tərəfdən, XVI əsrdə poetik tərcümə sənətinin əsas prinsipləri və səciyyəvi xüsusiyyətlərini əks etdirməklə ciddi önəm kəsb edir.

10. Zahirəddin Məhəmməd Baburdan yadigar qalmış təfəkkür inciləri sırasında onun yaratdığı məşhur əlifba cədvəli ("Xətti-Baburi") və onun tərəfindən müxtəlif yerlərdə daşlara oyulmuş yazılar ("daşbitik"lər) da böyük maraq doğurur və öz orijinallığı ilə diqqəti yaxından cəlb edir. Görkəmli özbək ədəbiyyatşünası Vahab Rəhmanovun "Babur daşbitikləri" adlı araşdırması məhz bu baxımdan ciddi elmi əhəmiyyətə malikdir.

İstifadə olunan ədəbiyyat

1. Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan // Görkəmli dövlət xadimi, ensiklopedik alim və Ğair Zahirəddin Məhəmməd Baburun anadan olmasının 538 illiyi münasibətilə 12 fevral 2021-ci ildə təĞkil etdikləri keçirilən beynəlxalq konfransın

materialları / nəşrə hazırlayan və elmi redaktoru fil.e.d.Almaz Ülvi, redaktoru Bəxtiyar Məmmədov. Bakı, 2021. 212 səh.

2. “Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan” Beynəlxalq elmi konfransın materialları (Bakı, 20 aprel, 2018-ci il) / elmi red.akademik İsa Həbibbəyli, nəşrə hazırlayan və redaktoru fil.e.d.Almaz Ülvi. - Bakı, 2018, 210 səh.

3. Zahirəddin Məhəmməd Babur və XVI əsr özbək ədəbiyyatı: Əlişir Nəvai adına Dövlət Ədəbiyyatı Muzeyi ekspozisiyası əsasında qısa Məlumat kitabı (“Тошкент УзР ФА Давлат Адабиет музейи – 2008” nəşri əsasında) / Elmi redaktorlar: filologiya elmləri doktoru, Beynəlxalq Babur fondunun Azərbaycan bölməsinin sədri Almaz Ülvi (Binnətova), filologiya elmləri doktoru, professor Səidbəy Həsənov, Rəyçilər: Beynəlxalq Babur fondunun sədri, professor Zakircan Maşrapov, filologiya elmləri doktoru Yaşar Qasım - Bakı, 2019, 60 səh.

НОДИР ҚЎЛЁЗМА

Дилором Салоҳий,
Самарқанд давлат чет тиллар институти Яқин шарқ тиллари кафедраси профессори, филология фанлари доктори
Жамол Мавлонов,
Самарқанд давлат чет тиллари институти Шарқ тиллари факультети магистранти

Аннотация

Мақолада ижтимоий тармоқлардан бирида British Library сайтида чиққан оригинал бир асар ҳақида маълумот берилади. Асарнинг ўзига хослиги шундан иборатки, унда “Бобурнома” дан танлаб олинган айрим воқеалар

тафсилотлари келтирилиб, шунга доир расмлар ва миниатюралардан намуналар берилган. Қўлёзмада асосий матн форс тилида келтирилган бўлиб, матнлар Император Акбар буйруғи билан туркий тилдан таржима қилингани айтилган.

Таянч иборалар:мемуар, шедевр, “Буюк муғуллар”, жангчи, Панипат, Фарғона, Хужанд.

Аннотация

В статье даётся информация об оригинальной рукописи, загруженной в сайтеBritish Library в одной из социальных сетей. Своеобразие сборника заключается в том, что в нём приведены отдельные отрывки из текста “Бабурнаме” и даны образцы миниатюр и живописи, отражающие смысль вышеприведённых текстов. Основной текст в сборнике написан на фарси и отмечено, что данный текст мемуара был переведён из тюркского языка на фарси по указу Императора Акбара.

Ключевые слова: мемуар, шедевр, “Великие Моголы”, воин, Панипат, Фергана, Ходжанд.

Annotation

The article provides information about the original manuscript uploaded to the British Library website on one of the social networks. The peculiarity of the collection lies in the fact that it contains individual excerpts from the text "Baburname" and gives samples of miniatures and paintings that reflect the meaning of the above texts. The main text in the collection is written in Farsi and it is noted that this text of the memoir was translated from turkic into Farsi by decree of Emperor Akbar.

Key words: memoir, masterpiece, "Great Mughals", warrior, Panipat, Fergana, Khojand.

Ижтимоий тармоқлардан бирининг Британия Кутубхонаси сайтида “Бобурнома”га оид катта тарихий ва

илмий қимматга эга бўлган бир қўлёзма электрон нусхаси юкланган. Унинг бош саҳифасида инглиз тилида асар ҳақида маълумот келтирилган. Маълумотнинг айнан таржимасида асар 1526-30 йилларда подшоҳлик қилган Буюк Мўғуллар сулоласи ҳукмдори Бобур мемуари эканлиги қайд этилади. Шундан сўнг ушбу қўлёзма асар ўз даври бадиий ва адабий шедеврларидан бири эканлиги, уни Бобурнинг набираси Император Акбар чиғатой туркийсидан 1589 йилда форс тилига таржима қилдиргани ва ушбу расмли ва миниатюрали нусха 1590-93 йилларга тегишли эканлиги ҳақида маълумот берилади.

Ички олд муқова ва форзацда Британия музейининг штемпели мавжуд бўлиб, қўлёзма бу ерда 1974 йилгача сақланганлиги қайд этилган. Қўлёзманинг охирги 51-саҳифасида 3714 инвентар рақами қайд этилган, қуйироқда эса 1889 рақами ёзилган. Шунга кўра, қўлёзма музей тасарруфига шу 1889-йилда киритилганлиги ҳақида хулоса қилиш мумкин. Унинг кейинги тақдири ҳақида эса бирор маълумот топмадик.


Тафсилотларнинг давомини ҳам айнан таржима қилиб келтирамиз: “Бобур қўрқмас жангчи (*эътибор қилинг: айнан “жангчи” дейилган, “саркарда” эмас-муаллифлар)* ва зукко давлат арбоби, шунинг билан бирга маданиятли, аъло дидли шоир ҳамда наср устаси эди. Унинг эсдаликлари тарихий воқеа- ҳодисалар, инсон табиати соҳасидаги кузатишлар, маданият ва Марказий Осиё ҳамда Ҳиндистон топографияси, боғдорчилиги ва бошқа жуда кўп маълумотларга ниҳоятда бой”.

Шундан сўнг бевосита қўлёзма саҳифалари ҳақида маълумотлар берилади, яъни: “Бу оригинал ва ниҳоятда нафис безатилган муқова. Буюк Мўғулларнинг қимматли қўлёзма асарлари жуда кам миқдорда сақланган. Ушбу

қўлёзма форс тилида ёзилган бўлиб, ўнгдан чапга қараб ўқилади ва қатламлари китоб ниҳоясидан бошланади”.

Қўлёзмага ёзилган қисқа тавсифдан маълум бўладики, уни ўрганиб, ўзига тегишли китоб хазинаси каталогига киритган шахс туркий халқлар, хусусан, темурийлар тарихи ҳақида умумий маълумотларгагина эга бўлиб, айниқса, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг аждоду авлодлари ҳақида ҳам деярли маълумотга эга эмас. Матнда европаликлар истилоҳида ўрнашиб қолган *“Буюк мўғуллар сулоласи”* истилоҳи қўлланилган. Бу истилоҳнинг бугунги кунда ватанимиз тарихшунос олимлари томонидан асосли равишда қабул қилинмаганлиги, Бобур Мирзонинг “Амирзода”, яъни “Буюк Темурийлар сулоласи” вакили эканлиги маълум. Аммо бу ҳақиқат, албатта XIX аср инглиз библиографига маълум бўлмаган. Бобуршоҳ номига унинг шавкатли насабига тегишли на “Мирзо”, рутбасига кўра на “Подшоҳ” сўзлари ҳам қўлланилмаган ва у “Буюк саркарда” эмас, балки “жангчи” деб қайд этилади. Бундан ташқари, библиограф “Ушбу “Эсдаликлар” ўз даври бадиий ва адабий шедеври” (айнан: *artistic and literary masterpiece*), яъни нодир намуналари, эканлигини қайд этар экан, ҳам *бадиий*, ҳам *адабий* сўзларининг маъноси бир эканлигига эътибор қилмайди. Ҳар ҳолда биз ушбу матнни бирор илмий тадқиқотчи ёки олимнинг қайдлари, деб эмас, балки музей экспонатлари библиографиясини тузувчи бирор техник ходимнинг маълумоти, деб тушундик. Тарихимиздан бехабар библиографнинг эътиборсиз қайдлари буюк бобокалонимиз набираси Акбаршоҳ замонидан бизгача етиб келган нодир ва ниҳоятда чиройли қўлёзманинг тарихий, илмий ва маданий қимматига мутлақо дахл қилмайди ва уни ватандошларимизга етказиш масъулиятини юклайди.

Қуйида қўлёзма саҳифаларидаги матн ва миниатюралар билан бевосита танишиш имконини яратиш учун саҳифалар фотонусхаси эътиборингизга ҳавола этилади. Саҳифалардаги форсий матнни “Бобурнома”нинг ватанимизда нашр этилган сўнгги нусхаларидан бири асосида ўзбек тилига таржима қилиб келтирдик. Форсий тилдаги матнни ўқиш ва тушунишда Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти катта илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори Комилжон Раҳимов, Бухородаги “Баҳоуддин Нақшбанд” жомеъ масжидининг бош имом хатиби Ғофуржон Раззоқов, Мир Араб ўрта махсус ислом билим юртининг мударриси Аҳмад Мағфурий бевосита иштирок этдилар. Муаллифлар бу олимлар чуқур миннатдорчилик билдирадилар.



Дар моҳи Рамазон санаи ҳашсаду наваду нуҳ дар вилояти Фарғона да дувозда солаги подишоҳ шудам. Вилояти Фарғона дар иқлими панжум ҳаст ва дар канораи маъмура олам воқеъ шуд. Ва шарқий Қошғар ва ғарбий Самарқанд ва жанубий кўҳистони сарҳади Бадахшон ва дар шимолий у агарчи пеш аз ин шаҳарҳо буд мисли


Олмалиғ ва Олмату ва Янги ки дар кутуби тарих ба Утрор машҳур ҳаст.

Таржимаси: *899 йил Рамазон ойинда 12 ёшлигимда Фарғона вилоятига подишоҳ бўлдим. Фарғона вилояти бешинчи иқлимда ва дунёнинг обод бир гўшасида жойлашган. Фарғона шарқдан Қошғарга, ғарбдан Самарқандга, жанубдан Бадахшоннинг тоғлари ила чегарадошдир. Шимолдан эса олдинги шаҳарлар бўлмиш Олмалиғ, Олмату ва Янгиким тарих китобларида у Ўтрор номи билан машҳурдир*[1].

Аммо аз жиҳати аъбури узбак дар ин тарих вайрон шуда ва аслан маъмура намонда. Ва ин Фарғона мухтасар вилоят ҳаст. Аммо меваи ва ғаллаи у фаровон аст. Ва дар атрофи у кўҳистон афтода. Ғарбийи у ки Самарқанд ва Хужанд бошад, кўҳ нест. Ва баъд ин аз жониби дигар ёғий бегона наметавонад дар омада. Дарёи Сайҳун ки баоби Хужанд шуҳрат ёфта аз тарафи ҳамин

Таржимаси: *Аммо Ўзбек-мўғул) тарихи давомида (юқоридаги шаҳарлар) вайрона бўлган ва асло тикланмаган. Шу сабаб Фарғона кичкина вилоят бўлиб қолди. Аммо мевалари ва ғалласи кўпдир. Унинг атрофида тоғ тизмалари бор. Унинг ғарбида Самарқанд ва Хўжанд бўлиб, у томонларда тоғ йўқ. Бошқа томондан (яъни шарқ томондан) бегоналар душманлар кира олмайди. Сайҳун дарёси Хўжанд суви деб шуҳрат топган*[2].


[1]Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”. Тошкент: “Янги нашр” нашриёти, 2019. 5-б. Бундан кейинги ҳаволалар шу нашрдан келтирилади.
[2]“Бобурнома”, 5-б.



Аз тарафи миёни шарқ ва шимол омада аз миёни ин вилоят шуда батарафи ғарб меравад. Ва аз жониби шимол Хўжанд ва жануб Фанокант ки ҳоло баШохрухия машҳур ҳаст гузашта ва аз онжо батарафи шимол майл гардат жониби Туркистон меравад ва ҳеч дарёи дигар ҳамро нашуда. Аз Туркистон хейли пойинтар тамом дарё дар регистон мунжазиб мешавад ва ғоиб мегардад. Ва дар ин вилоят ҳафт қасаба воқеъ ҳаст панж бажониби жануб дарё ва ду тарафи шимол. Аз қасабот жониби жануб яки Андижон

ҳаст. Ки дар васати вилоят воқеъ шуда ва пойитахти вилояти фарғона ҳаст. Ғаллаи ва меваҳош вофир ва фаровон ҳаст. Ва ангур ва харбуза ў хуб аст. Ва дар айёми харбуза бар сари фолиз харбуза фурухтан расми онжо нест.

Таржимаси: *Шарқ ва шимол орасидан келиб бу вилоятнинг ўртасидан ғарбга қараб оқади. Дарёнинг шимолий томонидан Хўжанд, жанубдан Фанокант. Ҳозирда Шохрухия номи билан машҳурдир. (дарё шу жойлардан) ўтиб шимол тарафга қайрилиб Туркистон томон йўл олади. Бирор бир дарёга қўшилмасдан Туркистондан анча пастроқда бу дарё қумзорга сингиб кетади. Бу вилоятда 7 та туман (қасаба)жойлашган. ўшанинг 5 таси дарёнинг жанубий қисмида ва 2 таси дарёнинг шимолида жойлашган. жанубий туманларидан бири Андижондир. Вилоят(қасаба)ларнинг ўртасида жойлашган ва Фарғона вилоятининг пойтахтидур. Унинг ғалла ва меваси кўп ва барокатлидир. Узуми ва қовуни жуда ширинлидир. Қовун мавсумида полиз бошида қовун сотишлик уларнинг одатларидан эмасдир*[1].



[1]“Бобурнома”, 5-б.

Ошуби чашм шуда буд мегўяндки, таъфуни ҳавояш бажиҳати кўҳ шимол уст. Ва аз тавобеъ ў Кандибодом (Конибодом) аст агарчи қасабаи калони нист аммо хубак қасабача аст бажиҳати хубийи бодом ба ин исм мавсум шуд. Ба ҳурмуз ва Ҳиндустон аз инжо меравад ва аз Хўжанд панж-шаш фарсанг ба тарафи шарқ воқеъ шуда.

Таржимаси: *Айтадиларки: унинг ҳавоси бузулиши шимолдаги тоғ сабабли шунинг учун кўз (безгаги)оғриғи кўп бўлади ва унга тегишли туманлардан (яна) бири Кандибодом. Катта туман бўлмасада, аммо яхшигина қишлоқчадир. (Ўша ернинг) бодоми яхши бўлгани учун бу (Конибодом) ном берилган. Ҳурмуз ва Ҳиндистонга шу ердан (у ернинг) бодоми олиб бориларди. (У жой) Хўжанддан 5-6 фарсах шарқий томон узоқликда жойлашган*[1].

Шундан сўнг, ҳинд рассоми Бханавий томонидан “Конибодомда бодом ҳосилини йиғиш (“Бодом шахтаси”)” деб изоҳланган миниатюра келтирилган ва Тожикистоннинг Хўжанд шаҳри яқинида жойлашган бу қишлоқ ҳозир Конибодом дейилиши ва ўзининг ажойиб бодомлари билан машҳур бўлганлиги қайд этилган.

Хуллас, ушбу ажойиб қўлёзма ҳақидаги маълумотларни бир неча туркум мақолалар тарзида ўқувчига тақдим этиш мумкин.

Адабиётлар рўйхати

1. https://www.bl.uk/turni...The Memoirs of Babur. N. 3714. 1889.

2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”. Тошкент: “Янги нашр” нашриёти, 2019.

[1]“Бобурнома”, 8-б.

ЮКСАК МАСЪУЛИЯТЛИ ХАЛҚПАРВАР ИНСОН

Алишер Мамажонов,
З.М. Бобур номидаги Андижон давлат университети
Жаҳон тарихи кафедраси доценти, тарих фанлари номзоди
Абдувоҳид Алишеров,
З.М. Бобур номидаги Андижон давлат университети
Жаҳон тарихи кафедраси ўқитувчиси

“Ҳаммамиз яхши тушунамиз, агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи-маънавиятдир. Биз янги Ўзбекистонни барпо этишда ана шу иккита мустаҳкам устунга, яъни, бозор тамойилларига асосланган кучли иқтисодиётга ҳамда аждодларимизнинг бой мероси, миллий ва умуминсоний қадриятларга асосланган кучли маънавиятга таянамиз” [1, 267]

Тарих ўзбек халқининг ҳозирги авлоди зиммасига ғоят буюк, муқаддас вазифани юклади. Бу - Ватанни озод ва обод қилиш, унинг довруғини олам узра ёйиш, кучига куч, шуҳратига шуҳрат қўшишдир.

Киндик қони томган она Ватаннинг тарихини, тарихий тараққиёт йўлини билмаган, унинг билан чексиз фахрланмайдиган кишини маданиятли инсон, ҳақиқий халқпарвар деб бўлмайди. Бугун ўзининг салкам бир асрлик муборак ёшини қаршилаётган Бобур номли халқаро жамоат фонди раиси Зокиржон ака Машрабов ҳақида баҳоли қудрат фикр билдирмоқчимиз.

Ўз тарихига бўлган ҳурмат, бу, энг, аввало, халқига, авлод - аждодларига бўлган эътибор демакдир. Ўз тарихини билмаган халқнинг келажаги бўлмайди. Киндик қони Андижон диёрида тўкилган, номи жаҳонга машҳур Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг кимлигини эндиликда

тушунтиришга-ю исботлашга ҳожат йўқ. Темурийларнинг Фарғона мулки подшоҳи, кейинчалик улуғ Соҳибқирон Амир Темурнинг Ҳиндистондаги давомчиси, буюк саркарда, беқиёс шоир ва серқирра олимлигидан ташқари яна бир қанча улуғ сифатларга эга бўлган у зотнинг салобати ва салоҳияти йиллар ўтган сайин бутун жаҳонни лол қолдириб келяпти.

“Ҳозирги пайтда жамият ва цивилизациялар аввало ижтимоий қадриятлар...буюк аждодларимиз бўлган мутафаккирларимиз асарларини, уларнинг бутун жаҳон цивилизацияси ривожига қўшган бебаҳо ҳиссасини чуқур ўрганиш, теран англаш ва кенг оммалаштириш алоҳида аҳамиятга эгалиги” [2, 35] буюк аждодларимиз томонидан яратилган маданий меросни янада кенгроқ ўрганиш учун имкониятлар яратиб бермоқда.

Ана шундай буюк мерос ҳадя этган буюк юртдошларимиздан бири Заҳириддин Муҳаммад Бобурдир. У ўзининг бой мероси, шоҳ асари бўлмиш “Бобурнома”ни ўн икки ёшидан яъни Фарғона мулкига 1494 йили подшоҳ бўлганидан бошлайди [3, 4].

“Саодатманд шоҳ - Заҳириддин Муҳаммад Бобурга ҳинд тупроғида тўрт йилгина (1526-1530 йиллар) ҳукмдорлик нашъасини суриш насиб этди, холос. Лекин Бобур подшоҳ асос солган давлат 332 йил давом этди. Жангу жадаллар, мислсиз уқубатлар, чексиз инсоний изтироблар, ватан соғинчи билан йўғрилган бу йиллар янги туркий - ҳиндий давлатнинг шаклланиш даври ҳамда ҳассос шоир Бобур шеърий ижодининг гуллаган бир фасли бўлди.

Гарчанд Заҳириддин Муҳаммад Бобур мазкур юртларга тарих ҳукми билан бу юртларга фотиҳ сифатида лашкар тортиб борган бўлса-да, у ўлкани тақдир тақозосига кўра ўзига ватан тутди, гарчанд туғилган диёри - Андижон, умрининг шиддатли дамлари кечган муаззам Самарқанд

соғинчи сўнгги нафасигача ёдидан чиқмаган бўлса-да, ҳинд тупроғига, ҳинд элига ҳам меҳр кўйди, уни обод ва якдил қилишга интилди, ўзаро адоватли қабилаларни бирлаштириб, марказлашган давлатга асос солди" [4, 275-276].

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг тарихий хизмати шундаки, у бир томондан, Шайбонихон истилоси туфайли Туркистонда барҳам топган темурийлар сулоласининг фаолиятини ўзга юртларда шуҳрат билан давом эттирган бўлса, иккинчи томондан, ўзи ва авлодларининг мамлакатдорлик сиёсати билан Ҳиндистон давлатчилиги тарихида янги саҳифа очди. Ҳинд мулкини забт этган фотих ўлароқ у ўлканинг бойликларини юртига ташиб кетмади, аксинча, она ватанидан неки ганжу хирож олиб кетган бўлса, барини ўша диёрнинг ободончилигига, тараққиётига сарф қилди. Бобурийлар сулоласининг моддий ва маънавий хазиналари эвазига дунёга келган машҳур мумтоз обидалар, меъморий мўъжизалар бугун Ҳиндистоннинг ҳуснига ҳусн, довруғига довруқ қўшибгина қолмасдан, улкан иқтисодий фойда ҳам келтирмоқда.

Бобурийлар, ҳақиқатдан Темурийлар сулоласининг Ҳиндистондаги давом эттирувчиларидир, деб таъриф берган эди тарих фанлари доктори, профессор И. М. Мўминов: "Улар айниқса, Бобур билан Акбаршоҳ Ҳиндистонда, Темур даврида Ўрта Осиёдаги иқтисодий ва маданий тараққиёт натижасида пайдо бўлган энг яхши анъаналарни давом эттирдилар" [5, 44]. Ҳирот ҳамда ўз ватани - Ўрта Осиё санъати, адабиёти ва маданиятининг ўткир билимдони Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ўрта Осиё ва Эрон билан Ҳиндистон ўртасида фаол алоқалар ўрнатиб, ҳинд маданиятининг янгича юксалиш йўлига бошлади.

Тарихга назар ташласак, юқорида айтганимиздек, ўз юртига ҳурмат билан қараб келган Заҳириддин Муҳаммад

Бобурнинг 500 йиллик санасини Андижонда нишонлаш белгиланди. Бу ишга ўша вақтдаги Андижон шаҳар ижроия кўмитасининг раиси Зокиржон ака Машрабов тўйбоши бўлганларини аниқ эслайман.

500 йиллик тўёна 1983 йил апрель ойида ўтказилиши, тадбир учун маъсул Зокиржон ака Машрабов, унинг барчага ўрнак бўладиган даражадаги ташаббуси ва саъй-ҳаракатлари билан тадбирни юксак савияда ташкил этиш, музей учун бино, у ерга қўйиладиган ҳайкал ҳам шу киши раҳбарлигида тайёр бўлди. Бироқ қандайдир сабаблар билан анжуманни дабдабали ўтказиш таъқиқланиб, тор доирада ўтказилган. Заҳириддин Муҳаммад Бобур номини абадийлаштиришда ташаббус кўрсатган Андижон шаҳар ижроия кўмитасининг раиси Зокиржон ака Машрабов орадан ҳеч қанча вақт ўтмай лавозимидан озод этилган. Лекин Зокиржон аканинг ватандошимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобурга бўлган муҳаббати, чексиз ихлоси, андижонча шижоати, мардлиги туфайли бу ишлар вақтлар келиб, ўз ўрнини топишига ишонарди.

“Заҳириддин Муҳаммад Бобур давлат ишларидан бўш вақтларида фарзандларини тўплаб олиб она юрти Андижон ҳақида сўзлаб беришни хуш кўрардилар. Энг кичик қизлари Гулбаданбегим олти ёшларда бўлса керак. Сарой тартибига кўра, фарзандлари оталари ҳузурига ҳар тонг “салом”га кирар эдилар. Гулбаданбегим саломни бажо келтириб, деди:

-Отажон, мен бугун туш кўрибман. Тушимда Андижонда юрган эмишмиз. Андижон Сиз айтгандай жуда гўзал эмиш. Ариқларда сувлар шарқираб оқар, жамбулу райҳонлар гуркираб ўсар, атроф жаннатдай, боғларда хилма-хил узумлар пишиб ётарди. Жуда бахтиёр эдим. Уйғониб қарасам, унинг барчаси туш экан.

-Ўргилай, она қизим, яхши туш кўрибсиз, муборак бўлсин. Мен ҳам ҳозир сиз билан Ватанни қайта кўргандай

бўлдим. Сизга нима мукофот берсам экан?-деб Бобур Мирзо ҳамёнини титкилай бошлади, кичикроқ халтача чиқариб Гулбаданбегимга узатар экан, гапида давом этди, тушингизни ҳаммага сўзлаб беринг, бу олтинлар Сизга суюнчи, олинг, Андижон муборак бўлсин! Ҳозир Ҳазратнинг кўзларида ёш ўрмалар, у қизалоғини бағрига босиб туриб, “Андижон муборак бўлсин!” деган бир калимани такрорлай олди, холос...” [6, 35-36].

Ана шуларни вужудида ҳис этган Зокиржон ака Машрабов бутун борлиғи, ҳис-туйғуси билан Бобур руҳи, Бобур ёди билан яшамоқда, шу мақсадда у кишининг раҳбарлигида 1992 йил, 19 майда Бобур номидаги Халқаро илмий экспедиция вилоят жамоатчилиги кузатувида Ҳиндистон сари чиқиб кетдилар.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур Андижоннни тарк этганларида навкарлари билан Хакан дарвозасидан чиқиб кетган эканлар. Биз Хакан қишлоғидан бўлганлигимиз учун бундан албатта фахрланамиз, Хакан қишлоғини бобомиз асарларида тилга олинганлиги бу катта ғурурдир. Экспедиция йўналишининг ҳам худди шу заминдан амалга ошганлигига ўзимиз гувоҳ бўлган эдик.

Ҳазрати Бобур таъбири ила айтганда, “Тангри таолонинг иноятн билан, чаҳорёри босафоларнинг ҳиммати билан ва сарвари он коинотнинг шафоати билан” ана шундоқ улуғ сафарга чиқилди” [4, 47].

“Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ҳиндистон подшоси деб эълон қилинганига бир йил тўлиши муносабати билан ўша вақтдаги пойтахт-Агра шаҳрида давлат маъмурий биносини янгидан қурмоқчи бўлди. Жами рожалар, қабила бошлиқлари тўпланишиб, биринчи ғиштни подшоҳнинг ўзлари қўйиб беришларини илтимос қилдилар. Бунга Бобурнинг унчалик ройи бўлмайди. Чунки ҳазрат бундай

бинонинг биринчи ғиштини киндик қони тўкилган жон - Андижонда қўйишни азалдан ният қилган эди-да.

Подшоҳ халқнинг илтимосини ерда қолдирмай: “Бисмиллаҳир роҳманир роҳийм!” деб енг шимариб, биринчи ғиштни қўйиб берди. Тўпланганлар подшоҳни олқишладилар...

Асрлар ўтиб, бобомиз Бобурнинг ғишт қўймоқчи бўлиб қилган орзу- ниятлари мустақиллик йилларидагина амалга ошди. Ҳар бир андижонлик вилоят ҳокими бошлиқ: “Биз бобурийлармиз”, дейишиб осмон ўпар биноларга ғишт қўймоқдалар.

Андижоннинг бугунги афсонавий ҳусни-жамолини бобомиз кўрганида оламга сиғмас, у севинч ила: “Ҳормanглар, бор бўлинглар, офарин, андижон-ликлар, ҳамшаҳарларим!” деган бўларди...”[6,47].

Албатта юқоридаги фикрлардан келиб чиқилса, фаолияти давомида жамиятда ўзининг муносиб ўрнини топишга ҳаракат қилганлардан бири юксак маъсулиятли, маънавий жасорати мустаҳкам, халқпарвар инсон бу Зокиржон ака Машрабовдир.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур бир умр Андижонга қайтиш орзуси билан яшади, Зокиржон ака Машрабов ана шу орзуни амалга ошириб, у киши руҳини тўлиқ Андижонга келтиришга, маънавий-маърифий соҳадаги бўшлиқ ўрнини тўлдиришга муваффақ бўлди. Экспедиция жараёнида юртдошларимиз қадамлари етган жойлардаги аждодларимизга оид бой маънавий мерос намуналарини топишди. Буюк боболаримиз қадамжолари зиёрат қилинди. Зокиржон аканинг жасорати туфайли Боғишамол худудида катта салобат ила Бобур ҳайкали, рамзий қабр ва музей ташкил этилди.

Зокиржон ака Машрабовнинг бобуршунослик соҳасидаги ибратли изланишлари, инсонийлик мулкини

ўзлаштирганлик сифатларини ҳисобга олиб, ана шундай олижаноблик, мардлик, шижоатлилик, фидойилик, маъсулиятлилик хислатларини ёшлар онгига маънавий-маърифий кечалар, тадбирлар орқали етказилса фойдадан холи бўлмасди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.:, “Ўзбекистон”, 2021, 464 б.

2. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 - жилд. - Т.:, “Ўзбекистон”, 2017, 592 б.

3. Жалилов С. Шаҳзода Бобур. - Т.:, “Movarounnahr”, 2013, 112 б.

4. Хайриддин С. Бобурийнома. - Т.:, “Шарқ”, 1997, 416 б.

5. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. - Т.:, “Фан”, 1969, 108 б.

6. Олимжон Холдор. Ёзилмаган ҳикоялар.-Т.:,“Mashhur press”, 2016, 240 б.

BOBUR MASNAVIYLARI POETIKASI

Dilrabo Qozoqboyeva,
O‘zbekiston Milliy universiteti
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Zahiriddin Muhammad Bobur o’zidan boy adabiy meros qoldirdi. U fors va turk tillarida erkin ijod qilib, lirik turning turli ko’rinishlarida ijod etdi. Bobur she’riyati nafaqat janr jihatdan boy, balki mazmunan yetuk va mukammaldir. Shoir “Boburnoma”da she’rlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tadi. Xususan,

devon tuzganligini faxriya sifatida aytib o‘tadi. “Kobul” devoni Afg‘onistonda bo‘lgan paytlarida tuzilganligi “Boburnoma”dan bizga ma’lum. Ikikinchi devoniga esa Hindistonda tartib beradi va “Hind devoni” deya ataladi. Bobur ta’bi xudi nozikligini, she’r yozish borasida ancha mukammalligini yaxshi anglar va o‘ziga munosib baho berar edi. Bobur devonidan g‘azal, qit‘a, ruboiy, fard va masnaviylar o‘rin olgan.U nafaqat ozbek mumtoz adabiyotida g‘azal, qit‘a, fard kabi bayt asosiga qurilgan she’riy janrlarda, balki murakkab tuzilishga ega bo‘lgan masnaviy kabi she’riy janrlarda ham mahorat bilan ijod etdi.

Bobur devonida yirik, o‘rta va kichik hajmli masnaviylarni uchratamiz.Bobur masnaviylarining muhim xususiyati shundaki, ularning aksariyatida “sabog‘a xitob”, yorga salom yetkazish, yordan arazlash va zamonidagi ayrim shaxslardan gina-kudurat aks etadi. “Ul gulga xabar qil” nomli masnaviysi shunday boshlanadi:

Sabo, ul gul harimig‘a guzar qil,
Mening holimdin ul gulga xabar qil.

Yordan gina va o‘pkalash barobarida, ma’shuqa haqidagi fikrlari ham o‘zgarganligini bayon etadi:

Seni mundoq tasavvur qilmas erdim,
Bu yanglig‘ rahmsiz ham bilmas erdim.
Meni avval o‘zungga hamdam etting,
Yana bilmon nega nomahram etting.

Masnaviyda bir necha murojaat qilinayotgan shaxs o‘zgargan – avvalgi baytlar saboga qaratilib, unga shoir nomidan yorga yetkazish lozim gaplar aytilgan bo‘lsa, so‘ng shoir o‘ziga ozi murojaat eta boshlagan (bunday o‘zgarish mumtoz she’r ilmida iltifot deb ataladi) [1.183].

Uzatma muncha ham, Bobur o‘zungni,
Bu so‘zlar birla xor etma o‘zungni.

Masnaviy hazaji musaddasi maqsur vaznida yozilgan.

Mafo’iylun mafo’iylun mafo’il

v – – – v – – – v – –

Keyingi masnaviy:

Ey payki sabo, qoshima kelgil!

Eshit bu so‘zumni, dag‘i yelgil.

Bobur bu o‘rinda “payki sabo” – tonggi shabadaga murojaat qilib, o‘z ahvolotini yorga yetkazishini maqsad qiladi. Yorning sifatlarini birma-bir ta’riflab, o‘tadi: jamoli, soch-u yuzi, qoshi-yu hiloli, og‘zi-yu yanog‘i, bo‘yni-yu sarv qaddi va hokazo... Bu masnaviy boshidan oxirigacha ma’shuqa ta’rifiga bag’ishlanadi. Bobur bu o‘rinda yorning boshidan oyog‘igacha ta‘riflab, tanosub san’ati bilan birga bir vaqtning o‘zida tadrijni ham qo‘llaydi. Masnaviy oxirida yor shunchalik go‘zal dildor bo‘lishiga qaramay, uninng yolg‘onchiligi barcha sifatlarini yuvib ketadi:

Yolg‘on so‘z ila itob etarsen,

Yuz qahr bila xitob etarsen.

Gar yolgon bo‘lsa zohir, ey do‘st!

Sharmanda bo‘larsen oxir, ey do‘st!

Bu bilan Bobur yorga xitob aylab, bu kabi sifatlaridan uyalishga, yolg‘on emas, balki vafo uni yanada ko‘rkam qilishiga ishora qiladi:

Ko‘nglimda hanuz o‘shal vafodur!

Boshimda dag‘i o‘shal havodur.

Va oxirida yorga “Qayerda bo‘lsang ham sog‘ bo‘lgin” qabilida irsoli masal orqali tilaklarini bildiradi:

To dahr durur, salomat o‘lg‘il,

Xushluq bila to qiyomat o‘lg‘il.

Mustaf'ilatun mafo’ilatun

– – v v–v–v – –

Boburning masnaviylari yorga go‘zal nomalar yo‘llash, murojaat etish, oshiqona kayfiyati bilan o‘zbek mumtoz adabiyotida mavjud bo‘lgan noma janri talablariga to‘la mos

keladi. O‘z navbatida, o‘zigacha bo‘lgan noma janri an’analarini davom ettirgan ijodkor sifatida Bobur noma janrini mavzu nuqtai nazaridan boyitdi. Ya’ni falsafiy ma’noda ham masnaviylar yaratdi. “Ey dahr” deb nomlanuvchi masnaviysi falsafiy-avtobiografik xarakterda bo‘lib, quyidagicha boshlanadi:

Bir kecha xotirim mushavvash edi,
Ko‘zda suv, ko‘nglum ichra otash edi.

Dahr ishidin fig‘on qilur erdim,
Xotirimni yamon qilur erdim.

Muallif noma janrida ham oshiqona she’riyatga xos tuyg‘ular bilan real, hayotiy tuyg‘ularni qorishtirib yuborib, nomalarning hayotiyligini oshiradi, shuning natijasida ulardagi hissiyot mavhum oshiq hissiyoti sifatida emas, balki real shaxs hissiyoti va mushohadalari kabi ko‘zga tashlanadi. Bunda shoirning ijtimoiy hayot hodisa-voqealaridan olgan taassurotlari, shuning natijasi bo‘lmish falsafiy mushohadalari ham diqqatga sazovordir. Bunday fikrlar shoirning hissiyoti orqali uning xayoli va kechinmalari oinasi tufayli o‘quvchiga yetib boradi. Shuning natijasida nomalardagi oshiq faqat ma’shuqasi bilan chegaralangan shaxs sifatida gavdalanmaydi, balki mulohaza yurituvchi, faylasuf, hayotning issiq-sovug‘ini tatigan, dunyo ko‘rgan tadbirli va tajribakor kishi sifatida namoyon bo‘ladi [2.64].

Shoh G‘oziy Zahiriddin Muhammad Bobur masnaviylari nafaqat ishqiy mavzuda, balki hayotiy kechinmalarni aks ettirgan, bu olam murakkabliklarini yoritib bergan falsafiy bitiklar ham mavjud. Masalan, dunyoga qarata shunday murojaat etadi:

Zulmdin o‘zga ishni bilmaysen,
Mene miskinga rahm qilmaysen.

Yo‘q edi hech ishim sening birla,
Neng bor, ey dahri dun, mening birla?

...Davlat o‘trusig‘a meni solding,
G‘aflat uyqusig‘a meni solding.

Bobur keyingi misralarda o‘z hayotida erishgan muvaffaqiyatlar va muvaffaquyatsizliklarni ko‘z oldiga keltiradi. Ammo zafarlar, yutuqlar, muvaffaqiyatlar bilan birga g‘aflat uyqusida qolganligini ham aytib o‘tadi:

Ota taxtida forig‘ o‘lturdum,
Bal, otam ko‘rmaganni men ko‘rdum.

Olti oy ichra olti taxt oldim,
Yetti iqlima, balki ko‘z soldim.

Dedim, emdi murodima yettim,
Bilmadimki, g‘alat xayol ettim.

Endigina g‘am-g‘ussadan forig‘ bo‘lib, ishrat vaqti yetgan chog‘da yana uy-joy, xonumonidan mahrum qilganligini,bu o‘rinda Bobur dunyoning bir maromda emasligidan, ishrat vaqti yetganda g‘aflat kelishi, ganj topganda ranjga mubtalo bo‘lishi mumkinligini yozadi.

Aysh ila ishratimdin ayrildim,
Davlatu izzatimdin ayrildim.

...Ko‘rsatib davlat emgaking ne edi?
Yerga urdung, ko‘tarmaging ne edi?

Falsafiy fikrlarini ifodalashda Bobur zidlantirishdan mohirona foydalanadi. Badiiy san’atlar bilan birga qofiya

san’atining musajja turini ham bir-biriga hamohang tarzda baytma-bayt tadrijlantiradi:

Dahrg‘a ne **vafo**duru ne **rahm,**
Dahr ko‘p **bevafo**duru **berahm**.

Goh johilni sarbaland aylar,
Goh oqilni poyband aylar.

Ma’lumki, Bobur g‘azallarida musajjaning go‘zal namunalarini ko‘ramiz. Ayniqsa, misralar orasida so‘zlarning qofiyadosh qilib qo‘llash mahorati uning nafaqat shoir, balki adabiyot ilmining bilimdoni ekanligidan dalolatdir. Aruz ilmi, adabiyot nazariyasidan boxabar holatda qofiyaning go‘zal namunalarini yaratadi:

Qaro zulfing firoqida parishon **ro‘zgorim bor,**
Yuzungning ishtiyoqida ne sabru ne **qarorim bor**.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Bobur nafaqat g‘azallarida, balki masnaviylarida ham qofiyaning turli ko‘rinishlaridan san’atkorlik bilan foydalanadi. Masnaviyning keyingi misralarida ham har bir so‘zlarni qofiyadosh qilib qo‘llaganligining guvohi bo‘lamiz:

Davlat uchun ko‘ngulni zor etma,
Izzat uchun o‘zungni xor etma.

Ko‘z ochib-boqquncha safo yo‘q anga,
Ko‘z yumub-ochquncha baqo yo‘q anga.

Muallif dahri dun (dunyo)dan shikoyat qilish bilan birga, unga inoyat koʻrsatganligini ham taʼkidlab oʻtadi. Koinot unga faqatgina gʻam-gʻussa, jafokorlik, notavonlik koʻrsatib qolmay, shod-hurramlik, yorugʻlik va yaxshi kunlarni ham tuhfa etganligini taʼkidlaydi:

Keldi boshimgʻa subhidam oxir,
Mehrdin urdi subh dam oxir.

Manga soʻzlarki, tong bu tun qotti,
Jonima oʻqlar erdi, tong otdi.

Falsafiy mushohadalar rivojida shoir fikrlari tasavvufiy tus ola boshlaydi. Bobur nafsning kasbi hoyu havas ekanligini, ruh, yani inson ruhiyati oldida nafs bu bir past narsa ekanligini taʼkidlaydi. “Tasavvuf terminlari soʻzligu”da nafsga shunday taʼrif beriladi: “...Shuni anglaymizki, nafs qushi buyuk dushman. Uni ezmoq, qirmoq va mushohada kuchi ila qatl etmoq kerakdir...”[3. 274]. Bobur tasavvuf nazariyasidan, tasavvuf adabiyotidan yaxshigina xabardor boʻlgan. Tasavvufiy qarashlarini lirik asarlariga ham singdirgan. Xususan, masnaviylarida ham buni yaqqol korishimiz mumkin:

Nasfning kasbidur havoyu havas,
Ruh ollidadur bular yaramas.

Garchi zohirda toʻgʻritektur nafs,
Jisming uyida oʻgʻritektur nafs.

Ne desang nafsning rizosi birla,
Neki qilsang aning havosi birla.

Bobur masnaviy oxirida fikrlariga xulosalar yasaydi. Umrning o‘tkinchiligi va bu g‘ofil dunyoda uyg‘onish kerakligini, vaqt o‘tib borayotganligini ta’kidlaydi. Shuning uchun e’tiqodingni mustahkam qilib, ibtido va intihosi bor dunyoda eng asosiysi, Tangrining ma’rifatiga erishish, eng yuksak maqom ekanligi haqidagi xulosalarini beradi:

Bilgasen jahd ila bori sifatin,
Qilg‘asen dark Tengri ma’rifatin.

Rost qilg‘aysen e‘tiqodingni,
Bilgasen mabdayu maodingni.

Umuman olganda, shoh G‘oziy Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasining janr xususiyatlari va mavzu doirasi xilma-xil. Lirik merosining turfaligi, mazmunan keng tarmoqligi, muallifning mukammal dunyoqarashlari, qaysi janrda bo‘lmasin yaqqol sezilib turadi. Shoir masnaviylari ham vazn jilodorligi, mumtoz qofiyadan foydalanish, badiiy san’atlar qo‘llashdagi mahorati bilan alohida tadqiqotni talab etadi. Bobur o‘zbek mumtoz adabiyotida masnaviy janrini mavzu va g‘oya, uslub, va shakl, obrazlar va lirik qahramon nuqtai nazaridan boyitdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur. Devon. Nazm mahorati / A.A’zam. – Toshkent: Tafakkur, 2014.
2. O‘zbek adabiyoti tarixi. III tom. – Toshkent: Fan, 1978.
3. Uludag‘ Suleyman. Tesevvuf terimleri so‘zlugu.– Istanbul: Kabalci Yayinevi, 2001.

БОБУРИЙЛАР ДАВЛАТИНИНГ ҲИНДИСТОН ТАРИХИДАГИ РОЛИ

Ғулом МИРЗАЕВ,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети “Ижтимоий-гуманитар фанлар” кафедраси бошлиғи ўринбосари, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

Аннотация: мазкур мақолада бобурийлар давлатининг ташкил топиши ва халқаро муносабатлар масалалари ёритилган. Марказий ва Жанубий Осиё давлатларининг иқтисодий тараққиёти ва ҳамкорлигида Бобурнинг янги давлатга асос солиши ва XVI-XVII асрлардаги тарихий жараён кўрсатиб берилган. Бобурийлар давлатининг тарихий ривожланиб бориш генезиси ва халқаро муносабатларни мустаҳкамлашдаги роли таҳлил этилган.

Калит сўзлар: Бобурийлар давлати, темурий шаҳзодалар, илм-фан, санъат, иқтисодиёт, халқаро муносабатлар, дипломатия.

Аннотация: В данной статье речь идет о формировании государства Бабуридов и международных отношениях. Экономическое развитие и сотрудничество государств Центральной и Южной Азии показывают создание Бабуром нового государства и исторический процесс XVI-XVII вв. Анализируется генезис исторического развития государства Бабуридов и его роль в укреплении международных отношений.

Ключевые слова: Государство Бабуридов, потомки тимуридов, искусство, экономика, международные отношения, дипломатия.

Annotation: This article deals with the formation of the Baburid state and international relations. The economic

development and cooperation of the states of Central and South Asia show the creation of a new state by Babur and the historical process of the 16th-17th centuries. The genesis of the historical development of the Baburid state and its role in strengthening international relations are analyzed.

Key words: Baburian state, science, art, economy, international relations, diplomacy, feudal state, merchants, ambassadors, cultural cooperation.

Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев таъбири билан айтганда: “...Бу буюк зот ўн икки ёшидан бошлаб Темурийлар давлатини сақлаб қолиш учун ўзини ўтга ҳам, чўққа ҳам урди, ҳеч қандай душмандан ҳам, синовдан ҳам қўрқмади. Қирқ олти йиллик умри давомида бир зум ҳам ҳаловат билмасдан ўтди. Ўз авлодларига Ватанга бўлган буюк муҳаббатни, эзгу фазилатларни мерос қилиб қолдирди” [1. 488.].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти давомида дунё кезди. Мовароуннаҳрнинг қанчадан-қанча шаҳару қишлоқларини, тоғу-тошларини кезди. Андижонда 12 ёшида тақдир тақозоси билан подшоҳ бўлди, 15 ёшида Самарқанд тахтини эгаллади, 18 ёшда яна иккинчи марта Самарқандни забт этди, 20-21 ёшида Кобул ва Ғазнани урушсиз эгаллаб уни ўз пойтахтига айлантирди” [2. 134.].

Заҳириддин Бобур Мовароуннаҳрдан ташқари Хуросон, Афғонистон, Ҳиндистонда бир неча йиллар истиқомат қилиб, янги давлатлар ташкил этди. “Бобурнома”даги маълумотлар ҳамон дунё аҳлини ҳайратга солиб келмоқда. “Бобурнома”да 1494 йилдан то 1529 йилгача бўлган воқеалар ўз аксини топган бўлиб, унда 1510-1519 йилгача бўлган воқеалар етишмайди. Шу билан бирга, 1530 йилги воқеалар ҳам мавжуд эмас. Маълумки, Бобур 1530 йил декабрь ойида дунёдан кўз юмган.

Панипат жангидан кейин Ҳиндистонда Бобур бутунлай янги сулолага асос солди. Шимолий Ҳиндистонда ҳам Деҳли

султонлиги инқирозга учради ва юқорида айтганимиздек, янги Бобурийлар сулоласига асос солинди. То шу пайтгача ҳокимият тепасида бўлган Иброҳим Лўди тахтдан ағдарилди, Заҳириддин Муҳаммад Бобур 1526 йилдан то вафоти 1530 йил охиригача Ҳиндистонда подшоҳлик қилди. Бобур ўз давлати келажагига ишониб, авлодларининг эртами-кечми истилочи эмас, маҳаллий ҳукмдор сифатида ҳатто узоқ ўлкалардаги давлатлар билан савдо-дипломатик алоқаларни ўрнатишига умид боғлаган [3. 87.].

Бобурнинг васиятига кўра, унинг катта ўғли Ҳумоюн тахтга ўтириб мамлакатни 1540 йилгача бошқарди. Бироқ, жангу жадаллар натижасида 1540 йил Ҳиндистондаги афғонларнинг Сур қабиласи сардори Шершоҳ тахтни эгаллаб Ҳумоюнни мамлакатдан қувиб юборди. Ҳумоюн узоқ муддат - Эронда Шоҳ Тахмосп саройида яшади ва Ҳумоюн Тахмосп ёрдамида Ҳиндистонда ҳокимиятни қайтариб олиш эвазига у ерда шиа мазҳабини ҳукмрон мавқега айлантиришга ваъда беради, шу сабабли Тахмосп унга Қандаҳор шаҳрини қароргоҳ сифатида беради. Ҳумоюн Деҳлини эгаллагач, кўп ўтмай вафот этади. Бобоси Заҳириддин Бобур каби 14 ёшли Акбар тахтга ўтиради. У эллик йил давомида, яъни 1556 йилдан то 1605 йилгача Ҳиндистонни бошқаради. Акбар ҳам ҳарбий, ҳам дипломатик усуллар ёрдамида барча мусулмон беклари ва ҳинд рожаларини ўзига бўйсундиришга эришади. Бобурийлар сулоласи даврида Ҳиндистонда Шарқ расм-русумлари, шариат, Қуръони Карим, ҳадислар, дипломатиянинг асосини ташкил этар эди. Шу билан бирга, Бобурий шаҳзодалар учун Амир Темур тузуклари дастурул амал ролини ўйнади. Ҳатто, Акбар бир сафар ўз қўшини билан бир шаҳарни қамал қилганида, мулла шаҳар аҳолисининг жонини асраб қолиш мақсадида Қуръонни қўлида ушлаб шаҳардан чиқиб келади. Акбаршоҳ “Муқаддас китоб” туфайли, шаҳарликлар гарчи

унинг душмани бўлса-да, уларнинг гуноҳидан ўтиб, жонларини сақлаб қолади [4. 37.].

XVI аср охирларида Мовароуннаҳр, Ҳиндистон ва Эронда кучли феодал давлатлар ташкил топади. Ҳиндистонда бобурийлар сулоласининг энг забардасти буюк Акбар салтанат эгаси бўлганда (1556), Мовароуннаҳрда шайбонийлар сулоласининг сўнгги тадбиркор намояндаси Абдулла II ҳокимиятни ўз қўлига олди (1557).

Абдуллахон ва Акбар тахтни эгаллаганларидан кейин ўз давлатларини мустаҳкамлашга, мустақил ва ярим мустақил хонликларни бўйсундиришга, янгидан-янги ўлкаларни босиб олишга киришдилар. Абдуллахон қаттиқ кураш натижасида Балх ва Ҳиротни (1573), Шаҳрисабз, Қарши ва Ҳисорни (1574), ҳудди шу йиллари Акбар Малва, Гондван, Читор ва Гужаратни забт этди. Ўша даврда иккала давлат ўртасида бир қатор дипломатик алмашувлар бўлиб ўтди. Масалан, Абдуллахон 1572-73; 1577-78 ва 1586 йилларда Ҳиндистонга элчилар юборди.

Абдуллахоннинг элчиси Олтамиш 1572 йили Деҳлига боради. Элчи Абдуллахоннинг ҳар иккала мамлакат ўртасида давом этиб келаётган дўстлик алоқаларини кучайтириш ҳақидаги мактубини топширади. Акбар ўзбек элчисини, Гужарат юриши муваффақиятли тугагач, қабул қилади. Акбар элчи орқали Абдуллахон номига юборган мактубида дўстлик муносабатларини ўрнатишга рози эканлигини билдиради [5. 108-109.]. Акбар шоҳ моҳир дипломат сифатида Ҳиндистонда марказлашган давлат барпо этиш мақсадида нафақат ислом дини қоидаларига амал қилади, балки ҳиндлар учун ҳам худди шундай йўл тутади. Ўзининг ҳарбий юришларида турли-туман дипломатик воситалардан унумли фойдаланади. Масалан, Ражпутан шаҳрини эгаллашида шаҳарни вайрон қилишга йўл қўймайди, ибодатхоналарни буздирмайди, ҳиндлар орасида энг моҳир аскарлар ҳисобланган

ражпутларнинг ўз томонига ўтишларига эришади. Улар билан иттифоқни мустаҳкамлаш мақсадида ражпут рожаларидан бирининг қизи гўзал Хиракунварига уйланади. Ражпутлардан ташкил топган кучли, тезкор отлиқ қўшин тузади. Таъкидлаш жоизки, Ҳиндистон аҳолисини бирдамликка, тотув яшашга, тенглик ва биродарликка чорлаб, бутун умри давомида Бобурийлар давлатини кенгайтиришга ўз фаолиятини бағишлаган. Маърифатли, тадбиркор, доно, узоқни ўйлаб иш қиладиган одил подшоҳ сифатида пойтахт Агра, Фотиҳпур Секри, Лоҳур, Деҳли ва бошқа шаҳарларда саройлар, меъморий иншоотлар ва боғлар барпо этган. Илм-фан, санъат ва деҳқончиликни ривожлантирган. Асосий йўлларни таъмирлаш ва хавфсизликни таъминлаш, карвонсаройлар қуриш ҳамда денгиз йўллари орқали Европа мамлакатлари билан савдо-сотиқ ишлари олиб бориш, ҳаж сафарига боришни қулайлаштиришга катта эътибор қаратган. Маълумотларга кўра, Амир Темур мақбарасини таъмирлаш учун Самарқандга Акбар бир филга юкланган олтин юборган [2. 26.].

Акбаршоҳнинг ворислари Жаҳонгиршоҳ (1605-1627) ва Шоҳ Жаҳон (1627-1657) ҳукмронлик қилган даврда бобурийларнинг Ҳиндистонда мавқелари юқори эди. Бу даврда Португалия, Англия ва Голландия савдогарлари бирин-кетин Ҳиндистонда ўз факторияларини очиб улгурган эдилар.

Бобурийлар Туркистонга ўзларининг ота-боболари юрти сифатида қараб, тез-тез элчилар алмашиб туришар, ҳатто бобурий ҳукмдорларининг кўпчилиги бу ерларни ҳеч қачон кўрмаган бўлсаларда, Туркистон билан мустаҳкам алоқаларини ўрнатиш ҳис туйғуларини намойиш қилганлар. Бобурий султонлар даврида Туркистон ҳудудларидан Ҳиндистонга турли соҳа вакилларининг, айниқса маданият соҳасига алоқадор кишиларнинг кўчиб ўтиши туркий халқлар маданияти билан ҳиндистонликларнинг танишиши ва бу

маданиятнинг ёйилишига сабаб бўлди. Бобурий султонлар ўз фаолияти давомида давлат бошқарувида ижтимоий-иқтисодий сиёсатга, темурийлар давридаги қонун-қоидалар, анъаналар ва расм-русумларга амал қилганлар. Амир Темур сиймоси, унинг "Тузуклари" ва умуман унинг шахсига, унинг юришларига бағишланган китоблар Бобурий султонларнинг доимий ҳамроҳи бўлган. Жаҳонгир ва Шоҳ Жаҳон Шарафиддин Али Яздийнинг "Зафарнома" асарини қайта-қайта ўқиб чиққанлар [5. 107.].

Бинобарин, мавзуга оид ўрганилган материаллар таҳлили шуни кўрсатадики, Темурийлар сулоласининг энг сўнгги авлодлари бўлган бобурий ҳукмдорлар Ҳиндистон ярим оролига келиб ўз ҳокимиятларини ўрнатиб, ушбу даврда Туркистон ҳудудларидан Ҳиндистонга кенг миқёсда турли соҳа вакилларининг, айниқса, маданият соҳасига алоқадор кишиларнинг кўчиб ўтиши туркий халқлар маданиятнинг Ҳиндистонда ёйилишини таъминлади;

Жанубий Осиё ва Марказий Осиё ўртасида қадимдан давом этиб келаётган алоқалар айнан Ҳиндистонда темурийлар сулоласининг давомчилари бўлган бобурийлар ҳукмронлик қилган даврда ўз чўққисига етган;

Марказий Осиё, хусусан, Туркистон халқларининг ўзига хос маданияти, миллий анъаналари, санъати, адабиёти ҳам икки минтақа халқлари алоқалари жараёнида бир-бирларига ўзаро таъсир қилиб, бойитишга хизмат қилган.

Шунингдек, таклиф сифатида шуни айтиш мумкинки, Бобурийлар давлатининг ташкил топиши ва халқаро муносабатлари Шарқ ва Ғарб манбалари қиёсига асосланган ҳолда мумкин қадар батафсилроқ тадқиқ этилиши мақсадга мувофиқдир.

Хулоса қилиб айтганда, Заҳириддин Муҳаммад Бобур томонидан марказлашган давлатга асос солиниши ва халқаро муносабатларининг қарор топиши, бобурийларнинг

Ҳиндистонда ҳукмдорлик қилган даврида ўзига хос дипломатик анъаналар ва хорижий мамлакатлар билан алоқалар қилишнинг шарқона мактаби вужудга келди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. 488 б.

2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.- Т., 1994 йил. – Б.134.

3. Низомиддинов Н.Ғ. Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). Монография. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2012.- Б. 87.

4. Ҳошимова М.М. ва бошқалар. Ўрта асрлар дипломатияси ва Халқаро муносабатлар тарихи.- Т.,2013.

5. Ўзбек дипломатияси тарихидан. Академик М.М.Хайруллаев таҳрири остида. - Т., 2003.

ZAHİRƏDDİN MƏHƏMMƏD BABUR VƏ AZƏRBAYCAN

Nazim SÜLEYMANOV,
Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası
Folklor İnstitutunun elmi işçisi

Dünya ədəbiyyatının klassik ədəbi siması, türk dünyasının iftixarı, klassik özbək ədəbiyyatının böyük nüayəndələrindən biri Zahirəddin Məhəmməd Babur (Babur Mirzə) özünün məzmunlu və səmərəli yaradıcılığı ilə dünya mədəniyyəti xəzinəsinə möhtəşəm töhfələr vermişdir.

Zahirəddin Məhəmməd Babur yaşadığı qısa, lakin mənalı ömründə dünyaca məşhur “Baburnamə” əsərini, şeirlərindən ibarət olan “Divan”ını, əruz, nücum və musiqiyə aid risalələrini yaratdı.

Zahirəddin Məhəmməd Baburun özbək ədəbiyyatında – türk şeirində lirik janrın inkişaf etməsində böyük rolu olub. Onun lirik irsi, həcmcə o qədər böyük olmasa da, mövzu dairəsi, forma, üslub, bədii gözəlliyi və mükəmməlliyi ilə xüsusilə fərqlidir. Z.M.Baburun lirikasında qəzəl, rübai, qitə, tuyuq, məsnəvi, mətlələr və müəmmalar əsas yer tutur.

Zahirəddin Məhəmməd Babur yaradıcılığı bütün dünyada öyrənilir. Onun məşhur "Baburnaamə"si türk və İslam ədəbiyyatında memuar janrında türkcə yazılmış ilk əsərdir. "Baburnamə"nin mənası "Baburun kitabı" deməkdir və əsər öz adını hər iki anlamda, həm "Babur haqqında yazılmış kitab", həm də "Baburun yazdığı kitab" kimi dünyanın 30-a yaxın dilinə tərcümə edilmişdir.

"Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan" adlı təqdim edəcəyim məqalədə (məruzədə) Babur yaradıcılığının öyrənilməsi və təbliği, araşdırılması kimi məsələlər iki istiqamətdə aparılır. elmi və bədii publisistika kontekstində.

Mövzuya uyğun planlaşdırılmış araşdırmamızın əsas özəkləri – bölmələri bunlardır:

1. Zahirəddin Məhəmməd Babur yaradıcılığı - əlyazması və XX əsr boyunca nəşr olunmuş əsərləri istiqamətində
2. Zahirəddin Məhəmməd Babur yaradıcılığının öyrənilməsi məsələləri elmi məxəzlərdə - elmi kitablarda, monoqrafiya və elmi jurnallarda nəşr olunması
3. Zahirəddin Məhəmməd Babur və Şah İsmayıl Xətai yaradıcılığı ilə müqayisəli şəkildə tədqiqi: İki Şah, İki şair
4. Zahirəddin Məhəmməd Babur haqqında dövrü mətbuatda dərc olunan məlumat xarakterli məqalələr
5. Zahirəddin Məhəmməd Babur yaradıcılığı Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyasında necə öyrənilir: Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu, İ.Nəsimi adına Dilçilik İnstitutu, Ziya Bünyadov adına Şərqşünaslıq İnstitutu, M.Füzuli adına Əlyazmalar İnstitutu, Folklor İnstitutu

6. Zahirəddin Məhəmməd Babur yaradıcılığı orta və Ali məktəblərdə (universitet və institutlarda) necə, hansı istiqamətdə tədris edilir.

7. Zahirəddin Məhəmməd Babur yaradıcılıq nümunələri əlyazmalar fondunda

8. Zahirəddin Məhəmməd Babur yaradıcılığına həsr olunmuş konfrans və ya simpoziumlar

9. Beynəlxalq Babur Fondunun Bakı bölməsinin fəaliyyəti əsasında Akademiyada keçirilən "Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan" adlı ənənəvi konfranslar artıq ənənə halını almış və hazırda III konfransın keçirilməsi ilə bağlı informasiyalar mətbuatda yayımlanıb. Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan" adlı ənənəvi III konfrans klassik sənətkarın 540 illiyinə həsr olunacaqdır. Bu işlərin təşəbbüskarı və təşkilatçısı, Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyasının Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi əlaqələri şöbəsinin müdiri Almaz Ülvi Binnətovanın xidmətlətini xüsusilə diqqətə çatdırmaq istərdim.

Zahirəddin Məhəmməd Baburun "Baburnamə"si miniatür sənətinin klassik mənbəyi kimi: Kiçik miniatürlərdə böyük tarix – "Baburnamə". Babur şah tarix boyu yaşamış hökmdarlar sırasında yazmış olduğu "Baburnamə" əsəri və bu əsərə yaradılmış çoxsaylı miniatür təsvirləri ilə bu gün də dünya mədəniyyətini fəth etməyə davam edən yeganə hökmdardır. O, tarixin ən çılğın türk hökmdarıdır. Məsələn, sonuncu bənd haqqında belə bir qeydlərimi diqqətə çatdırmaq istərdim: 2016-cı ilin son ayında 26 dekabr günü Heydər Əliyev Mərkəzində "Baburnamə" miniatürlərindən ibarət sərgi açılıb. Rusiyanın Dövlət Şərq Muzeyi ilə əməkdaşlıq çərçivəsində təşkil olunduğunu bildirib. Yeri gəlmişkən bu sərginin açılmasında Heydər Əliyev Mərkəzinin vitse-prezidenti Leyla xanım Əliyevanın böyük rolu olmuşdur. Bununla da deyəbilərik ki, "Baburnamə" miniatürlərindən ibarət sərginin təşkili ciddi mərhələlərdən keçib. sərgidəki "Baburnamə"

əsərinə çəkilmiş 57 miniatür Muzey tərəfindən ilk dəfədir ki, ekspozisiya olaraq nümayiş etdirilir. Bu kolleksiya bütünlükdə ilk dəfədir vətənini – Rusiyanı tərk edərək xaricdə nümayiş olunur. Dünyada ilk dəfə bu kolleksiyanı nümayiş etdirmək imkanı Bakıda yaranıb. Məlumdur ki, Şərq miniatürü məktəbi – Təbriz məktəbi və ya Azərbaycan məktəbi dünyada aparıcı olub və bu gün də məşhurdur. Heydər Əliyev Mərkəzində nümayiş olunan miniatürlərin XVI əsrin sonuncu onilliyində Baburun nəvəsi Əkbər şahın Aqra və ya Lahor şəhərlərindəki emalatxanalarında yaradıldığı bildirilir. Şərq ölkələrində orta əsrlərdə miniatür sənəti məşhur olub və əsasən klassik irsin görkəmli nümayəndələrinin əsərləri əsasında yaradılıb. Bəzi şifahi məlumatlara görə, həmin miniatürləri rus mesenant Aleksey Morozov 1906-cı ildə Nijni-Novqorodda yarmarkada fars tacirlərindən alıb, daha sonra isə onlar Şərq incəsənət abidələrinin kolleksiyaçısı Pyotr Şukinə keçib. Hazırda həmin miniatürlər Moskvada Dövlət Şərq Muzeyində qorunur. Ümumilikdə 57 vərəqdən ibarət kolleksiya ilk dəfə 1960-cı ildə Semen Tülayevin albom-kataloqunda nəşr edilib.

Qeyd olunan bütün bölmələr üzrə tədqiqlərimi konfransda məruzə etmək fikrindəyəm.

ДАРВЕШЛИКДАН АМИРЛИК САРИ

Зуҳрахон МАМАДАЛИЕВА,
Жиззах давлат педагогика университети доценти,

Заҳириддин Муҳаммад Бобур тарихимиздаги энг мураккаб шахслардан биридир. Бу фикримизга далил унинг умр китоби бўлмиш “Бобурнома”да ҳам ёрқин акс этган. Бу ҳолат ундаги географик ва этнографик маълумотлар, адабий

манбалар билан бир қаторда тарихий шахсларнинг кўплиги, уларга муаллифнинг объектив ва субъектив баҳосида ҳам акс этади. “Бобурнома”даги бу тарихий шахслар Бобур Мирзонинг яқин ва қариндошлари, мусоҳиб ва мулозимлари, дўст ва душманларидир. Улар орасида Жаҳонгир Мирзо ва Хонзодабегим, Нўён кўкалдош ва Қосимбек қавчин, Шайбонийхон ва Раана Санга каби шахслар нафақат “Бобурнома”да мустаҳкам ўрин эгаллаган, ҳатто бадиий адабиётимизга кириб келиб, унда бадиий образ сифатида ҳам сақланиб қолгандир. Лекин ушбу умр китобида Бобурга яқин бўлган, у эътироф этиб, ўзига дўст билган баъзи сиймолар ҳали тўла-тўкис ўрганилмаган. Шундай сиймолардан бири “Бобурнома”нинг тўққиз юз ўн бешинчи (1509-1510) йил воқеалари бобида номи келтирила бошлаган ва китоб сўнгигача номи зикр этилган Дарвеш Муҳаммад Сорбондир.

Дастлаб уни Мирзохоннинг элчиси эканлиги ҳақидаги хабарга кўзимиз тушади: “... Кечроқ бир неча отлиқ Деҳи Афғон тарафдан йўл бўйлаб шаҳар томонга ўтиб кетаётганди. Суриштириб билдик - Дарвеш Муҳаммад сорбон экан. Мирзохоннинг қошидан элчиликка келаётган экан. Том устига чорладик. “Қонун-қоида билан амалдорларча элчилик қилишни қўй, такаллуф қилмасдан келавер”, дедик. Дарвеш Муҳаммад келиб, совға-саломни тортиқ қилиб, зиёфатда ўтирди. Ўша пайтлари тоиб эди, ичмасди.”[1: 179] Кейинги хат бошида Бобур Мирзо яна бу сиймони эслайди:

“Эртасига маҳкамада ўтирганимда Дарвеш Муҳаммад келиб, Мирзохон юборган тортиқларни расму қоидаси билан топширди”. [1: 179] Асарда кўпчилик элчилар ҳақида фикрлар бор. Улар келиб-кетишган, лекин уларнинг ҳеч бирига Бобур Мирзо бир кўришдаёқ “Қонун-қоида билан амалдорларча элчилик қилишни қўй, такаллуф қилмасдан

келавер” деганини кўрмаймиз. Асарни ўқиш асносида Мирзонинг аслзодаларча такаллуфни нечоғлик билишини, ўз ўрнига қўйишини ва керак бўлса, бошқалардан ҳам шуни талаб қилишини бир неча ўринда, хусусан, Бадиуззамон Мирзо билан учрашувда, Хусравшоҳ билан бўлган кўришувда кўрамиз. Демак, кўринадики, бу одам нимаси биландир Бобур Мирзога маъқул келган. Уни ўзига яқин олгиси, бетакаллуф кўришгиси келган.

Тахминимиз ростга ўхшайди. Китобнинг кейинги саҳифаларидаёқ Бобур Мирзо Дарвеш Муҳаммад Сорбон номини тез-тез келтира бошлайди. Фақатгина номини айтиш билан чекланмай, уни таърифлаб ҳам ўтади: “... Бу ердан отланиб, Гулбаҳорга бордик. Шом намозидан сўнг шароб ичиб, суҳбат қурдик. Бу суҳбатларда Дарвеш Муҳаммад Сорбон ҳам қатнашарди. Гарчи ёш йигит ва сипоҳий бўлсада, шароб ичмасди, бу ишдан тавба қилганди. Қутлуғ хожа кўкалдошнинг сипоҳийликни тарк этиб, дарвеш бўлганига анча вақт бўлганди. Ёши ҳам анчага борган, соқоли оппоқ бўлиб оқарганди. Бундай суҳбатларда ҳамиша шаробхўр дўстимиз эди. Мен дарвеш Муҳаммадга: “Қутлуғ Хожанинг соқолидан уялсанг-чи! Дарвеш ва қари, оппоқ соқоли билан ҳар доим шароб ичади. Сен сипоҳий ва ёш йигит, соқолинг ҳам қоп-қора бўла туриб сира ичмайсан. Бунинг маъноси нима? дедим. Ичмайдиган кишига шароб таклиф қилиш одатим бўлмагани учун, менинг бу сўзларимни ҳазилга йўйдилар. Дарвеш Муҳаммад Сорбонга шароб таклиф этилмади”. [1: 182]

Шу ўринда дарвеш (дарвиш) истилоҳига эътибор қаратсак. Туркияда нашр этилган “Тасаввуф иборалари луғати”да дарвеш сўзининг маъноси қуйидагича изоҳланади: **“Дарвеш** форсча “йўқсил” деган маънони англатади. Истилоҳ сифатида тариқатга мансуб кишини айтадилар.

Арабча сўз тузилишига кўра “даровеш”, “даровеша” тарзида қўлланади ва дарвешлар маъносини англатади. Тасаввуфнинг асоси – ўзликдан қутулмоқ, менлик даъвосидан воз кечмоқ, абадий борлиқ соҳиби ва ҳамиша мавжуд Аллоҳга қарши исёндан тозаланмоқ, Уни ҳар яратган мазҳарида кўриб, ўзни фидо этмоқдир.” [4:89]

Мумтоз адабиётимиздаги бу образ ҳақида бир қатор назарий фикрлар ва бадиий асарларни муқояса қилиб, профессор Н. Комилов “Шоҳу дарвеш ҳикмати” мақоласида қуйидагиларни ёзади: “Форсча дарвеш сўзининг луғавий маъноси гадо, камбағал демакдир, яъни дарвешлик – бенаволик, қашшоқлик. Камтар, ҳокисор бўлиш, ўзини ҳақиру забун ҳисоблаш дарвешнинг асосий фазилати деб қаралган. Шу билан бирга қаландарларни, узлатга чекинган гўшанишин кишиларни ва яна кўп ҳолларда ориф сўфийларни ҳам дарвеш деб атаганлар. Дарвеш кейинги маънода, айниқса шеъриятда кенг қўлланилган. Дарҳақиқат, тиланчи гадо билан дарвеш ёхуд сўфийнинг ижтимоий аҳволи, юриш-туришида ўхшашлик бор: сўфий ҳам гадо – дунё мол-мулкидан мосуво бўлган, жанда тўнидан бошқа ҳеч нарсаси йўқ қашшоқ одам. Аммо сўфийнинг дарвешлиги онгли-ихтиёрий саъю кўшиш натижасидир, унда тама йўқ, дарвешлик – унинг эътиқоди, у тариқат маслагини қабул қилиб, шу йўлда жонини, борлиғини фидо этади.” [3:161]

Демак, мақоламиз қаҳрамони шундай покиза тийнат, ринд табиат киши бўлгандирки, Бобур Мирзони мана шу хусусияти билан мафтун этгандир. Ва ўзи ҳам мардона феълли, дарвеш табиатли подшоҳга мафтун бўладики, унинг ҳузурида умрбод қолиб, унга хизмат қилишга аҳд қилади. “Бобурнома”ни ўқир эканмиз, Дарвеш Муҳаммад Сорбондан ташқари Дарвиш гов, Дарвеш кўкалдош, Дарвеш Муҳаммад тархон каби дарвеш (дарвиш) номли ва тахаллусли кишиларни ҳам учратамиз. Бу шахсларнинг ҳаммаси шоҳ

ёнида юрувчи арбоб ва аъёнлар бўлишган. Ҳеч қайсиси хонақоҳда ўтириб, тариқат билан шуғулланмаган. Демак, бу ўринда дарвишлик амал эмас, балки маслак, яъни кўнгил танлаган, ихтиёр қилган йўлдир.

Шу-шу Дарвеш Муҳаммад Сорбон деган бу шахс Мирзонинг шароб мажлисларида иштирок эта бошлайди. Аста-аста “тоиб”лиги ҳам йўқолиб, ўзи ҳам майу шаробга майл билдира бошлайди. Аниқроғи, уни Хожа Муҳаммад Али исмли Бобур Мирзонинг яна бир мулозими уни қўярда-қўймай ичиради. Ва бу ҳақда ҳам Бобур Мирзонинг ўзи бизга маълумот беради.

Беихтиёр ўйлаб қоламиз: ким бу одам? Бир кўришдаёқ Бобур Мирзодай дилбар ва хассос шахснинг меҳри ва эътиборига тушган инсон ким ўзи? Бу ҳақда биз Бобур халқаро жамоат фонди ташаббуси билан чоп этилган яна бир улкан обида – “Бобур энциклопедияси”га мурожаат этамиз. Энциклопедиянинг 219-саҳифасида ўқиймиз: “Дарвеш Муҳаммад Сорбон – Бобурнинг яқин кишиларидан. Дастлаб Бадахшон ҳокими Мирзохонга хизмат қилган. 1518 йил Бобур ҳузурига элчи қилиб юборилган. Бобур билан ҳамсуҳбат бўлгандан сўнг унинг ҳузурида қолишга қарор берган ва Бобурнинг доимий ҳамсуҳбат ва яқин кишиларидан бирига айланган. кейинчалик унинг мавқеи яна ҳам ортиб, эътиборли бек ва қўшин бошлиқларидан бири сифатида хизмат қилган”. [2:219]

Дарҳақиқат, Бобур Мирзонинг меҳрини қозониш, унинг хос мажлисларида ҳозир бўлиш учун фақатгина унинг кўнглига қараб, шароб ичиш эмас, балки ҳарбу зарбда беназир бўлиб, ўлимга тик қараш, мардоналик ва диловарлик хусусиятлари ҳам бўлиши керак. Дарвеш Муҳаммад Сорбон мана шундай хусусиятларга эга киши эдики, унга эътибор кўрсатган Бобур Мирзо адашмаганди. Дарвеш Муҳаммад Сорбон Ҳиндистонни забт этишдаги асосий муҳораба -

Панипат жангида ҳам иштирок этади. Жангга атаб махсус чиқарилган ва “Бобурнома”га киритилган “Заҳириддин Муҳаммад Бобур ғозий фармони”да у хослар таянчи, ихтисос эгаларининг зубдаси (қаймоғи, асоси – таъриф бизники З.М.) Низомиддин (диннинг қонун-қоидаси– таъриф бизники З.М.) дея улуғланади. Сарбон Бобур Мирзо бошчилигидаги Ҳинд рожаси Раана Сангага қарши жангда ҳам қўшинннинг ўнг томонидан ўрин олади ва мардонавор жанг қилади.

Энциклопедияда яна ўқиймиз: “Бобур тамға солиғини бекор қилиш ниятини билдирган эди. Жанг олдидан Дарвеш Муҳаммад Сорбон ва Шайх Зайн Бобурга ана шу ниятни эслатган. Бобур махсус фармон чиқариб, тамға солиғини бекор қилган”. [2:220] Демак, Дарвеш Муҳаммад бир неча йил ичида шоҳга эсидан чиққан фикрини уқтира оладиган даражада яқин кишисига айлана олган. Фақат бугина эмас. “Бобурнома”да Бобур Мирзо мутойиба ҳақида кам гапиради. Унинг бошдан-оёқ саргардонлик билан ўтган умри ҳам шундан далолат беради. Мана шундай қилинган камдан-кам ҳазилларнинг бири айнан мана шу Дарвеш Муҳаммад Сорбонга аталган эди: “Дарвеш Муҳаммад Сорбон ҳанзални кўрган эмас эди. Мен дедимкин, Ҳиндустоннинг ҳидувонасидур, бир карж кесиб бердим. Рағбат билан тишлади. Оқшомғача аччиғлиғи оғзидан кетмади”.[2:454] Лавҳадан кўринадики, Бобурдай нозик кўнгил одам бундай ҳазилни фақат ўзига яқин олган хос кишиларга нисбатан қўллаши мумкин.

“Бобурнома” сўнгида ҳам китобнинг котиби Бобур Мирзонинг яқинлари, аъёну арбоблари ҳақида маълумот беради: “Яна Мир Дарвеш Муҳаммад Сорбонки, Хожа Аҳрорнинг яхши муридларидан, хушсуҳбат киши эди, фазилатидан подшоҳ саройида обрў-эътибор топди”.[1:286] Бу маълумотдан бизга қуйидагилар маълум бўлади:

1. Бобур Дарвеш Муҳаммад Сорбонни мир ёки бек деб атамайди. Демак, у Мирзонинг ҳузурида амирлик лавозимини олган.

2. “Бобурнома” котиби Дарвеш Муҳаммад Сорбонни Хожа Аҳрор(и валий - таъкид бизники З.М.)нинг муриди деб атайди. Лекин Бобур уни 1509-1510 йиллар воқеасида соқоли қора йигит деб атайди ва унга сенсираб мурожаат қилади. Хожа Аҳрори валий эса, гарчи Бобурга Заҳириддин деб исм қўйган бўлса-да, унинг болалигида вафот этади. Демак, Дарвеш Муҳаммад Сорбон Хожа Аҳрори валийнинг бевосита ўзининг эмас, қайсидир халифаси орқали Увайс муриди бўлиши мумкин.

3. Бу маълумотдан бизга Дарвеш Муҳаммад Сорбоннинг дарҳақиқат тариқатни маслак сифатида қабул қилган кишилардан, ҳатто пирга қўл берган шахс эканлиги, подшоҳга астойдил хизмат қилиб, мартабаси ошиб, амир унвонини олганлиги, хушхулқ суҳбатдош бўлганлиги маълум бўлади.

Хуллас, биз Бобур Мирзонинг умр китобини варақлар эканмиз, у кўрган “не меҳнату не кулфату не ғамлар” ичида яхши кунларнинг ҳам бўлганлигини, муҳими эса бу яхши-ёмон кунларда ёнида турувчи диловар дўстлари ҳам бўлганини ва биз ушбу мақолада кўриб чиққан сиймо Дарвеш Муҳаммад Сорбон уларнинг бири эканлигини билиб оламиз.

Фойдалаланилган адабиётлар:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент: O’qituvchi, 2012.

2. Бобур энцеклопедияси. Тошкент: Sharq, 2014.

3. Комилов Н. Тасаввуф. Тошкент: Movaronnahr – Ozbekiston 2009.

4. Тасаввуфдан терминлар ва ҳикматли сўзлар луғати.турк тилида. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Абдулбоқий Гулпинарли.Истанбул, 1995.

“БОБУРНОМА” – ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ТАРИХИГА ОИД ҚИММАТЛИ МАНБА

Сарварбек Мирзаев,
Андижон машинасизлик институти,
катта ўқитувчиси

Буюк шоҳ ва шоир, истеъдодли саркарда, давлат арбоби, Ҳиндистондаги буюк бобурийлар давлатининг асосчиси Заҳириддин Муҳаммад ибн Умаршайх Мирзо 1483 йил 14 февраль санасида Андижон шаҳрида таваллуд топди. Заҳириддин Муҳаммад ёшлигидан билимга чанқоқ бўлгани учун ҳар бир соҳага қизиқар эди. Шу жумладан, ҳарбий ишларда, адабиёт, шеърият ва диний билимларни кўпроқ ота-онасидан, махсус тарбиячилар ва фозилу уламолардан ўрганар эди. Отаси Умаршайх Мирзо темурийлардан бўлиб, Андижон ҳокими эди, онаси Қутлуғ Нигорхоним Мўғулистон хони ва Тошкент ҳокими Юнусхоннинг қизи бўлган. Гарчи ўғлининг моҳир саркарда, Темурийлар сулоласининг давомчиси, йирик салтанат ўрнатганини кўриш бахтига муяссар бўлмасада, Қутлуғнигор Хоним буюк фарзандни вояга етказган тарихий шахсдир[1.587]. Довюраклиги ва жасурлиги учун Заҳириддин ёшлигидан “Бобур” лақабини олади. “Бобур” сўзи “шер, арслон” маъноларини англатади. У отаси Умаршайх Мирзонинг йўлидан бориб Хожа Аҳрор Валийга

ихлос қўяди ва унинг тариқати руҳида вояга етади, умрининг охирига қадар шу эътиқодига содиқ қолади. Ҳаттоки кейинчалик ўз асарларида Хожа Аҳрор руҳи бир неча бор уни муқаррар ҳалокатлардан, хасталик ва чорасизликлардан асраб қолганлигини, энг оғир шароитларда раҳнамолик қилганлигини таъкидлайди.

Отасидан эрта айрилган ёш Бобур Мирзо шундай ёзади: “Тангри таолонинг иноятн билан ва ҳазрати он Саввари коинотнинг шарофати билан ва чаҳорёри босафоларнинг ҳиммати билан сешанба куни рамазон ойининг бешида тарих саккиз юз тўқсон тўққузда Фарғона вилоятида ўн икки ёшта подшоҳ бўлдум”.

Бир томондан ички низолар, тахт талашишлар, иккинчи томондан шайбонийлар билан бўлиб ўтган жангларда ҳолдан тойган Бобур Мирзо ноилож ватанини ташлаб Афғонистон томон йўл олди. Ватанни деб курашиб, уни йўқотди, опаси Хонзодабегим эса темурийларнинг душмани – Шайбонийхонга турмушга чиқиб, шу йўл билан Бобур Мирзонинг, онасининг, яқинларининг ҳаётларини сақлаб қолди. Бобур Мирзо Афғонистонда ўзининг мустақил давлатига асос солиб, маълум вақт давомида қўшин тўплади ва Ҳиндистонга томон йўл олди. Бу пайтда Ҳиндистонда Иброҳим Лоди ҳукмронлик қилар эди. Чуқур ҳарбий билимга ва салоҳиятга эга бўлган Бобур Мирзо ўзининг 12000 кишилик қўшини билан Иброҳим Лодининг 100000 кишилик қўшини устидан 1526 йил апрель ойида бўлиб ўтган Панипат жангида ғалаба қозонди.

Беҳисоб ерлар ва бойликларни қўлга киритганига қарамасдан, Бобур Ватанига соғинч ҳисси билан азобланиб, шеъриятдан, адабиётдан таскин топади. У Ватанини, Фарғона водийси шаҳарларини машҳур “Бобурнома” асарида тилга олиб ўтади. Масалан: “Фарғона вилояти бешинчи иқлимдандур. Маъмуранинг қанорасида воқе

бўлибтур. Шарқи Қошғар, ғарби Самарқанд, жануби Бадаҳшоннинг сарҳади тоғлар, шимолида агарчи бурун шаҳрлар бор экандур, мисли: Олмолиқ ва Олмоту ва Янги ким, кутубларда Тарозкент битирлар, мўғул ва ўзбек жиҳатдин бу тарихда бузулубтур, асло маъмура қолмабтур. Мухтасар вилоятдур, ошлиқ ва меваси фаровон. Гирдогирди тоғ воқе бўлубтур. Ғарбий тарафидаким, Самарқанд ва Хўжанд бўлғай, тоғ йўқтур. Ушбу жонибтин ўзга ҳеч жонибтин қиш ёғий кела олмас. Сайҳун дарёсиким, Хўжанд суйиға машҳурдур, шарқ ва шимолий тарафидин келиб, бу вилоятнинг ичи бирла ўтуб, ғарб сори оқар, Хўжанднинг шимоли Фанокатнинг жануби тарафидинким, ҳоло Шоҳруҳияга машҳурдур, ўтуб яна шимолга майл қилиб, Туркистон сори борур. Туркистондин ҳейли қуйироқ бу дарё тамом қумга сингар, ҳеч дарёға қотилмас”. Бобур Мирзо бу таърифида Фарғона водийсининг географик жойлашуви, иқлими, дарёлари, мевалари, тоғлари ва шаҳарлари ҳақида батафсил тўхталиб ўтади.Зеро, у география илмидан хабардор бўлган ва Ўрта Осиё минтақаси бешинчи иқлимга мансублигини билган[2.58].

Андижонга эса қуйидагича таъриф келтиради: “Етти пора қасабаси бор; беши Сайҳун суйининг жануб тарафида, икки шимоли жонибида. Жанубий тарафидаги қасабалар бир Андижондурким, васатта воқе бўлубтур, Фарғона вилоятининг пойтахтидур. Ошлиғи вофир, меваси фаровон, қовун ва узуми яхши бўлур. Қовун маҳалида полиз бошида қовун сотмоқ расм эмас. Андижоннинг ношпотисидан яхшироқ ношпоти бўлмас. Мовароуннаҳрда Самарқанд ва Кеш қўрғонидан сўнгра мундин улуғроқ қўрғон йўқтур. Уч дарвозаси бор. Арки жануб тарафида воқе бўлибтур. Тўққиз тарнов сув кирар. Бу ажабтурким, бир ердин ҳам чиқмас. Қалъанинг гирдо-гирди хандақнинг тош ёни

сангрезалик шоҳроҳ тушубтур. Қалъанинг гирдо-гирди тамом маҳаллотдур. Бу маҳалла била қалъаға фосила ушбу хандақ ёқасидоғи шоҳруҳтур. Ови қуши доғи кўп бўлур, қирғовули беҳад семиз бўлур. Андоқ ривоят қилдиларким, бир қирғовулни ускунасини тўрт киши еб тугата олмайдур. Эли туркдур. Шаҳр ва бозорисида турки билмас киши йўқтур. Элининг лафзи қалам била росттур”[3.5-6]. Бундан кўринадики, Бобур Мирзо Андижонга ўзгача бир меҳр билан таърифлар беради, яъни юртига, Ватанига бўлган соғинчи уни бир зумга бўлса ҳам тарк этмаганлигини кўришимиз мумкин. Яна шуни ҳам қўшимча қилиш мумкинки,Заҳириддин Муҳаммад Бобур нафақат ҳарбий саркарда, йирик давлат арбоби, тарихчи, адабиётшунос ва шоир, балки моҳир географ, жамиятшунос, этнолог сифатида ҳам ўзидан кейинги авлодларга беназир маълумотлар қолдиради.

Фарғона водийсининг яна бир йирик шаҳри Марғилонга шундай таъриф берилган: “Яна бир Марғинондур. Андижоннинг ғарбидадур, Андижондин етти йиғоч йўлдур. Яхши қасаба воқе бўлубтур, пур неъмат; анори ва ўруги асру кўп хўб бўлур. Бир жинс анор бўлур, “дона калон” дерлар, чучуклигида зардолу майҳушлиғидин андак чошни бор. Самнон анорлариға таржеҳ қилса бўлур. Яна бир жинс ўрук будурким, донасини олиб, ичиға мағз солиб қурутурлар, “субҳоний” дерлар, бисёр лазиздур”.

“Бобурнома”да Хўжанд шаҳри, Мутуғул (Мўғул) тоғи ва Сирдарё (Хўжанд суйи) ҳақида жуда батафсил, муҳим маълумотлар берилган[4.155]. Бундан ташқари “Бобурнома”да Исфара, Конибодом, Ахси, Косон шаҳарларининг географик жойлашуви, табиати, ҳайвонот ва набоботи ҳақида қимматли маълумотларни ёзиб қолдиради. Бу шаҳарлардан айниқса, Аҳси шаҳри

тўғрисида жуда муҳим маълумотлар беради. Масалан: “Сайҳун суйининг шимоли тарафидаги қасабалар: бир Ахсидур. Китобларда Ахсикат битирлар... Фарғонада Андижондин сўнгра мундин улуғроқ қасаба йўқтур...”.

Бир сўз билан айтганда, “Бобурнома”даги қимматли маълумотлар ҳозирги кунда ҳам ўзининг аҳамиятини йўқотмаган. Мазкур бебаҳо асар нафақат тарихий, балки географик, этнологик, хронологик, адабий ва биографик асардир.

“Бобурнома” асарининг асли номи “Бобурия” бўлсада, уни ”Воқеанома”, “Тузуки Бобурий”, “Воқеоти Бобурий” номлари билан ҳам атаб келганлар ва бу асар шу кунгача бир неча тилларга таржима қилинган. Дастлаб 1857 йилда турколог Н.И. Ильминский томонидан Қозон шаҳрида типографик йўл билан русча таржимасичоп этилган бўлса, 1905 йилда инглиз олимаси А. Бевериж хоним томонидан инглизча таржимаси нашр этилди. 1948-1949 йилларда П. Шамсиев ва С. Мирзаевлар томонидан асарнинг ўзбек тилидаги нашри, 1960 йилда “Бобурнома” нинг тўлиқ ўзбекча матни нашрга қайта тайёрлади ва нашр этилди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014.

2. Жалилов С. Бобур ҳақида ўйлар.– Тошкент: «Шарқ», 2006.

3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. “Бобурнома”. – Т.: “Юлдузча” , 1989.

4. Машрабов З. Бори элга яхшилиғ қилғил. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2013.

Бобур номли халқаро жамоат фонди - 30 ёшда.

БОБУР ТОШБИТИКЛАРИ КАШШОФЛАРИ

Наргис Хушиева,
Тожикистон республикаси, Шаҳринав туманидаги
7-ўрта умумтаълим мактаби директори

Ўзбек адабиётшунослигида бобуршунослик йўналишининг узил-кесил шаклланишида йирик ҳисса қўшган Бобур номли халқаро жамоат фондининг таъсис этилганига 30 йил бўлди. Мазкур фонднинг кўпқиррали фаолиятида Бобур халқаро экспедициясининг алоҳида ўрни бор. Чунки бобуршунослик икки йўналишда тараққий этади: биринчиси-Бобур шахси ва асарлари ҳақидаги илмий тадқиқотлар; иккинчиси-Бобур изидан юриб топилган янгиликлар: Бобур бўлган жойлар, жанг қилган, пойтахт қилган шаҳар, кезган, яшаган қишлоқларни бориб кўриш орқали Бобур фаолиятининг янги –янги қирралари очилади, унинг шахси ва фаолиятига доир ашёвий далиллар, санъат асарлари йиғилади, кашфиётлар қилинади.

Чунончи, 2009 йил 5-21 октябрь ойидаги Зокиржон Машрабов бошчилигидаги илмий экспедиция Тожикистон Республикаси Мастчоҳ районининг Оббурдон, кентида бўлиб, бобуршунослик учун нечоғлик кашфиётлар қилганликларини мулоҳазалашиб кўрайлик.

Бунгача ўзбек адабиёти, хусусан бобуршуносликда Бобурнинг биттагина тошбитиги маълум эди-ю, у ҳам илмий муомалага жалб этилмаган эди. Оббурдон кенти қишлоқларидан топилган 5та тошбитик бобуршуносликда шундай ажойиб кашфиётлар сабабчиси бўлдики, илмда буни санаб саноғига етиш мушкулдир.

Бобурнинг ўз қўли билан ёзган тошбитиклари бобуршунослик-нинг қуйидаги қирраларини ярқиратиб очиб юборди:

-Бобур ва Шайбонийхон муносабатларида Бобурнинг Шай-бонийхонга янгича кескин баҳоси;

-Бобур ва Амир Темур тошбитикларининг узвий алоқадорлиги;

-Бобурнинг форс адабиёти намояндалари-Ҳофиз ва Саъдий Шерозийларга ижодий муносабати;

-Бобур тошбитиги ва "Бобурнома"да тарихий санадаги жиддий фарқ;

-Бобур тошбитиклари ва девони орасидаги алоқадорлик;

-Бобурнинг Шарафиддин Али Яздий "Зафарнома"сидан яхши хабардорлиги каби масалалар шулар жумласидандир.

Зокиржон Машрабов ва Ваҳоб Раҳмоновнинг "Тил ва адабиёт таълими" журналида эълон қилиниб, йилнинг энг яхши мақоласи сифатида тақдирланган (2018) Бобур тошбитиклари ҳақидаги мақоласида ёзилишича, экспедиция Оббурдон қишлоқларини кезиб, Бобур ҳақида ва тошбитиклари хусусида маълумотлар йиғиб юрилганида, мулла Жўрақул экспедицияни Шамтич қишлоғидаги "Дуруст" қабристонига бошлаб боради ва бу жойда Бобур дастхати бўлган тошбитик борлигини айтади. Экспедиция аъзолари мозорни оралаб юрадилар. В.Раҳмонов З.Машрабовга киши белигача баландликдаги тарам-тарам ёрилган қора тошдаги майда арабча ёзувларни ўқиб беради:

Кофиро, мардум шикоро, як замон оҳистатар

К-оҳуи бечораро тоби тири туркон тоб нест.

Ҳараруху Бобур 907 ҳижрий

Катабаи мирам Бобурхон. Халадаллоҳу Мулкаҳу ва Султанаҳу

Байт мазмуни:

Эй кофир, эй одам овчиси, бир лаҳза шошма

Шўрлик оҳу турк ўқига бардош беролмайди
Мен Бобур ёздим ҳижрий 907.

Амирим Бобурхоннинг битиклари. Аллоҳ унинг мамлакати ва подшоҳлигини абадий қилсин.

Мулла Жўрақул бободан Бобурнинг машҳур Жамшид ҳақидаги шеър ёзилган тошбитик ҳақида сўраганларида у киши айтганки, 1952 йилда олим Аҳрор Мухторов ва акаси Мирҳайдарлар икки отда келиб, тарихий қиммати бўлган тошбитикларни икки хўржинга жойлаб пойтахтга олиб кетишган...

Экспедиция аъзолари Душанбе шаҳридаги Тожикистон халқлари қадимий санъати (археология) музейидан "Бобурнома"да қайд этилган ўша машҳур тошни кўрдилар, тасвирга туширдилар ва ватанга қайтиб уни махсус ўргандилар.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг "Бобурнома" асарининг "Вақоеъи санаи сабъа ва тисъа миа" (тўққиз юз еттинчи йил воқеалари" (1501-1502) сарлавҳаси остида ёзилганки:)

"Мастчонинг қуйиғи кенти Оббурдондур. Бу, Оббурдондин қуйироқ бир чашма тушубтур... Ушбу чашма бошида, чашма ёқасидағи тошида қазиб, бу уч байтни сабт эттим:

Шунидам,ки Жамшеди фаррухсиришт,
Ба сарчашмае бар санге навишт,
"Бар ин чашма чун мо басе дам заданд,
Бирафтанд то чашм бар ҳам заданд
Гирифтем олам бо мардиву зўр,
Ва лекин набурдем бо худ ба гўр."

Матннинг маноси:

В.Рахмонов табдилидаги тарзи:

Эшитганим борки, Жамшиддек номдор
Бошбулоқ тошига ёздирди ёдгор:

“Бу чашма бошига кўплар етдилар,
Кўз юмиб-очгунча йитиб кетдилар
Мардлик, зўрлик билан дунёни олдик,
Лекин қабристонга қуруқ йўл солдик.

З.Машрабов ва В.Раҳмоновлар бу тошбитикни ўрганиб, китоб ва тошбитик санасидаги фарқни сезиб қолишади: гап шундаки, “Бобурнома”даги тарихий сана-907 (1501-1502), тошбитикдаги сана эса ҳижрий 917 (1952) йил эди... Ўн йил фарқ ҳазилакам эмас-да.

Тошга ишонишмаса-Бобурнинг ўзи ёзганлигини “Вақоеъ” (“Бобурнома”)да махсус қайд этган. Китоб ҳам Бобурники, аммо бизга етган нусха котиб қўлёзмасидир.

Бобурнинг ана шу биргина хотирпаришонлиги, яъни ўн йиллик тафовутда биз учун бир ҳикмат бор: яъни “Бобурнома”нинг Ҳиндистонда ёзилабошлаганининг исботи- ишончли далили ҳам шу эмасми? Чунки ўн икки ёшидан кундалик тарзида ёзиб юрган бўлса, бундай ўн йиллик тафовут содир бўлмас эди.

Бобурнинг ушбу уч байтни тошга ўз қўли билан қазиб, ёзгани бизга учта нарсани мулоҳаза қилиш имконини беради.

Биринчидан, жаҳонгирлардан тошбитиклар ёдгор қолса яхшидир. Бу Соҳибқирон Амир Темурдан қолган анъана.

Иккинчидан, Шарафиддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асарини Бобур мутолаа қилган.Улуғ бобоси тарихини яхши ўрганган. 1391 йилнинг 26 апрелида Соҳибқирон Амир Темур Тўхтамишга қарши юришда Жезқозғондан 100 чақирим наридаги Улуғ тоғда тошбитик ёздириб қолдиргани воқеасини зикр этар экан, муаррих Саъдий Шерозийнинг “Бўстон” достонидан икки байт келтирган. Бобур айнан ўша икки байтни олиб, уч байтли иқтибосни тошга ёдгорлик қилиб ёзган.

Учинчидан, тошбитиклар матни алоқадорлиги Бобурнинг Соҳибқирон Амир Темурга муносиб ворис

бўлишдек олижаноб ниятининг мангуликка қолдирган далилидир.

Қолаверса, бу тошбитик мумтоз ўзбек шоири Бобурнинг Шарқ ахлоқи отаси сиймосида танилган форс мумтоз шоири Саъдий Шерозий ижодига эътибори, муҳаббати ҳужжати ҳамдир.

Экспедиция аъзолари Душанбе шаҳридаги Археология музейида Бобурнинг яна бир тошбитигини ҳам топиб ўргандилар. Ундаги матн:

Дило,маош чунин кун,ки гар билағжад пой,

Фариштаат бо ду дасти дуо нигаҳ дорад.

Мазмуни: Эй кўнгил,шундай яшагинки,агар оёғинг тойилиб кетса,фаришталаринг икки дуога очган қўллари билан тутиб қолсинлар.

Ушбу байтни Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ҳофиз девонидан танлаб ёзган. Ана шу тошбитикка матн танлови ва “Аруз рисоласи”даги Ҳофиз Шерозийнинг юзлаб байтларининг келтирилишидан Бобурнинг Ҳофиз шахси ва ижодига нечоғлик муҳаббати борлигини сезиб олиш қийин эмас. Ушбу ижодий алоқадорлик Бобурнинг қуйидаги фахриясида ҳам ўзини кўрсатган:

Ироқу Форс гар етса сенинг бу шеъринг, эй Бобур,

Ани ҳифз этгуси Ҳофиз,мусаллам тутқуси Салмон

(Бобур. Куллиёт. Девон,2022,169-бет)

Биз Бобур халқаро экспедициясининг бор-йўғи икки кунлик сафар топилдиқларининг учтасинигина айтдик,холос. Бобур тошбитикларининг сони олтидадир. (қаранг: “Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси” (“Шарқ” 2017. Зокиржон Машрабов “Тошбитиклар” мақолалари) Ушбу мулоҳазаларимиздан шундай хулосага келамизки, Халқаро Бобур экспедициясининг сафарлари Бобуршунослик илми тараққиётига жуда катта ҳисса қўшади. Биз, бу гал бир сафардан бир чимдим ҳикоя қилиб,

бунда Зокиржон Машрабов ва Ваҳоб Раҳмоновларнинг илмий хизматлари-кашфиётларидан намуналар келтирдик.

Ўзбек адабиётшунослигида Бобуршунослик йўналишининг узил-кесил шаклланишига йирик ҳисса қўшган Бобур номли халқаро жамоат фондининг таъсис этилганига 30 йил бўлди.

Бугун биз, Бобур мухлислари фонднинг ўттиз йиллик шарафли ёшида Бобур номли халқаро жамоат фонди раёсати ва унинг атрофига жисплашган: Зокиржон Машрабов, Эйжи Мано, Азиз Қаюмов, Саидбек Ҳасанов, Хайриддин Султонов, Билол Южел, Шафиқа Ёркин, Ғофуржон Сатимов, Янглиш Эгамова, Ваҳоб Раҳмонов, Қамчибек Кенжа, Тўлан Низом,Ҳасанжон Қудратиллаев, Ҳамидуллоҳ Болтабоев сингари фонд илмий салоҳиятининг олтин фонди намояндаларининг ҳаётларини табриклаб,марҳумлар хотирасини ёдга олиб, эъзозлаймиз.

ЖАҲОН ТАРИХИДА “БОБУРНОМА”

Давлатбек МУСАЕВ,
Андижон давлат университети
Жаҳон тарихи кафедраси катта ўқитувчиси
Сардорбек СОБИРОВ,
Андижон давлат университети
Жаҳон тарихи кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. В статье изложены вопросы изучения в мировой истории мемуарного и исторического произведение, основателя династии Бабуридов Захириддина Мухаммада Бабура, «Бобурнаме».

Annotation. In article questions of studying in world history memoirs and historical the work, the founder of a dynasty Baburidov of Zakhiriddin Mahomed Babur, Boburnam are stated.

Олий Мажлис Сенатининг янги таркибдаги илк мажлисида сўзга чиққан Президентимиз Шавкат Мирзиёев миллий тарихни англашнинг аҳамияти ҳақида тўхталиб ўтди. “Яқинда Хавфсизлик кенгаши йиғилишида Заҳириддин Муҳаммад Бобур бобомиз ҳақида гапирдим. Бобур 12 минг аскар билан 100 минг аскарни енгган. Ўша пайтда шундай қилиш мумкинмиди? Йўқ. Бобомизга нима ёрдам берди? Ватанпарварлик, ғурур, ифтихор, ақл-заковат. Мен Бобурни бугун кўп гапиряпман. Қуйи палата йиғилишида ҳам гапирдим. Умуман, шу кунларда мен тарихимизни кўп ўқишга ҳаракат қиляпман. Минг афсуски, бизга совет даврида Пушкин, Лермонтовнинг боболари хоки қаерда тўкилганини ўқитган холос. Алишер Навоий ёки Бобурларни ўқитмаган. Рус тилида ўқиган одамлар Пушкин, Лермонтовни ўқиган. Биз ҳеч кимга Бобурни ўқитмаганмиз. Унинг экология ҳақида ёзганларини ўқисангиз, ҳозирги даврда яшайди, деб ўйлайсиз. Ёки, шунча йил ҳарбий мактабларимиз Суворов номида бўлган. Бирорта одам айтмаганки, мустақил бўлганимизга неча йил бўлди, нега мактаб номи Суворов бўлиши керак, деб. Биз Суворов мактабларини Темурбеклар мактабига ўзгартирдик”[4].

Мамлакатимиз мустақилликка эришганидан сўнг жамият ижтимоий -сиёсий ҳаётининг барча жабҳаларида кенг ўзгаришлар даври бошланди. Бу жараён интеллектуаль соҳада ўз аксини топди. Буюк цивилизация ва маданият бешиги бўлган кўҳна ва ҳайратомуз тарихни ўзида мужассам этган Ватанимиздаги бебахо ёдгорликлар, асори атиқалар ҳақида сўз юритар эканмиз, шу заминда яшаётган барча инсонлар уларни аввало халқимиз даҳосининг ёркин намунаси, таъбир

жоиз бўлса, унинг юксак маънавиятга қўйилган муаззам ҳайкаллар деб қабул қилади.

Ер юзидаги барча ўлмас обидалар, инсоният ҳаётини тубдан ўзгартириб юборган жамики улуғ кашфиёт ва ихтиролар, мумтоз санъат ва адабиёт дурдоналари, мардлик ва қахрамонлик намуналари одамзотнинг ақл-тафаккури, салохияти ва маънавий жасорати маҳсулидир. Шунинг учун хам бу ёруғ оламда энг буюк жасорат нима, деган саволга ҳеч иккиланмасдан энг буюк жасорат - бу маънавий жасорат, деб жавоб берсак, ўйлайманки, янглишмаган бўламиз. [1, 159]

«БОБУРНОМА» — Жаҳон адабиёти ва манбашунослигидаги муҳим ва ноёб ёдгорлик, ўзбек адабиётида дастлабки насрий мемуар ва тарихий илмий асар ҳисобланади. Заҳириддин Муҳаммад Бобур уни эски ўзбек (чиғатой) тилида ёзган. (Тахм 1518/19 - 1530) “Вокеоти Бобур”, “Бобурия”, “Воқеанома”, “Тузуки Бобурий”, “Табақоти Бобурий”, “Таворихи Бобурий” каби номлар билан хам маълум. Бобурнинг узи эса “Вақое” ва “Тарих” деган номларни ишлатган. Асарда 1494-1529 йилларда Марказий Осиё, Афғонистон ва Ҳиндистонда содир бўлган тарихий ва сиёсий вокеалар йилма йил ўта аниқлик билан баён қилинган бўлиб, улар муаллиф ҳаёти ва сиёсий фаолияти билан бевосита боғлиқдир. “Бобурномада” баён қилинган вокеалар жараёнига кўра уч қисмга бўлинади.

Шунингдек, бу асарда муаллиф муайян тарихий воқеа ҳақида ҳамда ўзаро душманлик қилган темурийлар Умаршайх, Султон Аҳмад, Султон Маҳмуд, Бойсўнгур Мирзо, Султон Ҳусайн ва бошқаларнинг хулқ атвори, табиати хусусида билдирган фикр-мулоҳазалари билан ҳам аҳамиятлидир. Асарда ижтимоий, табиий фанлар, тарих, фалсафа, фикх, дин таълимоти, тилшунослик, жўғрофия, табиатшунослик, маъданшунослик, дехқончилик, боғдорчилик ва бошқаларга оид аниқ ва ҳанузгача ўз тарихий ва илмий аҳамиятини

йўқотмаган маълумотлар, илмий асосланган хулосалар келтирилган. Асарда бевосита Бобурнинг ўзи лашкарбоши сифатида қатнашган бир неча катта кичик жанг манзаралари маҳорат билан берилган.

Ўша даврдаги қўшин тузилиши, уруш олиб бориш жанг усуллари, қамал ҳолатлари, қурол-яроғ турлари, қўрғонбузар қурилмалар билан бир қаторда асарда кўплаб ҳарбий-маъмурий истилохлар (туман, улус, кўкалтош, эшикоға, ахтачи, тархон, шиғовул, шарбатчи(шарбат дор), мубашшир, туғчи, мирохур, риқобдор, доруға, мурчил, манжаниқ, урон ва бошқалар) ҳам учрайди [2, 5-8].

“Бобурномада” темурийлар қўшинининг тузилиши, ҳарбий санъати ва бошқалар ҳақида ҳам ноёб маълумотлар бор. Бундан ташқари Мовароуннахр, Афғонистон, Хуросон ва Ҳиндистон ўтмиши ва замонавий ҳолати, халқлари, қабилалари, уларнинг тили, маданияти касб-ҳунари урф-одатлари, расм- русумлари, анъанавий тадбир маросимлари, шунингдек, ўша давр жамиятига хос ижтимоий табақаларга тегишли маълумотлар баён килинади.

Айниқса, Фарғона, Андижон, Самарқанд, Кобул, Ҳирот ва Агра каби йирик шаҳар вилоятларининг жўғрофий ва маъмурий тузилиши, маданий ҳаёти, туманлари, аҳолиси қишлоқ хўжалиги, дарё ва сув ҳавзалари, чўл

адирлари, тоғ-саҳролари, боғу-роғлари, табиати, иқлими, ҳайвонот ва ўсимликлар дунёси ҳамда табиий бойликлари хақида муфассал маълумотлар берилади.

Бу асар яратилган давриданоқ жуда кўплаб кишиларнинг диққат- эътиборини ўзига ром этган. Чунки ўзбек бадиий насрининг ёрқин намунаси сифатида соф бадиий лавҳалар, жонли тасвирлар, анъанавий лирик чекинишларга бойдир. Насрий матн ичида келтирилган халқ мақол-маталлари, иборалари, ибратли ўгитлар, шеърий парчалар унинг бадиийлигини янада оширади, ўзига хос жозиба бағишлайди.

Шу боисдан бу асар XVI асрдан бошлаб то ҳозирга қадар жаҳоннинг жуда кўплаб халқларида қизиқиш уйғотган. Натижада, инглиз, голланд, француз, форс, немис, итальян, рус, хинд, урду ва бошқа дунё тилларига бир неча марталаб таржима қилинган. Унга қўшимча тарзда шарҳлар ва изоҳлар билан нашр этилган.

Англия, Америка, Франция, Россия, Ҳиндистон, Покистон, Афғонистон, Туркия ва Япония каби ўнлаб мамлакатлар олимларининг илмий тадқиқотларида "Бобурнома"нинг инсоният яратган ўлмас обидалар қаторида алоҳида ўрин тутиши таъкидланади. Бу асарнинг жаҳонга машҳур бўлишида асосан инглиз шарқшуносларининг хизматлари катта бўлган. Жаҳонда биринчи тўлиқ нашри инглиз тилида 1826 йилда Ж. Лейден ва В. Эрскин томонидан амалга оширилган. Ф.Талбот ушбу нашр асосида 2 марта (1878, 1909) унинг қисқартирилган нашрларини чоп эттирган. 1921 йилда инглиз шарқшуноси А. Бевериж асарни мустақил суратда асл нусхадан қайта таржима қилган. Биргина Англиянинг ўзида бу асар таржималари 9 марта нашр этилган.

Кейинги йилларда "Бобурнома"нинг профессор Текстон томонидан АҚШда (Кембриж шаҳри, Харвард университети) ҳамда икки жилдлик ҳажмда мукаммал сўзлик, кўрсаткич шарҳ ва изоҳлар билан Японияда (Киото 1995- 96) илмий танқидий матни нашр этилган.

Маълумки, "Бобурнома" нинг қўлёзмалари матнида баъзи йиллар (1504-05, 1509-18, 1520-24) тафсилоти учрамайди, 1508 ва 1520 йиллардаги воқеалар баёни тугал эмасдир. Мана шу узилиш бўлган ўринларни инглиз шарқшунослари бошқа тарихий манбалар асосида маълум даражада тиклаганлар. Шу нусхадан форс тилига (1586), ундан парчалар Витсен томонидан голланд тилига (1705), кейинроқ А. Кайзер томонидан қисқартирилган ҳолда немис тилига (1828) , Паве

де Кутейл томонидан тўла ҳолда француз тилига (1871) таржима қилинган.

Бундан ташқари, асарни таржима ва тадқиқ этишда Афғонистонлик (Абдулҳай Ҳабибий), Покистон (Рашид Ахтар Надвий, Шоҳ олам Мавлиёт), Ҳиндистон (Мирзо Насриддин Ҳайдар, Муҳиббул Ҳасан Ривзий), Туркия (Р. Р. Арат ва Н. И. Баюр)каби мамлакатларнинг олимларини хизматлари каттадир. Рус шарқшунослари (Н. И. Пантусов, С.И. Поляков, В. Вяткин) ҳам “Бобурнома”дан парчаларни таржима қилганлар. Н.И. Ильминский “Бобурнома”ни Қозонда нашр эттирган. (1857) М. Салье асарни рус тилига тўлиқ таржима қилиб, 3 марта (1958, 1982, 1993) нашр эттирган. (С. Азимжонованинг кириш сўзи ва тахрири остида) [3, 160].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. –Т.:1998.
2. Аҳмедов Б. Историко географическая литература средней Азии XVI-XVIII веках (писменние
3. Бобур З.М. “Бобурнома”. –Т.:1948-1949.
4. https://kun.uz/news/2020/01/20/bizga-navoiy-yoki-boburni-oqitishmagan-shavkat-mirziyoyev-milliy-tarix-haqida-gapirdi

ЗОКИРЖОН МАШРАБОВНИНГ МАЪНАВИЙ ЖАСОРАТИ

Саодатхон Қурбонова,
Қашқадарё вилояти, Нишон тумани
18-умумтаълим мактаби ўқитувчиси

Бобур номидаги халқаро жамоат фондини Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими Зокиржон Машрабов исми билан бирга тилга оламиз,чунки ушбу фонд

фаолиятини усиз тасаввур этиб бўлмайди. Андижонлик олим Зокиржон Машрабов кўп йиллар аввал Бобур халқаро жамоат фондни ташкил этиб, шарқ давлатларига экспедициялар уюштириш ҳақидаги ўйлаб, режалар тузади. Уни кўпчилик қўллаб-қувватламади, балки бу хомхаёл, деганлар ҳам топилди. Аммо ўз ишининг фидойиси бўлган Зокиржон ака олдига қўйган мақсадидан чекинмади. Кўпгина тарихий алломалар, буюк бобокалонларимиз тарихини ўрганиш, уларнинг қабрларини излаб топиб, обод қилиш каби эзгу режаларни тузиб, 1992-йилнинг 18-май куни марказий Осиёда танҳо бўлган Бобур жамоат фондини ташкил этди. Фонд қошида Бобур номидаги халқаро илмий экспедиция ҳам ташкил топди. Экспедиция ўзининг биринчи илмий-амалий сафарига жўнаб кетди. Фонднинг мақсади нафақат Мирзо Бобурни, балки юртимиздан етишиб чиққан ва тақдир тақозоси билан ўзга юртларда яшаб,ижод этиб ўша ёқларда қолиб кетган улуғ аждодларимизнинг ҳаёти ва ижодини ўрганиш улар қолдирган бой маданий-маърифий меросни ўрганиш ва қайта тиклашга ўз ҳиссаларини қўшишдан иборат эди. Бу йўлда энциклопедия аъзолари ўнлаб давлатларига Туркманистон, Сурия, Эрон, Иордания, Саудия Арабистони,Покистон, Араб амирлиги давлатларига сафарлар уюштиришди. Ушбу сафарлар давомида экспедиция аъзолари ўз ҳаётларини хавф остига қўйиб бўлсада Афғонистон давлатига ҳам сафар уюштиришди. Кобул шаҳрига бориб, бобокалонимиз - буюк саркарда, шоҳ ва шоир, давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг қабрини зиёрат қилишиб, қабр тупроғидан олиб туғилиб ўсган юрти - Андижонга олиб келишди. Экспедиция 20 дан ошиқ давлатларда бўлиб, ҳар бир давлатдан жуда бой хотира, таассуротлар, янгиликлар билан қайтишди. Хусусан, Зокиржон Машрабов ҳар бир сафаридан янги бир топилма,китоб ёки қўлёзма билан

қайтарди. Бобур халқаро жамоат фонди Андижон шаҳридаги Боғишамол мавзесида жойлашган бўлиб, у ердаги музейдан кўплаб нодир қўлёзмалар ва чет эллардан юртимизга олиб келинган бебаҳо китоблар жой олган. Афғонистонда жойлашган кўпгина буюк алломаларимизнинг қабрлари мамлакатдаги нотинчлик сабаб қаровсиз аҳволга қолди. Бобур халқаро жамоат фонди ташаббуси билан З.М.Бобур, А.Навоий, султон Ҳусайн, Гавҳаршодбегим, Камолиддин Беҳзод, Бобораҳим Машраб, Абу Райҳон Беруний, Мавлоно Лутфий каби алломаларимиз қабрларини излаб топиб зиёрат қилишди. Афсуски айрим буюк аждодларимиз қабрлари хароб аҳволга тушиб, йўқолиб кетиш арафасига келиб қолганлигининг гувоҳи бўлишди. Бу манзара энциклопедия аъзоларини қалбига озор берди. Тезда фонд аъзолари ушбу манзилларни обод қилиш ҳақида ўйлашди, аммо ўша пайтдаги Афғонистон заминидаги уруш сабабли ушбу савобли ишлар бироз орқага сурилди. Ўзбекистонга қайтиб келгач фонд аъзолари ушбу зиёратгоҳларни тезда обод қилиш ва уларнинг устига мақбара тиклаш керак дея амалий ҳаракатни бошлашди.

Мамлакатимизда ҳар йилнинг 14 феврал санасида Андижонда буюк бобокалонимиз шоҳ ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг таваллуд айёмлари кенг нишонланади, катта анжуман бўлиб ўтади. Ушбу анжуманга Бобур номидаги халқаро жамоат фонди раҳбари Зокиржон Машрабов томонидан қизғин тайёргарлик ишлари олиб борилади. Дунёнинг кўпгина давлатларидан бобуршунос олимлар таклиф этилиб, катта адабиёт ва санъат байрами ташкил қилинади.

Президентимиз 2017 йилдаги Андижонга ташрифи чоғида Бобур халқаро жамоат фонди жойлашган Бобур боғини келиб кўрдилар,Зокиржон Машрабов билан суҳбатлашиб, у кишининг фидокорлигига таҳсинлар

айтдилар. Андижонда 2017-йилни Заҳриддин Муҳаммад Бобур йили деб эълон қилдилар.

Юртимизда Зокиржон Машрабов каби ота-боболаримиз қолдирган бой меросни асраб-авайлаб келажак авлодларга қолдирадиган инсонлар сафи кўпаяверсин. Зокиржон Машрабов давримизнинг қаҳрамони.1980- йилларда бобокалонимиз Бобур ижоди тазйиққа, асарлари танқидга учраган даврларда ҳам Зокиржон Машрабов ўз аҳдидан қайтмади. Мустақиллик йилларида улуғ бобокалонимиз ижоди ва улар қолдирган улкан меросни қайта тиклаш ва оммага етказиш мақсадида ўзи ташкил этган Бобур халқаро жамоат фондига 30 йилдан буён раҳбарлик қилиб келмоқда. Асли геология фанлари номзоди бўлган Зокиржон Машрабов юрт равнақига, маданият ва маърифат юксалишига улкан ҳиссаси учун "Меҳнат шуҳрати"(2003)," Эл-юрт ҳурмати" (1993)орденлари, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими" унвони (1993), Бобур номидаги халқаро мукофотига сазовор бўлганлар. Зокиржон Машарипов 90 ёшни қаршилаган бўлсада ҳали ҳамон тиниб-тинчимасдан фонд ишларига ўзлари бош-қош бўлиб турибдилар. У киши каби фидокор, маънавияти ва ички олами бой инсонлар орамизда кўпроқ бўлса, келажак авлодлар буюк бобокалонларимиз қолдирган маънавий меросдан баҳраманд бўлишади. Зеро,бизнинг юртимиз буюк тарихга эга. Барча улуғ мутафаккир олимлар-машҳур алломаларимиз ҳаёти ва ижоди катта бир тарихдан иборат. Бобур халқаро жамоат фондига ўхшаш фондлар ташкил этилиб, олиму фузалоларимизнинг ўчмас тарихини, улардан қолган маънавий бойликларни бутун дунёга кўз-кўз қилсак,янада улуғ иш бўларди.

Фойдаланилган адабиёт:

1."Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси 2013.36-сони.

АМУДАРЁ ҲАВЗАСИДАГИ КЕЧУВ-ГУЗАРЛАР

(“Бобурнома” маълумотлари асосида)

Азизжон ШАРИПОВ,
ЎзРФА Темурийлар тарихи давлат музейи
“Маънавият ва маърифат” бўлими мудири

Аннотация. *Маълумки, “Бобурнома”да 1800 дан ортиқ жой номи берилган ва шундан бир қисмини гидронимлар ташкил қилади. Темурийлар салтанатининг бошқа давлатлар билан халқаро савдо-иқтисодий ва маданий алоқаларни ўрнатишда Амударё ҳавзасида жойлашган кечув ва гузарлар муҳим аҳамият касб этган. Мазкур мақолада “Бобурнома” ҳамда темурийлар давринининг бошқа ёзма манбаларидан олинган маълумотлар асосида ушбу гузарларнинг қиёсий топонимик таҳлилига эътибор қаратилган.*

Кечув ва гузарлар – дарё бўйидаги шаҳар, қишлоқ ва йирик аҳоли масканларининг пайдо бўлиши ва ривожланишига сезиларли таъсир этувчи, Буюк Ипак йўлидаги масканлар эди. Гузарлар дарёбўйи шаҳарларини бир-бири билан кемалар орқали боғлайдиган ўзига хос бандаргоҳ вазифасини ўтаган. Темурийлар даврида йирик гузарларда сол ва қайиқларни қуриш, таъмирлаш, ижарага бериш, йўловчилар ва юкларни дарёдан ўтказиш, аҳолини дарё бўйлаб керакли манзилларга олиб бориш каби хизматларни амалга оширадиган инфратузилмалар шаклланган.

Гузарлар фаолияти ҳамиша давлат назоратида бўлган ва махсус назорат қилувчи, солиқ ундирувчи, хавфсизликни таъминловчи ходимлар томонидан амалга оширилган[1]. Зеро, у ерлардан тушган солиқлар давлат ғазнасига даромад келтирарди ва салтанатнинг иқтисодий ривожланишига сезиларли таъсир кўрсатарди.

Испаниялик сайёҳ Руи Гонсалес де Клавихо ўз эслатмаларида Темурийлар салтанатидаги кечувлар тўғрисида маълумот берар экан, ҳусусан Термиз кечуви ҳақида: "Йўловчиларни қирғоқдан-қирғоққа ташувчи қайиқлар дарёда мунтазам қатнаб турибди. Самарқанд салтанатидан бошқа юртга бораётган киши ҳатто шу атрофда яшаса-да, қаердан ва қаерга бораётганлиги қайд этилган ёрлиқ-гувоҳнома кўрсатмаса, нариги соҳилга ўтказилмайди. Самарқанд салтанатига эса, ҳеч қандай ҳужжатсиз бемалол ўтиш мумкин... Қайиқларга подшоҳ томонидан қоровуллар (қўриқчилар) тайинланган бўлиб, ўтказувчилардан бож олинади"[2], - деб эслатади.

Кечув тизимларининг аҳамияти турли тарихий даврларда ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий омиллар, савдо-иқтисодий алоқалар таъсирида ўзгариб борган. Баъзи муҳим кечувлар қадимги ва ўрта асрлардан то ҳозирги кунгача ҳам ўз аҳамиятини сақлаб қолган. Амударёнинг сиёсий қолаверса, халқаро аҳамиятга молик кечувлари ҳақидаги маълумотлар темурийлар ёзма манбаларида ҳам учрайди.

---

[1] "Ҳудуд ал-олам" асарида қайд этилишича, Форобдан Амударё орқали ўтиш фақат махсус амалдорлар – "Мири Руд", "Амири Жайҳун" орқали амалга оширилган. Қаранг: Hudud al-'Alam (The Regions of the world), a Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970. (482 p.). - P.113; А.Вамберининг ёзишича, Бухоро амирлиги даврида, Карки кечувидан Амударё орқали ўтиш фақатгина "Дарёбеги"нинг руҳсати билан амалга оширилган. Қаранг: Вамбери А. Путешествіе по Средней Азіи изъ Тегерана черезъ Туркменскую пустынью по восточному берегу Каспійского моря въ Хиву, Бухару и Самаркандъ, предпринятое въ 1863 году съ научною цълью, по порученію Венгерской Академіи въ Пештъ, членомъ ея А. Вамбери. – М.: Изд-во А.М. Мамонтова, 1867. – С. 192.

[2] Клавихо, Руи де Гонсалес. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406). Масъул муҳаррир: Муҳаммад Али; сўз боши ва изоҳлар муаллифи М.Сафаров; тарж. О.Тоғаев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б. 143; Клавихонинг Самарқандга саёҳати / Рус тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳлар муалиффи О.Бўриев; Масъул муҳаррир Н.Ҳабибуллаев. – Тошкент: Адолат, 2004. – Б.6.

Кечувлар муҳим стратегик аҳамиятга эга бўлгани боис давлат томонидан уларни қўриқлаш ва вақти-вақти билан таъмирлаш ишлари олиб борилган ҳамда душман босқини пайтида кечувларни биринчилардан бўлиб мустаҳкамлашга катта эътибор қаратилган.

Дарёлардан ўтиш учун мўлжалланган турли масканлар Темурийлар даври манбаларида “гузар”, “кечик” иборалари билан қўлланилган. “Бобурнома”да асосан “гузар” (“гузар топиб, сувдин кечилди”), “гузар боши” (“Ушбу кун **гузар бошида** эканда нилобийлар келиб... пешкаш қилиб кўрдилар”), “*кечит”* (“от ва тева била ва партол била **кечиттин** кечилди”, “Иламиш дарёсининг **Ясси кечит** отлиқ **гузари**...”) каби иборалар билан ифодаланган.

Кечувлар ўз номларига эга топонимлар саналади ва одатда уларга яқин жойлашган аҳоли масканларининг номлари билан боғлиқ бўлган (Масалан, *Термиз, Чоржўй, Арҳанг* ва ҳ.к.). Айрим номлар қисман ўзгарган шаклда ҳозиргача сақланган. Масалан, *Убож-Айваж*…. ва ҳ.к.

Темурийлар даври манбаларида Амударё бўйлаб унинг қуйилиш томонига қараб қуйидаги йирик кечувлар фаолият кўрсатганлиги қайд этилган. Жумладан, дарёнинг юқори ҳавзасида – Арҳанг, Тўққизтарам, Тўққузўлум, Сангреза, Чубак, Айваж (Убож, Уёж); ўрта ҳавзасида – Термиз, Шўроб (Оби-Шўр), Келиф, Карки, Бурдолиқ, Чоржўй (Омуя)[1].

Мирзо Бобур темурийларнинг шайбонийларга қарши курашиш йўлидаги сусткаш сиёсати ҳақида маълумот берар экан, 909 (1503–1504) йил воқеалари баёнида Амударёнинг аҳамиятга молик кечувларини ҳам санаб ўтади: “Султон Ҳусайн мирзонинг бу хатлари мужиби

[1] Яна қаранг. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. – Б. 259.

ноумидлик бўлди. Не учунким, Темурбекнинг юртида бу тарихда андин улуқроқ подшоҳ ҳам ёш ва ҳам вилоят ва ҳам черик била йўқ эди. Андоқ кўз тутулур эдиким, паёпай элчилар ва тавочилар жад ва қадара била келиб, мундоқ ҳукмлар келтургай эрдиким: "**Тирмиз ва Килиф ва Карки гузарларида** кема мунча ясанг, кўпрук асбоби бу миқдор тайёр қилинг, юққори **Тўққуз ўлум гузарларни** яхши эҳтиёт қилинг", то бу неча йил ўзбак тафриқасидин дилшикаста бўлған элларнинг кўнгли қавий бўлуб, умидвор бўлғайлар эди. Султон Ҳусайн мирзодек Темурбек ўруниға ўлтурғон улуғ подшоҳ ғанимнинг устига юрумакни демай, ер беркитмакни деса, эл ва улусқа не умидворлиқ қолғай?"[1].

Арҳанг кечиги – Афғонистондан Хатлон вилоятига ўтишда Амударёнинг Панж ирмоғидаги муҳим гузарлардан бири. Бу ерда дарёнинг чап соҳилида маъмурий жиҳатдан Тоҳаристон вилоятига тегишли ўрта асрлардаги шаҳар – Арҳанг (VII–XIV), Арҳанг Сарой (XIV–XV)[2] жойлашган эди. Бу кечикдан ўтган йўл Қундуздан Хатлон–Ҳисор–Қоратегин–Илоқ орқали Тошкент ва Фарғона вилоятига ва Қундуз–Кобул–Пешовар орқали Ҳиндистонга борган.

Арҳанг "Бобурнома"да эслатилмаса-да, лекин мазкур даврнинг бошқа манбаларида тилга олинади. Жумладан, "Зафарнома"ларда келтиришича дарё сувлари кўплиги боис ундан "сол боғлаб" ўтиш мумкин бўлган. Буни Хондамир ҳам ёзади: "Амирлар...подшоҳнинг топшириғи бўйича бир нечта кемани **Арҳанг кечувига** йиғиб келтиришгач, ... кемада дарёдан ўтиб, бир неча кун Соли-

[1] Бобурнома (2002). – Б.103.

[2] Мазкур шаҳар XVI асрдан бошлаб Имом (Ҳазрат Имом) деб юритила бошланган. Ҳозирги номи Имомсоҳиб, Афғонистоннинг Қундуз вилоятига тегишли.

Сарой мавзеи мамлакат олувчи байроқдор ўрнатилган жойга айланди”[1].

Тарихчилардан Хондамир (1495-1496 йиллар воқеалари баёнида), Ҳофизи Таниш Бухорий (Абдуллахон II нинг 1584-1585 йилларда Тохаристон ва Бадахшонга қилган юришлари билан боғлиқ воқеликлар баёнида) ҳамда Мирзо Муҳаммад Ҳайдар (Амир Ҳусайн ва Соҳибқирон ҳазратларининг Толуқон ва Бадахшондаги юриши ва подишоҳлар билан сулҳ тузиши ҳақидаги боби - “Зафарнома”дан келтирилган парчада)[2] ҳам Арҳанг кечиги атрофидаги тарихий воқеликлар ҳақида маълумотлар қолдиришган.

Бугунги кунда Арҳанг кечигининг ўрни Афғонистонни Тожикистондан ажратувчи “Шерхон бандари” чегара пунктига тўғри келади.

Чубак кечиги – Тоҳар вилоятини Хатлондан ажратувчи, Панж дарёсидаги кечик. Кошғар, Илоқ ва Қоратегиндан Толуқон–Андароб орқали Кобулга элтувчи йўл мазкур кечик орқали ўтарди. Унинг ўрни Арҳанг-Саройнинг шарқида, ҳозирги Тожикистоннинг Хатлон вилояти Мир Сайид Али Хамадоний туманидаги Чубак (Чубек) қишлоғига тўғри келади. Бу кечик ҳақида ҳам “Бобурнома”да маълумот йўқ. Бироқ Абдураззоқ Самарқандий ўз асарида (Хуросон ҳукмдори Абулқосим Бобурнинг 1454 йилда Мовароуннаҳрни забт этиш учун Султон Абусайид мирзога қарши муваффаққиятсиз юриши баёнида) эслатади: “Рамазоннинг бошларида (1454 йил 25 август) Қундуз ва Бақлон кечигидан ўтди ҳамда Арҳанг кечигига келиб, бир неча кун тўхтаб турди. (Бу ерда) “уруқ сув юқори оқими томон юриб, Бадахшон вилояти яқинида

[1] Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар: (Башар аҳли сийратидан хабар берувчи дўст) / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари Ж.Ҳазратқулов, И. Бекжонов. – Тошкент: O`zbekiston, 2013. – Б.554.

[2] Тарих-и Рашиди, л.12а (39-бет).

кемасиз ўтиш мумкин бўлган Чубак кечигидан ўтсин” деган шоҳона фармон бўлди. Арҳанг кечигида ...подшоҳнинг даргоҳига бир неча кема келтирдилар”[1].

Арҳанг-Саройнинг шарқидаги яна бир кечик – **Қўнғуз аланг** (**Қунқор ўланг**) ҳақида ҳар иккала “Зафарнома” муаллифлари[2] эслатишади. Бу кечик Бадахшонда, Кўкча дарёсининг Панжга қўйилиш жойида, ҳозирги Афғонистоннинг тахминан Навобод аҳоли маскани ҳудудида бўлган.

“Бобурнома”даги **Тўққуз ўлум гузари** (توقوز اولوم) ва “Тарихи Рашидий”даги **Тўққуз-тарам кечиги**нинг ҳозирги географик ўрни аниқ бўлмаса-да, бироқ мазкур манбаларда келтирилган матн мазмунидан билиш мумкинки, ушбу гузарлар ва унинг атрофидаги воқеликлар Амударёнинг Вахш ва Панж ирмоқлари оралиғида бўлган.

Тўққуз-тарам кечиги ҳақида Мирзо Ҳайдар “Шоҳ Исмоил томонидан Шоҳибекхоннинг мағлуб этиш хабари ва Бобур Подишоҳнинг Кобулдан Қундузга юриши баёни”да эслатади[3]. Бобур “Туққуз ўлумдан юқори ўтиш жойлари” (“Бобурнома”нинг русча таржимасида “верхние переправы у Тукуз-Улума”) деб афтидан ушбу кечикни назарда тутган. Демак, географик ва стратегик нуқтаи назардан келиб чиқиб, Тўққуз-тарам кечиги Вахш дарёсида, Хатлон шаҳри яқинида бўлган.

Тўққуз ўлум гузари эса, Тожикистоннинг “Бешаи палангон” (Йўлбарслар ўрмони, Йўлбарсжар, “Тигровая Балка” номлари билан машҳур) давлат қўриқхонаси ҳудудида, Амударё бўйида, Вахшнинг дарёга қўйилиш

[1] Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд, иккинчи ва учинчи қисмлар, 1429–1470 йил воқеалари // Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. География номлар изоҳли кўрсаткичи О.Бўриев. Тарихий шахс, воқеа ва атамаларга изоҳ беришда Ғ.Каримов ва Э.Миркомилов иштирок этишди. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2008. (832-б.). – Б. 349.

[2] Шомий. Зафарнома. – Б.76; Йаздий. Зафарнома. – Б. 60.

[3] Қаранг: Тарих-и Рашиди, л.153аб.

ерига яқин бир манзилда жойлашган деб тахмин қилсак бўлади.

“Тўққуз ўлум” иборасидаги “*ўлум* (اولوم) (ёки “*вовлум*”)” сўзи[1] Шомий “Зафарнома”сида ҳам учрайди (бироқ Яздийда – “*гузар”*) ва “сувдан ўтиш жойи” маъносида келади: “Душманлар...сувдан ўтадиган жойлар ва кўприкларни буздилар. Ўлумларни эгаллаб, тўхтаб турдилар. Амир Соҳибқирон қайтадан кечик солиб, лашкарни тартиб билан [дарёдан] ўтказди. Ёғий ... турган еридан қочиб .... Бадахшон шоҳларига қўшилдилар”[2].

Сангреза кечики – Кофарниҳон дарёсидаги кечик. Тожикистоннинг Рудакий туманида жойлашган Сангтўда аҳоли масканига тўғри келади. Ушбу кечик ҳақида “Бобурнома”да маълумот йўқ, бироқ “Ҳабиб ус-сийяр”да Султон Ҳусайн мирзонинг 1495 йилдаги Ҳисорга юриши муносабати билан тилга олинади. Асарда “Самарқанд ва Ҳисори Шодмонда юз берган айрим воқеалар ҳамда ғалаба шиорли байроқнинг ул шаҳарларни эгаллаш учун қўзғалгани баёни”да: “Жаҳон кезувчи [Султон Ҳусайн мирзонинг] урду[си] [Аму]дарёдан кечиб ўтиш ва Ҳисор вилоятига етишиш учун сўнг у ердан Сангреза кечигига қараб кетди”[3], - деб эслатади Хондамир.

Айваж гузари “Бобурнома”да – *Авбож гузори (* **اوباج كذرى***), Убож, Уёж (***اوياج كذرى***)* шаклида келтирилган. Яздий “Зафарнома”сининг туркий табдилида – *Авзач гузари*[4], Хондамирда *Айвож кечиги* деб ҳам эслатилган. Бу кечув Тожикистоннинг Хатлон вилояти Шаҳритуз (Шўртуз) ноҳияси Жўра Назаров жамоа ҳўжалиги ҳудудида,

[1] Озарбайжонлик тадқиқотчи О.Эфендиев “Тўққуз ўлум” ва “Қоюн ўлум” кечувлари Кавказортида, Кура дарёсида ҳам бўлганлигини эслатади. Қаранг: Эфендиев О. Азербайджанское государство Сефевидов в XVI веке. – Баку: “ЭЛМ”, 1981. – С. 79, 84.

[2] Шомий. Зафарнома. – Б.75 .

[3] Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Б.827.

[4] Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома / Сўзбоши, табдил, изоҳлар ва шарҳлар муаллифлари А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 65.

Кофарниҳон дарёсининг Амударёга қуйилиш жойида, дарёнинг ўнг соҳилида жойлашган ҳозирги Айваж аҳоли пункти ёнида бўлган. Айваждан Қундуз–Бомиён–Кобул орқали Ҳиндистонга борилган бўлса, бу йўналишдан келган карвон Қабодиён–Хатлон–Ҳисори Шодмон–Сириток добони орқали Фарғона вилоятига ёки Айваж–Дарбанди Оҳанин орқали Самарқандга ўтилган.

Заҳириддин Бобур 909 (1503) йили Мовароуннаҳрдан Кобул томонга кетаётганида мазкур гузардан ўтганлигини эслатади: “Аму суйини Уёч [Айваж] гузаридин ўтганда...”[1].

Бу даврда Айваж гузарида кемалардан фойдаланилганлиги ҳам қайд этилган. Жумладан, Хондамир эслатади: “Тавочи амирлар Амуя дарёси қирғоғидаги дўнгликларда туриб қолган кемаларни йиғиб, қутлуғ ўрдунинг дурадгорлари эса яна бир нечта қайиқ ясаб, дарё юқорисидаги **Айвож кечикида** қайиқлардан кўприк ясашга бошладилар”[2].

Термиз гузари – Мовароуннаҳрнинг жанубий чегарасида жойлашган мазкур кечув Балхга, Афғонистон ҳудуди орқали Ҳиндистонга олиб чиқувчи халқаро савдо аҳамиятига молик йирик марказ эди. Хусусан, Ғарбий Европанинг Кастилия қироллигидан Самарқандга Амир Темур ҳузурига йўл олган элчилар Термиз орқали юрганлар. Бу ҳақда мазкур элчилик вакили Руи Гонсалес де Клавихо ўз “Кундалиги”да жумладан шундай ёзади: “Пайшанба куни (1404 йил 21 август) элчилар азим дарё (Амударё) бўйига етиб келдилар... қайиқларда дарёнинг нариги қирғоғига ўтиб олдилар. Ўша куни кечқурун Термит (Термиз) деб аталмиш катта шаҳарга келдик”[3].

[1] Бобурнома (2002). – Б.102.
[2] Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Б.835.
[3] Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. – Б. 142.

Мазкур гузар ҳақида “Бобурнома”да ҳам маълумотлар бор: “Бойсунқур мирзо етти ой қабал тортти. Бир умидворлиғи мундин эди, мундин ҳам ноумид бўлди. Икки-уч юз оч уруғи била Қундузға Хисравшоҳға ўзини тортти. **Тирмиз навоҳисидин Амуни кечатурғон маҳалда** Саййид Ҳусайн Акбарким, Султон Масъуд мирзонинг ҳам уруғи, ҳам муътабар кишиси эди, Тирмиз ҳокими эди, хабар топиб, Бойсунқур мирзонинг устига келди. Мирзо сувдин ўтуб эди. Мирим Тархон анда сувға борди”[1].

Термиз гузарининг ўрни ҳозирги Хайратон “Дўстлик” кўпригига тўғри келади.

Термиз ҳудудига тегишли яна бир кечув – **Бурдағўй** (**Бардағвий**)[2] ҳақида Ҳофизи Абру маълумот беради. Унга кўра бу кечув яқинида Термиздан унча узоқ бўлмаган жойда Термиз шаҳри барпо этилишидан анча аввал, Искандар Зулқарнайн Бурдағўй қалъасини қурдирган[3]. “Бу “Шоҳ гузар” деб аталадиган жойга хизмат қилувчи қайиқсоз ва қайиқчилар яшайдиган гавжум ҳунармандчилик маркази эди. Шаҳар XV асрда ҳам мавжуд бўлган ва аҳамияти бўйича ҳатто Термиз билан ҳам рақобатлаша оларди”[4]. Мазкур гузар ***Ёргоҳ*** (*Ёрдағу*) номи билан ҳам XVII аср манбаларида эслатилган[5].

Ҳофизи Абру тилга олган қадимий Бурдағўй қалъаси Сурхондарёнинг Музработ туманида, Амударёдан 4 км шимолда, Қорасув соҳилида, Шўробқўрғон аҳоли пунктидан 3 км ғарбда милоддан аввалги I минг йилликда барпо этилган кўҳна Кампиртепа манзилгоҳи ўрнида бўлган[6].

---

[1] Бобурнома (2002). – Б. 58.

[2] Бу сўз қадимги юнон тилида “пандок” – “меҳмонхона” демакдир. Яна қаранг: Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда. – Б. 130.

[3] Бартольд В.В. Сочинения в 9 томах. М.: Наука, 1963-1971. – Б. 93

[4] Ўша жойда.

[5] Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (География) / Введение, перевод, примечания, указатели Б.А.Ахмедова. – Т.: Фан, 1977. – Б. 95.

[6] Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда. – Б. 130.

Шўроб (Оби-Шўр) гузари – Мазкур гузар ҳақида Бобур маълумот бермайди. Бироқ “Зафарнома”лар ҳамда “Тарихи Рашдий”да “Амир Темур ва Амир Ҳусайнлар Бадаҳшон шоҳлари билан сулҳ тузгани” баёнида эслатилган. Унинг ўрни Амударё ёқасида, Термиздан 30 км ғарбда жойлашган ҳозирги Шўроб қишлоғига тўғри келади.

Келиф гузари – Мовароуннаҳрнинг асосий гузарларидан бири. Туркманистоннинг Лебап вилоятининг Куйтентоғ туманидаги шу номдаги қишлоқ (Келиф темир йўл станцияси) ҳудудида, Афғонистон билан чегарага яқин бўлган Амударё бўйида жойлашган. Мазкур кечувдан ўтган йўл Самарқанддан –Шаҳрисабз–Келиф–Балх–Бомиён–Кобул; Бухоро – Қарши – Келиф – Хуросон ва Афғонистон ҳудудларига олиб чиқади.

“Бобурнома”да – Келиф (كلف, كليف), Килиф гузори (**كليف كذرى**) шаклида 901/1495-1496 ва 909 /1503-1504 йил воқеалари баёнида келтирилган: “Султон Ҳусайн мирзо кордон ва соҳиб тажриба подшоҳ эди. Қундуз сари сув юқори боқа кўчти. Ўтрудағи черикни ғофил қилиб Абдуллатиф бахши бошлиқ беш-олти юз ўбдон кишини **Килиф гузарига** йиборди. Ул черик воқиф бўлғунча Абдуллатиф бахши таъйин бўлғон эл била **Килиф гузаридин** ўтуб сув ёқасини мазбут қилди”[1].

Карки гузари (**كركى كذرى**) – Амударёнинг чап (ғарбий) соҳилида жойлашган ҳозирги Туркманистоннинг Лебап вилояти Керки тумани (этрапи)нинг маъмурий маркази. Бу кечувдан ўтган карвон йўли Хуросондан Мовароуннаҳрнинг Қарши– Ғузор–Шаҳрисабз шаҳарлари орқали пойтахт Самарқандга элтарди. Мовароуннаҳрдан эса Хуросоннинг Андхўй–Шибирғон–Маймана орқали темурийлар пойтахти – Ҳиротга бориш имконини берган.

[1] Бобурнома (2002). – Б.52.

Карки гузари “Бобурнома”да фақат бир ўринда – 909 (1503–1504) йил воқеалари баёнида эслатилса-да, лекин Хондамирда маълумотлар нисбатан кўпроқ. Ҳусусан, “Ҳабиб ус-сийяр”нинг 1503 йил воқеалари (“Бадиуззамон мирзонинг хос кишилари томонидан юзага чиққан фитна ва шу сабабли Муҳаммадхон Шайбонийнинг Амуядан кечиб ўтиб Балхга йўналгани”) баёнида эслатилган: “Жаҳон олувчи Шайбонийхон **Карки кечувидан** ўтди. Буни эшитган Бадиуззамон мирзо эса Иброҳим Султоннинг чаҳорбоғиданоқ оти жиловини Газравон тоғи тарафга бурди”[1]. Шунингдек, “Муҳаммадхон Шайбоний 912 йилнинг зулҳижжа ойи ўрталарида (1507 йил 10 апрель) дорилмулк Самарқанддан мулк олишлик эгарига ўтирди ва Карки кечувидан ўтиб, Андхуд ҳудудига ошиқди”[2]. “913 йилнинг муҳаррам ойи (1507 йил 13 май) ҳилоли давлат ва ҳашамат машриқдан порлаб, осмоннинг зангори денгизи сари кечиб ўтгач, Муҳаммадхон Шайбонийнинг **Карки кечувидан** ўтгани ва Хуросон тарафга йўналгани хабари тарқалди”[3].

Бурдолиқ кечуви – Амударёнинг ўнг соҳилида, Туркманистоннинг шу номдаги ҳозирги маъмурий туман маркази.

Мазкур кечув ҳақида Бобур маълумот бермайди, лекин шу даврнинг бошқа манбаларида маълумотлар учрайди. Чунончи, Шомийда, “Амир Мусонинг Амир Ҳусайн томонига қочганлиги ва лашкар тортиб Амир Соҳибқирон устига келгани” баёнида: “Амир Соҳибқирон...Тўрткўл йўли орқали Омуя сувига етди. Сув жуда кўп эди. Амир Соҳибқирон...**Бурдолиқ** этагидан **кечув жойини** танлаб, амирларни тўрт юз киши билан дарё қирғоғидан борадиган

[1] Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Б.1006.
[2] Ўша асар. – Б.1136.
[3] Ўша асар. – Б. 1135

пастки йўл орқали жўнатди”[1]. Яздийда “Ҳазрат соҳибқирон Аму суйидин ўтуб, Қарши черикининг устига келгони” баёнида: “ул ҳазрат ўз муборак нафси билан ўтар йўлини истаб, ҳар сори юруб боқти. Бурдалиғнинг аёғидин [сувдан] ўтар ерни топиб, бекларига буюрдиким “тўрт юз киши билан сизлар қуйи боринглар” ва ўзи икки юз киши билан... ўзини сувға солиб... ўтди”[2].

Амударёнинг чап қирғоғидаги, Бурдалиққа яқин бўлган Палварт қишлоғидан топилган кушон ва сосонийлар даврига оид мис тангалар хазинасидан маълум бўладики мазкур дарё гузари анча қадимийлигидан далолат беради[3]. Темурийлар даврида Бурдалиғ кечувида ёғоч устахоналари ҳам бўлган. Улар сол, кемалардан ташқари бошқа маиший ёғоч буюмлар ясашган. Хусусан, Амир Темур Қарши қалъасида ўрнашиб олган мўғуллар устига юриш қилиб, шаҳарни қамал қилишга киришади ва Хондамирнинг ёзишича, “Бурдалиғдан келтирган нарвонлар”[4] орқали шаҳарни эгаллаган.

Чоржўй гузари (چارجو کذری) – Амударё ўрта ҳавзасидаги Марказий Осиёнинг энг йирик кечуви. Унинг ўрни ҳозирги Туркманистоннинг Лебап вилояти Туркманобод шаҳри ҳудудига тўғри келади.

Маълумки, Омуя қалъаси кейинчалик манбаларда Чоржўй[5] деб атала бошланган. Бу ердаги кечув Хуросондан Бухоро орқали Дашти Қипчоққа; Мовароуннаҳрдан Хуросоннинг Марв–Машҳад–Нишопур–Сабзавор– Эрон ҳудуди орқали Ироқ ва Шом мамлакатларига ёки Марв–

[1] Шомий. Зафарнома.– Б.63.
[2] Йаздий. Зафарнома (1997). – Б.51.
[3] Гутлыев Г., Никитин А.В. Клад сасанидско-кушанских монет и подражаний чекану Васудевы из Туркмении // Советская археология, 1987, № 2. С. 259–262.
[4] Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Б. 60.
[5] Мазкур кечик бошқа манбаларда, Амударёнинг ўнг соҳилида жойлашган қадимги Фароб шаҳрига нисбат бериб “**Фароб кечиги**” деб ҳам номланган. *Қаранг*: Джамал ал-Карши. Ал-Мулхакат би-с-Сурах / Введение, перевод с арабско-персидского, комментарии, текст, факсмиле Ш.Х. Вахидова, Б.Б.Аминова. История Казахстана в персидских источниках. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005. Т. I. – С. 91, 105.

Ҳирот-Форс вилояти орқали Ҳурмуз бандари (денгиз орқали Ҳиндистон) га элтарди.

Бобур Чоржўй кечигини Мовароуннаҳрдан Хуросонга ўтувчи йирик кечув[1] сифатида эслатади: “Бир неча кўкалдош эмалдош ва байриси [темурий Султон Маҳмуд мирзонинг тўнғич ўғли] Султон Масъуд мирзони олиб, Самарқандға, Султон Али мирзо қошиға келтурур хаёли билан Кешқа келдилар. Ул жамоат ҳам қасд мақомида бўлдилар. Кешдин қочиб, **Чоржў гузори** била ўтиб, Султон Ҳусайн мирзо қошиға борди”[2].

Темурийлар даври манбаларида Хуросон ва Мовароуннаҳр оралиғидаги воқейликлар баёнида учрайдиган “Жайҳундан кечиб”, “Амуя дарёсидан кечиб ўтиб” каби маълумотларда аксар ҳолларда айнан Чоржўй кечиги назарда тутилганлигини кузатишимиз мумкин.


Амударёнинг қуйи ҳавзасидаги Хоразм ҳудудига тегишли гузарлар ҳақида маълумотлар бирмунча саёз. Хондамир Вазир шаҳрига яқин бўлган **Осаф Ўкузи кечиги**ни эслатади: “Мансур хоқон [Султон Ҳусайн мирзо] Жайхундан кечиб ўтиб, дарё қирғоғидаги Осаф Ўкузи мавзеи чети қутлуғ лашкарнинг чодирлари тикилган жойга айланди”[3].

Умуман олганда “Бобурнома”, қолаверса темурийлар даври манбаларидан олинган маълумотлар асосида хулоса қилиш мумкинки, Темурийлар салтанатининг бошқа давлатлар билан халқаро савдо-иқтисодий ва маданий алоқаларни ўрнатишда Амударё ва унинг ҳавзасида жойлашган кечув ва гузарлар муҳим аҳамият касб этган. “Бобурнома”да юқорида келтирилган, Амударё ҳақида ёзилганларнинг қиёсий топонимик таҳлили, Марказий Осиё

[1] Амир Темур давлатига ташриф буюрган Клавихо бошчилигидаги Кастилия қироли элчилари ҳам 1404 йилнинг 10 декабрида мазкур кечув (Омуя гузари) орқали Хуросон томон ўтишган.
[2] Бобурнома (2002). – Б.66.
[3] Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. – Б. 695.

тарихий топонимияси учун муҳим илмий хулосалар қилиш имконини беради.

Амударё ва унинг кечувлари



Фойдаланган адабиётлар

1. Hudud al-‘Alam (The Regions of the world), a Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970. (482 p.). - P.113

2. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд, иккинчи ва учинчи қисмлар, 1429–1470 йил воқеалари. // Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. География номлар изоҳли кўрсаткичи О.Бўриев. Тарихий шахс, воқеа ва атамаларга изоҳ беришда Ғ.Каримов ва Э.Миркомилов иштирок этишди. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2008. (832-б.). – Б. 349.

3. Бартольд В.В. Сочинения в 9 томах. М.: Наука, 1963-1971. – Б. 93

4. Бўриев О. “Бобурнома”даги топонимлар изоҳли луғати. / Масъул муҳаррир М.Исҳоқов. – Т.: Наврўз, 2015. – Б.82.

5. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси: монография / Ўз.Р ФА Темурийлар тарихи давлат музейи, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти; Таҳрир ҳайъати Б.Абдуҳалимов (мас.муҳаррир), А.Аҳмедов, Д.Юсупова, А.Хўжаев, М.Исҳоқов, Х.Файзиев. – Тошкент: Mumtoz so’z, 2017. – Б. 285. [Харита ва илл.].

6. Вамбери А. Путешествіе по Средней Азіи изъ Тегерана черезъ Туркменскую пустынью по восточному берегу Каспійского моря въ Хиву, Бухару и Самаркандъ, предпринятое въ 1863 году съ научною цълью, по порученію Венгерской Академіи въ Пештъ, членомъ ея А. Вамбери. – М.: Изд-во А.М. Мамонтова, 1867. – С. 192.

7. Гутлыев Г., Никитин А.В. Клад сасанидско-кушанских монет и подражаний чекану Васудевы из Туркмении // Советская археология, 1987, № 2. С. 259–262.

8. Джамал ал-Карши. Ал-Мулхакат би-с-Сурах / Введение, перевод с арабско-персидского, комментарии, текст, факсмиле Ш.Х. Вахидова, Б.Б.Аминова. История Казахстана в персидских источниках. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005. Т. I. – С. 91, 105.

9. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. *Бобурнома.* Порсо Шамсиев, Содиқ Мирзаев ва Эйжи Мано (Япония) нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи : Саидбек Ҳасанов. Тошкент “Шарқ”, 2002. – Б. 49.

10. Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX – начала XIII вв. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 534 с.

11. Клавихо, Руи де Гонсалес. Самарқандга,Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406). Масъул

муҳаррир: Муҳаммад Али; сўз боши ва изоҳлар муаллифи М.Сафаров; тарж. О.Тоғаев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б. 143;

12. Клавихонинг Самарқандга саёҳати Рус тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳлар О.Бўриев; Масъул муҳаррир Н.Ҳабибуллаев. – Тошкент: Адолат, 2004. – Б.6.

13. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (География). Введение, перевод, примечания, указатели Б.А.Ахмедова. – Т.: Фан, 1977. – Б. 95.

14. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди. Введение, перевод с перс. А.Урунбаева, Р.П.Джалиловой, Л.М.Епифановой. – Ташкент: Фан, 1996.– Б.322.

15. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Форс тилидан ўгирувчи – Юнусхон Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир – А.Ўринбоев. Изоҳлар ва луғатлар тузувчи – Ҳабибулло Кароматов (географик номлар изоҳи – О.Бўриевники). Ҳофизи Абрунинг Низомиддин Шомий “Зафарнома”сига ёзган “Зайл”и – (“Илова”) ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – Омонулла Бўриев. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996. – Б. 41;

16. Тарихи Рашидий. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, инв. № 1430, 157а варақ.

17. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар: (Башар аҳли сийратидан хабар берувчи дўст); Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари Ж.Ҳазратқулов, И. Бекжонов. – Тошкент: O`zbekiston, 2013. – Б.554.

18. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома / Сўзбоши, табдил, изоҳлар ва шарҳлар муаллифлари А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 65.

19. Эфендиев О. Азербайджанское государство Сефевидов в XVI веке. – Баку: “ЭЛМ”, 1981. – С. 79, 84.

“БОБУРНОМА” ЖУҒРОФИЙ МАНБА СИФАТИДА

Муқаддас ТОЖИБОЕВА,
Андижон давлат университети ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, филология фанлари доктори

“Бобурнома” мумтоз адабиёт тарихида йирик эпик асар сифатида қадрли. “Бобурнома” XV асрнинг насрий-бадиий асари сифатидагина эмас, балки тарихий, географик, этнографик, зоологик маълумотларнинг етарлича кенглиги билан ҳам катта аҳамият касб этади. Асар нафақат Бобур яшаган даврнинг воқеалари баён этилганлиги билан, балки ҳеч қайси манбаларда мавжуд бўлмаган қимматли илмий маълумотларни ўзида акс эттириши билан ҳам ажралиб туради. Бу эса Бобур ҳазратларининг ҳар бир фанга оид маълумотларни теран ифодалаши, олимона салоҳияти, ижтимоий-сиёсий воқеликни зийраклик билан кузата олишлиги дунёни идрок этишдаги қарашларини намоён этади. Асарда Фарғона водийси, Афғонистон ва Ҳиндистоннинг табиати, аҳолиси ва унинг ижтимоий-иқтисодий ҳолати, хўжалик фаолияти ҳақида илмий маълумотлар ёзиб қолдирилган. Муаллиф тавсифлаш принципи асосида содда, тушунарли ва аниқ таърифлар орқали ҳар бир жойнинг географик хусусиятларини батафсил ёритиб беради. Бобур ўз тавсифларида ҳозирги илмий муомалада қўлланилаётган бир қатор принципларга амал қилган ҳолда иш кўради. Муаллиф тавсифи берилаётган ҳар бир вилоят ёки маълум бир жойнинг

таърифига систематик тарзда ёндошади: тасвир аввалида ўша жойнинг географик жиҳатдан жойлашиш ўрни, иқлими, фойдали қазилмалари, шифобахш ўсимликлари, ҳайвонот дунёси, аҳолиси, қишлоқ хўжалиги, иқтисодий ҳолати ва бошқалари ҳақида ҳақиқий олим назари билан аниқ ва батафсил маълумот беради. Масалан, **Ўрта асрларда Фарғона вилояти катта ҳудудларни эгаллаган. Асарда** Фарғона қуйидагича тавсифланган:

- географик жойлашуви: *Маъмуранинг канорасида воқеъ бўлубтур*. Маъмура – экин битадиган обод ер, канора – чет, чекка, яъни Фарғона вилояти ер юзида экин битувчи обод ер (Мовороуннаҳр)нинг чекка қисмида жойлашган;
- чегаралари: *Шарқи Кошғар, ғарби Самарқанд, жануби Бадахшоннинг сарҳади тоғлар*;
- таркибидаги шаҳарлари: *...шимолида агарчи бурун шаҳрлар бор экандур, мисли: Олмолиқ ва Олмоту ва Янги ким, кутубларда Тарозкент деб битирлар* Ҳудуднинг шимол томонида аввалдан шаҳарлар мавжудлиги ёзилган, булар Олмалиқ, Олмота ва китобларда Тарозкент номи билан юритилувчи Янги шаҳарлардир. *Ети пора қасабаси бор; беши сайҳун суйининг жануб тарафида, икки шимоли жонибта...* Бундан ташқари, Фарғона таркибида етти шаҳарча (қасаба) мавжудлиги, уларнинг бештаси Сайҳун сувининг жанубида, қолган иккитаси шимол томонда эканлиги ҳақидаги маълумотлар ҳам келтирилган;
- вилоятнинг тузилиш таркиби: *Мухтасар вилояттур,* яъни ихчам, катта бўлмаган вилоят. *Гирдо-гирди тоғ воқеъ бўлубтур* - Вилоятнинг айланаси тоғ билан ўралгандир. *Ғарбий тарафидаким, Самарқанд ва Хўжанд бўлғай, тоғ йўқтур* - Фақатгина ғарб томонда тоғ йўқ, Самарқанд ҳамда Хўжанд шаҳарлари бор. *Ушбу жонибтин ўзга ҳеч жонибтин қиш ёғий кела олмас,* шу сабабли ҳам душман

бостириб кирмоқчи бўлса, айнан шу ғарб томондан кирган, бошқа томонларда тоғ бўлгани боис у томонлардан ҳатто душманлар ҳам кира олмаган;

- дарёлари: *Сайҳун дарёсиким, Хўжанд суйиға машҳурдур, шарқ ва шимолий тарафидин келиб, бу вилоятнинг ичи бирла ўтуб, ғарб сори оқар, Хўжанднинг шимоли Фанокатнинг жануби тарафидинким, ҳоло Шохруҳияға машҳурдур, ўтуб яна шимолға майл қилиб, Туркистон сори борур. Туркистондин хейли қуйироқ бу дарё тамом қумға сингар, ҳеч дарёға қотилмас.* Бобур асарлари изоҳли луғатда келтирилишича, бу ерда тилга олинган машҳур сўзи аслида "машғул" яъни "ишғол этилган жой" деган маънода берилган. Демак, ушбу маълумотга асосан фикр юритиб парчани таҳлил қилсак, Сирдарё Хўжандни ҳам эгаллаган. Бу дарё Хўжанднинг шимол тарафидан келиб, вилоят ичи билан ўтади ва ғарб томон – Туркистонга қараб оқади. Туркистондан сал қуйироқ жойда бу дарё қумга сингади, ҳеч бир дарёга қўшилмайди.

Бобур катта шаҳарлар билан таништирар экан, уларнинг топографияси, гидрографик объек**тлари, экспорт ва импортини ҳам баён э**тади**.**

Шу ўринда "Бобурнома" асари миллий адабиётда мумтоз тарихий-бадиий насрнинг юксак намунаси сифатида XX аср бошларида яратилган асарларга, хусусан, Исҳоқхон Ибратнинг "Тарихи Фарғона" асарида тарихий, географик маълумотларни беришда ҳам асосий таянч асар бўлганлигини таъкидлашни истадик. Ибрат тарих воқеаларини реал тасвирлаш билан бир қаторда Фарғона водийси, ундаги шаҳар ва қишлоқлар ҳақида этнографик ва географик маълумотлар тасвирида Бобурнинг системали ёндашув усулидан фойдаланади. Бобур каби Фарғонанинг ўша даврдаги ҳудуди, географик ўрни, шаҳарлари, аҳолиси кабилар ҳақида маълумот берган. Бундан ташқари, у

ҳудуднинг келиб чиқиш тарихи: кимлар барпо қилганлиги, нега бу ном билан аталгани, яъни номнинг этимологияси, ундаги боғлар, сувлари, мозорлари ҳақида ҳам фикр юритган. Адиб қаламга олган вилоят ёхуд шаҳрига чин маънода географ сифатида батафсил маълумот беради. Бу ҳолатни "Тарихи Фарғона"даги Фарғона таърифида кузатамиз:

- Чегарадош ҳудудлари: *Фарғона губирнаси шимоли-шарқий тарафдан Самарчин, шимоли-ғарбий тарафдин Сирдарё ёки Туркистон, ғарби-жануб тарафидин Бухоро хонлиги маҳкуми топойир. Яъни Шарғон ҳукумати мустақаласига муттасилдир. Жануби-шарқи Чинға тобеъ Туркистони Шарқий, эски Қошғар маҳкумиға муттасилдур.* Ушбу парчада Фарғона вилоятининг XIX асрдаги сиёсий ҳолати баён қилинган. Яъниким, ушбу губерния шимол-шарқ тарафдан Бухоро хонлигига маҳкум - тобедир. Жануби-шарқи эса Шарқий Туркистон - эски Қошғар ҳукмига бўйсунган.

- Аҳолиси: *Фарғона аҳолиси аксариятда ўзбек, сорт, тожик, қорақалпоқ, қипчоқ тоғ тарафларинда… қирғиз – ерли халқлар булардин иборатдур. Ақлият ила ажнабалар тижорат ила муҳталитдир. Булардин жуҳуд, ҳинди, арман, пирсиён, гурзин ва бўлак халқлар ақлиятдадурлар…* [1] Ибрат ҳудудни таърифлаш билан бир қаторда, ундаги аҳоли ҳақида ҳам етарлича маълумот бериб кетган. Унинг ёзишича, Фарғона аҳолиси ўзбек, сорт, тожик, қорақалпоқ, қипчоқ, қирғиз - жамийки ерли халқлардан иборатдир. Ақлият (аслида аҳлият - аҳолиси) ва ажнаба (ўзга миллат, ўзга дин вакиллари) савдо-сотиқ билан шуғулланган. Булар жуҳуд, ҳинд, арман, форс, грузин ва бошқа халқлар аҳолисидандирлар.

[1] Исҳоқхон тўра Ибрат. Танланган асарлар. -Тошкент: Маънавият, 2005. Б.280

Бобур асарида Фарғона вилояти тавсифи унинг бешинчи иқлимданлиги ҳақидаги маълумот билан бошланади: *Фарғона вилояти бешинчи иқлимдиндур...* Биламизки, “Бобурнома”да тилга олинган ҳар бир мамлакат, вилоят, шаҳар ёки қишлоқ етти иқлимнинг бирида жойлашганлиги айтилади, яъни Бобур бирор географик жойга таъриф-у тавсиф беришдан олдин, аввало, унинг нечанчи иқлимда жойлашганини белгилаб олган. Ибрат эса Фарғона шаҳрининг келиб чиқиш тарихи ва уни кимлар барпо қилганлиги ҳақидаги фикрлар билан ҳудудга янгича тарзда ёндашади: *... бу бизни мутавваттин бўлуб турган Туркистон музофотида Фарғона деб машҳур ва бу лафз илан мазкурдур… Фарғона бир шаҳри қадим ва аҳолийи надимдирки, аввали Искандари Румийдан ва Кубод ва Афросиёбдан қолгандир…* Кўриниб турибдики, Фарғона деган ном билан машҳур бўлган ушбу вилоят тарихи узоқ йилларга дахлдор бўлиб, бу жой номлари тарих зарварақларида тилга олинган буюк шоҳлар: Искандар ва Афросиёблардан қолгандир, яъни улар замонида барпо этилгандир. Исҳоқхон Ибрат ушбу асарни ёзишдан аввал ҳудуд тарихи баён қилинган ўзигача бўлган кўплаб асарлар билан танишиб чиқади. Бунинг далилини айнан шу Фарғонага берилган таърифларда, мисол учун олинган парчаларда кўришимиз мумкин. Ҳар бир парча берилишидан олдин унинг манбаси келтирилади, зид фикрлар кетма-кет берилиб, якунловчи фикр Ибратнинг ўзи томонидан хулоса сифатида берилади: *Искандари Румий Аксои шарифга зулумотга борган вақтларида Фарғона Баҳодир деган умароларидан бирини қўйиб кетиб, ул киши обод қилган экан… Аммоки, “Равзат ус-сафо”да Нўширавон отаси Кубод подшоҳ вақти вафотига яқин Туркистон мамлакатининг Нўширавон ўғлига тайин қилиб, Фарғонани аксар жойларини ул обод қилғон экон. Ва баъзи*

вақтларда Ахсикент пойтахти бўлғон экон… Ушбу маълумотларга кўра Фарғона вилояти Искандаршоҳнинг умароларидан ҳисобланган Фарғона баҳодир исмли шахс томонидан бино қилинган, лекин яна бир манба (“Равзат ус-сафо”) да Фарғонанинг аксар жойлари Нўширвон томонидан обод қилинганлиги айтилади. Якун қисмида Ибрат юқоридаги маълумотлар учун хулоса фикр бериб кетади: *Барҳарҳол бу Фарғона Қубод, Нўширавон, Афросиёб ва Искандарлардан қолғон эски шаҳарлиги маълум бўладир.*

Бобур асарида Фарғона вилоятининг бешинчи иқлимданлиги, географик жойлашуви, чегаралари, таркибидаги шаҳарлари, аҳолиси, мевалари, об-ҳавоси билан таништирса, Ибрат Фарғона шаҳрининг келиб чиқиш тарихи, кимлар барпо қилганлиги, номнинг этимологияси, унинг боғлари, зилол сувлари, мозорлари ҳақида маълумот беради.

Бу икки асарни қиёсий таҳлил қилиш жараёнида Фарғона вилоятининг XV ва XIX-XX асрлардаги географик ўрнини тўлалигича кўз олдимизга келтиришимиз мумкин. Энг муҳими, Ибрат “тарихи Фарғона”да реал тасвир усулини қўллашда ҳам айнан Бобур ижодига хос хусусиятни ўзлаштирганки, бу асарнинг қимматини оширишдаги муҳим омиллардан бири бўлган. Мақола ичида Ибратнинг “Тарихи Фарғона” асаридаги географик тасвирни қисқача бериб ўтиш билан “Бобурнома” жуғрофий манба сифатида жадид адиблари ижодига қай даражада катта таъсир кўрсатганлигини эътироф этишни кўзлаган эдик.

“Бобурнома”га қайтсак. Бобур ҳақиқий санъаткор адиб сифатида жойлар тасвирида кичик тафсилотларни ҳам эътибордан қочирмайди, вилоятлар, шаҳар ва қишлоқлар манзарасини гавдалантирувчи гўзал реалистик лавҳалар чизади. Андижон, Ўш, Самарқанд ва бошқа ўнлаб шаҳарлар тасвири бунга ёрқин мисолдир. Бобур 1494-йил воқеаларини,

отасининг ҳалокати ва унинг ўрнига ўзининг тахтга ўтириши, амакиси Султон Аҳмад Мирзо ва тоғаси Маҳмудхоннинг (қайнота-куёвнинг) Бобур устига қўшин тортиши, бироқ ёш ҳукмдордан шикаст еб, сулҳ тузишга мажбур бўлишларини ҳикоя қилишдан олдин Фарғона беклиги ва унинг етти шаҳрини батафсил тасвирлайди, уларнинг ўзига хос табиий, ижтимоий, иқтисодий ва кўплаб бошқа хусусиятларига тўхталиб ўтади. Жумладан, асардаги Фарғона вилоятининг энг катта шаҳри ва пойтахти — Андижон тасвири ғоят жонли, бадиий тасвир воситаларига бой ва таъсирчан бўёқларда ифодасини топган. Тасвирда Андижоннинг жўғрофий ўрни, чегаралари, ғалласининг мўллиги, меваларга бойлиги, айниқса, қовуни ва узумининг яхши бўлиши, қовун пишиғида полиз бошида қовун сотиш расм эмаслиги ҳақида содда, равон ва тушунарли лавҳаларни келтиради. Шунингдек, шаҳар дарвозалари, шаҳарга тўққиз ариқдан сув кириб, бирон ердан чиқиб кетмаслиги, қалъанинг атрофи буткул маҳаллалар билан ўралганлиги, қалъани муҳофаза этувчи сув тўлдирилган айлана ҳандақ билан маҳаллалар орасида кенг тош йўл тушганлиги, ов қушлари кўп ва семиз бўлиши ҳақида жуда ишонарли, қизиқарли ва мазмунли ҳикоя қилинади.

Маълумки, замонавий географик тавсифларда жойнинг маъмурий-ҳудудий тузилиши муҳим саналади. “Бобурнома”да бунга ҳам жиддий эътибор билан ёндашилган. Бобур Андижоннинг катта шаҳар экани, аҳолисининг кўплиги ҳамда аҳолиси деҳқончилик билан шуғулланишини қуйидаги факт билан кўрсатиб ўтади: “Тўққиз тарнов сув кирар. Бу ажабтурким, бир ердан ҳам чиқмас”.

Бобур Андижонга таъриф бераркан: “Ҳавосининг уфунати бор. Кузлар эл безгак кўп бўлур” дейди. Шу билан бирга, водийнинг бошқа шаҳарлари таърифида ҳам безгак

қайд этиб ўтилади. Бу ўринда Бобур нафақат Андижон, балки умуман водийга хос бўлган ва инкор қилиб бўлмайдиган ҳақиқатни таъкидлаган. Маълумки, тиббиёт географияси касалликларнинг ҳудудий тарқалиши, ҳудуд билан боғлиқ келиб чиқиш сабабларини ўрганади. Шу жиҳатдан Бобур берган маълумот ҳам тиббий географияга оид тавсиф деб қаралиши мумкин.

“Бобурнома” муаллифи замонавий географияда кенг қўлланувчи усуллардан бири – қиёслаш усулидан фойдаланган, унинг ёрдамида шаҳарларнинг географик жойлашувини аниқ белгилаш, уларнинг табиатига хос хусусиятларни кўрсатиб беришга эришган: “...Яна бир Косондур. Ахсининг шимолида тушубтур. Кичикроқ қасабадур. Нечукким, Андижон суйи Ўшдин келур, Ахси суйи Косондин келур... Сафо ва ҳавода Ўш била Косон элининг таассуби бор”. “Бобурнома”да географик ҳудудларга оид қиёсий тасвирларни кўплаб учратиш мумкин, айниқса, уларнинг халқ тилида ифодалаганлиги айни муддао бўлган: “...Яна бир Хўжанддур, Андижондин ғарб сориға йигирма беш йиғоч йўлдур. Хўжанддан Самарқанд ҳам йигирма беш йиғоч йўлдур...” Ёки: “...Сайҳун суйи шимол жонибидин оқар. Қўрғондин дарё бир ўқ отими бўлғай”. Бу борада Ҳ.Ҳасановнинг фикрлари ўринли: “Бобир асарида қиёсий усул кўп қўлланилган: турли жойлар иқлими, паст-баландлиги, аҳолиси ва бошқа хусусиятлари жиҳатидан таққосланган”[1].

Дарҳақиқат, З.М.Бобур йирик давлат арбоби, шоир, тарихнавис, этнограф, географ олим сифатида илмий ва бадиий баркамол асарлар қолдирган ёркин сиймодир.

[1] Ҳасанов Ҳ. Бобур сайёҳ ва табиатшунос. –Тошкент: Ўзбекистон, 1981. Б.195.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Исҳоқхон тўра Ибрат.Танланган асарлар – Тошкент: Маънавият,2005. Б.280
2. Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари ва маҳорат масалалари. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z 2017.Б 221.
3. Ҳасанов Ҳ. Бобур сайёҳ ва табиатшунос. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. Б.195.

ТЕМУРИЙЛАР ВА ЭКОЛОГИК ТАРБИЯ

Савлабек КИСТАУБАЕВ,
фалсафа доктори (PHD), доцент.
Жиззах давлат педагогика университети.
Абдурасул АМАНЛАЕВ,
фалсафа фанлари номзоди, доцент.
Жиззах давлат педагогика университети.

Abstract: This article is devoted to the question of the role of environmental education in the spirituality of young people. It was thought about the use of positive attitude to nature, that is, practical activities of great personalities in the ecological education of young people.

Key word: Ecological values, ecological traditions, Timur's rules, Sahibqiron, Bogidilkusho, Lui Gonzalez de Clavijo, Pigeons, Gharib, Movarounnahr, Turkestan, Boburnoma, Dashti Sheikh.

Резюме: Данная статья посвящена вопросу о роли экологического воспитания в духовности молодежи.

Думалось об использовании положительного отношения к природе, то есть практической деятельности великих личностей в экологическом воспитании молодежи.

Ключевые слова: Экологические ценности, экологические традиции, правила Тимура, Сахибкирон, Богидилкушо, Луи Гонсалес де Клавихо, Голуби, Гариб, Мовароуннахр, Туркестан, Бобурнома, Дашти Шейх.

Тарбия инсонга бутун ҳаёти давомида зарур бўладиган жараёндир. Ахлоқий тарбия, сиёсий тарбия, диний тарбия, ҳуқуқий тарбия, экологик тарбия ва бошқалар. Шулар орасида экологик тарбиянинг ўрни бошқачадир.Экологик тарбиянинг диққат марказида табиатга эҳтиёткор муносабатда бўлишни ўрганиш ётади. Ҳар бир инсон табиат бағрида яшириниб ётган барча бойликлар, кўз ўнгида ястаниб турган барча гўзалликлар унга ҳам тегишли эканлигини тушуниши ва уни авайлаб асраш ўз бурчи эканлигини англаши керак. Инсоннинг атроф-муҳитга бўлган муносабати, унинг экологик маданияти, экологик дунёқараши билан чамбарчас боғлиқдир. Экологик онгни экологик тарбия шакллантиради ва ривожлантиради. Экологик тарбия кўмагида ёшларда жамиятимиздаги экологик вазият ҳақида тасаввур ҳосил қилинади. Уларнинг атроф-муҳит тўғрисидаги тушунчалари ўзгаради, ривожланади, уларнинг маънавиятида сифат ўзгаришлари содир бўлади.

Экологик тарбияни ривожлантиришда миллий қадриятлар, диний эътиқодлар, урф-одатларимиз муҳим роль ўйнайди. Аждодларимиз она ерни, сувни “ризқ-рўзимиз” деб билишган. Экин экилиши лозим бўлган ерларга алоҳида меҳр билан ишлов берилган, бир томчи сув беҳуда сарфланмаган. Сувга тупириш, унга ифлос нарса ташлаш гуноҳ ҳисобланган. Эрта баҳорда ариқ, канал, зовур ва ҳовузлар тозаланган. Бундай халқ

ҳашарларида ёшлар қариялардан урф-одатларимизни, анъаналаримизни ўрганишган, уларнинг меҳнат сирларидан воқиф бўлишган. Халқимизнинг мана шундай анъаналарини тиклаш муҳим вазифадир.

Табиатга бўлган ижобий ёндошувлар бизнинг халқимиз тарихида жуда қадимдан пайдо бўлган. Бу жараёнларда хонлар, султонлар, вазиру-саркардалар четда турмаган. Улар табиатни жуда севишган, боғ-роғлар бунёд этиб, бу тўғрисида ўз асарларида куйлашган, дала-даштни ўзлаштирганларга имтиёзлар беришган. Айниқса, Мовароуннаҳр ва қадим Туркистонда давлат тепасига келган, нуфузли ҳукмдорларнинг аксарияти боғ-роғлар яратиш, мамлакатни гуллаб яшнатишга алоҳида масъулият билан қараган. Хусусан, соҳибқирон Амир Темур ҳар доим мамлакатда, қўлга киритилган ерларда биринчи навбатда ободончилик, ерларни ўзлаштиришга катта эътибор берган ҳамда қўриқ ва бўз ерларни ўзлаштирганларни ёки бирор боғ кўкартирганларни рағбатлантирган. Соҳибқироннинг Самарқандда 12 та боғ яратиши, уларнинг ҳар бирининг ўзига хос табиий муҳитга эга бўлишига, иқлимига, ерига, номига ғоят катта эътибор берганлигини кўрсатади. “Темур тузуклари”да янги ўзлаштирилган ерлардан “биринчи йили ҳеч нарса олмасинлар, иккинчи йили ундан раият ўз розилиги билан берганини олсинлар, учинчи йили эса қонун-қоидага мувофиқ хирож йиғсин”[1.47],- деб таъкидланади.

Амир Темурнинг табиатга бўлган ихлосмандлиги хусусида унинг саройида фаолият кўрсатган Испания элчиси Луи Гонсалес де Клавихо Боғи Дилкушода Соҳибқирон қабулини хотирлаб ёзади: “Якшанба куни эрталаб вакилларни бу боққа таклиф этишди. У девор билан ўралган. Боғда лимон ва цитрус ўсимликларидан ташқари турли мевали дарахтлар кўп, олтита ҳовуз бутун

боғ бўйлаб ўтади… Боғда подшо буйруғи билан келтирилган кийик ва қирғовуллар бор эди”[2.10], деб унинг табиатга муносабатини ҳам акс эттирган. Ўз вақтида Амир Темурнинг бу амалий фаолияти ҳар бир шахсда табиат гўзаллигидан баҳра олиш туйғусини уйғотиш билан бир қаторда, кишиларда унинг ибрати мисолида шахс экологик дунёқарашини ривожлантиришга интилишни юзага келтиради.

Улуғ мутафаккир Алишер Навоийнинг табиатга ўзгача меҳри, ундаги ҳис туйғулар у яратган асарларнинг деярли ҳар бирида ўз мужассамини топган. Алишер Навоий табиатга ёки бирон-бир жонзотга хиёнат қилишни дўстга хиёнат қилишдек қоралаган. У асарларида ерни ризқ-рўз берувчи манба сифатида улуғлаш, ерга ишлов берувчи деҳқон меҳнатидан ҳамма тирик жон баҳраманд бўлиши ҳақида ўз фикрини қуйидагича ифодалайди: “Деҳқонки, ҳалол меҳнат билан дон сочади, ҳар бир донни етти юзга етказади. Сочган дони кўкаргунча, уни ўриб, ҳирмон қилиб ҳосил кўтаргунча қурт-қушлар ундан баҳраманд, дашт ваҳшийлари унинг билан хурсанд. Чумолилар уйи ундан обод: кўнгил ундан шод. Кабутарлар мастлиги-ю, тўрғайларнинг шўх навоси шу донлардан... Фуқаролар ризқ-рўзи, ғарибларнинг куч-қуввати дон биландир”[3.97-98].

Унинг фалсафий таълимотига кўра Худонинг зуҳуроти сифатида вужудга келган борлиқнинг кўрки, гўзал ва ободлиги инсон туфайлидир. Зотан Аллоҳнинг оламни яратишдан асл мақсади ҳам мана шу инсондир. “Бутун оламни яратишдан мақсад, - дейди шоир, - инсон бўлиб, у ҳамма мавжудот ичида тенги йўқдир. Инсон кўнглини турли билимлар хазина сиқилди ва бу тилсим ичида Тангри ўзини яширди. Инсоннинг ажойиб жисми бир махфий сир хазинаси ўлароқ, ўзида ана шу ганч

тилсимини сақлайди. Бу тилсим жон бўлиб, у ўша хазинада туради ва унга посбонлик қилади”[4.269], деган ғоясида меҳнатга оқилона муносабат асосида табиатга фаол таъсир ўтказиш баробарида, унинг бойликларини асраш, юксак инсонийликка хос экологик идрок, дунёқараш, тафаккур ва ҳис-туйғу ўз ифодасини топган.

Атоқли давлат арбоби, шоҳ ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобур табиатга нисбатан чуқур фалсафий мушоҳада юритиш билан бир қаторда амалда ҳам унинг фусункорлиги, мусаффо ҳавосидан ўз ўрнида фойдалана билган. Унинг “Бобурнома” асарида Шарқдаги турли мамлакатлар, шу жумладан Афғонистон ва Ҳиндистоннинг тарихи ижтимоий-иқтисодий аҳволи, табиати, этнографияси, географияси ва тиббиёти ҳақида батафсил сўз юритилади. Айниқса,Фарғона ва Ҳиндистоннинг тоғлари, дарёлари, ўрмонлари, яйловлари, боғлари ҳақида ҳозирги замон талабларига мос далиллар келтирилган.

“Бобурнома”асари ўз илмий моҳияти, услубий равонлиги, бадиий тимсолларга мўллиги ва она табиат гўзаллигини ҳис қилиш, авайлаб-асраш, бойлигига бойлик қўшиш каби ғоявий аҳамияти билан ҳам асрлар оша китобхонда табиатга меҳр-муҳаббат уйғотишга, шахс экологик онги, дунёқараши ва маданий савиясини оширишга беминнат хизмат қилиб келмоқда[5.26].

Асардаги киши эътиборини ўзига тортадиган муҳим жиҳат шундаки, Бобур табиатнинг ҳар бир бўлаги, кўриниши, ундаги набобат ва ўсимликлар оламига ҳам ўта синчковлик билан қараган. Хусусан, у Афғонистоннинг Дашти Шайх қирлари этагида ўсувчи лоланинг 33 хилини аниқлаб уни асарга киритган[6.124].Давлат ташвишларидан чарчаган, дилидаги эзгу орзу- умидлари амалга ошмаганда руҳан эзилган Бобур, ҳар замонда ёлғиз

ўзи қолишни, гоҳида эса кўнгилтортар улфатлар билан табиат қўйнида истироҳат қилишни хуш кўрган. Айниқса, Қобул шаҳри атрофидаги Ламғон, Гулбаҳор, Барон каби хушманзара ва хушҳаво жойлар Бобурни ўзлигига қайтишига, дунё ташвишларидан холи бўлиб, ором олишга чорлаган, табиат гўзаллигидан баҳра олган шоирга шеър ва ғазал мисралари қўйилиб келган.

Менинг кўнглимки, гул ғунчасидек, таҳ-батаҳ қондир,
Агар юз минг баҳор ўлса очилмоғи на имкондир.[7]

Бу сатрлар, инсоннинг табиат гўзаллигига ошиқлигидан, ҳар бир гиёҳи, тоғу тошидан завқ олишидан, ғаддор давр ҳамда ҳисобсиз бидъатлар қолдирган кўнгил ғуборини шу бемисол гўзаллик ифори ила поклаш туйғусидан яралган[8.76-77]. Бобур ижодига юзаки бўлса-да, назар ташлаш унга ихлосманд бўлган ҳар бир шахс бир ҳақиқатни, яъни инсоний фазилат ва нуқсонларни табиат борлиғига дахлдор омиллар билан ташбеҳ қилиш ҳам нафосат билан миллий -маънавий қадриятлар муштараклигида эканлигини англаб етади. Юқоридаги мисоллардан кўрдикки, у тарихий шахслар яъни алломалар ҳеч қачон табиатга бефарқ бўлмаганлар. Улар табиатнинг инсон ҳаётидаги ўрнини, инсон саломатлигига ижобий таъсирини англаб етишган ва аснода фақат яратувчилик фаолияти билан шуғулланганлар.

Бугунги кунда аҳолида ва айниқса, ёшларда атроф-муҳитга бўлган муносабатни ижобий томонга ўзгартиришда, экологик тарбияни, экологик маданиятни, экологик дунёқарашни шакллантириш ва такомиллаштиришда мана шу алломалар ва саркардаларимиз амалий фаолиятларидан фойдаланилса мақсадга мувофиқ бўлар эди. Чунки ҳозирги даврдаги экологик вазият табиатнинг табиийлигининг йўқолиб

бориши инсонлардан жуда кўп савобли ва яратувчилик ишларини тақозо этмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Темур тузуклари. Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996, 47-б.

2.Руи Ганселес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд по дворцу Темура. М.: 1989, 10-б.

3.Қаранг. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1974, 97-98-б.

4.Алишер Навоий. Лисон-ут-тайр. Т.: Ғ.Ғулом нашриёти, 1991, 269-б.

5.Худойназаров С.Х. Шахс экологик онги ва маданиятини шакллантиришда бадиий адабиётнинг роли. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент-2010, Б-26

6.Бобур З.М. Бобурнома. Т.: Юлдузча, 1998, Б-124

7.З.М.Бобур. Бобурнома.

8.Қудратуллаев Х. Кўнгил гулининг бағридек қондир. // Тафаккур-2000, -Б. 76-77.

РИВОЯТДА ТАРИХИЙ ВА БАДИИЙ ҲАҚИҚАТ ТАЛҚИНИ

Зиёдахон ТЕШАБОЕВА,
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети доценти, филология фанлари доктори

Мамлакатимиз жаҳонга юз тутаётган бир пайтда аждодлар меросини тадқиқ этиш, уларнинг

таржималарини ўрганиш ва илм аҳлига етказиш муҳим аҳамият касб этади. Буюк бобокалонларимиз ҳаёт йўли тасвирланган энг сара асарларда тарихий ҳақиқатни ёритиш баробарида бадиий тўқималар, афсона ва ривоятлар сюжетига мурожаат қилиш асарнинг ўқишлигининг таъминлайди. Китобхон сабрсизлик билан асарни мутолаа қилади.

Шунингдек, сара асарлар яратиш ниҳоятда мушкул ва хайрли иш. Амир Темурнинг зурриёди – Бобур Мирзо тарихни бадииятга айлантиради. Заҳириддин Бобур ҳақида асар ёзган ҳар қандай адибнинг нияти ниҳоятда улуғ – миллий қадриятларимизни тарғиб этиш асосида бугунги кун ёшларида ўз аждодларидан фахрланиш, ватанга меҳр-муҳаббат ҳиссини уйғотиш, ташқи ва ички ахборот хуружларини бартараф этишда маънавий иммунитетни шакллантиришни мақсад қилади.

Миллий-маданий меросимиз, мумтоз адабиёт намуналаридан бири – Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома”си жаҳон адабиёти ривожига беқиёс ҳисса қўшган нодир асар сифатида қадрланади. Унинг муаллифи Европаликлар томонидан Ҳиндистондаги бобурийлар сулоласининг асосчиси, сиёсий арбоб сифатида талқин этилади.

Қомусий билим соҳиби Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ижоди нафақат ўзининг ватанида тадқиқ этилган, балки дунё олимларининг беш мингдан ортиқ илмий ишларида ўрганилгани фанда маълумдир. Уларнинг асосий қисми илмий нуқтаи назардан ўрганилган бўлса-да, бадииятга муҳрланган сара асарлар талайгина. Бобур ёки унинг ижоди ҳақида рисола, бадиялар, роман ва эртаклар ёзиш жуда катта матонати Заҳириддин Бобурдагидек билим ва жасорат талаб этади.

“Бобур девони”, “Бобурнома”, “Мубаййин” ва “Рисолаи волидия” (таржима асар) муаллифи ҳақида китоб ёзиш жуда мушкул вазифа. Хайрли ишга қўл урган Мансур Инъомнинг **“Кўҳна Ахсикент қўрғонининг сири”** номли рисоласи шу жиҳатдан таҳсинга сазовор.

Адиб Мансур Инъом Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳақида “Бобурнинг кабутарлари”, “Нажот чорбоғи” номли қиссаларини чоп этган. “Кўҳна Ахсикент қўрғонининг сири” эса Бобур Мирзога бағишланган янги асарларидан биридир.

Ушбу асар *Сўзбоши, Карнон чорбоғи, Нажот чорбоғи, Андижон сари, Сўнгги сўз, Кўҳна Ахсикент қўрғонининг сири, Афсонада бордир ҳақиқат, Қамал, Мозий садоси* қисмларидан иборат. Муаллиф ушбу рисоласини яратишда устоз-адиблар Б.Аҳмедов, П.Қодиров, С.Жалилов, Й.Қосимовларнинг йўлидан борган. Асар ёзувчи бадиий тўқимасининг маҳсули бўлса-да, китобхон шоҳ ва шоир Заҳириддин Бобур ҳақида жуда кўплаб тарихий маълумотларга эга бўлади.

Муаллиф ушбу рисоласини ёзишда ниҳоятда муҳим тарихий маълумотларга таянгани эътирофга лойиқ. Мен адибнинг ҳали оммага элон қилинмаган дастлабки китоб нусхасини ўқиб чиқар эканман, ҳали ҳам сара асар ёзишга қодир адиблар борлигидан жуда бахтиёр эканлигимни билдиргим келди. Тинимсиз йиққан манбаларига таҳсинлар айтгим келди.

Асарга ўз исботини топган тарихий фактларни киритиш учун адиб тинимсиз изланган. Ёшлик кезларимда дадам Қодир отадан эшитган ривоятларнинг тарихий асосларини Мансур Инъомнинг **“Кўҳна Ахсикент қўрғонининг сири”** номли рисоласида ўқиб, беҳад қувондим. Кўҳна Ахсикент қўрғонининг сири дадамни ҳам ҳайратга солган, жумбоқни очиш мақсадида турли

текширувларни олиб борганлар. Айтишларига кўра, Тожикистонга қарашли Исфара тарафлардаги тоғ сувининг Намангандаги сой суви таъми билан бир хиллигини одамлар сезган. Текширувчилар сувнинг қаердан келишини билиш мақсадида баҳорда сув оқимига кўпроқ сомон оқизишган ва бир неча ой кутиб, мақсад қилинган жой, яъни сойдан сомон оқиб чиқишини пойлаб кутишган, аммо улар кутганидек у ердан сомон оқиб келмаган. Текширувчилар ҳар иккала ширин сувнинг оқим йўналиши бир-бири билан кесишмаган ва боғлиқ эмас, деган хулосага келишган. Лекин кеч кузда Наманган сойидан сомон оқиб келган. Бу борадаги дадамнинг мушоҳадалари Мансур Инъомнинг **“Кўҳна Ахсикент қўрғонининг сири”** рисоласидаги тарихий ривоят билан айнанлиги менда таажжуб уйғотди. Чучук сув аслида тарихий ҳодисага боғлиқ бўлганлигини тўла тўкис очиб бергани рисоланинг ўқишлилигини таъминлаган. Яна шундай қимматли воқеа-ҳодисалар Бобурнинг йўлбарс болалари билан қолиб кетиши ёки тоғ жинсининг ўзига хослиги ҳақидаги бадиий тўқимага йўғрилган ҳолатлар ҳамда Бобур шеърларидан парчалар келтирилгани асарда ўша давр руҳини уйғотган.

Рисолада муаллиф холислик йўлидан борганлигини ва ҳикояни ёзишга ундаган унинг қадрдон дўсти Абдулазиз Баҳодировни ҳам тилга олиб ўтган. Ниҳоятда муҳим маълумотларга бой ҳам илмий ва бадиий жиҳатдан қимматли рисола юзага келган.

Ёзувчининг бадиий-эстетик маҳорати, тарихий ҳақиқатни бадииятга айлантира олган санъатини ҳамда асарнинг бугунги кундаги аҳамияти жуда катта эканлигини таъкидлайман ва нашр этилажак китоб муаллифи ҳожи отага соғлик- саломатлик тилайман.

“БОБУРНОМА”ДА ДАВЛАТ БОШҚАРУВИНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ

Муҳаммаджон Охунов,
Андижон машинасозлик институти
“Ижтимоий фанлар” кафедраси ўқитувчиси

Учинчи ренессанснинг пойдеворини барпо етишдек улуғ мақсадни қўйган эканмиз, бунинг учун Хоразмийлар, Берунийлар, Ибн Синолар, Навоий ва Бобурларни тарбиялаб берадиган муҳит ва шароитларни яратишимиз керак.

Ш.М. МИРЗИЁЕВ

Темурийлар наслидан ҳисобланган Заҳириддин Муҳаммад Бобур шоҳ ва адиб, маданият арбоби ва саркарда, эътиқоди бутун ва тақводор, ростгуй адабиётшунос ва аламзада ота мақомида бағоят мураккаб, зиддиятлар тўлқини билан йўғрилган тақдир соҳиби эди. У шоир, адиб, шеършунос – адабиётшунос, донишманд фақиҳ, тилшунос, табиатшунос, мантиқ ва риёзиёт илмларидан пухта хабардор жамоат арбоби сифатида ўзидан бебаҳо маънавий мерос қолдирган. У яхшилик шайдоси эди. Охирги нафасигача эзгалик яловинит баланд тутди, фарзанди Ҳумоюн Мирзога ҳам шу ҳақда васият қилди. Кечирувчанлик Бобур Мирзога ато этилган ноёб неъматлардан эди. У ўзига жабр ўтказган, ҳатто хоинлик қилган, аммо вақти келиб ўша рўйи – рост тан олиб, афв этишни ўтинган мусоҳибларининг гуноҳини кечиб юборган. Ўлмас “Бобурнома” ва Гулбаданбегимнинг “Ҳумоюннома”сидаги беҳисоб лавҳаларшундай қатьий мулоҳаза учун асос беради.

Башарият тарихининг ижтимоий-сиёсий, илмий-маданий соҳаларида салмоқли ўрин тутган сиймолардан бири буюк ватандошимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур улуғ шоир, моҳир саркарда ва йирик давлат арбоби бўлиб, давлат ишларини бошқаришни ўсмирлик ёшидан бошлаганда, яъни 12 ёшида Фарғона тахтига ўтирганда жаҳонда энг қудратли Темурийлар давлати парчалана бошлади. Катта-кичик темурийзодаларнинг тахт учун ўзаро тўқнашувлари, сиёсий бошбошдоқликлар марказлашган давлат миллий бирлиги ва қудратига кучли салбий таъсир кўрсатган эди. Ана шундай алғов-далғовли, қонли курашлар авж олган пайтда Фарғонанинг ҳокими сифатида тарих саҳнасида пайдо бўлган Заҳириддин Муҳаммад Бобур олдида Амир Темур салтанатини сақлаб қолиш, темурийзодалар орасида нифоқ, тож-тахт талашишлар ўрнига дўстлик, ҳамкорлик, биродарликни, миллий ҳамжиҳатликни кучайтириш, мамлакатни ташқи душманлар ҳамласидан сақлаб қолишдек буюк мақсадлар турарди. Бу масалада у имкон доирасида қўлидан келадиган ҳамма ишни қилди. Бироқ тарихий шароит унга йўл бермади. Бобур шароит тақозаси билан ўзининг ҳарбий юришларини Афғонистон ва Ҳиндистон ҳудудига кўчирган бўлса ҳам, умрининг охирига қадар ватанга қайтиш фикридан воз кечмади. Унинг бу ниятларини Ҳиндистондан туриб ўғиллари (Ҳумоюн, Комрон, Ҳиндол ва Аскарийга) берган кўрсатмаларидан ҳам кўриш мумкин. Жумладан, у Ҳумоюнга ёзган хатларидан бирида шундай дейди. “Яна Комронга, Қобулдаги бекларга фармон бўлдиким, бориб санга қўшулуб, Ҳисор ё Самарқанд, ё ҳар соригаким, салохи давлат бўлса, юругайсиз. Тангрининг иноятн била ёғийларни босиб, вилоятларни олиб, дўстларни шод, душманларни нисунгор қилгайсиз, иншооллоҳу таоло. Агар тангри иноятн била Балх ва Ҳисор вилояти муяссар ва мусаххар бўлса, Ҳисорда сенинг кишинг бўлсун. Балхга

Комроннинг кишиси бўлсун. Агар тангри иноятн била Самарқанд ҳам мусаххар бўлса, Самарқандга сен ўлтургил, Ҳисор вилоятини, иншооллох, ҳолиса қилгумдир”.

Бобур Мирзо жисман Ватандан узилган бўлсада, у руҳан Ватан билан яшаб ўтди. Қачонлардир она юртга қайтиш учқуни унинг қалбида сўниш билган эмас. Фикримизча шоирнинг мана бу сатрлари гувоҳдир.

Беқайдмане хароби сийм эрмасмен,
Ҳам мол йиғиштирур лаим эрмасмен.
Қобулда иқомат этти Бобур, дерсиз,
Андоқ демангизларки, муқим эрмасмен.

Ушбу рубоий Бобур Мирзо ижодининг 1512 йилга қадар даврига тааллуқли, чунки ҳали бу йилларда Мовараунnахрдан буткул кўнгил узмаган эди. Учинчи юришнинг муваффақиятсизлиги унинг ширин орзуларини чилпарчин қилди. Шундан кейин унинг юрагида ўз сарҳадларини Ҳиндистонга қараб кенгайтириш орзуси макон тутди. Бобур Ҳиндистонда ҳукмронлик қилган даврда ушбу ҳудудда сиёсий беқарорлик, феодал тарқоқлик, иқтисодий тушкунлик ҳукм сурарди. Ҳиндистон республикасининг биринчи бош вазири Жавохарлаъл Нерунинг таъкидлашича, “аҳвол яна шу боисдан ҳам ёмонлашган эдики, қотиб қолган диний ақидалар ва қатъий, ўзгармас социал тартиб ижтимоий турмушнинг асосини ташкил қилиб, тараққиётни тўхтатиб қўйган эди”.

Бобур асос солган салтанат, мамлакатни ана шундай инқироздан олиб чиққан, мамлакат сиёсий жиҳатдан бирлаштирилган, маданий жиҳатдан юксалганлиги билан характерланади. Бобур Афғонистондаги каби Ҳиндистонда ҳам маҳаллий аҳолининг диний эътиқодларига, урф-одатларига, маданияти ва қадриятларига эркинлик берди. Атрофига ерлик олим ва фозилларни тўплади. Уларнинг маслаҳатларига эътибор билан қаради. Ўзининг қўл остидаги

мамлакатларнинг кўпларида сарой ва қасрлар қурдирди, боғлар яратди.

Бобурнинг сиёсий-ҳуқуқий қарашлари “Бобурнома”да ўз аксини топган. Асарда узоқ муддат давомида юз берган ижтиомий-сиёсий ва тарихий воқеалар хронологик тартибда баён қилинган ва унда XV аср охири-XVII аср бошларидаги Ўрта Осиё, Хуросон, Афғонистон ва Ҳиндистонда юз берган ҳодисалар тасвирланган.

Умуман, “Бобурнома”да XV асрнинг охири-XVII асрнинг бошларида ҳукмрон мавқени эгаллаган Ҳасан Якуббек, Узун Ҳасан, Али Дўст Тағойи, Аҳмад Танбал, Ҳисравшоҳ каби ҳарбий амалдорлар, Абдул Али Тархон, Боқи тархон каби арбобларнинг аҳлоқи, салтанатни бошқаришдаги ҳусусиятлари ҳақида кенг ҳикоя қилинади. Айниқса, сиёсий қарашларида адолатли давлат бошқарувни орзу қилган Бобур, Ҳисравшоҳнинг золимлигини, айёрлигини, халққа етказган жабру-ситамларини қоралайди.

Биринчи президентимиз Ислом Каримов 1994 йил 4 октябрда Андижон вилоятига қилган сафари чоғида Бобур номидаги миллий боғда ўрнатилган ёдгорлик мажмуини зиёрат қилиб, “Хотира дафтарига” қуйидаги эсдалик сўзларини ёзиб қолдирди. “Бобомиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур номи билан ҳар қанча фахрлансак арзийди. Ўзбек халқининг довруғини дунёга таратган улуғ аждодларимиздан бири ўлароқ, ул зот бизни тарихимизни қадрлашга, келажакка буюк ишонч билан қарашга ўргатади. Бобур каби мумтоз инсонларни дунёга берган халқ ҳеч қачон хор бўлмайди, муқаррар тарзда саодатга эришади....” Бугунги кунда жаҳон илм-фани ва маданиятига беқиёс ҳисса қўшган Заҳириддин Муҳаммад Бобур сингари улуғ аждодларимиз фаолияти ва бебаҳо меросини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади.

Бобурнинг “Бобурнома”сини инглиз тилига таржима қилган Эрскин Бобур ҳақида шундай дейди: “Бобур характерининг энг мислсиз белгиси унинг бошқа мулкдорларникига мос келмаслигидадир”. Бобур тахтага эга олий ҳукмдор бўлганлига қарамай оддий турмушнинг энг яхши туйғуларини ва иштиёқини ўзида сақлаб қолган.

Дарҳақиқат, Бобурнинг фикр доираси, ниҳоятда кенг, эрудицияси жуда чуқур, хотираси эса, “Бобурнома”да кўзга ташланишича, ғоятда кучли, ҳақиқатдан ҳам кишини ҳайратда қолдирадиган даражада ўткир бўлган. Уни нафақат табиат, балки, унинг барча сиру синоатлари, бемисл гўзалликлари ва уларнинг асл моҳияти, айни чоқда, ҳайвонотлар дунёси, яна муҳими, уларнинг ўзига хос хусусиятлари, шунингдек, ижтимоий-мафкуравий ҳаёт, ҳарбият, демакки, олам-борлиқ, ундаги жамики катта-кичик масалалар, уларнинг манбалари қизиқтирган. Шу тариқа у ҳамиша янгиликка ва камолотга интилган.

Бобурнинг маънавий мероси тўғрисида машҳур ҳинд ёзувчиси Мулк Рож Онанд шундай дейди: “Улуғ Бобур мемуар ёзганлиги маълум. У поэтик прозада ёзган эди. Бу китоб биз билан сизнинг меросимиздир. Бу Ўзбекистондаги каби бизда ҳам ғоят қадрланади. Ҳиндистоннинг баъзи рассомлари, жумладан, Бобурнинг чевараси ушбу китобга расмлар чизган. Бу ажойиб қулёзманинг бир нусхаси Москвада сақланмоқда. Уни бутун дунёдаги ажойиб санъат асарларидан деса бўлади. Биз дунёдаги энг гўзал асарлардан бирини Ўзбекистон ва Ҳиндистон ўртасида баҳам кўрамиз”. Бу каби ҳароратли сўзлар Бобур Мирзо ва унинг меросига берилган ҳаққоний баҳо бўлиши билан бирга, бобурийларнинг ҳинд мамлакати тарихида тутган ўрни ва ролини ҳамда маънавий меросининг кичик бир қисмини холисона кўрсатиб беради.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Nizomiddinov N. Buyuk Boburiylar tarixi (XV-XIX asr). – T. : Fan texnika, 2012. –516 b.

2. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-kitob.- Toshkent: YOzuvchi, 1996, 147-b

3. "Boburnoma" uchun qisqacha izohli lug‘at. Tuzuvchi: F.Ishoqov. - Andijon, 2008

4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. 1-qism. Nashrga tayyorlovchilar P.SHamsiyev, S.Mirzayev, - Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1948.

5. Fayziev T. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari. — Toshkent: YOzuvchi, 1996

5. SHamsutdinov R., Abdullaev F., Rasulov B., Ubaydullaev O‘., Hoshimov S. Buyuk boburiylar sulolasi. — Andijon, 1993

БОБУР МИРЗО ШАХСИЯТИ ВА ИЖОДИ ЖАДИДЛАР НИГОҲИДА

Юлдуз КАРИМОВА,
Жиззах давлат педагогика институти доценти

Адабиётшунос олим, Ўзбекистон Қаҳрамони Иброҳим Ғафуров ўтган XX асрнинг бошларида бўй кўрсатган, тез фурсатда қад ростлаган тараққиёт жараёнини миллатнинг биллурланиши [5; 9], шаффофланиши деб атайди.

Биллурланиш, шаффофланиш ғоят кенг жабҳада кечаётган бир пайтда, шу кечим бошида турган жадидлардан давр ҳам билимда, ҳам фаолиятда қомусийликни талаб этди. Шу маънода XX аср ўзбек адабиётшунослигининг тамал тошини қўйган, фольклористика, матншунослик,

манбашунослик, классик адабиёт, адабиёт назарияси, арузшунослик илми тараққиётини бошлаб берган, уларнинг ривожига салмоқли ҳисса қўшганлар ҳам жадид ижодкорлари бўлди. Айниқса, шўро даври мафкураси миллатларнинг маданий меросига қатли ом сиёсатини қўллаб турган бир пайтда мумтоз адабий сиймоларимизнинг ижод йўлини ёритиш, уларнинг адабий меросини бадиий-эстетик моҳиятини асослаб берувчи тадқиқотлар яратиш, буюк ижодкорларнинг адабиётдаги ўрнини белгилаб бериш жуда катта маънавий жасорат талаб қилар эди. Жадид ижодкорлар: Фитрат, Қодирий, Чўлпонлар миллатимизнинг биллурланган маърифатини мана шундай катта бир маънавий жасорат билан юзага чиқардилар, тарғиб қилдилар.

Ушбу мақолада биз жадид маърифатпарварларининг Бобур Мирзо ижоди ва шахсиятига муносабати ҳақида фикр юритмоқчимиз.

Фитрат Бобур Мирзо адабий меросига кўп ва хўб мурожаат қилган жадид ижодкорларидан.

Бутун жаҳон мутафаккирлари якдил эътироф этганларидек, Бобурнинг ёрқин, жозибадор шахси “улуғ ақл, метиндай мустаҳкам ирода, ниҳоятда ўткир ва мунаввар фаросат соҳиби” (И.Ҳаққул) эканлиги нафақат бадиий-эстетик, балки адабий-эстетик тафаккур намуналарида, шунингдек, адабиётшуносларимизнинг илмий тадқиқотларида, соф илмий соҳа бўлган бобуршунослик ва “бобурномашунос”ликда ҳам яққол кўзга ташланади.

Ўзбек тилшунослиги, замонавий адабиётшунослиги ва матншунослигининг тамал тошларини қўйган Абдурауф Фитрат, эътироф этиш керакки, маълум бир маънода бобуршуносликка ҳам илк сўқмоқ очди. Фитратшунос олимларимизнинг таъкидлашича, “Фитратнинг ўндан ортиқ илмий асар ва қўлланмаларида Бобур тилга олинади. Унинг

“Адабиёт қоидалари. Адабиёт муаллимлари ҳам ҳаваслилари учун қўлланма” (1926 й.) дарслигида Бобур ва унинг ижоди ҳақида янги давр ўзбек адабиётшунослигида биринчи бўлиб маълумот берилган “Ўзбек адабиёти намуналари” (1-жилд, 1928 й.) мажмуасида “Бобурнома”нинг Ҳиндистон қисмини табдил этиб, Ўзбекистонда илк марта нашр қилган, “Адабиёт қоидалари” китобида энг кўп мисол Навоий ва Бобур ижодидан келтирилади. “Аруз ҳақида” (1935 й.) рисоласида туркий арузнинг хусусиятларини тушунтирар экан, Фитрат Бобурнинг ҳам аруз назариётчиси, ҳам арузнинг гўзал вазнларида шеър бита олган ҳассос шоир эканини кўрсатган. “Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи” (1927 й.) асарида Навоийнинг моҳир мусанниф (бастакор) бўлганини Бобурнинг шаҳодати билан баён қилган” [1; 15].

Ҳақиқатан ҳам, Фитратнинг илмий мақолалари, назарий қўлланмаларида муаллифнинг Бобур Мирзо (бир-икки ўринни истисно қилсак, аксарият Фитратнинг буюк аждодимизга исломий эҳтиромини баланд тутгани ҳолда номини “Бобур Мирзо” дея қайд этганининг гувоҳи бўламиз, ибрат олсак арзирли жиҳат [2; 385–386]) ижодига, шахсига айрича ихлос, ишонч, ўрни билан ўта талабчан муносабатда бўлгани ҳолда “кўп ва хўб” мурожаат қилганини кўришимиз мумкин.

Яқин тарихда, айниқса, Фитратлар ижод қилган ўтган асрнинг 20–30-йилларида адабиёт тарихига бирёқлама қараш тенденцияси авж олган, миллий мумтоз адабиётимиз даврнинг сиёсий-мафкуравий зуғумлари боис ўз бадиий-эстетик моҳиятига мос талқин этилиши қийин бўлиб қолган пайтларда тадқиқотчидан холислик ва илмий принципиаллик позициясида тура олиш жасорати талаб қилинар эди. Гарчи бу жуда қимматга тушган бўлса ҳам Фитрат илмда мумтоз адабиётимизга, хусусан, Навоий ва Бобур Мирзога борар йўлларимизни очди. Сирасини

айтганда, навоийшунослик ва бобуршунослик ўзанларини тўғри белгилади.

“Адабиёт – фикр, туйғуларимиздаги тўлқинларни сўзлар, гаплар ёрдами билан тасвир қилиб, бошқаларда ҳам худди шу тўлқинларни яратмоқдир” [3; 13] тамойилида собит турган Фитрат адабиётимизнинг мумтоз намуналарини соф бадиий-эстетик яратиқ сифатида ўрганар экан, ҳамма вақт ижодкор дунёқарашига, ислом ва тасаввуф фалсафасига, асарнинг тил хусусиятига, бадиий услубга, яратиқнинг латофати, жозибадорлигини таъминлаган, китобхоннинг қалбини завққа тўлдирган нуқталарга талабчан, санъаткорона нигоҳини қаратади. Ва мана шу талабчан, санъаткорона нигоҳда Бобур Мирзо шахси ва истеъдоди ўзининг муносиб баҳосини олиб бораверади.

Фитрат “Адабиёт қоидалари”да адабий асарларни уч турга: ривоя-эпос, томоша ва лирикага бўлиб кўрсатар экан, лирика атамасининг олдига “юракчилик” сўзини ҳам қўшиб, бу турни юракчилик-лирика шаклида кўрсатади ва “Юракчилик-лирика” шеърларида энг катта рўлни оҳанглар, хаёллар, тўлқинлар, туйғулар ўйнайдирлар”, – дейди. Шу жойда Фитрат фикрини давом эттириб дейди: “Бизда бурунғилардан Навойи, Бойқаро, Лутфий, Машраб кабиларни “лиризм”нинг энг катта кишилари санайдирлар. Уларнинг ғазаллари “юракчилик-лирика” шеърларининг энг гўзал намуналаридир” [3; 79].

“Адабиёт қоидалари”да услубда уйғунлик масаласини ёритишда Фитрат айнан Бобур Мирзонинг юракчилик-лирикасидан:

Кўнгли тилаган муродға етса киши,
Ё барча муродларни тарк этса киши,
Бу ики иш муяссар ўлмаса оламда,
Бошини олиб бир сориға кетса киши [3; 49] –

рубоийсини келтиради. Гарчи бу рубоий бизга таниш бўлсада, Фитрат нигоҳи билан ундаги “катта ҳаёт ҳақиқатини жонли шаклда ифодалаш санъатини” (И.Ҳаққул) юксак даражада эгаллаган Бобур Мирзонинг ёрқин истеъдодини қайта кашф этгандек бўламиз. Кўриб турганимиздек, ақл ва мантиқ, кўнгил ва туйғу уйғунлиги ўз навбатида бадиий ифодада ҳам изчилликни юзага чиқарган, Бобур Мирзо “керакликдан ортуқ гаплар тизими”га йўл қўймаган.

“Фикрнинг ифодаси учун кераклигидан ортуқ гаплар тизимига” йўл қўймаслик – Бобур Мирзонинг танқидий қарашларидаги ўзак масала. Узоққа бормай Бобур Мирзонинг ўғли Ҳумоюнга берган танбеҳини эслайлик: “Такаллуф қилай дейсан, ул жиҳаттин муғлақ бўладур. Бундан нари бетакаллуф ва равшан ва пок алфоз била бити: ҳам санга ташвиш озроқ бўлур ва ҳам ўқуғучиға” [4; 321].

Ёки яна бир мисол: “Бобурнома”да 1505–1506 йил воқеалари баёнида шоир Сайфий Бухорийнинг форс тилида ёзган аруз рисоласи ҳақида: “Бисёр камсухандур, бир ҳисоб била асру пурсухандур. Камсухан бу маъни билаким, кераклик нималарни битимайдур. Пурсухан бу маъни билаким, равшан ва зоҳир калималарни нуқта ва эъробиғача битибтур” [4; 162], – деган сўзларида ҳам хоҳ бадиий, хоҳ илмий тил бўлсин, асар тили мақсад ифодасига аниқ хизмат қилиши, пишиқ, пухта, танланган ва тарошланган бўлиши керак маъносидаги Бобур Мирзонинг талаби кўзга ташланади.

Фитрат маълум бир адабий даврга, индивидуал ижодкорга, “Ҳатто, яна бир оз чуқурроқ бориб, бир кишининг сочим (наср) – тизим (назм) ёзғанида ҳам услубнинг ўзгариб қолганини кўрамиз”, – дейди. Фикрини исботлаш мақсадида бир неча ижодкорлар қатори Бобур Мирзонинг тизим асарларидан “Чархнинг мен кўрмаган жавру жафоси қолдиму?..” деб бошланувчи ғазалини, сочим

асарларидан эса “Бобурнома”дан мисол келтиради: “Яна Ҳусайн Удий эди. Удни мазалиқ чолиб, мазалиқ нарсалар айтур эди. Уднинг торини ики қилиб бир чолибдур. Айби бу эдики, бисёр ноз ила чолур эди. Шайбонийхон бир навбат соз буюрур. Такаллуф қилиб ҳам ёмон чолур, ҳам ўз созини келтурмай, ярамас соз келтирур. Шайбоний фаҳмлар. Буюрурким: суҳбатда – ўқ ғалаба “гардани” урар. Шайбонийхоннинг оламда бир яхши ишиким бор, будур...” [4; 21]

Китобхон келтирилган парчага қараб, XV–XVI асрда яратилган насрий асарларга хос бўлган жимжимадорликдан фарқли “Бобурнома” содда, равон, услубда ёзилганлигига гувоҳ бўлади. Шу билан бирга Фитрат “Бобурнома”дек катта бир асар ичидан ғоятда муваффақиятли танлаб олган мисоли орқали ҳам Бобур Мирзонинг ёрқин, ростгўй шахси, шунингдек, Бобур Мирзонинг ўзини ҳам айнан мана шу услуб масаласига қарашлари билан ҳам таништиради.

Бобур Мирзо юқорида гувоҳи бўлганимиздек, сўз битишда ортиқча такаллуфлар, эзмалик, жимжималарга берилмаслик тарафдори. Унинг бу қарашлари айнан санъат соҳасига ҳам тегишли. Мирзо Бобурнинг фикрича, куй чалишда созанданинг ортиқча такаллуф, нағма, ярашиқсиз қилиқлар, ноўрин замзамаларга йўл қўйиши унинг услубининг расволигидан дарак беради. Ижро услубидаги бу қусур эса созанданинг камолидан кўра заволига хизмат қилади, санъат ва санъат аҳлидан инсонларнинг меҳрини совутади. Бундайларга эса Бобур Мирзо муросасиз. Ёмон ижро учун Ҳусайн Удийни жазолаган Шайбонийхон билан Бобур Мирзо гарчи душманлик мақомида бўлса ҳам унинг бу ишини маъқуллайди. Аммо шу маъқуллашда иккита дақиқ нуқта борки, буни зарофатли Фитрат, албатта, ҳисобга олган бўлиши керак, қайсики шу нуқталарда Бобур Мирзо шахси янада ёрқинлашади.

Бу нуқталардан бирида “Шайбонийхон фаҳмлар”, яъни Бобур Мирзо тарафидан Шайбонийхоннинг фаҳми, диди, таъби, сезгирлиги эътироф этилган. Иккинчиси эса Бобур Мирзо қарашларида санъат, адабиёт шунчалар дахлсиз, покиза жойки, уни ҳар қандай удийларнинг оёқости қилишга ҳаққи йўқ. Санъатни хор қилган Удий ўз жойида, адолатли жазоланади. Фақат бу адолатни Бобур Мирзонинг душмани Шайбонийхон амалга оширди. Гарчи бу ишнинг амалга ошмоғи душман томонидан қарор топган эса-да унинг номи Адолат! Бобур Мирзо эса ўз табиатига кўра адолатли ишни қўллаб-қувватлаши лозим. Ана шунда “Бобурнома” муаллифи бобурона лутфни ишга солади ва эътироф ҳам Бобур Мирзо нуқтаи назарига, позициясига мос: “Шайбонийхоннинг оламда бир яхши ишиким бор, будир...”. Эътироф заминидаги нозик қочирим Мирзо Бобурнинг тадбирлилигини кўрсатади.

Кўриб турганимиздек, “...адабиёт ҳам санъат дунёсида теран бир қараш эгаси бўлган машҳур Бобур Мирзо” шахсияти Фитрат талқинида янада тўлишади, жозиба касб этади. Фитратнинг қарашларида Бобур Мирзо тийнатидаги унинг ҳам инсоний, ҳам ижодий манерасига тааллуқли бўлган мухтасарлик, мукаммаллик хислатлари янада равшанроқ кўринади.

Чўлпон адабий меросида айнан Бобур Мирзо ижоди билан боғлиқ махсус тадқиқотлар учрамайди. Аммо баъзи ўринларда адибнинг Бобур Мирзо лирикасига нисбатан ҳам унинг “Бобурнома”сига илиқ муносабати ярқ этиб кўринади.

Чўлпоннинг 1924 йил баҳорида Андижон–Ўш–Жалолобод йўналиши бўйича қилган саёҳати натижаси ўлароқ яратилган “Вайроналар орасидан” сафарномасида Бобур Мирзо ва “Бобурнома” тилга олинади.

Фуқаролар уруши, ундан кейинги хўжасизликлар натижасида вайрон бўлиб ётган Ўшнинг валангор аҳволидан изтиробга тушган Чўлпон ўқувчи нигоҳини “Бобурнома” сарҳадларида бобурона таърифдан янада чирой очган Ўшнинг XVI асрдаги кўркам қиёфасига қаратади ва афсус билан дейди: “...ҳозирги Ўш Бобур айтган... иқлим ва ҳавога эга бўлса ҳам, ўзининг бу кунги бузғун ва хароба ҳоли билан 10 йил бурунғи Ўш ҳам эмасдур” [6].

Чўлпон бу ўринда шўролар давридаги бузилган ўлка қиёфасини бир Ўш мисолида темурийлар давридаги ободончилик, маъмурчиликка қиёсан тасвирлар экан, ўзбек халқи тарихи, миллатимиз кечмиши, бугуни “Бобурнома” ва унинг муаллифи тақдири, тарихи билан нечоғлик туташлигини ҳам асослагандек бўлади.

“Чўлпон мунаққид сифатида, биринчи навбатда, адабиёт ва санъатнинг амалий масалалари билан шуғулланган. ...адабиётни ўз даврининг илғор ғоялари билан бойитишга, Шарқ ва Ғарбнинг бебаҳо тажрибасини янги ўзбек адабиётига олиб киришга ҳаракат қилган” [7; 73].

Адиб ўзининг айнан ана шу позициясидан келиб чиқиб “Улуғ ҳиндий” мақоласида бир қатор ўзбек намояндаларининг ижодий услубларини назарда тутиб: “Навоий, Лутфий, Бойқаро, Машраб, бир хил, бир хил, бир хил. Кўнгил бошқа нарса – янгилик қидирадир” [8; 57], – дейди.

Гувоҳи бўлганимиздек, саналган номлар ичида Бобур Мирзо йўқ. Аслида, ана шу йўқликнинг ўзида Чўлпоннинг Бобур Мирзо ижодига айрича муносабати кўзга ташланади. Чунки Чўлпондек нуктадон мунаққид Бобур Мирзонинг дадил фикрий кашфиётларини, мумтоз шеъриятга киритган таржимаи ҳоллик хусусиятини, асарларидаги ватанпарварлик, юрт соғинчи туйғуларининг теранлигини, рубоий жанрида ўз шахсий услубини намойиш эта

олганлигини, энг муҳими, соҳир соддалик ва халқчил талқин билан “мумтоз миллий лирикамизга янги тўн кийгизганини” тан олмаслиги мумкин эмас эди.

Абдулла Қодирий зарофатли қалб эгаси сифатида “Бобурнома”да муаллиф “...кузатган, билган, ёқлаган ёки инкор айлаган воқеа-ҳодиса ва маълумотларнинг айтарли барчаси энг аввало, Бобурнинг кимлиги, инсоний моҳиятининг туб замини ва илдизлари нималарга асосланганлигини чуқур англашга хизмат қилишини” [9; 319] тушуниб етган. Шунинг учун ҳам у то савдо ишларига ўтгунга қадар, ўз даврида Тошкентнинг энг олд таълим даргоҳларида бўлган Бегларбеги мадрасасининг пешқадам толиби бўлган Отабек қўлига “Бобурнома”ни тутқазишни лойиқ кўради.

“Ўткан кунлар” романининг “Мажбурият” бобида “Кечлик ошни ўтказгач, Ҳасанали ўз ҳужрасидан кийиниб чиқди-да, Отабек ёниға кирди. Отабек “Бобурнома” мутолааси билан машғул эди” [10; 31] деган ғоятда муваффақиятли бадиий топилмада XVI аср сиёсий гирдоблари ичида бирда чўкиб, бирда қалқиб бораётган Бобур Мирзо руҳий кечинмалари, орзу-умидлари, изтиробу армонлари билан яқин хонликлар даврининг энг кир ва қоронғи кунларида миллати, юрти, ўз муҳаббати учун мардонавор йўл қидираётган Отабек руҳонияти ўртасида ўхшашлик кўзга яққол ташланади. Гўё Қодирий “Бобурнома” шуъласи билан Отабек шахсиятининг барча қирраларини ёритади, унинг инсоний моҳиятини китобхонга мухтасар, айни пайтда, мўътабар қилиб етказади. Бу эса Қодирийнинг “Бобурнома”дек буюк яратиққа ва унинг муаллифига инсоний ва ижодий эътиқодидан дарак беради.

Нафақат юртимиз олимларининг изланишлари, фидойи меҳнатлари, балки чет эллик бобуршунос олимларнинг саъй-ҳаракатлари билан бугунги кунда бобуршунослик ва

бобурномашунослик каби илм тармоқлари ривожланмоқда. Айниқса, Бобур номидаги халқаро экспедициянинг ташаббуси, қизғин фаолияти натижасида бу тармоқларнинг ўрганиш, тадқиқот объектлари ҳам кенгаймоқда.

Мана шу хайрли, кўп йиллик изланишлар, ўрганишлар силсиласида жадид ижодкорларининг эътироф этгулик улушлари борлигини унутмаслигимиз – уларнинг хотиралари олдидаги ҳам инсоний, ҳам илмий бурчимиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. –Т.: “Шарқ”, 2014. 744 бет.
2. Х. Султон. Бобурийнома. –Т.: “Шарқ”, 1997. 416 бет.
3. А. Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. IV жилд. –Т.: “Маънавият”, 2006. 336 бет.
4. З. М. Бобур. Бобурнома. –Т.: “Юлдузча”, 1989. 368 бет.
5. И. Ғафуров. Мангу латофат. –Т.: “Шарқ”, 2008. 464 бет.
6. А. Чўлпон. Вайроналар орасидан. https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdulhamid-cholpon-vayronalar-orasidan-1924/
7. О. Шарафиддинов. Ижодни англаш бахти. –Т.: “Шарқ”, 2004, 640 бет.
8. Чўлпон. Адабиёт надур? (Адабий-танқидий мақолалар). –Т.: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 1994.
9. И. Ҳаққул. Тақдир ва тафаккур. –Т.: “Шарқ”, 2007. 336 бет.
10. А. Қодирий. Танланган асарлар. –Т.: “Шарқ”, 2014. 880 бет.

“БОБУРНОМА” ҚАНДАЙ ЖАНРДА ЯРАТИЛГАН?

Элмира Ҳазратқулова,
филология фанлари бўйича фалсафа (PhD) доктори

XV-XVI аср Мовароуннаҳр ва Хуросон адабий муҳити доирасида яратилган тарихий асарларда бирмунча бадиий адабиётга силжиш, қоришиқ ҳолда муаррихлар услубида акс этиши кузатила бошланди. Бадииятнинг намоён бўлишида муаллиф руҳиятига хос бўлган эврилишлар, “мен”ликнинг марказий тасвирга олиб келиниши дадил кўрина бошланди. Ўз-ўзидан бу даврда форс-тожик адабий анъаналарида ҳам услубан ўзгаришлар кузатилаётган бир пайтда, Бобурнинг ҳам параллел равишда “мен”лик феноменини марказга олиб келиш орқали унинг услубан оригиналликка интилиши туркий адабиёт учун катта адабий ҳодиса эди. Яъни бу ҳодисада инсон руҳиятининг чуқур тасвирланиши унинг тарихчиларга хос баёнчилик услубидан воз кечиб, ўзлигини намоён қилишга интилиш эди аслида. Бу ҳам бадиий адабиётнинг энг муҳим қирраларидан саналади: “Инсоншуносликдан иборат бадиий адабиёт асарида биз одамларнинг турли даражада тафсилот ва чуқурлик билан тасвирланганининг гувоҳи бўламиз”[6.114.].

Адабиётшунос олим Неъматилла Отажонов “Бобурнома” жаҳон адабий жараёнида” номли йирик тадқиқотида ушбу асарнинг жанри ҳақида қуйидаги фикрларни билдириб ўтади: “… айни вақтда бу оиланома, шажаранома, қайднома ёки ўзига хос кундалик ҳам эмас, услуби шундайки, жами ғайри бобурий ҳодисаларда ҳам онг шуури , қалб мавжлари, изтироблари иштирок этади. Бу жиҳатдан ҳам асар ноёб ва нодир ёзма обида. Бобурга Бобур кўзи билан қараш. Бунинг устига тилининг ширадорлиги ўқувчини ўзига ром этади.

Қандай асар бу? Илмий рисолами, воқеий романми? Ўзи ҳақида бадиий қиссами? Шажарайи Бобурийдир балким… Аслида қайд этилганларнинг ҳар бири ва ҳаммаси”. Дарҳақиқат, олим эътироф этган жанрларнинг бир йўла асар матнида акс этишида муаллифнинг беқиёс маҳорати ва иқтидори акс этган эди.

“Бобурнома”даги услубий хослик ва жанрлар синкретизмининг ифодаси асар матнининг турли ўринларида турлича аҳамият касб этган. Адабиётшунослик илмида синкретизм атамасини рус олими Веселовский биринчи марта қўллаган бўлиб, синкретизм тушунчаси адабий турларнинг бир-биридан ўсиб чиқиши, маълум адабий даврларда бир-бирига қоришиқ, уйғун ҳолда ҳам учрашидир. Веселовскийнинг хулосасига кўра, “Эпик тур ва лирика бизга ўзини қадимий маросим қўшиқларининг парчаланиш натижаси сифатида намоён бўлади” [4. 410.].

“Бобурнома”матни таркибида ҳам қоришиқ ҳолда келган ривоят, мақол ва мумтоз шеър жанрлари, маноқибга хос ифодалар кўзга ташланади. “Бобурнома”нинг яратилиши ва туркий адабиёт сарҳадларини ёриб ўтиб ўзга ҳудуд, хориж шарқшунослигининг назаридан қолмай ўрганилиб келиши ҳам ана шундай серқирра ва серқатламлилик хусусиятларини ўзида мужассам этгани билан боғликдир. Америка Қўшма Штатлари Огайо университети доктори Степен Дейл Бобурнинг ижодкорлик, шоирлик истеъдодига бағишланган йирик тадқиқот мақоласида унинг серқирра ижоди юзасидан қуйидаги умумлашма хулосани чиқаради: “Бобур табиатнинг кўркамлигидан Боғи Вафони, унда атиргуллар, сарв дарахтлари ва оддий севишганлар билан уйғун адабий боғни яратди. Бу гулбаҳорнинг насрдаги аниқ тасвиридан олинган. Бобурнинг Боғи Вафоси ва ғазаллари, рубоийлари санъат асари эди, аммо “Вақоеъ” эса бундан мустасно” [5. 635.]. Аслида олим таъкидлаганидек, у яратган

боғларнинг шеъриятга менгзалган ҳолда ҳам санъат даражасида эътироф этилиши мантиқан тўғри илмий ёндашувдир. Бироқ “Бобурнома”нинг санъат асарларидан мустасно эканлигига урғу бериш ҳолати ўзини оқламайди. Чунки асар матнида биргина сажъ санъатидан унумли фойдаланишнинг ўзи ўзбек адабиётининг ўзига хос хусусиятларини жилолантиришга хизмат қилди. Бунда Степен Дейл “Бобурнома”нинг ўзбек насри тарихида улкан ижод намунаси бўлганини назардан қочириб, унга фақат тарихий асар сифатида ёндашгани маълум бўлмоқда. Асарнинг таркибида бугунги кун адабиётшунослигида алоҳида номлар билан аталувчи, эпик кўлами ва ҳажман хилма-хиллиги билан шаклланиб келаётган ривоят, ҳикоя, қисса бадиий адабиёт жанрлари, тазкира, адабий портрет, адабий танқид каби адабиётшуносликнинг муҳим жанр ва масалалари қоришган ҳолда келадики, асарнинг бу томонлари бугунги кун илм аҳлининг олдига ушбу асарнинг аниқ адабий жанри ҳақида баҳслар олиб борилишига туртки бўлади.

“Бобурнома”нинг Лейден ва Эрскин томонидан чоп этилган нашрида таржимонлар шу пайтгача форс адабиёти таъсирида бўлган туркий адабиётнинг (Чиғатой) белгилари ҳақида гапирар экан, “Бобурнома”нинг услуб жиҳатдан бironта форс асарларининг белгисини такрорламаслигига аҳамият қаратадилар. Ушбу инглиз таржимонларининг фикрига кўра, асар ҳашамдорликдан холи. Бу жиҳатдан Бобурнинг асарда муболаға ва метафораларнинг қўлламаслиги ҳамда туркий тилда тарихий асар ёзиш имкониятлари француз, инглиз тарихшунослигига ўхшашлигини қайд этадилар. “Бобурнома” асарининг тили бошқа Осиё тилларига нисбатан Европа тилларига яқинлиги, аниқ ва соддалиги унинг асосий услуби эканини таъкидлайдилар [1.432.].

Дарҳақиқат, инглиз шарқшунослари Бобурнинг одил шоҳ сифатидаги қиёфаси ва салтанатда ўрнатган адолатли тузуми, инсоний фитратини суюб қабул қилишларида асарнинг ана шундай омиллари муҳим ўрин тутган эди.

Ҳарвард университети профессори Виллер Текстон “Бобурнома”ни 1996 йилги нашрига ёзган сўз бошисида асарнинг услуби ва тилини таҳлил қилар экан, ўша давр Ҳирот адабий муҳитини ўрганиш асосида Ҳусайн Бойқаро ва Навоий томонидан туркий тилда ижод қилишга бўлган рағбат ортидан қисқа муддат бу тилдаги адабиёт гуллаб-яшнаганига эътибор қаратади. Виллер Текстон ўша давр муҳитида туркий насрий асарлар салмоғининг камлигини ўз даврида форс тилидаги адабиётнинг мавқеи баландлигини таҳлил этади. Олим “Бобурнома”ни туркий прозадаги энг йирик матн дея баҳолайди. Виллер Текстоннинг қиёслашича, Навоий ва Бобурнинг туркий тилни ҳаётий адабий воситага айлантиришга бўлган уриниши худди товада бир зум аланганланган олов кабидир, боиси уларнинг бу ҳаракатларига Марказий Осиё ва Эрон томондан кириб келган уруш воқеаларининг сабабчилари (Сафавий ва Шайбонийлар) табиий ҳолатда тўсиқ бўлганлар[1. 432.].

Кузатишларимизга кўра, “Бобурнома”нинг яратилиш характерини муаллиф томонидан унга қўйилган ном ҳам тўлароқ ифодалайди. Яъни Бобур уни “Вақоеъ” деб номлаш орқали ўз атрофидаги воқеликлар ва кечмишларни ёзишни ният қилган эди. Гарчи, Бобур асарнинг икки ўрнида *таърихни ёзиш* дея уқтирса-да, аслида унинг муаррихлик позицияси кўпроқ вазифани ўз зиммасига олган эди. Асар шу кунгача жаҳон тилларида турлича ном билан чоп этилди, фақатгина туркий, озарбайжон таржималаридагина “Вақоеъ” номи билан нашр этилган. Адабиётшунос Иқболой Адизова асарнинг турли нашрларда турлича номланиши, ўзбекча илмий танқидий нашрида ҳам “Бобурнома” номи билан чоп

этилишини хатолик, дея ҳисоблайди ҳамда уни ўз аслича “Вақойиъ” номи билан нашр эттириш лозимлигини таъкидлайди[4.37].Олиманинг фикрича, Бобурнинг *“Ҳар ким бу “Вақоеъ”ни ўқур, билгайким, не ранжу не меҳнату не ғамлар кўрдум”* мисраларини ўз ҳаёт йўлини ёритувчи, аҳли замон ва инсоният борасидаги фикр-ўйларини ифодаловчи кўзгудир. Дарҳақиқат, муаллифнинг сарлавҳа танлашидаёқ унинг адабий мақсади аниқ кўзга ташланиб, асар қурилмаси ҳам шу мақсад учун хизмат қилган эди.

Академик Ботирхон Валихўжаев “Бобурнома” матнидаги услубни икки хил дея баҳолаган: “… шундай қилиб, “Бобурнома”даги баён услуби, воқеаларни тасвирлаш, вақтни кўрсатиш каби масалаларга таяниб шуни таъкидлаш мумкинки, Бобур ўз асарини ёзаётганда, биринчидан, хотираларни баён этиш услуби асосида иш тутган бўлса, иккинчидан эса, воқеалар изидан бориб уларни қайд этиш йўлидан усталик билан фойдаланган»[9.67]. Олимнинг ушбу муҳим кузатишларида хотиралар марказида Бобурнинг иштирокчилик роли бирламчи бўлгани назарда тутилмаган.

Адабиётшунос Исроил Сулаймонов ўз илмий тадқиқотида “Бобурнома”ни *том маънода психологик* асар деб атаб, унда муаллифнинг нигоҳи *гувоҳ ва иштирокчи* вазифасини бажарган дея хулоса чиқаради.[1]Албатта, Бобурнинг лавҳаларида руҳият тасвирлари талайгина. Лекин бизнингча, асарда муаллифнинг услуби фақат икки хил вазифа билан чегараланмайди. Асарнинг фақат шу томонига кўпроқ ёндашиб, бошқа муҳим қирраларини назардан қочирмаслик лозим бўлади.

[1]Сулаймонов И. “Бобурнома”да ғолиб ва мағлуб шахс руҳий ҳолатининг бадиий тасвири. Филология фанлари доктори (Dsc) диссертацияси автореферати.–Самарқанд.: 2020.–Б.28.

Кузатишларимизга кўра, “Бобурнома” матни таркибида муаллифнинг услуби қуйидаги кўринишларда намоён бўлади:

1. *Бадиий услуб* – асар таъсирчанлигини ошириш мақсадида киритилган муаллифнинг шеърий парчаларида ва бадииятга йўғрилган лавҳаларда кўзга ташланади. “Бобурнома” таркибида соф бадиий умумлашма характер касб этган, ўзининг муайян бошланма, кульминацион нуқтаси ва ечимига эга бўлган қуйидаги бадиий лавҳалар акс этган: Илова.1- жадвал. Ушбу бадиий лавҳаларда Бобурнинг бадиий маҳоратини акс эттирувчи, адабий услубига хос белгилар ҳам тадқиқ этилди. Илова.2-жадвал.

2. *Таҳлилий-илмий услуб* – муаллифнинг олимларга хос закий зеҳни ва ўткир хотираси, илмий таққослаш ва далиллаш хусусиятлари бир неча фанлар кесимига оид билим ва маълумотларида гавдаланган. Бу маълумотлар тилшунослик, адабиётшунослик, иншо, тарих, диншунослик, сиёсат, иқтисод, ҳарбий соҳалар, табобат, табиат, зоология, геология, набобот каби соҳаларга алоқадор бўлиб, ҳар бир соҳанинг долзарб масалаларига муносабат билдирганлиги билан катта аҳамият касб этади. Ушбу услубнинг асосий белгиси муаллифнинг таққослашдан кўп фойдаланганида кўринади.

3. *Тарихнавис услуби* – воқеликлар баёнида аниқ рақамлар ва тафсилотларга таяниш ҳамда ўзининг холис хулосаларини бера олишида аниқ намоён бўлади.

Демак, “Бобурнома”да Бобурнинг ўзига хос адабий услуби акс этишига қараб муаллиф образининг асосан уч хил мақомда ўз вазифасини бажарганига гувоҳ бўлмоқдамиз. Булар *етакчи қаҳрамон, таҳлилчи олим,тарихчи-кузатувчи* қиёфалари шаклида кўринади. Ушбу вазифалардан *етакчи қаҳрамон* роли асарда марказий ўринни эгаллайди. Иккинчи навбатда, *таҳлилчи олим*, учинчидан эса *тарихчи-*

кузатувчилик мақоминиng муҳим аҳамият касб этганини кўриш мумкин.

Биз тадқиқотларимизда Бобурнинг таҳлилчи олим қиёфасидан келиб чиққан ҳолда, унинг адабиётшуносликка оид адабий-эстетик қарашларини таҳлил этишни мақсад этганмиз. Ушбу асарда бир қатор бадиий ижод масалаларига дахлдор бўлган жиҳатларни кўришимиз мумкин: адабий муҳит ва адабий танқид (*илми нақд)* муаммоси, адабий жанр ва шакл талқинлари, ижодкор тарихий шахсларнинг адабий портрети ва мутасаввиф адиблар зикри кабилар ана шулар жумласидандир. Илова.3-жадвал.

Хулоса қилиб айтганда, “Бобурнома”нинг ўз давридаги тазкиралар ва бошқа адабиётшунослик жанрлари билан параллел ҳолда бажарган вазифалари кўп бўлиб улар ҳақида чуқур изланишлар ўз эгаларини кутмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Leyden John. Erskin W. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan. – London., 1826. – 432 p..
2. Mirza Haydar Duglat’s Tarih-I Rashidi. A History of the Khans of Moghulistan (Persian Text) by W.M. Thachston (xii, 407 pages, 1996.
3. Stephen D.The Poetry and Autobiography of the Baburnama.. The Journal of Asian Studies.Vol.55.(Aug.,1996),pp.635-664.
4. Адизова И.Сўзумни ўқуб англағайсен ўзумни. – Т.:Ғ.Ғулом НМИУ.2008. –Б. 37.
5. Веселовский А.Историческая поэтика..–М.: Высшая школа, 1989. –С. 410.
6. Отажонов. Н. Бобурнома жаҳон адабий жараёнида. Қиёсий типологик таҳлил. 1994. – Т.: –Б.114.
7. Сулаймонов И. “Бобурнома”да ғолиб ва мағлуб шахс руҳий ҳолатининг бадиий тасвири. Филология фанлари

доктори (Dsc) диссертацияси автореферати.–Самарқанд.: 2020. –Б.28.

8. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: 2000. –Б. 191

9. Ўзбек адабиёт тарихи 3-жилд..Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Т.: 1978. –Б.67.

ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР – ТАБИАТШУНОС ОЛИМ

Йўлчи ХУДОЙҚУЛОВ,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси доценти,

Аннотация

Ушбу мақолада Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг серқирра ижодида табиатшунослик илми билан боғлиқ жиҳатлар таҳлил этилиб, “Бобурнома” асарида бир қатор фанлар, жумладан, география, ботаника, зоология каби фанларга оид маълумотлар мавжудлиги ёритилган.

Аннотация

В данной статье анализируются аспекты многогранного творчества Захириддина Мухаммада Бабура, связанные с естествознанием, и освещается наличие сведений по ряду дисциплин, в том числе по географии, ботанике, зоологии, в труде «Бабурнаме».

Annotation

This article analyzes aspects of the multifaceted work of Zahiriddin Muhammad Babur related to natural science, and highlights the availability of information on a number of

disciplines, including geography, botany, zoology, in the work "Boburnoma".

Калит сўзлар. “Бобурнома”, табиатшунослик, фанлар, география, ботаника, зоология, ҳайвонот ва наботот олами, иқлим.

Ключевые слова. «Бабурнаме», естествознание, науки, география, ботаника, зоология, фауна и флора, климат.

Keywords. "Boburnoma", natural science, science, geography, botany, zoology, fauna and flora, climate.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ижодининг серқирралиги энг аввало унинг фалсафий-мемуар асари “Бобурнома” ўз аксини топади. Ушбу асарнинг серқирралиги шундан иборатки, у фақат тарихий асар эмас, балки ўзида ўша даврдаги бир қатор фанлар(география, ботаник, зоология, этнография, ҳарбий фан) нинг илмий ютуқлари ҳам ўз ифодасини топган. Бобур тоғ ва даралар, кўл ва дарёлар, хилма-хил ўсимликлар ва ҳайвонлар, турли ҳудуд ва минтақаларнинг ер ости ва ер усти бойликлари, у ерларда яшайдиган халқларнинг урф-одати ва тили, адабиёти ва санъати, айрим сўзларнинг келиб чиқиши каби масалалар билан астойдил қизиқади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг фалсафий ва табиий-илмий қарашлари унинг фалсафий-мемуар асари ҳисобланган “Бобурнома”да ўз аксини топган. Мазкур асарда Бобурнинг табиатшунослик илми ёки натур фалсафий қарашларини учратиш мумкин. Бобурнинг табиатшунос олим сифатида ўзи яшаган Мовароуннаҳр, Ҳуросон ва Ҳиндистон иқлимининг наботот олами, ўсимликлар ва ҳайвонот дунёси ҳақида батафсил маълумот бериб ўтади. Ўша давр учун бу каби маълумотлар ғоят қимматли аҳамиятга эга бўлган.

“Бобурнома”да хилма-хил маълумотлар шу даражада кўп учрайдики, илм-фаннинг деярли барча соҳаларидаги

мутахассислар бу асардан баҳрамад бўла олади. Бу далилларнинг ҳаққонийлиги туфайли тарихчи ўша даврдаги Ўрта Осиё, Хуросон, Афғонистон ва Ҳиндистон тарихига тегишли муҳим маълумотларга эга бўлса, табиатшунос мазкур ўлкаларнинг топографияси оид маълумотларга, ҳайвонот олами билан шуғулланувчилар эса шу мамлакатлардаги ҳайвонотлар оламига тааллуқли билим ва тасаввурларга эга бўлади; ўсимликшунос шу ҳудудларнинг ўсимликлар дунёси билан танишади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг табиатшунослик ҳақидаги тадқиқотларини алоҳида ўрганган олимлардан бири немис шарқшуноси Ингеборг Ҳауеншилд ҳисобланиб, у “Бобурнома”ни ўрганган ҳолда алоҳида рисола [Hauenschild, I. Botanica und Zoologica im Babur-name. Einelexikologische und kulturhistorischeUntersuchung/Turkologica. Herausgegeben von Lars Johanson. Band 66. HarrassowitsVerlag – Wiesbaden. 2006.144 s.] ёзган[1;-Б.171]. Мазкур рисола муқаддима, ўсимлик ва мева номлари, ҳайвонлар номлари, қисқартмалар ва адабиётлар рўйҳатидан иборат.

Кириш қисмида Бобурнинг Мовароуннаҳр, Афғонистон ва Ҳиндистонда наботот ва ҳайвонот олами ҳақида маълумотлар тўғрисида фикр юритилади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур Фарғона вилояти ҳудуди ва табиати ҳақида қуйидаги маълумотларни бериб ўтади: “Фарғона вилояти бешинчи иқлимдадир. Шарқи Қошғар, ғарби Самарқанд, жануби Бадаҳшоннинг чегараси - тоғлар, шимолда илгарилар Олмолиқ, Олмоту ва Янги сингари шаҳарлар бўлган экан, уни китобларда Ўтрор деб ёзадилар, мўғул ва ўзбеклар юришлари туфайли туфайли ҳозирги пайтда бузилиб кетган, асло ободонлик нишонаси қолмаган.

Кичик вилоятдир, ғалла ва меваси фаровон. Теварак-атрофи тоғлар билан ўралган ”[2;-Б.57]. Албатта, бир неча аср олдин берилган бу илмий маълумотлар ўз навбатида “Бобурнома”ни ўқиган кишида Фарғона вилояти тўғрисида табиий-илмий манзарасини тасаввур эта олади.

Шунингдек, Заҳириддин Муҳаммад Бобур Самарқандга алоҳида тўхталиб ўтади: “Ер юзининг аҳоли яшайдиган қисмида Самарқандча латиф шаҳар камроқдир. Бешинчи иқлимдандир. Узунлиги 99 рамзи нужумий даража (градус), 56 дақиқа, эни 40 даража(градус) ва дақиқадир. Шаҳри – Самарқанд, вилоятини Мовароуннаҳр дейдилар”[2;-Б.104].

Бобур Самарқанднинг географик жойлашуви ва иқлими ҳақида қуйидагиларни келтириб ўтади: “Самарқанд маъмура (ободонлик)нинг чеккараоғида бунёд топган бўлиб, шарқи Фарғона ва Қошғар, ғарби Бухоро ва Хоразм, шимоли Тошканд ва Шохруҳияки, Шош ва Банокат деб ёзадилар, жануби Балх ва Термиз. Кўҳак (Зарафшон дарёси) шимолидан оқади, у Самарқанддан икки курўҳ келади” [2;-Б.105]. Албатта, бу маълумотлар бир неча аср олдин Бобур томонидан Самарқандга берилган.

Хусусан, Заҳириддин Муҳаммад Бобур Афғонистонинг бир қатор вилоятлари ҳақида маълумот берганда Кобулнинг табиатига алоҳида тўхталади: “Ёзлар Кобулда шимолий ели кам эсадур. Аркта шимол сари даричалик уйлар ҳушҳаводур... Бисёр латиф ҳавоси бор. Кобул ҳавосидек ҳаволиқ ер оламда маълум эмаским бўлғай. Ёзларда кечалари пўстинсиз ётиб бўлмас. Қишлар агарчи қори аксар улуғ тушар, вале муфрит совуғи йўқтур. Самарқанд ва Табриз ҳам ҳушҳаволиққа машҳурдур, вале муфрит совуқлари бордур(“Б.”,130а)”[1;-Б.291].

Шунингдек, Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ҳиндистон табиати ҳақида ҳам маълумотларни бериб ўтади:

“Ҳиндистон биринчи, иккинчи ва учинчи иқлимда жойлашгандир. У тўртинчи иқлимга кирмайди. Жуда ажойиб мамлакатдир. Бизнинг ерларга солиштирганда мутлақо ўзга бир олам. Тоғ ва дарёлари, ўрмон ва саҳролари, шаҳар ва вилоятлари, ҳайвон ва ўсимликлари, одамлари ва тили, ёмғири ва шамоли – ҳаммаси бошқача, бизникига ўҳшамайди” [2;-Б.378]. Албатта, Ҳиндистоннинг иқлими ва табиатини Мовароуннаҳр иқлимидан фарқ қилишини Бобур бир неча таъкидлаб ўтсада, унинг ҳайвонот ва ўсимликлар дунёсининг нақадар ранг-баранг эканлигини тилга олади.

Бобур Ҳиндистоннинг ҳайвонот дунёсини вуҳуш – қуруқликда яшовчи ҳайвонлар, туйур – қушлар ва сув ҳайвонлари гуруҳларига ажратгани таъкидланади [1;-Б.171]. Бобурнинг бу фикрлари бугунги кунда фан сифатида мавжуд бўлган зоология фани учун манбаа бўлиб ҳизмат қилиши мумкин.

Шунингдек, Заҳириддин Муҳаммад Бобур табиатшунос олим сифатида Қуёш ва Ой тутилиши каби табиат ҳодисаларини ҳам кузатган. Бобур 1527-1828 йй. ҳар икки ҳодисани ҳам кузатган: Мен кема била-ўқ билтурғи Чавса тўғрисидаги офтоб тутулғон ва рўза (рамазон ойи) тутулғон юртни сайр қилдим”(“Б.”,365a)[1;-Б.621].

Хулоса сифатида Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ижоди кенг қамровли бўлиб, айниқса, унинг фалсафий-мемуар асари ҳисобланган “Бобурнома” асари табиий-илмий қарашлар манбаи ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент. “Шарқ”. 2014. 744 б.
2. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent “NMIU”, 2018. 528 b.

МИРЗО БОБУРНИНГ СЎЗДА СУРАТ ЧИЗИШ МАҲОРАТИ

Ситора ТОЖИДДИНОВА,
“Бобур ва дунё” журнали бош муҳаррири,
Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси

Неча асрларки, Заҳириддин Муҳаммад Бобур шер юракли саркардаю шеър кўнгилли инсон сифатида авлодларга ўрнак бўлиб келмоқда. Унинг ҳар бир асари мисоли хазина. Бу хазиналар орасида “Бобурнома” ўзининг муҳташамлигию қомусийлиги билан ажралиб туради. Шунинг учун ҳам ушбу асар барча замондошларимиз учун бирдай қизиқ, олиму адиблар учун эса такрорланмас тадқиқот манбаидир. “Вақое”ни ўқий туриб, муаллифнинг ёзувчилик маҳоратига таҳсин айтмай илож йўқ. Айниқса, характер ва портрет яратишда Ҳазрат Бобурга яқинлаша оладиган адиблар кам.

“...Мусаввирлик ишини бисёр нозук қилди. Вале соқолсиз элнинг чеҳрасини ёмон очадур. Ғабғаби(бақбақаси)ни кўп улуғ тортадур. Соқоллиқ кишини яхши чеҳрали, кушойлиқ қиладур” (Заҳириддин Муҳаммад Бобур, “Бобурнома”,нашрга тайёрловчи: Порсо Шамсиев, ”Юлдузча” нашриёти, Тошкент, 1989 йил, 164 саҳифа) деб ёзади шоҳ ва шоир. Бу таъриф ўз давридан то ҳануз рассомларнинг устози саналадиган Камолиддин Беҳзод ҳақида. Улуғ мусаввирнинг маҳоратини (“бисёр нозук”) тан олган ҳолда унинг инсон чеҳраси, яъни портрет қисми тасвиридан Мирзо Бобурнинг кўнгли тўлмайди. Бизнингча, нуктадон адиб “соқолсиз эл” деганда хотин-қизларларни

назарда тутаётган кўринади. Яъни, мусаввир аёлларнинг бақбақасини узун чизиб юборади. Эркакларни эса жуда хушрўй қилади. Мирзо Бобур наздида Камолиддин Беҳзод чизган портретлар жуда ҳам мукаммал эмас.

“Рости шу эдики, ёзилди” дея “Бобурнома”даги фикрларини тасдиқлаганини ҳисобга олсак, Ҳазрат Бобур кўнгли буюргани, юрагидан ўтганини адолату ҳақиқат тозусига солиб ёзган. Шу ўринда савол туғилади: замонасининг энг истеъдодли рассоми ҳақида таҳлилий фикр билдирган шахснинг ўзи тасвир маҳоратидан анчайин бохабар бўлгандир?

Ҳайратланарлиси, “Вақое”ни ўқиш жараёнида бот-бот амин бўламизки, бу буюк аждодимиз, ҳақиқатан ҳам, нозик қараш, рассомона нигоҳ ва ўткир дидга эга бўлган. Буни “Бобурнома”даги табиат ва унинг неъматлари тасвирида ҳам, кишилар шакл-шамойили таърифида ҳам кузатиш мумкин. У ўзи кўрган одамларнинг портретини сўз воситасида шундай чизиб берадики, беихтиёр кўз олдингизда ўша тарихий қиёфа пайдо бўлади.

Мисолларга ўтишдан олдин портрет жанри ҳақида икки оғиз маълумот:

“Портрет — французча “portrait” сўзидан олинган бўлиб, тасвир деган маънони билдиради. 1. Реал ҳаётда мавжуд бўлган бир ёки бир неча кишининг ёки рассом тасаввуридаги қиёфанинг тасвири ёки фотограф томонидан ишланган сурати. 2. Адабий асарда персонажлар қиёфасининг тавсифи, тасвири (“Ўзбек тилининг изоҳли луғати”. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. А. Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент 2006 йил).

“Ўзбекистон миллий энциклопедияси”да янада тўлиқроқ изоҳ бор: “Портрет характери асар жанрига ҳамда ёзувчининг ижодий методи ва индивидуал услуби хусусиятларига боғлиқ бўлади. Портрет адабиётда қадимдан

мавжуд. Тасвир воситаси сифатида ўзгариб такомиллашган. Халқ оғзаки ижодида инсон индивидуаллашган шахс сифатида тасвирланмаганлиги учун унинг портрети ҳам кўпинча мавҳум, умумий характерга эга... Қадимги ғарб ва шарқ адабиётларида ҳам портрет кўпинча мавҳум, анъанавий характерда бўлган. Масалан, ғазалларда ёрнинг ташқи қиёфаси ой, қуёш, юлдуз, тун ва кун каби нарсаларга нисбатда кўрсатилган. Реалист ёзувчилар ташқи қиёфани батафсил тавсифлайдилар, унда давр ва ҳаёт тарзи билан боғлиқ ҳолда рўй берган ўзгаришларни айнан акс эттирадилар.(Масалан, А. Қодирий, Ойбек)" (Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7 жилд. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти. Тошкент. 2004 йил. 152 саҳифа).

Бу маълумотга таяниладиган бўлса, демак, портрет жанри 20 асрда ривожланган, деган хулосага келиш мумкин. Лекин, устозларнинг фикрини ҳурмат қилган ҳолда айтишимиз керакки, бу нотўғри талқин. Эътибор берсак, Абдулла Қодирийнинг энг суюкли қаҳрамони Отабекнинг қўлида "Бобурнома" бор: "Кечлик ошни ўтказгач, Ҳасанали ўз ҳужрасидан кийиниб чиқди-да, Отабек ёнига кирди. Отабек "Бобурнома" мутолааси билан машғул эди". Бундан кўринадики, адиб З. М. Бобур ижодини билган, ҳатто ундан таъсирланган бўлиши ҳам мумкин. Шундай экан, реал портрет жанри асосчиси сифатида Ҳазрат Бобур номини тилга олиш керак, деган фикрдамиз. Чунки, гарчи ундан аввал ҳам айрим тарихий асарларда шахсларнинг ташқи қиёфаси, характер хусусиятлари ҳақида маълумотлар бўлса-да, бу нодир истеъдод эгасичалик ўша даврда ҳеч ким сўз воситасида тугал сурат яратиб қолдирмаган.

Бу борада япониялик академик Эйжи Манонинг фикрлари эътирофга лойиқ: "Сарой тарихчиларининг персонажлар тавсифлари билан таққослаганда Бобурнинг

ҳукмдорлар шакл-шамойили, хулқ-атвори, умароси тавсифи мислсиздир. Бошқа тарихий асарларда бундай тасвирларни топа олмаймиз” (Эйжи Мано, Тарихий шахслар ҳақида рўй-рост тасвирлар, Бобур абадияти. Тошкент, “Баёз” нашриёти, 2018 йил, 23-саҳифа).

“Вақое”нинг ҳозиргача бизга маълум саҳифаларида Умаршайх мирзо, Султон Аҳмад Мирзо, Султон Маҳмуд Мирзо, Бойсунғур Мирзо, Султон Ҳусайн Мирзонинг ташқи қиёфалари “шакл-шамойили” тарзида таснифлаб кўрсатилган. Қолаверса, матн ичида бошқа тарихий шахслар, бек ва амирларнинг кўриниши ва характеридаги ўзига хос жиҳатлари ҳам ижодкорона маҳорат билан тасвирлаганки, беихтиёр уларни тасаввурингизда жонлантира оласиз.

Мирзо Бобур яратган портретлар ҳақида гап кетганда, энг аввало, Умаршайх мирзо қиёфаси хаёлимизда гавдаланади. Аслида ҳар қандай фарзанд учун отадан улуғроқ инсон йўқ. Муаллиф бу тарихий асарини ёзишда ростлик тарозисини маҳкам тутгани учундир балки, ҳатто падари бузрукворининг портрети ва характерини тасвирлашда ҳам ҳақиқат йўлидан оғишмайди. Беихтиёр китобхон Умаршайх Мирзо суратию сийратини кўргандек бўлади: “Паст бўйлуқ, тегирма (юмалоқ) соқоллиқ, қўба(сарғиш) юзлук, танбал киши эди. Тўнни бисёр тор кияр эди, андоғким, боғ боғлатурда қорнини ичига тортиб боғлатур эди, боғ боғлағондин сўнг ўзини қўя берса, бисёр бўлур эдиким, боғлари узулур эди. Киймоқта ва емоқта бетакаллуф эди. Дастор(салла)ни дасторпеч(салла ўрайдиган махсус киши) чирмар эди. Ул замонда дасторлар тамом чорпеч эди, бечин чирмаб, алоқа қўяр эдилар. Ёзлар ғайри девонда аксар мўғулий бўрк кияр эди”(Заҳириддин Муҳаммад Бобур, “Бобурнома”,нашрга тайёрловчи: Порсо Шамсиев, ”Юлдузча” нашриёти, Тошкент , 1989 йил, 9-10 саҳифа).

Мана шу тасвирнинг ўзида муаллиф Умаршайх Мирзонинг икки портретини яратиб берган. Биринчиси, девонда давлат ишлари билан шуғулланаётган шоҳ: саллани ўша давр одатига кўра, тўрт ўраб, учини осилтириб қўйган “паст бўйлуқ, тегирма (юмалоқ) соқоллиқ, қўба(сарғиш) юзлук” киши. Иккинчиси, ёз фаслида давлат ишларидан бошқа ерлардаги, кундалик ҳаётдаги отасининг қиёфаси: “ёз пайтлари маҳкамадан бошқа ерларда аксар мўғулча бўрк киярди”.

Адиб портрет яратишда руҳий-ахлоқий омилларни ҳам назардан четда қолдирмайди: ”Бисёр саховати бор эрди. Хулқи дағи саховатича бор эрди, хушхулқ ва ҳарроф ва фасиҳ ва ширин забон киши эрди, шужоъ ва мардона киши эди”.

Айнан мана шундай характер чизгилари инсон қиёфасини тугал тасаввур қилишга ёрдам беради. Бу жумлаларни ўқий туриб, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг бола чоғидаёқ зеҳнли, атрофидагиларга ғоятда эътиборли бўлгани, қолаверса, ҳофизасининг нақадар мустаҳкамлигига амин бўламиз. Зотан, 12 ёшида отасидан айрилган йигитнинг болалик хотираларида отасининг ташқи қиёфаси алоҳида ўрин эгаллаган. Шу боис бўлса керак, Умаршайх Мирзонинг ташқи қиёфасию ички оламидаги майда деталларгача аниқ тасвирлаб берилган.

Султон Ҳусайнга берилган таъриф ҳам ниҳоятда қизиқарли. “Қийиқ кўзлук, шер андом бўйлуқ киши эди. Белидин қуйи инчка эди. Бовужудким, улуғ ёш яшаб, оқ соқоллик бўлуб эди, хушранг, қизил, яшил абришимни кияр эди. Қора қўзи бўрк кияр эди ё қалпоқ. Аҳёнан ийдларда кичик сепеч дасторни яп-ясси ямон чирмон чирмаб, қарқара ўтағаси(пати) санчиб, намозга борур эди” (Бобурнома. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Нашрга тайёрловчи: Порсо

Шамсиев. Тошкент. “Юлдузча” нашриёти. 1989 йил. 147-саҳифа).

Сўз воситасида сурати чизиб қолдирилган бу тарихий шахс ҳақида “Бобур энциклопедияси”да шундай маълумотлар бор: “Ҳусайн Бойқаро — Султон Ҳусайннинг ҳозирги бадиий адабиётда (кўпинча илмий адабиётда ҳам) зикр қилинадиган исми ”Бобурнома”да унинг бобоси ва акасининг исми Бойқаро бўлгани таъкидланиб, ўзи фақат Султон Ҳусайн Мирзо, айрим ўринларда эса Мирзо деб ёзилган. Бошқа тарихий манбалар(“Ҳабибус-сияр”, “Макоримул-ахлоқ”)да ҳам Султон Ҳусайнга нисбатан “Бойқаро исми қўлланилмаган. Алишер Навоийнинг унга бағишланган қасидасида, “Мажолисун-нафоис” тазкираси, бошқа асарларида ҳам айнан “Султон Ҳусайн” ёки “Абулғози Султон Ҳусайн Баҳодирхон” шаклида ёзилган” (“Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси” “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, Тошкент, 2014 йил,650-саҳифа).

Бу тасвирлардан беихтиёр кўз олдимизда биз бугун Ҳусайн Бойқаро деб танийдиган Алишер Навоийнинг дўсти сурати пайдо бўлади: шеркелбат, қийиқ кўз, оқ соқолли, улуғ ёшли бўлсада, ёркин рангдаги қизил ёки яшил шоҳона либос, қора қўзи терисидан қилинган бош кийим — бўрк кийган киши. Қолаверса, бу ерда ҳам Ҳусайн Бойқаронинг яна бир байрамона портрети бор. Ҳазрат Бобур унинг ҳайит байрамларида уч ўрамали саллага қарқара патини санчиб кийганини ёзади.

Китобхон тасаввурида муайян қиёфа шаклланган, муаллиф унинг ички дунёси билан яқиндан таништира бошлайди: “ Ҳарроф (сўзамол*)* ва хушхулқ киши эди. Хулқи бир нима гузаророк воқе бўлуб эди, сўзи ҳам хулқидек эди. Баъзи муамалотта шаръ(шариат)ни бисёр риоят қилур эди. Бир қатла бир ўғли бир кишини ўлтурган учун

қонликлариға(хун талаб қилганларга) топшуруб, дорулқазо(қозихона)ға йиборди”.

Яна шуниси эътиборлики, Ҳазрат Бобур зоҳирий қиёфа ботинни ифодалай олмаслигини жуда яхши билган ва буни китобхонлар ҳам ҳис қилишлари учун ташқи ва ички олам тафовутларини ҳам моҳирона ифодалаб берган. Жумладан, Султон Ҳусайннинг ўғиллари ҳақидаги маълумотлар орасида шундай тасвир бор:“Яна Шоҳғариб мирзо эди, букри эди. Агарчи ҳайъати(ташқи кўриниши) ёмон эди, табъи (қобилияти) хўб эди. Агарчи бадани нотавон эди, каломи марғуб (ёқимли) эди. “Ғарибий” тахаллус қилур эди, девон ҳам тартиб қилиб эди”(Бобурнома. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Нашрга тайёрловчи: Порсо Шамсиев. Тошкент. “Юлдузча” нашриёти. 1989 йил. 149-саҳифа). Бу жумлалар Мирзо Бобурнинг ички гўзалликни-да кўра билувчи нуктадон ижодкор эканини далиллайди. Инсоннинг ташқи қиёфаси алдамчи, ботин бирламчи эканини ёдга солади. “Агарчи бадани нотавон эди, каломи марғуб эди” деган таърифда инсоннинг суратию сийрати бирдай акс этган.

Киото университетининг фахрий профессори Эйжи Мано шоҳ ва шоир яратган портрет ва характерлар ҳақида ўзига хос хулоса чиқарган: “Бобур ҳарбий одамнинг ташқи кўриниши, кийими, табъи ва одатларини ифода этади, мамлакатларни, уларнинг иқлими, табиати, хўжалиги, санъат ва ҳунармандлик намуналарини тасвирлаб беради. Лекин муаллифнинг ёркин характери асарга энг кўп жозиба бағишлайди”.

Чиндан ҳам, асар давомида Мирзо Бобурнинг кенг қиррали характер хусусиятларининг илғаб бораверамиз. Биринчи галда унинг ўта ростгўй инсон бўлгани таҳсинга лойиқ. Бор гуноҳу савобини рўй-рост ёзган. У гоҳ гулларнинг турию рангини санаётган биолог, гоҳ ҳарбий

санъатдан сабоқ бераётган саркарда, гоҳ сўзни, шеърни увол қилмасликни ўргатаётган адабиётшунос ва ҳатто касалликлар ташхисию даво йўллари ҳақида фикр билдираётган шифокор, меҳрибон ва қаттиққўл ота, оқибатли қариндош, дилкаш суҳбатдош каби суратларда гавдаланади. Унинг асарлари Ғарб мамлакатларида ҳам севиб ўқилаётгани, қайта-қайта таржима ва янги нашрлар қилинаётганининг бош сабаби ҳам мана шу ростгўйликда бўлса не ажаб. Муаллиф ҳатто ўз камчиликларини-да хаспўшламай айтаверади. У замондошларини ва биз авлодларини алдамагани учун ҳам ҳурматга лойиқ.

Айниқса, ҳазрат Бобур сийратидаги мулоҳазакорлик, босиқлик, танганинг ҳар икки томонини бирдай кўра олиш қобилиятини алоҳида эътироф этиш лозим. У биров ҳақида маълумот берар экан, унинг фазилатларини санай туриб, камчилигини ҳам унутмайди. Ҳатто душманлари тасвирида ҳам уларнинг қусурларини санай туриб, ҳеч бўлмаганда «табъи назми» борлигини эътироф этади. Шу боис ҳам, унинг «Рости шу эдики, ёзилди» деган гапи мутлақ ишонарли. Унинг шу фазилати боис ҳам биз бугун кўплаб тарихий шахслар ҳақида муайян тасаввурга эга бўламиз.

Ҳазрати Бобурнинг нозик мусаввирона нигоҳ эгаси эканини қуйидаги жумлалар ҳам исботлайди:

“Хаёлимда бу эдиким, элни ғофил қилиб, ёлғуз отланиб, Истарғачға борғайман. Эл воқиф эди, муяссар бўлмади. Охир нақора вақтида отландим. Турдибек била Шоҳзодаға хабар қилиб, учовлон отланиб, Истарғач сари мутаважжиҳ бўлдук” (Бобурнома. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Нашрга тайёрловчи: Порсо Шамсиев. Тошкент. “Юлдузча” нашриёти. 1989 йил. 226-саҳифа). Шу ўринда изоҳлаш лозимки, забардаст саркарда ва нозиктаъб шоир бу ўринда ёлғиз ўзи хазон сайрини ихтиёр этган. Аммо, баён этилганидек, эл воқиф бўлгач, ҳамроҳлар билан бирга хазон

сайрига отланган. Сайр давомида ҳазрат Бобур ўз кўзи билан кўриб, ҳайратга тушган бир манзарани шундай ифодалайди: “Бир олма ниҳоли яхши хазон бўлуб эди, ҳар қайси шохида беш-олти барг сиёқ била қолиб эди, андоққим, агар нақкошлар такаллуф била тортсалар, онча торта олмағай эдилар”. (Бобурнома. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Нашрга тайёрловчи: Порсо Шамсиев. Тошкент. “Юлдузча” нашриёти. 1989 йил. 227-саҳифа).

Одатда мумтоз адабиётимизда куз, хазон фасли кексалик, донишмандлик, умр ниҳояси каби маҳзун фалсафий қарашларни ифодалайди. Аммо Мирзо Бобур учун хазон сайри — гўзаллик байрами. У олма ниҳолининг кузги тароватидан ҳайратга тушиб, ҳеч бир рассом бу дарахтни у кўрганчалик чиройли чиза олмаслигини айтади. Шу боис ҳам биз ҳеч иккиланмай Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўткир рассомона нигоҳ, драматик ижодкор бўлганини эътироф этамиз.

Сўзимиз ниҳоясида эслаб ўтиш керакки, бир ярим мингдан ошиқ кишилар тилга олинган “Вақое”да хотин-қизларнинг бирорта портрети яратилмаган. Айрим ўринларда характер хусусиятлари қисқагина очиб берилган, аммо аёлларнинг тугал қиёфаси мавжуд эмас. Буни, биринчидан, Мирзо Бобурнинг миллий менталитетимизга хос бўлган фазилатлари — оила аёлларини қизғаниш, номус-ор масаласига йўйсак, иккинчи томондан, шоҳ ва шоирнинг диний тарбияси билан боғлаш тўғри бўлса керак. Зотан, бизда номаҳрамларга аёлларини кўз-кўзлаш жоиз саналмайди. Фақат бир ўриндагина муаллиф момоси ҳақида эҳтиром билан сўзлаган: “Хотунлар орасида раъй ва тадбирда менинг улуғ онам Эсон Давлатбегимча кам бўлғай эди, бисёр оқила ва мудаббира эди. Кўпроқ иш-куч аларнинг машварати била бўлур эди” (Бобурнома. Заҳириддин

Муҳаммад Бобур. Нашрга тайёрловчи: Порсо Шамсиев. Тошкент. “Юлдузча” нашриёти. 1989 йил. 25-саҳифа).

Тан олиб айтамизки, бу маълумотлар Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг сўзда сурат яратиш маҳорати ҳақида денгиздан томчи кабидир. Олдимизда ҳақгўй адиб яратган қиёфаларни таснифлаш, характер хусусиятларини таҳлил қилиш, кишилар портретини насл-насаби, касб-корига кўра ўрганиш масалалари турибди.

Зотан, “Бобурнома” маҳобатли бир дарёдирки, ундан ҳар ким ҳовучига яраша дур топа олади.



“BOBURNOMA” QOMUSIY ASAR

Ra’no YO’LDOSHEVA,
Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi va “Boburnoma” memuar asari deyarli barcha sohalar uchun ma’lumotlar manbai ekanligi tavsiflandi. Asar haqidagi chet ellik olimlarning o’z fikr va mulohazalari keltirildi.

Kalit so’zlar: “Boburnoma”, qomus, Berk, Uiliyam Erks, geografiya , muqaddima, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, etnografiya, Yuliy Sezar va Bobur.

Bobur-mukammal inson. Zahiriddin Muhammad Bobur ham shoirlik ham shohlik ham olimlik,odamiylik, go’zal hulqlilik, fidoyilik, oliyjanoblik kabi hislatlar borasida benazidir. Boburni nafaqat O’zbekiston balki butun jahon ayniqsa, Hindiston eli ulug’laydi, alqaydi. Bu so’zimizga yaqqol isbot tariqasida

Hindiston elining farzandi Javohirlal Neruning quyidagi fikrlarini keltirsak: ”Bobur-dilbar shaxs. Uyg’onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir.U mard va tadbirkor odam bo’lgan….Bobur san’at va ayniqsa adabiyotni sevar edi.”

Bobur har sohada yetuk inson edi. Birgina “Boburnoma” asari uning yigirmadan ortiq sohaga egaligi haqida ma’limot beradi.

“Boburnoma” - dunyo tarixida eng ko’p hukmronlik qilgan sulolalardan biri haqidagi asar hisoblanadi. Ushbu asarning bosh qahramomi ham Bobur.Uning hayot yo’li, ilmi va kashfiyotlari to’grisidagi asar.Ushbu asarni qomusiy deb baholashimizda ham yetarlicha asos bor. Qomusiy-asosi qomus bo’lgan ushbu so’z arab tilidan olingan bo’lib, asliyatda okean, lug’at,so’z boyligi kabi ma’nolarni anglatadi. Izohli lug’atga ko’ra 3 xil ma’noda qo’llaniladi:

1.Mukammal to’liq lug’at.

2.Ensiklopediya ya’ni ensiklopedik lug’at

3.Ko’chma ma’noda: hayot yoki bilimning biror sohasiga oid to’liq asar.

Yuqorida sanab o’tilgan jihatlarning biriga ega bo’lgan asarga biz qomusiy asar deya ta’rif berishimiz mumkun ekan. “Boburnoma” asari esa keltirilgan barcha jihatlarga to’laqonlik mos keladi. Shu sababli biz uni qomusiy deya baholay olamiz. Birinchi navbatda “Boburnoma”ni mukammal to’liq lug’at deb atashimizga sabab shuki, aynan shu asarda muallif ba’zi mavhum so’zlarga oydinlik kiritgan. Ayniqsa, joy nomlariga, ularning nima uchun shunday atalishiga, tarixiga qiziqqan. Agar “Boburnoma” yozilmaganda biz Qashqadaryoning markazi Qarshi shahrini nima uchun shunday nomlangaini bilmas edik. “Qarshi” so’zining zid, ro’para, saroy, qasr kabi ma’no anglatishini bilar edik. Ammo, Bobur ushbu so’z mo’g’ulcha ekanini va ushbu so’z “qabriston “ ma’nosini ifodalashini o’z asarida keltirgan.Asarda shunday deyilgan edi: “Yana Qarshi

viloyatidirki, Nasaf va Naxshab ham der edilar. Qarshi mo'g'ulcha otdir. Go'rxonani mo'g'ul tili bilan "qarshi" derlar.Aftidan bu ot Chingizxon istilosidan so'ng bo'lgandir."[1].

"Boburnoma"ni mukammal to'liq lug'at deb nomlashimizga yana bir misol shundaki, Bobur o'z asarida laqablarning kelib chiqishini ifodalab bergan. Bunga misol tariqasida o'z asarida kichik tog'asining "olacha" laqabi borligini va bu laqab nima ma'noni anglatishini ifodalagan. "Sulton Mahmudxondan kichigi Sulton Ahmadxon edi. U Olachaxon nomi bilan mashhurdir". "Olacha" ismining qo'yilishi sababida deydilarki, qalmoq va mo'g'ul tillarida "o'ldiruvchi"ni "olachi" derlar. Qalmoqlarni bir necha marta bosib olib, ko'p insonlarni qirgani uchun olachi deb ko'p aytilaverganidan "olacha" bo'lib ketgan". Shu kabi misollardan talaygiansini siz asarda juda ko'p uchratasiz.

Shaxsan men "Boburnoma" asarini qayta nomlash imkoniyatiga ega bo'la olganimda ushbu asarning nomini "Dunyo va ohirat ensiklopediyasi" deya nom bergan bo'lar edim. Darhaqiqat, asarning ensiklopediyadan kam joyi yo'q. Asarda siz bilmagan, eshitmagan joy nomlari, hayvonot olami,san'at, tarixiy sana va hodisalar, adabiyot sohasidagi yangi atama va kashfiyotlarni uchratishingiz mumkin. "Boburnoma" asarida turli joylarning iqlimi, joylashuvi, aholisi haqidagi keltirilgan ma'lumotlar qahramonning geografiya sohasidan qanchalar xabardor ekanligini ko'rsatib beradi. Jumladan, Bobur O'sh va Kosonni taqqoslab shunday yozadi: "Andijonga syv O'shdan kelganidek, Axsiga suv Kosondan keladi. Havosi yaxshi, shaftoli bog'lari ham bor. Xushhavolikda O'sh bilan Kosonnning o'xshashligi bor". "Boburnoma"ni ensiklopediya deb atashimizga sabab shundaki, unda nafaqat joy nomlari balki ana shu joylarning iqlimi va aholisi haqida ham ma'lumorlar keltirilga. Masalan: "Xuroson va Samarqandda turkey aymoqlar ko'chmanchilardir. Afg'onistonda esa xazora va afg'onlar ko'chib yuradilar". Asarda Bobur Hisor tog'larining janubiy

etaklarida yog’ingarchilik ko’p bo’lishini, Farg’ona vodiysidagi qishki iqlim havo oqimlarining g’arbdan sharqqa qarab esishi va Bekobod vodiyiga kirib kelishiga bog’liqligi to’g’risida ilmiy faktlar kiritgan. Asarda siz nafaqat geografiyaga oid balki, psixiologiya, biologiya, zoologiya kabi aniq va ijtimoiy fanlarga ham oid ma’lumotlarga ega bo’lasiz. Masalan, asardagi Bobur aytgan turli foydali giyohlarga to’xtalsak. Bobur shunday yozadi: ”Farg’ona viloyatining tevarak-atrofidagi tog’larda yaxshi yaylovlar bor. Tobulg’u ana shu yaylovlarda o’sadi. Tobulg’u bu butasimon o’simlik bo’lib, po’sti qizil. Undan hassa, qushlarga in, qamchiga dasta va kamon yasasa bo’ladi”.

Barchaga ma’lumki, Bobur umrining yarmini musofirlikda, o’zga yurtda o’tkazadi. Uning qiziquvchanligi o’zga yurtda ham davom etadi. U o’z asarida Hindiston iqlimi, aholisi, tabiati va mevalari to’g’risida ham ilmiy nazariyalarni o’z asarida keltiradi. Asarda banan daraxti(keyla) va kakos palmasi (anba) haqida ma’lumotlar bor.

Bobur asarda hayvonot olamida ham o’z izlanishlarini namoyon etgan. Jumladan, u hayvonot olamini 4 turga bo’lib o’rganishni ma’qul topadi. Ular: quruqlikdagi hayvonlar, parrandalar, suvda va suv yoqasida yuradigan qushlar va suv hayvonlari. Asarda Hindistondagi fillar haqida shunday deydi: “Yovvoyi hayvonlardan biri fildir.Hindistonliklar uni “haatiy” deb ataydi….”.

“Boburnoma” asari ham ilmingizni, ham tafakkuringizni oshiruvchi asar desak mubolag’a bo’lmaydi. Asarda keltirilgan geografik, biologik, zoologik, leksikologik va boshqa ilmiy sohadagi faktlarning adog’i yo’q. Biz ushbu asarni adabiyotshunoslik va tilshunoslik haqidagi fan deb atashimiz ham mumkin. Bunga sabab shundaki, asarda ushbu sohalarga oid ma’lumotlar ham talaygina, jumladan, asarda 50 dan ortiq shoirlarning ismi aytilib asarlari tahlil qilingan va ba’zi joylarda qahramon tomonidan baholangan. Bobur baholashda Navoiydan

qattiqroq deyilgan asarda. Bu adabiyotshunoslik jihati bo'lsa, shorning yangi alifbo yaratgani va unga "Xatti Boburiy" deya nom berganini tilshunoslik sohasiga yoysak bo'ladi. Asarning yana bir e'tiborga va etirofga molik jihati unung tarixiy memuar asarligidadir. Asar XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarimigacha Xuroson, Movorounnahr, Hindistonda bo'lgam tarixiy voqealar va yashab o'tgan tarixiy shaxslar haqida yozilgan. Olimlarning aytishicha, asarda uchragan ba'zi shaxslar boshqa hech bir tarixiy kitoblarda uchramaydi. "Boburnoma" asari arab, fors, nemus, ingliz, turk tillariga tarjima qilingan bo'lib, jahonning nufuzli kutubxonalarida saqlanmoqda. XIX asrda Markaziy Osiyoni o'rgangan vengriyalik sayyoh A.Vamber "Boburnoma" asarini Yuliy Sezarning "Kommentariya" asari kabi jahon miqyosida katta o'rin egallaydi deb fikr bildirgan. Ingliz tarixchisi Eduard Holden Boburni Yuli Sezar bilan qiyoslashni lozim topadi: "Bobur fe'l atvoriga ko'ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan". Bundan ko'rinadiki, Bobur nafaqat biz uchun baki, butun jahondagi olimlar uchun ham hurmatga sazovor buyuk shaxsdir. Uning asari esa hayot va bilim haqidagi ensiklopediya kabidir. Ko'plab chet el yozuvchilari: Uilyam Erskin, Javohirlal Neru, Fransua Berne,Annamarie Shimmel, Uilyam Erskin va boshqalar Bobur haqida asarlar yozgani so'zimizning yaqqol isboti desak mubolag'a bo'lmaydi. Ular Boburning hayoti va ijodiga yozgan asarlariga katta qiziqish bildirishgan va Bobur haqida asarlar yozishgan. Darhaqiqat, ushbu urunish orqali biz Boburning xorij mamlakatlaridagi nufuzini his qila oldik. Shaxsan men shunday buyuk ajdodning avlodi ekanligimdan fahrlanaman. Xulosa o'rnida "Boburnoma" asarining kotibi Bobur haqidagi keltirgan 8 fazilatini havola etishni o'zmga joiz deb bildim. Boburning 8 fazilati asliga xos edi: biri bulkim - iqboli baland edi; ikkinchisi – himmati yuksak edi: uchinchisi - viloyat olmoq; to'rtinchisi – viloyat saqlamoq;

beshinchisi – ma’murli; oltinchisi – Alloh bandalariga farovonlik niyati; yettinchisi – lashkar ko’nglini qo’lga olmoq; sakkizinchisi – adolat qilmoq. Ushbu fazilatlar yosh avlodga dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Xorijda Bobur shunoslik. – T.: Mumtoz so’z,2008. -224 b.
2.Zahiriddin Muhammad Bobur. – T.: Oqituvchi,2017.-365 b.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur Devon. –T.: Badiiy adabiyot nashriyoti,1965.-233b.
4. O’zbek adabiyoti tarixi. – T.:O’qituvchi,1965.-667 b
5. Ziyo.uz

“ЮЛДУЗЛИ ТУНЛАР” АСАРИДА БОБУР ОБРАЗИ

Малоҳат БАДАЛБОЕВА,
Ўзбекистон Республикаси ФВВ Академияси
Тиллар кафедраси катта ўқитувчиси,
Раъно БАДАЛБОЕВА,
Тошкент шаҳридаги 319-сонли умумтаълим мактаби.
тарих фани ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада “Юлдузли тунлар” асарида Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти ва унинг образи батафсил тасвирлаб берилганлиги, шунингдек муаллифнинг асар давомида Бобурнинг ички кечинмаларини батафсил ёритиб берганлиги илмий жиҳатдан чуқур таҳлил этилган.

Калит сўзлар: “Юлдузли тунлар”, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, ўзбек тилшунослиги, образ, мард, доно, одил, раҳмдил, чавандоз.

Abstract. In this article the author's descriptions about the life and the image of Zakhiriddin Mukhammad Babur and the descriptions about the inner experiences of Babur in the work "Starry nights" was deyeply analyzed in scientifically point of view.

Key words: "Baburname", "Starry nights", Zakhiriddin Mukhammad Babur, Uzbek linguistics, image, courageous, wisdom, honest, kindness (warm-hearted), rider.

Ўзбекистон Республикаси мустақилликни қўлга киритгандан сўнг, миллий қадриятларни қайта баҳолаш ўзига хос бир жараён тусини олди. Айниқса, кейинг йилларда миллий маънавиятнинг таркибий қисми бўлган, ўзбек тилшунослиги тарихи ва ономастикасини бир тарихий асар тили мисолида ўрганиш, янада кучаяди.

Биринчи Президентимиз Ислом Каримов таъкидлаганларидек: "Халқнинг маънавияти ва маданияти, унинг ҳақиқий тарихи ва ўзига хослиги қайта тикланаётган шароитда, жамиятимизни янгилаш ва тараққий эттириш йўлидан муваффақиятли равишда олға силжитишда ҳал қилувчи, таъбир жоиз бўлса, белгиловчи аҳамиятга эгадир" [Каримов, 2002:231].

Заҳириддин Муҳаммад Бобур XVI аср ўзбек адабиётининг кўзга кўринган йирик вакилларидан бири бўлиб, ўз ижодида Низомий, Хусрав Деҳлавий, Лутфий, Навоий анъаналарини давом эттирган буюк шоирдир. Бобур асарлари ўзининг юксак ғоявийлиги, чуқур мазмундорлиги ва бадиий равонлиги билан ажралиб туради. У ўзининг мураккаб ҳаёт йўли, дунёқараши, шунингдек, бой адабий-илмий мероси билан ўзбек адабиёти тарихида муносиб ўрин эгаллайди.

Бобур Мирзонинг Ҳумоюнга ёзган махфий васиятида ҳам унинг атрофидагиларга нисбатан нечоғли адолатпарвар, одамийлик сифати ила муомалада бўлган шахс эканлигини

кўриш мумкин: “Эй фарзандим, Ҳиндистон мамлакати турли мазҳаблардан маъмур бўлган. Аллоҳ таоло Сизга буни каромат этди. Сиз мазҳабларни ёмон кўришдан дилингизни пок тутинг. Ҳар мазҳабнинг тариқасига (йўлига) адолат қилинг. Хусусан, Ҳиндистоннинг қалбини қўлга киритаман десангиз, сигир сўймоқдан ўзингизни тийинг.

Бу яхшилигингиз эвазига шу вилоят халқининг қалби Сизга яқин бўлади. Қўлингиз остидаги ҳар қавмнинг ибодатгоҳларини ва муқаддас жойларини хароб этманг. Шундай одилликни ихтиёр қилингки, подишоҳ раъиятдан ва раъият подишоҳдан осуда бўлсин. Исломнинг тараққиёти эҳсон қиличидан яхшироқ бўлади, зулм тиғидан эмас. …. Подишолик ишларини пухта қилиш учун ҳазрат Амир Темур Соҳибқироннинг ишларини кўз олдингизда тутинг”.



Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” асари босмадан чиққанига 41 йилдан ошган бўлса ҳамки, ҳамма китобхонларнинг севимли асарига айланиб улгурган.

Муаллиф айтганларидек асар ҳақиқатни куйловчи бўлиб яралди: “Хилма-хил фикр ва мулоҳазалар чангалзоридан тиканларга тирналиб ўтдим, йўлимдан адашиб кетмаслик учун доим тарих ҳақиқатига, хусусан – “Бобурнома”дай асл манбаларга таяндим”.[Қодиров, 2019:1].

Асарнинг бошланмасида Фарғона водийси тасвири жуда ажойиб тарзда кўзолдингизда гавдаланади: “Саратон иссиғида Фарғона водийсининг осмонига чиққан қуюқ булутлар куни бўйи ҳавони дим қилиб турди-ю, кечки пайт бирдан жала қуйиб берди”. Муаллиф бу манзара орқали об-ҳаво тасвирини эмас, гўёки ўша давр сиёсий манзарасини кўрсатиб беради. Тарихдан маълумки, ўша даврда юртимизда ички урушлар авж олиб ташқи душманларимиз мамлакат сарҳадларига тез-тез ҳужум қила бошлаган эдилар.

Асар бошиданоқ кичик Бобур Мирзо катта инсонлар сингари фикрлай олишини ва аждодлари Амир Темур, Шохруҳ Мирзо, Улуғбек каби доно, раҳмдил, одил ва жанговор санъатнинг устаси эканлигига гувоҳ бўламиз.

Асарда тугуннинг бошланиши Ахсида Бобур Мирзонинг отаси Умаршайх Мирзонинг ўз кабутархонасидан йиқилиб вафот этишидан бошланиб кетади. Отасининг ўлим хабари келганда: Чопарлар ҳали йўлда. Уруш тўполон Андижонга етиб келганича йўқ. Шаҳарнинг шимолидаги кўркам чорбоғ баланд девор билан ўралган, дарвозаларга соқчилар қўйилган. Чорбоғ ичида ўн икки ёшлик Бобурмирзо чавандозлик машқлари ўтказмоқда. Пиримқул Қодиров асарнинг энг қайғули шундай тасвирлаганки, китобхон Бобур Мирзо нималарни ҳис қилганини ҳис қила олади: “Ҳозиргина гулдай нафис туйғулар ичида юрган Бобурга ўлим хабари шу гул орасидан чиққан илон бўлиб туюлди. У Қосимбекдан сескангандай ранги ўчиб, бирдан орқага тисарилди”. [Қодиров, 2019:42].

Муаллиф асар давомида табиат манзарасини ўз кўзлари билан кўрган мисоли тасвирлаганига гувоҳ бўламиз: “Баланд тепалик устига қурилган Ахси қалъаси тун оғушида тоғ қоясига ўхшаб қорайиб кўринади. Қалъа этагида Косонсойнинг Сирдарёга гувуллаб қуйилаётгани, икки дарё тўлқинлари бир-бирлари билан олишиб, қирғоққа шалоплаб урилаётгани узоқдан эшитилиб туради”. Асар давомида кўпгина образларнинг ҳаракати ва қилган ишлари орқали уларнинг қандай мақсадда бундай образ ва исм қўйилганлигига ҳам эътибор қиламиз. Мисол учун Бобурнинг вафотига қадар унинг ёнида содиқ хизмат қилган инсон Тоҳир образига келадиган бўлсак, муаллиф бу қаҳрамоннинг исми ва образи орқали рамзий маънони беришини кўрсатмоқчи бўлган.

Пиримқул Қодиров Султон табиати, ниятидаги ўзгаришларни тасвирлашда эса “Бобурнома”даги мана бундай маълумотлардан ўринли фойдаланади: “Султон Бобурнинг совқотиб асабийлашишини, йўл жуда секинлаб қолганидан тажанг бўлишини, одамларига бақириб-сўкиниб иш буюриши, айтганини қилмаганлар бўлса, қамчи билан савалашини кутмоқда эди.

Отаси ва акасини ўлимга буюрган ҳукмдорлар қиёфасида Султон ана шунақа золимларни кўрган, бугун эса улардан бирининг талвасага тушишига гувоҳ бўлиб, бир аламдан чиққиси келаверди”. Бироқ, Султон кутганидек бўлмайди. Чунки Бобур: “Маҳалул эмас эдиким, кишиға таклиф ва зўре қилилғай, ҳаркимнинг ҳиммат ва журъати бўлса бундоқ ишларни ўзи тилаб қилур” деб ҳисоблайди. Пиримқул Қодиров қаҳрамонлар нутқи, ички монолог, табиат манзараларни тасвирлаш асносида, Бобур шахсиятидаги мардлик, олижаноблик, фидойилик каби фазилатларни очиб беради.

Хулоса ўрнида, Пиримқул Қодиров томонидан “Юлдузли тунлар” асарида шоҳ Бобур образи орқали эса алоҳида олижаноб инсонийлик, адолатпарвар, ватанпарвар, оилапарвар

каби фазилатларни ўзида мужассам этган ўзбек халқига хос характерли қаҳрамон намоён бўлган. Асарда шоҳ Бобур образи орқали жуда кўпчиликка ўрнак бўлган улуғ инсонни учратиш мумкин. Ёш авлодни тарбиялашда намуна қилиб келтиришда нодир идеал инсон образи, десак муболаға бўлмайди. Юртбошимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Бобур Мирзо бизнинг бобомиз, бизнинг қонимиз, бизнинг болаларимизга ғурур билан айтадиган буюк аждодимиздир. У Андижонда туғилди, Андижонда камол топди. Мана шундай аждодларимиз борлиги, мана шулар Андижон фарзанди эканлигини ҳеч қайсимиз, ҳеч қачон унутмаслигимиз керак. Ўзлигимизни англашни шундан бошлашимиз лозим”.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ислом Каримов. Биздан озод ва обод ватан қолсин. Т.: Ўзбекистон нашриёти. 2002. 231-бет.

2. Пиримқул Қодиров. Юлдузли тунлар. Т.: Шарқ нашриёти. 2019. 1, 42-бетлар.

3. www.ziyonet.com.

“БОБУРНОМА” АСАРИДА ТАБИИЙ ФАНЛАРГА ОИД ЛЕКСЕМАЛАР ТАҲЛИЛИ

Шодия САФОЕВА,
Алишер Навоий номидаги
Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти
университети магистранти

Аннотация. Ушбу мақолада Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асаридаги табиий фанларга оид лексемалар лексик-семантик жиҳатдан таҳлил остига олинган.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур дунё маданиятида истеъдодли шоир, воқеликни теран англаган ва ёрқин чизгиларда тасвирлаган нозиктаъб ижодкор, маҳоратли саркарда, адолатли ҳукмдор маънавий–маърифий тараққиёт асосчиси ҳамда буюк император сифатида из қолдирган. “Бобурнома” матни XV-XVI асрлардаги Ўрта Осиё, Афғонистон, Ҳиндистон тарихий муҳити, ижтимоий-сиёсий, маиший тизимига оид қайдларни ўз ичига олган.

Калит сўзлар: *табиий фан, лексик-семантик хусусият, тиббиёт, муолажа жараёни, ички касаллик ,ташқи касаллик.*

Тарихий-бадиий манбалар лексикасини ўрганиш ёзма асарлар яратилган давр адабий тилига хос хусусиятлар, луғавий сатҳ тараққиёти, лексик бирликлар семантикасини ёритишда аҳамиятлидир. Ёзма ёдгорликда муайян давр адабий тили луғат фондининг асосий қисми акс этади. Шу билан бирга, муаллиф маҳоратининг ўзига хос қирралари намоён бўлади. Эски ўзбек адабий тилининг лексик хусусиятларини ўзида мужассамлаштирган, ижодкор маҳоратининг юксак намунаси бўлган ёзма манбалардан бири “Бобурнома”дир.

Жаҳон мемуар жанрининг нодир намунаси ҳисобланган “Бобурнома” қомусий асар сифатида эътибор топган. Асарни ғарб тилларига таржима қилиш XVIII асрдан бошланди. 1737 йилда Г.Й.Кер лотин тилига таржима қилди[1]. “Бобурнома” тўрт марта форс ва инглиз, икки марта олмон, француз, турк, урду, бир марта голланд, италян, ҳинд, япон, поляк, немис, испан, уйғур, қозоқ тилларига таржима қилинган. Асарнинг бу даражада машҳурлиги кенг кўламдаги мазмуни, тасвир объекти, бетакрор услуби, ифода тили, илмий ва бадиий қиймати билан белгиланади.

“Бобурнома”да XV-XVI асрлар эски ўзбек адабий тилидаги ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, ҳарбий тизим,

[1] Hasanov H. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan.-Toshkent:Fan, 1965.-B.13.

маиший ҳаётга оид лексик бирликлар жамланган. Шунингдек, Афғонистон, Ҳиндистон табиати, иқлими, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, халқнинг яшаш тарзи, маданияти, турмуш даражасини акс эттирувчи форс-тожикча, ҳиндча сўзлар ўз ифодасини топган.[1]

Ушбу асар нафақат мемуар асар, балки турли хил фан соҳаларининг ривожи учун улкан ҳисса қўшган асар ҳамдир. Зеро, “Бобурнома” асари нафақат тилшунослик ва адабиётшунослик фанлари учун аҳамиятли, балки этнография, тарих, география фани соҳалари бўйича қимматли манба ҳисобланади. Асар мавзулар кўламининг кенглиги билан ҳам ажралиб туради. Асарда турли хил фан соҳаларига оид лексемаларни учратиш мумкин. Биз бугунги мақоламизда табиий фанларга оид лексемаларнинг таҳлилига назар ташлаймиз ва ёритишга ҳаракат қиламиз.

“Бобурнома” асарини лингвистик аспектда ўрганиш юзасидан Ўзбекистонда олиб борилган тадқиқотлар мазмунан 3 га ажратилади.

-“Бобурнома”нинг грамматик хусусиятлари таҳлилига бағишланган тадқиқотлар;

-“Бобурнома”нинг айрим лексик хусусиятларига доир тадқиқотлар;

-“Бобурнома”нинг фонетик хусусиятларига доир тадқиқотлар.

“Бобурнома” лексикасига эътибор қаратадиган бўлсак, тарихий-этимологик жиҳатдан араб тилидаги сўзлар салмоғи 19%, форс-тожикча сўзлар 17%, мўғулча, ҳиндча ва бошқа тилдаги сўзлар 3% ни ташкил этади. Асар лексикаси таркибида туркий сўзлар энг кўп миқдорда қўлланган бўлиб 61% ни ташкил қилади.

[1] Xolmanova Z. “Boburnoma”-til qomusi.-Toshkent:Akademnashr, 2021.-B.4.

Асардаги табиий фанларга оид лексемаларга эътибор қаратамиз. Асарнинг ўзига хос тили мавжуд. Китобхон асар билан танишиш давомида бунга гувоҳ бўлади, бу эса асар мавқеининг янада ошишига хизмат қилади. Асарда астрономияга оид ***нужум (юлдузлар), таҳвил (қуёшнинг бир бурждан бошқа буржга ўтиши), устурлоб (расадхонада юлдузлар айланишини мушоҳада қиладиган ва ўрганадиган асбоб), зиж-1)"астрономия ва астрология жадваллари ва қоидалари ёзилган китоб; 2)зиж- "астрономия жадвали, тақвим"*** каби коинот жисмлари номлари, коинот жисмларини ўрганишда ишлатиладиган асбоб-жиҳоз номлари, коинот жисмлари таҳлилига оид манбалар қайд этилган. Асар табдилига назар ташлайдиган бўлсак, масалан:

"... Яна бир олий иморати Пуштайи Кўҳак доманасида расаддурким, зич битмакнинг ҳолатидир. Уч ошёнликдур. Улуғбек мирзо бу расад била "Зижи Кўрагоний"ни битибтурким, оламда холо бу *зиж* мастаъмалдур[1]…"

Ушбу келтирилган парчада ёзувчи астрономияга оид бўлган лексемадан фойдаланган. Умумий маънода асар таркибида зиж сўзи икки хил маънода қўлланилган.

"…Самарқандни олғонда менинг қошимға келиб эди. Шеърни агарчи кам айтиб эди, вале тавре айтур эди. *Устурлоб* ва *нужум*ни яхши билур эди… "

Парчада устурлоб ва нужум сўзлари қўлланилган. Астрономияга оид тушунчалар аксар ҳолларда биламизки Мирзо Улуғбек номи билан бевосита боғлиқ бўлади.

Асарда тиббиётга оид лексемалар лексик-семантик жиҳатдан шартли равишда тўрт гуруҳга ажратилган:

-Касаллик номлари;

- Касаллик билан боғлиқ тушунчаларни ифодаловчи сўзлар;

[1] Zahiriddin.M.B. Boburnoma.-Toshkent,2002.

- Дори–дармон номлари;

- Муолажа жараёни билан боғлиқ терминлар.

Мақоламизда тиббиётга оид лексемалардан келтириб ўтамиз: ***Обила-1) “пўрсилдоқ, қавариқ”; 2)“чачак”, “добғули” “чипқон, яра”; “заҳм” “яра, жароҳат”; қорт-“яра”; совуқ олиши, мағиз чиқиши (кишининг мағзи чиқса, дору берур эди), шикаст (синиш), кўр, маъюб сўзлари “ташқи жароҳат”*** маъноларида қўлланилган.

Юқорида келтириб ўтилган касаллик номларида обила лексемасига тўхталамиз. Обила сўзи ташқи жароҳатни ифодаловчи термин ҳисобланади. Икки хил маънода қўлланилади. Дастлабки маъноси пўрсилдоқ, қавариқ маъноларида қўлланилса, иккинчи маъноси чечак касаллиги маъносини ифодалайди. Касалликка қарши эмлаш тадбирлари оммалашмаган ўша даврда обила касаллиги ёмон оқибатларга олиб келган:

“…Зайнаб Султонбегим …икки-уч йилдан сўнг обила заҳмати била оламдин борди.”

Бобур касаллик турини билдирувчи ушбу лексемадан образли тасвир яратишда фойдаланган.Ушбу жумлада обила сўзи орқали касаллик маъноси билан биргаликда кишининг нохуш, ахлоқсизлиги, ҳаёсизлиги учун берилган илоҳий жазо сифатида баҳолаган.

Хулоса сифатида шуни айтишимиз мумкинки, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асаридаги табиий фанларга оид лексемалар ўша давр учун ҳам бугунги кун учун ҳам аҳамиятга моликдир. Ёзувчи асар таркибида халқ орасида машҳур бўлган сўзлар ёхуд анча вақтдан бери қўлланмаган лексемалардан ҳам фойдаланган. Уларни атрофлича таҳлил қилган. Асар XV-XVI асрда мавжуд бўлган аммо ҳозирда кенг истеъмолда бўлмаган ёки умуман қўлланилмайдиган сўзлар,касаллик номлари, турли хил жой

номлари ҳақида батафсил маълумот берадиган қимматли манбадир.Ушбу асар турли хил фан соҳаларининг тараққиёти учун хизмат қилади, десак муболаға бўлмайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. - Тошкент: Фан, 1965

2.Холманова З.Т. “Бобурнома”-тил қомуси. - Тошкент: Академнашр, 2021

3. Холманова З.Т. “Бобурнома”-эски ўзбек тилидаги нодир манба. Ўқув қўлланма. –Тошкент, 2003

4.Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002

5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2017

6.Ўзбек тилининг изоҳли луғати – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008

Бобур халқаро илмий экспедицияси – 30 ёшда

ЭКСПЕДИЦИЯ

Ваҳоб РАҲМОНОВ,
филология фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими.

Бобур номли халқаро жамоат фонди фаолиятидан яхши хабардор зиёлилар нафақат Ўзбекстонда, чет элларда ҳам

Зокиржон Машрабов бошчилигидаги экспедиция-халқаро Бобур экспедициясида иштирок этишни орзу қиладилар. Чунки кўпчилик тасаввурида бу экспедиция энг яхши туристик сафардир.

Аслида-чи?

Сал эмас, бу тамоман бошқача сафардир. Бу экспедия-контуригина чизилган, шароит тақозосича турли ўзгаришларга учраши мумкин бўлган илмий изланишлардир.

Камина шундай экспедицияларнинг беш-олти сафарида бўлганим учун бугун Бобур номли халқаро экспедицияси фаолияти ҳақида сўз очгим келди.

Юзаки қараганда бу туристик сафарга ҳам ўхшаб кетади. Бироқ бизнинг экспедиция сафари маршрутларида туристларникидек белгиланган меҳмонхоналар, муқаррар гидлар, жадвалдаги ресторанларда тановул маъракалари йўқ.

Бобур халқаро экспедициясига иш олдиндан бир неча ой тайёрлик кўришдан бошланади. Аввало Зокиржон Машрабов бошлиқ раёсат аъзолари экспедиция йўналиши, мақсад ва вазифалари ҳамда муддатини олдиндан аниқлаб олишади.

Ўша мақсад ва вазифалар ижроси қўлидан келадиган олимлар танланиб, таркиб тузилади. Шундан сўнг мақсад ва вазифага мувофиқ маршрут белгилангач, энди экспедиция сафарига тайёргарлик бошланади.

Механик ҳайдовчи Аҳмаджон Исабоев уловнинг созлиги, иккала томон ғилдиракларининг бирдай ишлашлигигача ҳар томонлама тайёрганлик кўради.

Таржимон ва бобуршунос олимлар (жумладан 5-21 октябрдаги Ўзбекистон-Қирғизистон-Тожикистон-Афғонистон йўналиши) тўртта давлатнинг экспедиция

ўтадиган йўлларидаги шаҳарларни ҳисобга олиб, XV асрнинг иккинчи ярми XVI асрнинг биринчи ярмидаги тарихини ўрганишга киришадилар. Мақсад маршрут бўйлаб Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва Муҳаммад Ҳайдар мирзо қадамжолари назарда тутилиб, шунга дахлдор илмий ва бадиий асарлар ўрганила бошлайди. Бу китоблар Ўзбекистон, Қирғизистон, Тожикистон ва Афғонистоннинг назарда тутилган давр тарихлари, “Бобурнома”, “Тарихи Рашидий”, “Мусаххирул билод”, “Матлаъул саъдайн ва мажмаъул баҳрайн” сингари асарлар мутолаасида энг муҳим аҳоли пунктлари, қишлоқ, тоғ, шаҳар, дарё, ўрмон, сойларнинг Бобур ва Ҳайдар мирзо билан алоқадор жойлари ёзиб олинади.

Нималар маълум ва экспедиция бу илмдаги маълумотларга янги қандай маълумотларни қўлга кирита олади? Буни сафар жараёни ва натижалари кўрсатади. Буни ҳали экспедиция раҳбари ҳам, аъзолари ҳам билмайдилар. Йўлда сафар мақсади ва вазифаларига дахлдор қандай манзиллар ва кишилар учрайди... бу тасодифларга ҳам боғлиқ...

Сафар арафасида илмий ва ашёвий тайёргарлик юзасидан экспедиция таркибининг катта йиғини бўлади.

Таркиб: бошлиқ Зокиржон Машрабов, таржимон ва бобуршунос олимлар Ғофуржон Сатимов ва Ваҳоб Раҳмонов, врач Рустам Орифжонов, режиссёр Толибжон Ҳамидов, тасвирчи Фурқат Саидмаматов, механик ҳайдовчи А.Исабоев ҳар бирлари тайёргарлик ҳақида муфассал ахборот берадилар.

5 октябр 2009 йил Андижондан Бобур халқаро экспедиция улови жилади.

Менимча ҳар бир экспедиция сафарини бир китоб қилиб ёзса арзийди. Бу ишни Қамчибек Кенжа олти сафарнома-романларида амалга оширди: “Ҳинд сориға”, “Буюклар изидан”, “Андижондан Даккагача”, “Андижондан Бағдодгача”, “Соҳибқирон юрган йўлларда”, “Бобурийлардан бири”.

Ушбу сафардаги янгиликларнигина қисқача айтишга уринамиз. Хўжандга борганимизда “Бобурномадаги маълумотларни амалда кўрдик, кузатдик. Фахри Ҳиротийнинг “Ажойиб ул жавоҳир” китобини қўлга киритдик. Ундаги янги маълумот шуки, 1502 йилда Шайбонийхон Тошкентни эгаллаб, Султон Маҳмудхоннинг Ойша Султон хоним номли қизига уйланади. Бу Мўғул хоним лақабли ижодкорга ва Шайбонийхоннинг маҳди улёсига (энг севикли хотини)га айланган экан. Китобда Мўғул хоним ҳақида янги маълумотлар Мўғул хонимнинг Шайбонийхон Марвда жангда ўлдирилгач, халоскори Убайдулло Султонга теккани (Навоийнинг бир ғазалига Убайдий ва Мўғулхонимнинг назиралари берилган), ундан сўнг Балх ҳокими Кестан Қаронинг Мўғулхонимга уйлангани ҳақидаги тафсилотлар ва шеърларидан намуналар киритилган экан. “Тарихи Рашидий”да ёзилишича, Султон Маҳмудхон атрофидагилар: “Шайбонийхон сизни сийлайди” дея уни Хўжандга келтирадилар. Шайбоний бу хабарни Родгон ўлангида (Каспий жанубидаги манзил) эшитиб, хон ва сафардагиларнинг ҳаммасини қатл этишга фармон юборади. Султон Маҳмудхон беш норасида фарзандлари билан ўлдирилиб, Хўжанддаги Шайх Муслиҳиддин қабристонига қўйилади. Биз ўша қабристонга бориб,хон авлодларини ёдлаб, руҳларига фотиҳа дуосини ўқидик.

Бу ерда Шайх Муслиҳиддин ҳаёти ва фаолияти ҳақида маълумот олдик. Кейинчалик “Бобурнома”нинг Балтимор нусхасидан Бобурнинг Самарқандни иккинчи маротаба фатҳ этилишида унга Шайх Муслиҳиддин руҳонияти мадад бергани маълум бўлди.

Бобур Хўжандда икки йил яшаган. У биринчи маротаба Хўжандда амакиси Султон Аҳмад Мирзонинг қизи Ойшабегим исмли қизига уйланган.

Ҳаммасидан ажойиби,Хўжандда мирзолар маҳалласи бор. Мирзолар - темурий шаҳзодалар эканлиги кўпчиликка маълум бўлса керак. Бу маҳаллалик кўпчиликнинг исми ё мирзо билан бошланади. (Мирзо Тож,Мирзо Почо) ёки исмдан сўнг мирзо сўзи келади.

Биз Мирзо Тож ҳақида маълумот берсак бўлади. Бу киши йигирма йил Хўжандда вилоят вилоят прокурори бўлган. Ва каминани уйларига чойга таклиф қилиб,бир суҳбатда 30 яшар Ваҳоб Раҳмоновдан матншунос яратган. У киши форс, тожик, ўзбек ва озар адабиётини, айниқса мумтоз адабиётнинг донишманди эди, десам лоф қилмаган бўламан.

Бобурийлар қони бўлмаса,инсон шу даражада заковатли бўлармиди?!

У киши бобуршуносликка ҳам ҳисса қўшган десак муболаға бўлмас. Бобурнинг:

Ҳижронда, сабо,етти фалакка оҳим,

Гар ул сори борсанг,бу дурур дилхоҳим.

Ким арзи дуо ниёз ила қилғойсен,

Гар сўрса мен хастани гулрух моҳим.

Рубоийсини ўқиб,“Шу матн саҳиҳми?” дедилар. Мен тасдиқладим. Ва барча нашрларда шундай эканлигини

айтдим. Бу воқеа 1970 йилда Хўжандда содир бўлмоқда. У киши жилмайдида: “Домлажон, менимча охирги икки сўз ислоҳталаб бўлса керак” дея менга охирги мисранинг учта версиясини манзур этдилар:

1.Гар сўрса мен хастани гулрух Моҳим.

2.Гар сўрса мен хастани Гулрух моҳим.

3. Гар сўрса мен хастани Гулрух, Моҳим.

Бундай заковатни мен ўша пайтгача ҳеч кимда кўрмаганман...

Сир эмаски,хато версия 2007 йилгача босилган Бобур девонларида яшаб келди. Кейин биз Бобур девонлари нашрларига саҳиҳ ҳолатини киритдик,бу ҳақда мақолалар ёздик.

Ўратепага борганимизда 15-16 асрдаги ҳоким Муҳаммад Ҳусайн (Муҳаммад Ҳайдар Мирзонинг отаси) яшаган уйни тополмадик, албатта. Аммо Кўк гумбаз масжид ва мадрасасини томоша қилганимизда олим Аҳрор Мухторовнинг “Ҳар бир тошда юрак бор” (Ҳар санге диле дорад) китобидан қизиқ бир маълумот ўқидик. Унга кўра Ўратепадаги мадраса ҳужраларининг бирида бир байт сақланган.Байтнинг ўзбек тилидаги мазмуни:

Мажнуннинг вафот этганига минг йил бўлди,

Бироқ қабридан ҳамон ишқ ҳиди анқийди.

Ушбу экспедициянинг,менимча,энг катта ютуқларидан бири - Бобур тошбитикларининг топилиши ва бу ҳақда илмий фикр юритиш имконияти бўлди. Шамтич қишлоғининг Дуруст қабристонидаги Бобур дастхати - тошбитиги, “Бобурнома”да қайд этилган “Шунидам ки Жамшеди фаррухсиришт” деб бошланадиган тошбитик, Ҳофизнинг байти (мазмуни: Шундай яшагинки, оёғинг

тойиб кетса, икки фариштанг дуога очган қўллари билан сени тутиб қола олсинлар”) шулар жумласидандир.

Бобур қўли билан ёзилган Жамшид ҳақидаги тошбитик 1958 йилда илк мартаба жаҳон шарқшуносларии конгресида Москва Давлат университетида намойишда қўйилган. Академик А.А.Семёнов бу ҳақда: “Бобур тошбитиги жаҳоннинг энг машҳур музейлари кўрки бўла олади” деб ёзган эди.

Баъзан савол берилади: Экспедиция маълумотларида нуқсонлар ҳам бўлиши мумкинми? Бунга “Ҳа” деб жавоб берамиз ва мисол келтирамиз. Одатда, оғзаки маълумотларга ишонган пайтларимизда тасодифий нуқсон содир бўлади. Чунончи: тошбитиклар ҳақидаги биз олган маълумотларда “Эй фалак келини юз марта эрга тегсанг ҳам ҳалолинг бўлсин” мазмундаги форсий байт бор эди. Биз унга ишониб, матнини келтириб, бу байтни Бобур илк турмушидан ажралгач, аччиқ устида ёзган бўлиши мумкин, деб мақоламизда ёзганмиз. Кейинчалик бу байтни бошқа манбаларда учратдик. Байт XVII асрда яшаган бошқа шоирники бўлиб чиқди...

“Бобурнома”да Шайх Мир Саййид Али Ҳамадонийнинг Ҳиндистоннинг Кунар шаҳрида вафот этгани ва уни шогирдлари пир жасадини Хатлонга олиб бориб тупроққа қўйганликлари ҳақида маълумот бор. Ҳатто Бобур Кунарда бу азиз қадамжоларини зиёрат қилиб, Мир Саййид Али Ҳамадоний ҳақида форс тилида бир рубоий ҳам ёзган экан:

Ту соҳиби ин мақбара пири Ҳамадон,
Дар ҳама ғаму ғусса дастгири ҳамадон.
Хонам ба ту, аз ман бишнав, то дони,
Фарзанди Али бихону мири Ҳамадон

Сен Ҳамадон пири, ушбу мақбара эгасисан
Сен Ҳамадон пири, ушбу мақбара эгасисан,
Барча ғаму ғуссаларда ҳаммани қўлловчисан.
Мен сенга айтай, мендан эшитиб билиб қўй:
Бу киши Ҳамадон амири Алининг фарзандидир.

Биз Кўлобда Мир Саййид Али Ҳамадонийнинг муҳташам мақбарасини зиёрат қилдик. Кўлобда ушбу 76 та китоб ёзган азизнинг “Захиратул мулук” номли китобини ҳам “Бобур ва жаҳон маданияти” музейи учун харид қилдик.

Тожикистон тоғли Бадахшони маркази Хоруғдаги бизни ҳайратга солган ҳолат: Помирликларнинг йигит-эркаклари Македонияли Александрга, қизлари оппоқ юзли, кўк кўзли украин қизларига ўхшаб кетишлари бўлди.

Хоруғ Давлат университети профессор ўқитувчилари билан учрашиб, уларнинг Бобур, Носир мирзо, Ҳумоюн ва Мирзохон (Бадахшон ҳукмдорлари) ҳақидаги тасаввурлари билан ўртоқлашдик. Тарихчи олимлар биз қайд этган кишилар Бадахшон тарихида сезиларли из қолдиришганини ҳозир Хоруғда ўша исмларга номдошлар кўплиги билан ҳам далиллашди. Ва айтишдики: “Ҳали йўлингизда Ишкошим ва Султон Ишкошим оралиғида Сизга Ҳумоюн чўққиси учрайди.

Помир тоғида Ҳумоюн чўққиси!

Демак Ҳумоюн мирзо номи Бадахшонда тоғ чўққиси атамаси билан ҳам абадийлаштирилган экан.. Бу ҳам бизга қувончли янгилик бўлди.

Афғонистон Бадахшони маркази Файзободни кезганимизда китоб дўконидан А.Коргарнинг “Темуриён” (Темурийлар) асарини олдик. Мазори Шарифда эса

Муҳаммад Ҳайдар мирзонинг Теҳронда нашр этилган “Тарихи Рашидий” китобини қўлга киритдик.

Ўша йили фонд раиси Зокиржон Машрабов таржимон Янглиш Эгамовага бу китобни таржима қилишни таклиф қилдилар. Бир ойдан сўнг шу китоб муаллифи ўн бир йил подшоҳлик қилган Кашмирга ҳам экспедиция уюштирилди.

Мазори Шарифлик ношир Пуҳниёр “Бобурнома”нинг Эйжи Мано тузган илмий танқидий матнини нашр этган экан: экспедиция раҳбари Зокиржон Машрабовга ҳадя этишди.

Менга қилинган ҳадяни эса мен “Бобурнома”ни қозоқ тилига таржима қилиш истагида бўлган, қозоқ олими Ислом Жеменейга совға қилдим. Чунки олдинги таржима қозоқчага русча асосида бажарилган эди.

Мазори Шариф шаҳри дарвозасида бизни Улуғбек ва Навоий фондлари раиси олим Абдулло Руин бошлиқ ўн чоғлик зиёлилар ва тадбиркорлар кутиб олиб, меҳмонхонага олиб бордилар. Экспедиция раҳбари уларга элликдан ортиқ Ўзбекистонда нашр этилган Бобур ва бобурийларга оид ва бошқа илмий ҳамда бадиий асарлардан ҳадя этди.

Экспедиция аъзолари ва мезбонларини чой устидаги уч соатлик суҳбати чинакам халқлар ва адабиётлар дўстлигининг ажиб бир тантанаси бўлди. Абдулла Руин Алишер Навоий куллиёти-тўла асарлар тўплами нашрини бошлаб 4-5та китобни чиқаришга улгурибди. Бундан биз жуда қувондик.

Демак, хулосада қайд этсак бўлади: Халқаро Бобур экспедицияси бобуршунослик илмини ривожлантиришга йўналтирилган сафардир.

БОҒИ БОБУР БЎЙЛАБ САЁҲАТ...

Холида ШАМСИЕВА,
“Бобур ва жаҳон маданияти”музейи директори

Бобур номли халқаро жамоат фонди тасарруфидаги З.М.Бобур номли миллий истироҳат боғи Андижон шаҳрининг жануби-шарқий томонидаги Боғишамол даҳасида жойлашган. Боққа 1992 йили Заҳириддин Муҳаммад Бобур таваллудининг 510 йиллик тантаналари муносабати билан “Бобур” номи берилган. Боғининг умумий майдони 357 гектарни ташкил қилади. Боғ ҳудудида шарқона услубда қурилган Арк-дарвоза, Бобур Мирзо ҳайкали, шоирнинг рамзий мақбараси, масжид, “Бобур ва жаҳон маданияти” китоб музейи 1993 йилда қурилган.

“Бобур ва жаҳон маданияти” китоб музейида Бобур халқаро илмий экспедициянинг сафарлари давомида излаб топиб олиб келинган темурийлар, бобурийлар сулоласининг тарихига оид ноёб китоблар, қўлёзма асарлар ва экспонатлар қўйилган.

Рамзий мақбарага 1992-1993 йиллари халқаро илмий экспедиция томонидан Бобур Мирзонинг Агра ва Кобулдаги қабрларидан олиб келинган ҳоки жойланган.

Шунингдек, боғда Бобур номли халқаро жамоат фондининг қароргоҳи жойлашган, ҳамда бу жойда Андижон шаҳрининг 2500 йиллик ёшини аниқлаш бўйича

олиб борилган илмий қидирув ишлари давомида тўпланган археологик ашёлар асосида 2008 йилда Бобур номли халқаро жамоат фонди ташаббуси билан “Андижон шаҳарсозлик маданияти тарихи” музейи ташкил қилинган. Музей ЎзРФА Археология институти билан Бобур фонди ўртасидаги шартномага асосан олиб борилган археологик қазишмалар натижаларини халқимизга кўрсатиш учун ташкил этилган. Қазишмалар фонд ҳомийлигида 2000 йилдан буён тарих фанлари доктори, профессор, археолог олим Б.Х.Матбобоев бошчилигида олиб борилмоқда. Ушбу музей водийда шаҳарсозлик маданияти тарихини ўрганиш ва уни тарғибот қилишга бағишланган. Шу билан бирга асосий эътибор Андижон шаҳрини археологик ўрганишга қаратилган. Кўргазма зали ва археологик материаллар сақланадиган фонд (омбор)дан иборат. Фондда бир неча минг Андижон шаҳри ва унинг яқинидан топилган ашёвий далиллар сақланади. Уларнинг аксарияти сопол буюм парчалари бўлиб, шаҳарнинг энг қадимги давридан (мил.авв VI-IV асрлар) то XX аср бошларигача даврий вақтни ўз ичига олади. Кўргазма залида 300 га яқин ноёб археологик ва этнографик топилмалар ўрин олган. Улар энг қадимги тош давридан то XX асрга қадар бўлиб,энг қадимги тош даври топилмаларидан бошлаб кетма-кет қилиб жойлаштирилган.

ЎзФА Астрономия институти билан ҳамкорликда боғнинг энг баланд қисмида “Ёшлар дунёси” деб номланган илмий-маърифий марказ очилиб, ёшлар коинот сирлари ҳақида маълумот берувчи обсерватория қурилган.

Шунингдек, Бобур номли халқаро жамоат фонди томонидан ЎзФА Астрономия институти билан

ҳамкорликда боғнинг энг баланд қисмида “Ёшлар дунёси” деб номланган илмий-маърифий марказ очилиб, ёшларга коинот сирлари ҳақида маълумот берувчи обсерватория қуриб битказилган, боғ ҳудудидаги кутубхона эса маънавият ўчоғи сифатида фаолият олиб бориб, ёшларимизга Темурийлар ва Бобурийлар тарихини ўрганиш, ўзлигини англаш ва маънавий дунёқарашларини юксалишига хизмат қилиб келмоқда. Бу жойда фонд ташаббуси билан ҳар йили илмий конференция ва семинарлар, турли хил учрашув, ижодий кеча ва концертлар ўтказилади.

Бобур боғи халқаро туризм маршрутига киритилган бўлиб, Бобур номли миллий истироҳат боғига ташриф буюрувчи меҳмонларнинг катта қисмини нафақат мамлакатимиз, балки хорижликлар ташкил этади. Улар учун “Осма сим йўли” мажмуаси, 36 турдаги замонавий аттракционлар, бир неча миллий ва замонавий услубдаги ресторан, чойхона ҳамда 30 ўринли меҳмонхона хизмат кўрсатади.

Боғда Ўзбекистон ва дунёнинг бошқа мамлакатларида ўсадиган турли хил мевали ва манзарали дарахтлар, гуллар ва ўсимликлар парвариш қилинмоқда. Боғ ҳудудининг катта қисми адирликлардан иборат эканлиги боис, 2014 йилда фонд қошида “Зайтун ва бошқа субтропик экинлар етиштириш илмий маркази” ташкил қилиниб, сувсизликка чидамли писта, бодом, ёнғоқ кўчатларини етиштириш ҳамда Фонд раҳбарияти саъй-ҳаракати билан хорижий давлатлардан олиб келинган зайтун дарахт қўчатларини Ўзбекистон иқлимига мослаштириш йўлида амалий ишлар олиб борилмоқда. Бугунгача 4 минг тупдан зиёд кўчатлар

экилиб, пистазор, ёнғоқзор, зайтунзорлар барпо қилинди, заъфарон, коврак каби тиббиётда кенг қўлланиладиган ўсимликларни етиштириш ҳам кенг йўлга қўйилган.

Муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йилдаги Бобур боғига ташрифи чоғида боғни жаҳон андозаларига мос, замонавий республика мақомида маданият ва истироҳат боғига айлантириш ҳақида берган топшириқларига асосан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 07.09.2017 йилдаги 1001-Ф сонли фармойиши қабул қилиниб, “Бобур зиёратгоҳи”ни барпо қилиш бўйича маблағ ажратилди ва бунёдкорлик ишлари олиб борилди.

Жумладан, боғнинг марказий ҳиёбонига муҳташам масжид ва музей биноси янгитдан қурилиб, мавжуд музей биноси мақбара кўринишида қайта таъмирланди.

Боғнинг кириш дарвозаси олдидаги фаввора замонавий, кўркам кўринишда барпо қилинди, йўлларга асфальт ётқизилиб, боғ ҳудудига янги ўриндиқ ва урналар қўйилди.

Бундан ташқари, Президент топшириқларини бажариш мақсадида Бобур номли халқаро жамоат фонди ҳисобидан боғ ҳудудидаги барча қурилмалар тўла йўқламадан ўтказилиб, боққа ташриф буюраётган меҳмон ва зиёратчилар учун қулайликлар яратиш мақсадида “Боғи баланд”, “Кема” дам олиш жойлари лойиҳа асосида тўла қайта таъмирланди, “Буюк Ипак Йўли” қисмидаги ошхона ва савдо расталари қайта қурилиб, замонавий кўринишга келтирилди.

Шунингдек, боғнинг “Туяқамар” қисмига истиқболли режа асосида 1,5 гектар майдонга замонавий иссиқхона

қуриш бўйича лойиҳалар тайёрланиб, ҳозирда қурилиш ишлари ниҳоясига етказилиб, фаолият кўрсатмоқда.

Боғдаги “Бобур ва жаҳон маданияти” китоб музейи экспозиция залларида Бобур номли халқаро жамоат фонди қошидаги Бобур халқаро илмий экспедициясининг Бобур изидан уюштирган илмий тадқиқот сафарлари жараёнида тўпланган ашё ва коллекциялар намойиш этилади. Бу маданият кошонаси Сизга Андижон фарзанди, Ҳиндистон шаҳаншоҳи, XVI аср илк қомуси “Бобурнома”нинг ижодкори, соҳир шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобур улуғвор шахси, зафарли юришлари, асарлари, илмий ва бадиий кашфиётлари, намунали ҳаёти ҳақида кўргазмали маълумотлар бериб, Бобур ва бобурийлар шажараси, Бобур юрган ва бўлган йўллари шаҳарлар харитаси, Бобур асарларининг жаҳон тилларига таржималари, “Бобурнома”га ишланган қадимий ва ҳозирги замон миниатюралари билан танишиш имкони беради.

Жаҳон шаҳаншоҳлари - император жаҳонгирлари Александр Македонский, Юлий Цезарь, Чингизхон, Амир Темур, Наполеон Банопартлар сафида Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзига хос ўрин тутади.

Бобур-ўрта асрлардаги машҳур тарихчи ва қомусий билимли олим.

Ўзбек халқи Заҳириддин Муҳаммад Бобур билан фахрланади.

“Бобур ва жаҳон маданияти” мозийгоҳи кўргазмаларидаги ноёб қўлёзмалар, ўнлаб тиллардаги нодир китобларни Бобур номли халқаро жамоат фондининг раиси Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими, табиатшунос олим, Алишер Навоий,

Абу Райҳон Беруний ва Халқаро Бобур мукофотлари соҳиби Зокиржон Машрабов бошлиқ илмий экспедиция жаҳон мамлакатларига уюштирган 40 га яқин сафарлари давомида битталаб йиғиб келтиргандир.

Уларнинг анча катта қисми аллақачон илмий истеъмолга киритилган: таржима ва нашр этилган, улар ҳақида илмий тадқиқотлар яратилган. Экспедициянинг Эронга уюштирилган сафари давомида қўлга киритилган “Бобур куллиёти”, Ҳиндистоннинг Ҳайдарабод шаҳридаги “Саларжанг” музейидаги Бобур мирзонинг она тилиси – турк тилида ёзилган “Бобурнома” нусхаси, шунингдек, “Бобурнома”нинг турли нусхалари, Шоҳ Ғариб Мирзо (Ғарибий) Девони, туркиялик олим Билол Южел томонидан тайёрланган Бобур мирзо Девони, “Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси”, Хондамирнинг “Хабиб ус-сияр” муҳташам тарихий асари, Муҳаммад Ҳайдар мирзонинг “Тарихи Рашиди” ва “История Рашиди” китоблари, “Заҳириддин Муҳаммад Бабур. Бабуриды. Библиография” (Москва 2019), Фриц Вюртленинг “Андижон шаҳзодаси”, Харольд Ламбнинг “Бобур йўлбарс”, Гумер Годеннинг “Гулбадан”, асарлари шулар жумласидандир.

Музей экспонатлари сифатида Бобур асарлари, жаҳон Бобуршуносларии Эйжи Мано, Уилер Текстон, Билол Южел, Шафиқа Ёркин, ўзбек олимлари Азиз Қаюмов, Саидбек Ҳасанов, Суйима Ғаниева, Хасан Қудратиллаев, Ансориддин Иброҳимов, Ваҳоб Раҳмонов китоблари, машҳур таржимонлар Магда Махлуф, Ғофуржон Сатимов, Исмоил Текжан, Рамиз Аскер, Мариса Комас, Луи Бакйе Грамонт, Аннета Бевериж, Жон Лейден, Рашид Раҳмати

Арат, Михаил Салъе, Янглиш Эгамоваларнинг таржималари намойишга қўйилган. Музей биносига кириш фойэ қисмига чап тарафга зарҳал харфлар билан ***“Заҳириддин Муҳамамад Бобур бизнинг бобомиз, бизнинг қонимиз, болаларимизга ғурур билан айтадиган буюк аждодимиздир. Мана шундай бизнинг аждодларимиз борлигини, улар Андижон фарзанди эканлигини ҳеч қайсимиз, ҳеч қачон унутмаслигимиз керак”*** деган Президентимизнинг сўзлари битилган бўлиб, ўқув зали ташкил этилган. Кириш қисмининг ўнг тарафига китоблар сотуви йўлга қўйилган. Асосий кириш экспозицион зал марказига витринага “Ҳирот” макети ўрнатилган бўлиб, унда сиз Бобур номли халқаро илмий экспедициянинг 2016 ва 2017 йилги сафар таассуротлари билан танишибгина қолмай, фонд томонидан тайёрланган Навоий ҳазратларининг қабр-мақбараларини қайта таъмирлаш ишлари тарихи билан ҳам танишингиз мумкин. Музей деворларида “Бобурнома” асарига ишланган миниатюралар ўрнатилган. Экспозицион зал атрофига горизонтал ва вертикал витриналар ўрнатилган бўлиб, витриналарда бобурийлар, темурийлар тарихи билан боғлиқ турли экспонатлар ва китоблар намойиш этилган. Экспозицион зал марказидаги макет атрофида ёғоч ўймакорлиги услубида ишланган хонтахта ва курсининг гувоҳи бўласиз. Шунингдек, бу ерда Бобурийлар, темурийлар даври салтанати чегаралари, Амир Темур ва Бобур мирзо шажаралари, Бобур мирзо ихтиро қилган хат- “Хати Бобурий”, ушбу хатда битилган Қуръони карим нусхаси, Бобур мирзо муҳри, қиличи, ёинки, унинг ўзи томонидан

ихтиро қилинган мусиқий асбоб – Ғижжаки Бобурий нусхаларини ҳам кўришингиз мумкин.

Музейда, шунингдек, Бобур номли халқаро жамоат фонди ҳомийлигида Андижонимизнинг 2500 йиллик юбилейини ўтказиш мақсадида ўтказилган қадимги Фарғона давлати бўлган Давань, унинг пойтахти Эрши – ҳозирги Мингтепа, Жалақудуқ ва Далварзинтепаларда олиб борилган археологик қазув ишларининг натижалари билан танишиш имкониятига эгасиз.

Сиз музейда Бобур Халқаро жамоат фонди томонидан яратилган Бобур ҳақидаги видеофильмларни ҳам томоша қилишингиз мумкин.

Хулласи, Боғи Бобурга ташриф демакки, Бобур ва бобурийлар ҳаётини яхшироқ билиш, кўриш учун энг яхши имкониятдир. Зеро, ҳали ҳануз дунё Заҳириддин Муҳаммад Бобур шахсиятига қизиқади, ҳаёти ва ижодини ўрганади. Чунки буюк аждодимиз абадиятга дахлдордир...

ИЗҲОР

Матлуба ЮСУПОВА,
Ўзбекистон Ёзувчилар ва Журналистлар уюшмалари аъзоси

Мен то Бобур халқаро фонди билан ижодий ҳамкорлик қилгунимча Бобур мирзони қанчалар билар эдим,дея ўзимга кўп савол бераман.

Мактабда она тили ва адабиётидан яхши ўқирдим, кўпроқ Навоийнинг ғазалларидан ёд олардим, ҳатто бир гал ўғил болалар унамагани учун, устозим Навоий образида саҳнага чиқарган. Гули билан монолог ўқиганмиз.

Талабалигим эса Бобур шахси ва ижодига таъқиқ қўйилган, кенг ўрганилмаган йилларга тўғри келган.

Андижон вилояти телерадиокомпаниясига ишга келгач, бир гал Бобур фонди томонидан ўтказилган тадбирдан лавҳа тайёрлашим керак бўлди. Андижон шаҳридаги Савдо-саноат палатаси биносининг катта залида бўлиб ўтган ушбу тадбирдан ёдимда қолган бир манзара бор. Яъни фонд раиси Зокиржон Машрабов саҳна ўртасида гапира туриб, “фаолиятимизни олиб бориш учун кимлардандир (шундай дея бошидаги дўпписини қўлига олди) тиланиб, пул сўраш ниятимиз йўқ.Тадбиркорлик қилиб маблағ топамиз, Бобурмирзонинг изидан дунё бўйлаб юриб, у зотнинг номини қайта тиклаймиз, деди. Мана шу ҳолатдан таъсирландим. Шу кундан бошлаб фонд фаолиятини кузатишга, иложи борича Зокиржон Машрабов билан кўпроқ мулоқотлар олиб боришга, улар томонидан олиб борилаётган янгиликларни тарғиб қилишга интилдим. Қарабсизки, ўзим ҳам Бобур мирзо ижоди ва фаолияти шайдосига айландим. Айниқса, ҳар йили 14-февралда ўтказиладиган халқаро конференциялар натижасида дунё ва ўзбек бобуршунослари, ёзувчи ва шоирлар томонидан Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳақидаги илмий тадқиқотлар, чоп этилган янги асарлар билан танишганим сайин бу улуғ мутафаккир шахсиятига, ҳаёти, ижодига бўлган қизиқишим ортганидан ортди. Кейинроқ эса илмий экспедиция

сафарлари ҳақида қатор фильмларга режисссёрлик қилдим. Худди ўзим ҳам ўша сафарларда юргандек таъсирландим.

Йиллар ўтиб,Зокиржон Машрабов таъсис этган ва бутун умрини бахшида қилиб келаётган фондда ходим бўлиб ишлаш ҳам насиб этди.”Бобур ва дунё” журналининг илк сонига муҳаррирлик қилдим.

Буларнинг бари учун улуғ инсон, талабчан,қатъиятли, жасоратли устоз Зокиржон Машрабовдан миннатдорман.

Қуйидаги бадиам эса йиллар давомида ўқиб, ўрганганларимнинг ҳосиласидир. Бобурмирзо шахсиятини ўрганган сайин унга бўлган ҳурматим қанчалар ошган бўлса, унинг қизи Гулбаданбегимни ҳам шунчалар қадрлашни истардим. Айниқса, унинг “Ҳумоюннома”сини ўқигач, бу бобурий маликага эҳтиромим янада ошди. Демак ёзганларим ана шу ҳиссиётлар натижаси бўлса, ажаб эмас..

ОТАМ ҲАЗРАТЛАРИГА...

(З.М.Бобурнинг қизи Гулбадан бегимнинг отасига хаёлий мактуби)

Меҳрибон ва раҳмли Аллоҳ номи билан бошлайман.
Подшоҳи олийлари!

Камина хокисор қулингиз Гулбадан сизга мактуб битмоққа жазм этди. Бу журъатимни асло адабсизликка йўйманг, бу ўз падарини чексиз севувчи ва унинг эътиборидан ҳар лаҳза умидвор бўлган ҳақир қизнинг юрагидаги меҳру-муҳаббатининг изҳоридир.

Изн берсангиз, сизни “ **отам”** дея атасам. Билурмен, ўз вақтида менинг лафзимдин **“бобом ҳазратлари”** дея эшитганингиз бордир. Мактубим сиз ва менинг ўртамиздаги

хаёлий риштаким, демак сизни чексиз ҳурмат ила **“отам”** дея аташдан бахтиёрмен. Вале Сиз ҳам умр бўйи фарзандларингиздан оддийгина “ота” дея аташларини истаганингиз ҳақинда эшитганим бор.

Саноқсиз давлат ишлари, адоқсиз сафарлару, жангу жадаллар, мамлакат олишу, уни обод этиш, халқнинг минг бир ташвишлари ичинда бир жонингизни мингга бўлиб туну-кун оромсиз юрганингиз қалбимизни ҳамиша беҳаловат этган. Яратгандан тинимсиз сўроримиз сиздек олий мартабали подшоҳи оламга саломатлик, куч-қувват берсин, токи ўзингиз кўзлаган режалар амалга ошсин, дея дуолар қилардик.

Ҳазратим отажон, ана шунча ишлар ичинда вақтингиз камлик қилганини биламен, аммо кўнглимда барибир фарзандлик гинаси. Шубҳасиз, Сиз фарзандларингизнинг барчасига бирдек меҳрибон эдингиз, бироқ ташвишларингиз бисёрлигидан ёки подшоҳликнинг қонун-қоидалари талабиданми, сизни ҳар кун кўришга муштоқ бўлардик. Ҳаммамиз, ака-опаларим, ука-сингилларим. Улар орасида мен ҳақирнинг гинам кўпроқдирким, бунинг учун мени афв этгайсиз. Чунки сизнинг ҳузурингизда бўлиш, суҳбатингизни олишни шунчалар истардимки, ҳатто кечалари уйқуларим келмасди.

Ўшал дамларда мен ҳали гўдак эдим, бундоқ катта фикрларни айтиш бахти анчагача менга насиб этмас. Лекин тасаввур қиламен, ҳазратим ота, Қобулдан Аграга келганимда нечун мен балоғат ёшида эмасдимки, сиздек буюк Отанинг қучоғида бир лаҳза гўдакдек эркаланиш ўрнига, катталардек суҳбатингиздан баҳраманд бўлсам эди.

Бу – хаёлий орзу, нечукким ҳаёлий мактуб ичинда айтсам бўлур, деб ўйладим.

Асло бошқа тасаввурга борманг, отажон. Ўша гўдаклик палламда сиз бунёд этган улкан бобурийлар салтанатининг кичик маликасини дабдабалар ила Сизнинг ҳузурингизга олиб келган паллаларда оёғингиз остига жажжи бошимни қўйганимда ҳам худди балоғат ёшиндаги қиз каби қалбим ғурурга тўлган. Сизнинг ҳузурингизда соатлаб қолиш орзуси кичик юрагимни бутунлай забт этган. Бироқ, оз фурсатгина Подшоҳ отамнинг тиззасида ўлтириб унинг нуроний чеҳрасини кўриш, оқ оралаган соқолларидан силаш ва жуда ҳам яқиндан нафасини туйиш бахтига мушарраф бўлдим.

Ва неча вақт ўтиб содир бўлган мундоқ учрашувдан ҳазратим онам қанчалар хурсандчилик туйган бўлса, мен ундин кўпроқ қувончга тўлдим. Токи сиз ила Секрида (Аградан жануброкдаги шаҳар- муаллиф) дам олган вақтларим ҳаётимнинг энг унутилмас қисмидир. Гарчи ўшал паллада ҳатто Афғоний оғача (Бобурмирзонинг тўртинчи хотини Биби Муборика –муаллиф) қўлимдин тортиб, уни чиқариб қўйгани оқибатида оғриқдан нола қилиб йиғлаган бўлсамда, Сиздек отам ҳазратларининг бағрингизга босиб овутишингиз дилимга малҳам бўлган бўлса не ажаб...

Эсингиздаму, мен ҳали жудаям гўдак палламда эгнингиздаги шоҳлик тўнингиздан олтин тугма узиб берганингиз ва Ҳиндистондан келтирилган тўтиларни совға қилганингиз. Бу менинг бутун ҳаётим давомида олган совғаларим ичидаги энг ноёби, энг азизидир.

Надоматким, бундоқ фарахли лаҳзалар, саноқли бўлди, ҳаётим давомида.

Вояга етиб билдимки, Сиз улуғ бобомиз Амир Темурдек Самарқанд тахтида ўлтириб бутун Мовараунноҳрни бошқармоқ ниятида эдингиз. Аммо тақдир бу бахтни сизга раво кўрмабдиким, учинчи бор куч ва қудратингиз етарли бўлгани ҳолда Самарқанд тахтига ўлтирдингиз. Бироқ бу сафар темурий ака - укаларнинг ноаҳиллиги, Шоҳ Исмоилнинг сизга қўйган оғир шарти оқибатида Самарқандни ташлаб чиқибсиз!!? Бу она Ватандин бутунлай кетиш бўлибди, отажоним. Бу паллада мен ҳали дунёга келмаган эканман. Бироқ улғайгач ўша пайтдаги андуҳларингиз нақадар чексиз бўлганини англашим қийин бўлмади. Ва яна сизга раҳмим келди.

Ҳазратим отам! Умрингизни мушоҳада қилганим сайин сизга чин дилдан раҳмим келадур. Чунки Соҳибқирон бобомиз давридан то сизгача ҳеч бир шаҳзодаю подшоҳлар сизчалик ранж кўрмадилар, нотинч бўлмадилар. Ёмони шуким, зоди будингиз Андижонда, кейинроқ Самарқандда, Тошкенту Хўжандда сарсон юрганингизда бегоналар билан эмас, айнан ўзингизнинг қондошларингиз ила урушдингиз. Бу сизни заифлаштирдиким, охир-оқибат бегона Шоҳибекхонга енгилдингиз. Аммо сиз барибир ғолибсизки, неча маротаба жанг қилсангизда руҳан таслим бўлмадингиз. Акс ҳолда Ҳиндистондек улкан мамлакат бобурийларнинг илкига тушмасди.

Сизнинг мардлигингиз ва жасоратингиз олдида ҳамиша бош эгамен. Айниқса, Иброҳим Лўдий билан қилган жангингиз ҳақида менга айтиб берганларида бутун танамни титроқ босиб, юрагим тўхтаб қолаёзди, отажон. Гарчи йиллар ўтиб у жанг тарихга айланиб, сиз эса боқий дунёга меҳмон бўлсангизда, мен ўша лаҳзалар учун қўрқинч

туйдим. Ва ўйладим, яхшики ўшал вақтда мен бу жангларнинг даҳшатини тушуна олмайдиган даражада ёш эдим, дея.

Ҳиндистонни забт этганингиз катта шодликдир, аммо сизга мушкул бўлганини ҳам ҳис қиламен. Чунки ўз уйларини ташлаб сиз ила келганларнинг барчалари ҳам Ҳиндистонни суймасликлари табиий. Бағрингиз кенглигига тасанно айтаменки, уларни Кобулга, ўзлари яшаб ўрганган юртларига қайтардингиз. Бағрингиз кенглиги яна шундақи, салтанатингизга **“Амир Темур ва** Чингизхон **авлодларидан бўлган ҳар киши бизнинг даргоҳимизга келсин”** дедингиз. Боболаримиз руҳини шод қилдингиз, ҳазратим отам.

Сизнинг мардлик ва жасурлигингизнинг яна бир кўринишидин ҳали ҳануз таажжуб ва ҳайрат туямен. Амир ва аскарларингиз Рано Санга қарши жангга унчалик ихтиёр билдирмадилар. Ёинки қўрқдилар. Устига-устак Шариф мунажжим юлдузларнинг чиқишига қараб башоратни янада ваҳималироқ қилди, умидсизлик бошланди.

Сиз эса ақл ва мулоҳаза билан бундоқ оғир дамларда ғолиб чиқдингизким, барчаларига айтдингиз. **“Ҳаёт омонатдир, қачондир ажал шаробини ичамиз. Қандай ўлмоқ ҳам муҳим. Ўлган шаҳид, ўлдирган ғозий, ёмон от билан тирилгандин яхши от билан ўлган яхшироқ..”**

Янаки умри жонингизни Ҳумоюн акамга бахшида қилганингиз афсоналарга айланди, ҳазратим отам. Ҳеч бир подшоҳ ота сизчалик фарзандларига меҳрибон эмас, тарихда бунинг гувоҳи бўлмадим умрим давомида. Ўлим олдидан Ҳиндол акамни кўришга муштоқ бўлиб йўлига кўз

тутганингиз эса юрагимни тиғларди. Фалак кажрафторки, Ҳиндол акамнинг бўйини кўриш сизга насиб этмади, эвоҳ!

Сиз ва онам ҳазратлари билан кечган даврим бутун умримнинг энг сарафрози, энг бахтли дамларидир. Девалпур ва Секри тупроқлари шу учун менга азиздирки, у ерда сиз ила ташлаган қадамларимиз муҳрланди, хушҳол дамларимиз хотирамни тўлдирди. Жамму-Жамна дарёси қирғоқларидаги хали хануз турган бино ва тош сарой менга қадрлики, уларнинг қурилишида сизни кузатиш бахтига сазовор бўлдим. Зарафшондаги боғ эса қалбим тўридаги меҳмонхонадир. “Воқеанома”нинг кўп байтларини шу ерда ёздингиз.

“Неча даврон ғуссаси бўлғай менинг жонимга хос,
Кошки ўлсам доғи бу ғуссадан бўлсам халос,”

дея ҳаётлик вақтингиздаёқ тахтни акам Ҳумоюнга топшириб боғда ижод қилишни ихтиёр қилганингизда кичик юрагим ила сизни қўллаб қувватладим. Сиз шунчалар кўнгли тўқ, бағрикенг инсонсизки, сиздан сўнг неча подшоҳларни кузатдим, ҳеч бири ўз хоҳиши ила ўғилларига ўзларининг тахтларини бериб қўймадилар. Сиздек бўлиш мумкин эмас, сиз Буюксиз! Фарзандлик иштибоҳим эмас,балки сиздан кейин қолиб сиз асос солган салтанат ишларини кузатиб сўнг бу хулосага келганимдир.

Элга шоҳмен, вале сенга қулдирмен...

Ушбу сатрларингизни кейинроқ катта бўлгач неча бор ўқидим ва мулоҳаза қилдим, ҳазратим отам! Айтишларича бу - сиз суйган онам ҳазратлари –Моҳим бегимга аталган экан. Балки ўзингизнинг лафзингиздан эшитганимда сиз бутунлай бошқача талқин этишингизга ишондурмен, яъни халққа подшоҳсиз, аммо Яратганга қул. Янаки вақтнинг ҳам

қулики, сиз ҳам мен каби ўзингиз истаган пайтда истаган ишни қилолмассиз, истаган инсонингиз билан бирга қололмассиз. Чунки елкангизда буюк шоҳликнинг кечиктириб бўлмас ишлари тургандур. Ҳар лаҳза ғанимат.

Ғаниматликнинг нечалар афсусларга тўла эканини кейинроқ англадим, отажон. Чунки қалбимга яқин кишиларнинг бу фоний дунёни бирин-кетин тарк этишлари мени бирдан катта қилиб қўйди. Айниқса Сизнинг йўқлигингиздан шунчалар карахт бўлдимки, дунё ҳазратим отамсиз ҳам айланаётганидан ҳайрону лол бўлдим.

Келди ул вақтки, бошимни олиб кетгайман,
Олам ичра аёғим етганича йитгаймен...
...Дема Бобурга, нетарсен, бош олиб кетмакни?
Тенгрининг хости мундоқ эса, мен нетгаймен?

Яратганга ширк келтиришдан Ўзи асрасин, аммо байтингизда айтиб улгурибсизким, ҳар лаҳзада бу дунёда ғаниматлик либосини кийиб юргаймиз Сизу биз.

Ҳазратим отам! Ҳумоюн акам худди сиз васият қилгандек, қариндош- уруғлари, ака-укаларига меҳрибон бўлдилар. Онам ҳазратларини ҳар куни кўргани келардилар. Сиздин сўнг Моҳим онам кўп маҳзун бўлдилар ва узоқ яшамадилар. Улар оламдан ўтгач, Ҳумоюн акам гарчи подшоҳлик ташвишлари бисёр бўлсада, ҳамиша бизларнинг холларимиздан доимо хабар олиб турдилар. Айниқса мен ҳақирнинг уйимга кўп келардилар, етимлигим ва ёлғизлигимни асло билдирмадилар.

Подшоҳ ҳазратлари акам Ҳиндол мирзонинг тўйини шундоқ чиройли тарзда ўтказдики, отажон, қайтиб ҳеч бир бобурийга бундай тўй насиб этмади. Окажоним (Хонзодабегим)нинг қизлари Султоним бегим Ҳиндол

акамнинг жуфти ҳалоллари бўлдилар. Тўйда барча қариндошлар, аммаю холалар бари жам бўлдилар. Ҳазрати подшоҳ Ҳумоюн акам уларнинг мавқеларига қараб муомилада бўлдилар. Умр бўйи шундоқ қилишга ҳаракат қилдилар.

Аммо у кишининг ҳам илкидин кўп урушлару йўқотишлар бўлдиким, худди сиз каби баъзан ночор қолди. Ана шундоқ паллаларда уни йиллаб кўролмасдим. Соғинчларим юрагимни эзарди. Ёнида эмаслигимдин ўкинардим. Бир гал акам мени анча йиллиқ айриликдан сўнг кўриб ҳайратда қолдилар**. “Гулбадан, сени кўп эсга олар эдим, ҳар замондан кошки ўзимга ҳамроҳ қилиб олиб келган бўлсам дердим. Аммо тўполон бошланиб кетгач тангрига шукур қилардимки, яхшиям Гулбаданни қолдирганим деб”** дея мени соғинганини изҳор қиларди.

Мардлик, одамгарчилик, мурувват фазилатингизким, акам Ҳумоюнда ҳам бу бағрикенглик мужассам. Аммо бунинг учун у кўп қийналди. Бироқ сизнинг васиятингизга содиқ қолдилар. Эсингиздами, акамга “укаларингга меҳрибон бўл ” деб кўп тайинлардингиз. Улар айб иш қилсаларда, кечиришини уқтирардингиз. Шундоқ ҳам бўлди. Неча бор улар подшоҳ акамни қийин вазиятга солдиларки, айтишга тилим қийналур.

Энг аввало кичик акам Мирзо Аскарий у киши томонидан тортиқ қилинган Аҳмадободни ташлаб, Ёдгор мирзо билан бирлашиб Аграни олмоқ бўлдилар. Подшоҳ ҳазратлари уларни кечирдилар.

Мирзо Ҳиндол ҳам Ҳазратнинг энг ишончли кишиси Шайх Баҳлулни ўлдирди, бунинг учун ўзи уятга қолди.

Ҳумоюн акам Хиндолни кечирганлигини менга, Афғоний оғача, онам ва бошқа яқинларига айтиб Қуръон ушламоқчи бўлдилар. Ҳатто мендан акангни олиб келгин, дея сўрадилар. Ахийри Онам ҳазратлари ўртада воситачи бўлиб уларни яраштирдилар.

Афсуски, Ҳумоюн акамнинг баъзан ожизлик қилган чоғлари ҳам бўлди. Оқибатда Шерхон Сурга енгилиб, анча йиллар Ҳиндистондан ташқарида юрдилар. Шундай вақтларда Мирзо Комрон ҳам уни кўп қийнади. Мирзо Комрон ўзининг касаллигини баҳона қилиб мени зўрлик билан Лоҳурга олиб кетди. Бунинг учун подшоҳ ҳазратдан хафа бўлдим:

”Комрон кўп сўраттирди, шунинг учун рози бўлдим. Худонинг хоҳиши билан ишлар юришиб кетса, энг биринчи сени сўраттириб оламан” дея саломнома жўнатди.

Кейинроқ Мирзо Комрон акам ҳазратларини яна қийнадики, Қандаҳорни тўрт ой қамал қилиб, хутба менинг номимга ўқилсин дея, қистади. Аслида сизнинг васиятингизга кўра хутба фақат Ҳумоюн акамнинг номига ўқилар эди. Окажоним (Хонзодабегим- муаллиф) бунга гувоҳ бўлдилар. Барибир айтганларидан қолмадилар: “Акам келганларида унинг номига ўқилади, унгача менинг номимга ўқилсин” дея даъво қилдилар. Қандаҳор халқи қамалдан қийналиб кетган эди, хутбани у кишининг номига ўқиш зарур бўлди.

Подшоҳ акам Ҳумоюн севимли хотини Ҳамидабонудан ўғил фарзанд кўрган ва унга тушида аён бўлганида айтилган исм - Жалолиддин Муҳаммад Акбар деб қўйган эдилар. Аммо уни кўриб улгурмасиданоқ Жалолиддин Акбарни

Мирзо Комрон тутқунликда ушлаб турди. Яхшики кейин Акбарни окажоним (Хоназодабегим- муаллиф)га қайтардилар.

Ҳумоюн акам барибир инисини кечирдилар. Ва мен умр бўйи орзу қилгандек, яъни тўрт оға-ини – Ҳумоюн подшоҳ, Мирзо Комрон, Мирзо Аскарий, Мирзо Ҳиндол бир дастурхонда ўлтириб таомландилар. Ҳазрат акам мен ҳақирни ёд олиб **“Гулбаданбегим ҳамма биродаларимни бир ерда кўрсам эди”** деганди, мана шукурки, орзуси амалга ошди дея лутф қилибдилар. Бундин бағоят таъсирландим.

Ҳазратим отам! Сиздек буюк шоҳлик набирангиз Жалолиддин Акбарга насиб этмишким, кўп фазилатлари сиздин мерос ўтди. Ёшлик чоғиданоқ бутун Ҳиндистонни ўзига бўйсундирди. Бобурийлар салтанати Акбар даврида энг юксак даврни кўрди, десам муболаға эмас. Мен ҳақир қизингиз Гулбадан Сизнинг “Воқеанома” (Бобурнома - муаллиф)ингизга таяниб бир ишга қўл урдимки, бу набирангиз подшоҳи олийлари Акбаршоҳ томонидан фармон қилинган ишдир.

“Аҳволи Ҳумоюн подшоҳ”асарини битиш аввалида шундоқ ёздим:

“...гарчи бу воқеалар отам ҳазратларининг китоблари “Воқеанома”да ёзиб қолдирилган бўлса ҳам биз уларни табаррук қилиб келтирдик.”

Мен бу асарда энг аввало Сиз ҳақингиздаги беҳад азиз хотираларимни оқ қоғозга ёзишни афзал билдим. Янаки, ҳазрат подшоҳ Ҳумоюн акам ҳақинда ҳам. Чунки умрим давомида энг қадрлаганим, суйганим ва бошим тоқига кўтарганим сизлардирсизки, бу ҳақда ёзмоқдин беҳад

бахтиёрмен. Агар бу билан фарзандлик қарзимни оз бўлсада уза олган бўлсам қанийди..

Тарихчиларнинг ёзмишларича мен бу китобим ила бобурийлар ичида энг биринчи аёл ижодкор бўлибмен, яъни Қобул улуси ва Шимолий Ҳиндистонда машҳур тарихчилар ичида ягона аёл тарихчиси.

Бу бежиз эмаским, сиздек дилбар, нозик таъб, иқтидорли отанинг фарзандимен.

Ҳазратим Отам!

Сиз севган ва қадрлаган аёллар – каттабувингиз Эсон Давлат бегим, волидаи муҳтарамангиз Қутлуғ Нигор хоним, жон каби ардоқли жигарингиз –Хонзодабегим, севимли рафиқангиз – Моҳимбегим қаторида фарзанду аржумандингиз Гулбадан бегим бўлиб тилга олинишимдин ҳамиша фахрланамен.

Англадимки, сиздек Инсонлар ҳар замонда ҳам дунёга келмас, бир замонда келару, аммо ҳар замонларда ҳам яшайверар.

Сизни беҳад севувчи қизингиз Гулбадан бегим

Гулбадан бегимнинг хаёлий мактубини қоғозга туширувчи Матлуба Юсуф Охун

Изоҳ: Бобур мирзо умри сўнггида ўғли Ҳумоюндан “ота” деб аташини илтимос қилган. (Қаранг: П.Қодиров. “Юлдузлар тунлар”)

Ушбу бадиа З.М.Бобурнинг “Бобурнома”, Гулбадан бегимнинг “Ҳумоюннома”, Р.М.Годеннинг “Гулбадан”, П.Қодировнинг “Юлдузли тунлар” асарлари асосида ёзилди.



БОБУР

Замира Рўзиева, шоира

Тоза дилга ўз бўлди,
Тошдилга ўзга Бобур.
Гоҳ тўкилиб, гоҳ тўлди,
Қолди не сўзга Бобур.

Ворислик шул - шоҳ бўлди,
Ҳақ йўлинда оҳ бўлди.
Киргунча ўн иккидан
Беш карра юзга Бобур.

Ҳикмат унинг қайдлари,
Ашъорлари, байтлари.
Маст этди мисли гулоб,
Чалиб сибизға Бобур.

Сўз - яшнаган аланга,
Тафт тарқалди оламга.
Дарёлик туҳфа этди
Неча тош, музга Бобур.

Назмин қучди шашмақом,
“Бобурнома” хуш калом.
Ўйди сийрат, сувратин
Мангулик изга Бобур.

“Дилбар шахс” дея зарҳал,
Сўз битди Жавоҳарлаъл.
Ўзбакий новвот қуйди,
Ҳиндий оғизга Бобур.

Ҳиндда подшоҳ - тик туғи,
Лек руҳда соғинч чўғи.
О... Андижон... деб босди,
Манглайин тузга Бобур.

Кўнгил, ўзни ишққа бур,
Бўлсанг тоза, бўлсанг ҳур...
Тиззалаб ўп, гардин сур
Тўтиё кўзга Бобур.

Гумроҳликка чизиқ торт,
Мудроқ қавмни уйғот,
Ўқи, ўрган, ёд ол, ёд,
Илдиздир бизга Бобур.

М У Н Д А Р И Ж А

Ҳамидулла БОЛТАБОЕВ.
Бобуршоҳнинг вориси.....4

Эйжи МАНО.
Гулбаданбегимнинг “Ҳумоюннома”
асарида Бобурга оид муҳим маълумотлар.....10

Мирзо КЕНЖАБЕК.
Тарихий даврлар кўзгуси.....15

Алмаз Улви БИННЕТОВА.
Бобур асарлари – Озарбайжонда.....20

Абдумажид МАДРАИМОВ.
Покистонда Бобур меросининг ўрганилиши.....30

Шафиқа ЁРҚИН.
Севги - вафо тимсоли Чучук бегим 38

Зокиржон МАШРАБОВ, Боқижон МАТБОБОЕВ
Андижон - илк шаҳарсозлик маданияти тизимида.....42

Янгибой ҚЎЧҚОРОВ.
Донишмандниг тўқсонинчи довони.....51

Ислом ЖЕМЕНЕЙ.
“Фаришта тарихи” тўғрисида (Тафаккур ва фаҳм).....65

Омонулло БЎРИЕВ.
Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг бугунги издоши.....77

Жалолиддин ЖЎРАЕВ.
“Нафоис ул- маосир”тазкираси.....83

Бегижон АҲМЕДОВ.
Эзгуликка йўғрилган умр.....92

Сайёра ТЎРАЕВА.
“Бобурнома” - конлар ва ер ости маъданли сувлари –
чашмалар ҳақида маълумот берувчи манба.....96

Зера БЕКИРОВА.
Заҳириддин Муҳаммад Бобур –
қрим-татар адабиёти ва матбуотида.....107

Муаззам ДЕДАХАНОВА.
З.М.Бобур рубоийларида сўфиёна талқин.....112

Баҳромжон АБДУЛЛАЕВ.
Заҳириддин Муҳаммад Бобур:
мероси ва тарихшунослиги.....117

Қамчибек КЕНЖА.
“Хомхаёл”нинг рўёби 124

Авазбек МИРЗАЕВ.
“Бобурнома” - муҳим тарихий манба.....131

Дилсора Комил ФОЗИЛОВА.
Бобур Мирзо ижодида Ватан мавзуси.....136

Шуҳрат ҲОТАМОВ.
Бобур адабий мероси миллий ғурур ва ифтихор
намунаси сифатида.....140

Бахтияр МЭММЕДОВ.
Заҳириддин Муҳаммад Бобур ёдгорлиги -
умумтурк маданиятининг нодир ҳодисаси.....150

Дилором САЛОҲИЙ, Жамол МАВЛОНОВ.
Нодир қўлёзма.....156

Алишер МАМАЖОНОВ, Абдувоҳид АЛИШЕРОВ.
Юксак масъулиятли халқпарвар инсон.....165

Дилрабо ҚОЗОҚБОЕВА.
Бобур маснавийлари поэтикаси.....171

Ғулом МИРЗАЕВ.
Бобурийлар давлатининг
Ҳиндистон тарихидаги роли.....179

Назим СУЛЕЙМАНОВ.
З.М. Бобур ва Озарбайжон.....185

Зуҳрахон МАМАДАЛИЕВА.
Дарвешликдан амирлик сари.....188

Сарварбек МИРЗАЕВ.
“Бобурнома” Фарғона водийси тарихига
оид қимматли манба.....195

Наргис ХУШИЕВА.
Бобур тошбитиклари кашшофлари.....200

Давлатбек МУСАЕВ, Сардорбек СОБИРОВ.
Жаҳон тарихида “Бобурнома”.....205

Саодатхон ҚУРБОНОВА.
З. Машрабовнинг маънавий жасорати.....210

Азизжон ШАРИПОВ.
Амударё ҳавзасидаги кечув-гузарлар.....214

Муқаддас ТОЖИБОЕВА.
“Бобурнома” жуғрофий манба сифатида 230

Савлабек КИСТАУБАЕВ, Абдурасул АМАНЛАЕВ.
Темурийлар ва экологик тарбия.....238

Зиёда ТЕШАБОЕВА.
Ривоятда тарихий ва бадиий ҳақиқат талқини.....244

Муҳаммаджон ОХУНОВ.
“Бобурнома”да давлат бошқарувининг
айрим жиҳатлари.....248

Юлдуз КАРИМОВА.
Бобур Мирзо шахсияти ва ижоди Жадидлар нигоҳида.....253

Элмира ҲАЗРАТҚУЛОВА.
“Бобурнома” қандай жанрда яратилган?.....263

Йўлчи ХУДОЙҚУЛОВ.
Заҳириддин Муҳаммад Бобур–табиатшунос олим.....270

Ситора ТОЖИДДИНОВА.
Мирзо Бобурнинг сўзда сурат чизиш маҳорати.....275

Раъно ЙЎЛДОШЕВА.
“Бобурнома” – қомусий асар.....284

Малоҳат БАДАЛБОЕВА, Раъно БАДАЛБОЕВА.
“Юлдузли тунлар” асарида Бобур образи.....289

Шодия САФОЕВА.
“Бобурнома” асарида табиий фанларга
оид лексемалар таҳлили.....294

Ваҳоб РАҲМОНОВ.
Экспедиция.....299

Холида ШАМСИЕВА.
Боғи Бобур бўйлаб саёҳат 308

Матлуба ЮСУПОВА.
Изҳор.....315

Замира РЎЗИЕВА.
Бобур 328

БОБУР НОМЛИ ХАЛҚАРО ЖАМОАТ ФОНДИ

ЭЗГУЛИК ЙЎЛИ

БОБУР НОМЛИ ХАЛҚАРО ЖАМОАТ ФОНДИ ВА ИЛМИЙ ЭКСПЕДИЦИЯСИНИНГ 30 ЙИЛЛИГИГА БАҒИШЛАНАДИ

Муҳаррирлар:	Матлуба ЮСУПОВА, Холида ШАМСИЕВА
Техник муҳаррир:	Хамиджон Нуманов
Мусаҳҳиҳ:	Нигора Тожиматова
Саҳифаловчи:	Дониёр Бозорбоев

Ноширлик лицензияси AI № 175. 11.06.2010 йил.

Босмахонага 2022 йил 19 июлда берилди. Босишга 2022 йил 25 июлда рухсат этилди. Бичими 60x84 1/16. Ҳажми 21 босма табоқ. Нашриёт табоғи 10.25 Times New Roman гарнитураси, офсет қоғози. Офсет усулида чоп этилди. Буюртма № 590. Адади 150 нусха.

«Andijon nashriyot-matbaa»
МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Манзил: Андижон шаҳри, Навоий шоҳкўчаси, 71-уй.